

MAMARAJAB XO'JAMOV, MOYLI LAFASOV,
RA'NO MULLADJANOVA

TARIXIY O'LKASHUNOSLIK VA TURIZM



UO'K : 517.2
KBK: 22.161
A 31

Mamarajab Xo'jamov
Tarixiy o'lkashunoslik va turizm /, Moyli Lafasov,
Ra'no Mulladjanova/ O'quv qo'llanma. – Toshkent: “Innovatsiya-Ziyo”, 2021, 194 b.

Ushbu o'quv qo'llanmada Respublikamizda tarixiy o'lkashunoslik va turizmning tashkil etilish tarixi, mazmuni va metodlari, uning asosiy manbalari, o'lkamiz tarixiga oid arxeologiya, toponimika, etnografiya, jug'rofiya, muzey ishlari, arxivshunoslik, yozuvning paydo bo'lishi, O'zbekiston viloyatlarining tarixiy-madaniy yodgorliklari, o'lka tarixi va turizmini o'rganishda arxivlarning roli, o'lkashunoslik to'garaklari, shuningdek, turizm va uning turlari, yo'nalishlari, yurtimizning turistik joylari, ularning o'lka tarixi va rivojlanishidagi ahamiyati yoritib berilgan.

O'quv qo'llanma oliy o'quv yurtlari bakalavr bosqichi talabalari hamda o'lkashunoslik bilan qiziquvchi kitobxonlar ommasiga mo'ljallangan. Uni tayyorlashda yaqindan yordam bergan, ko'maklashganlarning barchasiga mualliflar o'zlarining samimiy minnatdochiliklarini bildiradilar.

Taqrizchilar:

Beruniy nomidagi Davlat mukofoti sovrindori, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi,
akademik A.Asqarov

Tarix fanlari nomzodi, dotsent E.Qosimov
Falsafa fanlari nomzodi, dotsent A.O'tamurodov
Tarix fanlari nomzodi, dotsent O'.Mansurov
Tarix fanlari nomzodi, dotsent I.Shodmonqulov

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining buyrug'iga asosan nashrga ruxsat etilgan.

ISBN 978-9943-6466-1-2

© Mamarajab X. va boshq., 2021.

© “Innovatsiya-Ziyo”, 2021.

KIRISH

Mustaqillikning xalqimizga bergan ulug' ne'matlaridan biri - o'zlikni anglashga, azaldan shu ona-zaminda istiqomat qilib kelgan ajdodlarimiz orzu etganiday, hur va ozod yashashga, yurtimizning buyuk istiqboli yo'lida zavq bilan hayot kechirish va mehnat qilishga sharoitni yuzaga keltirdi.

Endilikda bu o'lka nafaqat o'zbek xalqiga, unda yashayotgan turli millat vakillari uchun ham muqaddas oshyon, tabarruk diyordir.

Qadimshunos olimlarimiz e'tirof etganlariday, o'tmishi insoniyat ilk ajdodlarining vakillari yashagan uzoq tarixga tengdosh bo'lgan bu qadimiy va jozibali Vatanni, unda yashab, etno-madaniy rivojlanish, yuksalib borish barobarida dunyo tamadduni(sivilizatsiyasi)ning boyishiga samarali ta'sir ko'rsatgan buyuk allomalar, qahramonlarni voyaga yetkazgan xalqimizning o'tmishini ro'y-rost o'rganishga, hozirgi hayoti bilan yaqindan tanishishga keng imkoniyatlar paydo bo'ldi. Zero, Vatanimizning boy tarixini, xalqimizning bunyodkorlik salohiyati va kuch-qudratiga daxldor asosli dalillar bilan tanishib borish orqaligina kishilarda ularni qadrlashga ishtiyoq, ardoqlashga doir maqsad kamol topadi. Shu jihatdan olganda "Vatan ostonadan boshlanadi", "Vatanparvarlik o'z o'lkasini o'rganishdan boshlanadi, - deya aytiladigan naqlarnng zamirida esa asosli haqiqat va hikmatlar bor.

Haqiqatan, bu o'lkada ota-bobolarimiz, ajdodlarimizning aql-zakovati, mahoratli qo'llari bilan, ayniqsa IX-XII, XIV-XVII asrlar davomida kishi aqlini lol qoldiradigan darajada nafis va nozik qilib ishlangan naqshlar qadimiy va navqiron Samarqand, Buxoro, Xiva kabi shaharlarning mahobatli devorlarida yorqin ko'rinishda o'z aksini topgan. Davr ruhiga monand uslublarda barpo etilgan muhtasham binolar va ulardagi sharqona uslubga xos o'ymakorlik naqshlari o'z taraqqiyotining yuksalish bosqichiga ko'tarilganidan guvohlik beradi. Shu bilan bir qatorda islmiy uslubda ishlangan naqshlar, ya'ni gul va novdalarning murakkab uslubdagi naqshinkor ko'mishlari hamda hozirga qadar yaxshi saqlanib kelayotgan tillada qorib ishlangan boshqa bezaklar ajdodlarimiz yuksak san'atining timsoli sifatida bugun ham barchaning e'tiborini o'ziga jalb etib kelmoqda.

Qadimgi va o'rta asrlar me'morchilik obidalarini saqlash, o'rganish va muhofaza qilish ishlariga doimiy ravishda e'tibor bilan qarash hozirgi zamon yosh avlodida, mehnatkashlarda vatanparvarlik ruhiyatini oshirishda, xalqlar o'rtasidagi o'zaro do'stlik, hamkorlik munosbatlarini mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega.

O'quv qo'llanmada o'zbek xalqining tarixiy taraqqiyotini, moddiy va ma'naviy yodgorliklarini tarixiy o'lkashunoslikning asosiy manbalari bo'lgan arxeologiya, etnografiya, toponimika, arxivshunoslik va muzey eksponatlari orqali o'rganilishi berilgan.

Shuningdek, o'lkada turizm (sayyohlik)ning shakllanishi, rivoji va istiqbollarga doir bo'lgan masalalarning yoritilganligi muhimdir.

Tabiiyki, har bir oila, elat, xalq yoki millat vakillari o'zlarining tarixiy taraqqiyot davrini, shuningdek, o'z ajdodlarining nomini, yetti qavmining kelib chiqishini, bosib o'tgan yo'llari, qaysi urug', qaysi avlodning davomchilari ekanliklarini bilishlari lozim. Etnografik mazmun-mohiyat kasb etadigan bu kabi milliy an'analar albatta har bir xalq va millatning o'z-o'zini anglashida, asrlar davomida kashf etib qoldirilgan moddiy va ma'naviy merosni ko'z qorachig'idek saqlab, ularni yangi ma'no va mazmun bilan boyita borishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Mana shu muammolarni ilmiy-nazariy, metodik, pedagogik va didaktik jihatdan o'rganishda Oliy ta'lim tizimida "Tarixiy o'lkashunoslik va turizm" fani o'qitilib kelmokda.

Ta'lim-tarbiya nazariyasi va amaliyotida shu narsa sir emaski, umumta'lim maktablaridami, O'MKHT(O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi) tizimidami yoki bakalavriat, magistraturada biron kurs yoki fandan saboq berishni joriy etishdan oldin uning zarurati anglab olinadi. Bo'lajak pedagog mutaxassislarni tayyorlashda "Tarixiy o'lkashunoslik va turizm"ni, ayniqsa, jahon miqyosida "iqtisodiy inqiroz kechayotgan" bir paytda bu fanni O'zbekiston sharoitida o'qitilishi uning ilmiy-nazariy va metodologik asosini har tomonlama puxta ishlab chiqishni taqozo qiladi.

O'quvchilarni o'zi tug'ilib o'sgan o'lka tarixi bilan yaqindan tanishtirib borish ularda nafaqat tarixiy tushunchalarni, ayni vaqtda jug'rofik, ekologik, tabiatshunoslikka oid tushunchalarni ilmiy va amaliy jihatdan shakllanishida muhim ahamiyatga ega.

Tarixiy o'lkashunoslik va turizm ishlarini to'g'ri tashkil etish o'lka tarixini o'rganish jarayonida, ayniqsa milliy istiqloq g'oyasi, iqtisodiy jug'rofiya, "shaxs va jamiyat", ekologiya fanlarini o'zaro bog'lab (integratsion holda) o'rganishni yanada takomillashtirishda muhim ilmiy-metodik va didaktik ahamiyat kasb etadi.

O'lka bo'ylab sayohat va ekskursiyalar o'quvchilarga o'lka tarixini har tomonlama mukammalroq o'rganish imkoniyatlarini beradi. Ayni vaktida bunday amaliy faoliyatlarda jarayonida o'quvchilar orasida erkin, tabiiy muloqot muhiti yuzaga keladi. Bu esa, o'z navbatida pedagogga o'z o'quvchisining axloqiy sifatlari va ma'naviy dunyosini yanada yaqinroqdan o'rganish uchun keng imkoniyatlarni yaratib beradi.

O'lkashunoslik va turizm ishlari bilan atroflicha shug'ullanish o'quvchilarning mustaqil ishga o'ziga xos individuallik bilan yondashuvi va o'z qobiliyatlarini rivojlantirib borishlariga ham yordam beradi. Shuningdek, sayohatlar davomida ishchilar, hunarmandlar va boshqa turli kasb egalarini diqqat bilan kuzatishlari natijasida ularda ma'lum sohalarga qiziqishlarning paydo bo'lishi, kelajakda ongli ravishda biror kasbni tanlashga ishtiyoqning uyg'onishi tabiiydir. Yana shu narsa muhimki, o'qituvchi ekskursiya jarayonida o'quvchilarni

psixologik jihatdan ijtimoiy-foydali mehnatga ham tayyorlab borishga alohida e'tibor bermog'i lozim.

Maktab o'lkashunosligining tabiatni muhofaza etishdagi roli va o'mi alohida ahamiyat kasb etadi. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XI bob 50-moddasida "Fuqarolar atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishga majburdirlar", - deya qayd etilgani ham o'qituvchi uchun bu masala o'quvchilar bilan tabiatni muhofaza qilish borasida olib boradigan pedagogik faoliyatining asosini tashkil etishini ko'rsatadi.

O'lkashunoslik va turizm ishining ilmiy-metodik jihatdan to'g'ri yo'lga qo'yilishidagi muhim bir jihat shuki, u ham bo'lsa, fan orqali yoshlarda estetik didni atroflicha shakllantirishida namoyon bo'ladi. Tarixiy yodgorliklar va zamonaviy inshootlarni kuzatish, sinchiklab o'rganish barobarida tabiat bo'ylab sayr-sayohatlar o'quvchilarda ularga bo'lgan katta qiziqishlarni uyg'otishi bilan birga tabiat sirlariga mukammalroq kirib borib, uning takrorlanmas hayotiy go'zalliklarini his etishlariga olib keladi.

O'lka bilan tanishuv orqali o'quvchilarda o'zi tug'ilib o'sgan joy – Vatan haqida, uning uzok-yaqin tarixi, xalqning bunyodkorlik salohiyati, ijodkorligi to'g'risida yaqqolrok tasavvur paydo bo'ladi va bularning barchasi bir umrga ularning yodida saqlanib qoladi. Bu esa o'z navbatida yoshlarimizni o'zligini anglashida, milliy istiqlol g'oyasi asosida tarbiyalanishida hamda ularda milliy tafakkurning shakllanishida muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

Shuni alohida qayd etmoq lozimki, o'lkashunoslik va turizm ham o'quvchida, ham o'qituvchida tadqiqot yusinidagi ilmiy-pedagogik faoliyatni shakllanishi va rivojlanishiga ijobiy ta'sir etadi.

Maktab o'lkashunosligi birinchi galda o'quvchilarda ilm olishga ishtiyoqni, ularni o'rab olgan atrof-dunyoga katta qiziqish bilan qarashni, ilmiy-amaliy tadqiqotlarga mayllikni shakllatiradi hamda o'zlari yashab, unib-ulg'ayib borayotgan hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy va tarixiy tarqqiyotiga daxldorlik tuyg'usining qaror topishida muhimdir.

Tabiiyki, bunda o'qituvchidan nafaqat o'z fanini yaxshi bilishini, ayni vaqtda, tarixiy o'lkashunoslik va turizm bo'yicha ilmiy-metodik va didaktik bilimlarini yosh avlodga eng samarali metodlar vositasida yetkazib berish tajribasini egallashi talab etiladi.

O'tmish bilan bugungi kun o'rtasida vorisiylik qonuni mavjud. O'tmishni o'rganmasdan turib, bugungi kun va kelajakning mohiyatini chuqur anglab bo'lmaydi. Demak, ular bir-biri bilan ko'zga ko'rinmas rishtalar bilan bog'langan. Shundan kelib chiqqan holda tarixiy o'lkashunoslik va turizm faniga mintaqamiz xalqlari tomonidan yaratilgan madaniy yodgorliklarni, ma'naviy-ma'rifiy merosni avaylab-asrashga, ularni yanada boyitib, rivojlantirishga xizmat qiluvchi fan sifatida ham qarashimiz zarur.

Ushbu o'quv qo'llanmaning xronologik doirasi qadimdan to bugungi kunimizgacha qamrab olingan bo'lib, unda kam o'rganilgan ma'naviy va ma'rifiy qadriyatlarimizning yuksalish qonuniyatlari tarixiy, falsafiy, etnopsixologik, toponimik nuqtai nazardan yondashgan holda o'rganiladi, o'lkashunoslik materiallarining muzey va arxivlarda saqlash yo'llari va uslublari tahlil qilinadi.

Demak, fan oldida turgan mas'uliyat juda katta, chunki yosh avlodni ma'naviy jihatdan yetuk, barkamol inson bo'lib shakllanishida "Tarixiy o'lkashunoslik va turizm" faniga ehtiyoj tobora ortib bormoqda.

Vatan - ostonadan boshlanadi. Xalqimiz tarixiy, madaniy merosining qadriga yetmagan inson, o'zgarlar qadriyatini hurmat qilolmaydi. Ona-zamin mahsulidan bahramand bo'lib, uni ulug'lashga o'rganish o'lkani o'rganishdan boshlanadi. Inson yurt kezib elni e'zozlashni, elni bilib, meros qadriini anglaydi. Ajdodlar vasiyatiga sodiq va munosib bo'lib shakllanadi. Bu esa o'lka bo'ylab sayr-sayohatlarga bo'lgan ehtiyojning ortib borishini ko'rsatadi.

Mamlakatimizda sayr-sayohatni rivojlantirish uchun ulkan imkoniyatlar mavjud. Ayniqsa Samarqand, Buxoro, Xiva, Termiz, Shahrisabz, Toshkent, Quva, Axsikat kabi shaharlarimiz butun dunyoga mashhur. O'lkamiz tabiati, iqlim-sharoiti qishin-yozin sayohatchilarni qabul qilish imkonini beradi.

Turizmning hozirgi rivojlanish darajasi esa uning mavjud salohiyatidan samarali foydalanishni taqozo etmoqda. Hozirda esa bor yo'g'i uning 12-15 foizidagina foydalanilmoqda xolos. Bu yo'nalish bo'yicha kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish, o'quv markazlarini tashkil etish va sayyohlarga xizmat ko'rsatish sohalarini zamon talablari darajasida tashkil etishni keng yo'lga qo'yish dolzarb masalalardan biri bo'lib turibdi.

Mazkur qo'lanma maxsus dastur asosida ishlab chiqilgan dastlabki o'quv qo'llanmasi bo'lganligi uchun unda ba'zi kamchiliklar bo'lishi tabiiy.

Shunday ekan, biz mualliflar Oliy ta'lim muassasalari bakalavrlari uchun tayyorlangan ushbu qo'llanma to'g'risida aziz mushtariylarning xolisona bildirilgan har qanday taklif-mulohazalarini kutib qolamiz.

I BOB. TARIXIY O'LKASHUNOSLIK VA TURIZMNING RIVOJLANISHI, ASOSIY MANBALARI VA YOZUVLAR TARIXI

1- mavzu: "Tarixiy o'lkashunoslik va turizm" fanining predmeti, rivojlanish bosqichlari

Reja:

1. "Tarixiy o'lkashunoslik va turizm" faniga kirish, uning predmeti hamda turlari.
2. O'lkashunoslikning rivojlanishi.
3. Mahalliy tadqiqotchilik.

Tarixiy o'lkashunoslik va turizm fanining predmeti: O'lka va xalq o'tmishini, uning eng qadimgi davrlardan to hozirga qadar ijtimoiy - iqtisodiy, siyosiy va madaniy jihatdan rivojlanib borishining eng muhim jihatlari, ya'ni: o'lkada ilk insoniyat manzilgohlari, turmush tarzi, urug', qabila, elat va millatning etnomadaniy rivojlanishi, qishloq, shahar, davlatlarning shakllanishi va taraqqiyoti, tarixiy yodgorliklar, muqaddas qadamjoylar, ularning nomlari bilan bog'liq o'lka toponimikasini, turizmning rivojlanish tarixi va bugungi ahvolini, respublikamiz mustaqillikka erishuvidan keyin amalga oshirilayotgan ulkan bunyodkorlik ishlarini o'rganish, tadqiq va targ'ib etishdan iborat.

Tarixiy o'lkashunoslik va turizm fanining maqsadi: O'lka va xalq tarixini chuqur o'rganish, o'quvchilarda madaniy merosdan fahrlanish tuyg'usini uyg'otish, qadriyatlarimizga sodiqlik, uni chet ellik sayyohlarga faxr bilan ayta olish ruhini singdirish va shular orqali Vatanga va xalqqa bo'lgan muhabbatni yanada oshirishga qaratilgan. Shuningdek xalqimiz tarixini, uning rivojlanib borishi jarayonlarini, muhim ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotga doir tafsilotlarini tushuntirish orqali ularda moziyga hurmat, istiqloq g'oyalariga sadoqat, bugungi mustaqillik bergan ozodlikni, huquqni qadrlash bilan bog'liq tushuncha va tuyg'ularni shakllantirishdan iborat.

Tarixiy o'lkashunoslik va turizm fanining vazifasi: Vatanimiz tarixini, uning eng qadimgi davrlardan to hozirgacha bo'lgan davrini, joylardagi ma'naviy va moddiy yodgorliklarni **arxeologik, etnografik materiallar, toponimik ma'lumotlar, arxivshunoslik hujjatlari, muzey eksponatlari va turizmga doir tushunchalar** orqali tadqiq va targ'ib etishdan iborat. Shu bilan birgalikda o'quvchi-talabalarda Vatanga muhabbat, o'zi tug'ilib o'sgan yurtga hurmat-izzat, boshqa xalqlar qadriyatlariga nisbatan ehtiromni shakllantirishga qaratilgan.

Tarixga nazar tashlasak, o'z o'lkasini sevib, uning tuprog'ini ardoqlagan ajdodlarimiz - xalqimiz ko'z o'ngimizda namoyon bo'ladi. Zardo'shtiylikning muqaddas kitobi - "Avesto"da ham ta'kidlanganidek:

“Har bir inson uchun o‘zi tug‘ilib o‘sgan zamin, mamlakatni muqaddas bilmog‘i shartdir”. Shuning uchun ham Vatanni sevmog‘i iymondandir, deymiz. Zotan, ona yurt farzandlari uchun Vatanni sevish, uning tarixini o‘rganish, dilga jo etish muqaddas burchdir.

O‘lkashunoslik o‘zining tashkiliy shakliga ko‘ra quyidagi turlarga bo‘linadi:

O‘lkashunoslikning turlari:

1) davlat o‘lkashunosligi;

2) jamoat o‘lkashunosligi;

3) maktab o‘lkashunosligi;

4) akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o‘lkashunosligi.

O‘lkashunoslikning har 4 turi o‘zaro bir-biriga aloqador bo‘lib, biri ikkinchisini to‘ldiradi.

Davlat o‘lkashunosligida respublikada Madaniyat va sport ishlari vazirligi, uning tarixiy va madaniy yodgorliklarni muhofaza qilish hamda ulardan foydalanish qo‘mitasi, muzeylar, Respublika Fanlar akademiyasi qoshidagi Tarix va Arxeologiya institutlari o‘lkashunoslikning ilmiy tadqiqoti bilan shug‘ullunadi.

Jamoat o‘lkashunosligi qishloq, tuman, shahar va viloyat hududidagi tarixiy obidalarni saqlash va asrash ishlarini uyushtirish, tashkil etish bilan birga, joylarda istiqomat qilib turgan xalqlarning kelib chiqishi (etnogenezi), urf-odatlarini o‘rganadi hamda mashhur shaxslar, Mehnat Qahramonlari xotirasini abadiylashtirish uchun haykallar, mangu olov, hurmat taxtalari tashkil qilishda mahalliy hokimiyatga yordam beradi. Jamoat o‘lkashunosligi jamoasi safida tanga-pullarni o‘rganuvchi havaskor mutaxassislar - **numizmatlar**, muhrlarni o‘rganuvchilar - **sfragistlar**, tamg‘a (gerb)larni o‘rganuvchilar - **geraldistlar**, tosh, metal, sopol va yog‘ochdagi yozuvlarni o‘rganadigan olimlar - **epigrafistlar**, eski asbob-uskunalar va qurol-aslaha hamda shu kabilarni to‘plovchilar ham uyushadi.

Maktab o‘lkashunosligi esa maktablarda tarix, shaxs va jamiyat, geografiya fani o‘qituvchilarining bevosita rahbarligida tashkil qilinadi. Maktab o‘lkashunosligining a‘zolari V-IX sinflarning eng faol, a‘lochi o‘quvchilaridan tuzilib, ular o‘lkaga oid materiallarni to‘rt guruhga bo‘lingan holda to‘playdilar. To‘plagan arxeologik, etnografik, toponimik ma‘lumot va materiallar va arxiv hujjatlari maktab o‘lkashunoslik va tarix muzeylarida namoyish qilib boriladi.

Maktab o‘lkashunosligida ta‘lim-tarbiya turmush, ishlab chiqarish, yangi jamiyat qurish tajribasi bilan uzviy bog‘liq holda o‘rgatiladi. O‘qitish jarayonida o‘lka materiallaridan o‘rinli foydalanish o‘quvchilarning o‘z o‘lkasi tarixini o‘rganib, chuqur bilim olishiga, mustaqil ijod qilishiga yordam beradi hamda kasblarga bo‘lgan qiziqishlarini orttirib, kelgusi hayot yo‘lini tanlab olishlariga yordam beradi.

Maktab o‘lkashunosligi **ikkita qismdan iborat bo‘lib,** o‘quv

jarayonida (o'quv dasturi asosida) va dasturdan tashqari (maktabning tarbiyaviy ishlar rejasiga ko'ra) amalga oshiriladi. O'quv jarayonida (sinfda) olib boriladigan o'lkashunoslik ishlari ham **ikki maqsadni** ko'zlaydi. **Birinchisi** – o'z o'lkasining o'tmishini arxeologik, etnografik, toponimik materiallar, qo'lyozma asarlar va arxiv hujjatlari asosida o'rganish va o'lkashunoslik materiallarini bir tizimga solish bo'lsa, **ikkinchisi** - to'plangan o'lkashunoslik materiallaridan tarix hamda shaxs va jamiyat darslarida foydalanish. Sinfda olib boriladigan o'lkashunoslik ishlarida barcha o'quvchilarning ishtirok etishi tabiiydir. Maktabdan tashqari olib boriladigan o'lkashunoslik ishlari, ya'ni, sayohatlar, arxeologik ilmiy safarlarda esa O'zbekiston Fanlar akademiyasi Tarix hamda Arxeologiya institutining tavsiyasi bilangina shu ishga layoqatli o'quvchilar ishtirok etadilar.

Taniqli o'lkashunos olim A.S.Barkovning fikricha, o'lkashunoslik xususida gap borganda unga maktablarda o'qitiladigan alohida fan sifatida qarab kelingan. A.S.Barkov, - "o'lkashunoslik - bu ilmiy fanlar majmuasi bo'lib, mazmuni va tadqiqot qilishning xususiy metodlari va turli yo'nalishlarga ega bo'lgan, lekin avlat qurilishi manfaati yo'lida o'lkani har tomonlama (kompleks) o'rganilishini taqozo etadigan fan"¹ - deya ta'kidlagan edi.

Maktab o'lkashunosligida asosiy ishlar o'qituvchi rahbarligi ostida aniq reja va maqsadlar sari faoliyat olib boradigan o'quvchilar guruhiga bog'liq bo'ladi. Shuningdek, o'lkani o'rganish bilan mahalliy aholi, sayyohlar ham shug'ullanishlari mumkin. Tuman, viloyat madaniyat uylari, turli klublar ham bu sohada faoliyat ko'rsatadilar.

Maktab o'lkashunosligining mohiyati shundan iboratki, unda o'quvchilar o'z o'lkalarining ma'lum hududini bevosita o'qituvchilari rahbarligida har tomonlama o'rganadilar.

Maktab o'lkashunosligi jamoat o'lkashunosligidan shunisi bilan farqlanadiki, u faqatgina o'qituvchilar tashabbusida amalga oshirilib, maktab oldiga qo'ygan o'quv-tarbiyaviy ishlarni davr talablari darajasida uyg'unlikda olib borishga xizmat qiladi.

O'qituvchi o'quvchilarning o'lkashunoslik ishlariga rahbarlik qilishdan oldin har bir fan dasturining talabi, sinfdagi o'quvchilarning qiziqishlari, u yerda olib boriladigan o'lkashunoslik ishlarining yo'llari va metodlarini oldindan har tomonlama o'rganib, aniq rejalab olgan bo'lmog'i kerak. Shuning uchun ham maktab o'lkashunosligining samaradorligi, uni tashkil etib boshqarayotgan o'qituvchining ta'limni qanday egallaganligi va uni boshqarish mahoratiga bog'liq bo'ladi.

O'qituvchi o'quvchini o'zi o'rganayotgan o'lkasini yaxshi, atroflicha bilib olishga, uni doim tizimli ravishda, oddiydan - murakkabga qarab o'rganib borishga yo'llaydi. Ayni vaktida maktab o'lkashunosligi o'qituvchining pedagogik mahoratini

¹ A.C. Барков, Вопросы методики и истории Краеведения. Москва, Изд-ва АПН РСФСР, 1962, стр. 67

“Har bir inson uchun o‘zi tug‘ilib o‘sgan zamin, mamlakatni muqaddas bilmog‘i shartdir”. Shuning uchun ham Vatanni sevmog‘i iymondandir, deymiz. Zotan, ona yurt farzandlari uchun Vatanni sevimlik, uning tarixini o‘rganish, dilga jo etish muqaddas burchdir.

O‘lkashunoslik o‘zining tashkiliy shakliga ko‘ra quyidagi turlarga bo‘linadi:

O‘lkashunoslikning turlari:

1) davlat o‘lkashunosligi;

2) jamoat o‘lkashunosligi;

3) maktab o‘lkashunosligi;

4) akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o‘lkashunosligi.

O‘lkashunoslikning har 4 turi o‘zaro bir-biriga aloqador bo‘lib, biri ikkinchisini to‘ldiradi.

Davlat o‘lkashunosligida respublikada Madaniyat va sport ishlari vazirligi, uning tarixiy va madaniy yodgorliklarni muhofaza qilish hamda ulardan foydalanish qo‘mitasi, muzeylar, Respublika Fanlar akademiyasi qoshidagi Tarix va Arxeologiya institutlari o‘lkashunoslikning ilmiy tadqiqoti bilan shug‘ullunadi.

Jamoat o‘lkashunosligi qishloq, tuman, shahar va viloyat hududidagi tarixiy obidalarni saqlash va asrash ishlarini uyushtirish, tashkil etish bilan birga, joylarda istiqomat qilib turgan xalqlarning kelib chiqishi (etnogenezi), urf-odatlarini o‘rganadi hamda mashhur shaxslar, Mehnat Qahramonlari xotirasini abadiylashtirish uchun haykallar, mangu olov, hurmat taxtalari tashkil qilishda mahalliy hokimiyatga yordam beradi. Jamoat o‘lkashunosligi jamoasi safida tanga-pullarni o‘rganuvchi havaskor mutaxassislar - **numizmatlar**, muhrlarni o‘rganuvchilar - **sfragistlar**, tamg‘a (gerb)larni o‘rganuvchilar - **geraldistlar**, tosh, metal, sopol va yog‘ochdagi yozuvlarni o‘rganadigan olimlar - **epigrafistlar**, eski asbob-uskunalar va qurol-aslaha hamda shu kabilarni to‘plovchilar ham uyushadi.

Maktab o‘lkashunosligi esa maktablarda tarix, shaxs va jamiyat, geografiya fani o‘qituvchilarining bevosita rahbarligida tashkil qilinadi. Maktab o‘lkashunosligining a‘zolari V-IX sinflarning eng faol, a‘lochi o‘quvchilaridan tuzilib, ular o‘lkaga oid materiallarni to‘rt guruhga bo‘lingan holda to‘playdilar. To‘plagan arxeologik, etnografik, toponimik ma‘lumot va materiallar va arxiv hujjatlari maktab o‘lkashunoslik va tarix muzeylarida namoyish qilib boriladi.

Maktab o‘lkashunosligida ta‘lim-tarbiya turmush, ishlab chiqarish, yangi jamiyat qurish tajribasi bilan uzviy bog‘liq holda o‘rgatiladi. O‘qitish jarayonida o‘lka materiallaridan o‘rinli foydalanish o‘quvchilarning o‘z o‘lkasi tarixini o‘rganib, chuqur bilim olishiga, mustaqil ijod qilishiga yordam beradi hamda kasblarga bo‘lgan qiziqishlarini orttirib, kelgusi hayot yo‘lini tanlab olishlariga yordam beradi.

Maktab o‘lkashunosligi **ikkita qismdan iborat bo‘lib**, o‘quv

jarayonida (o'quv dasturi asosida) va dasturdan tashqari (maktabning tarbiyaviy ishlar rejasiga ko'ra) amalga oshiriladi. O'quv jarayonida (sinfda) olib boriladigan o'lkashunoslik ishlari ham **ikki maqsadni** ko'zlaydi. **Birinchisi** – o'z o'lkasining o'tmishini arxeologik, etnografik, toponimik materiallar, qo'lyozma asarlar va arxiv hujjatlari asosida o'rganish va o'lkashunoslik materiallarini bir tizimga solish bo'lsa, **ikkinchisi** - to'plangan o'lkashunoslik materiallaridan tarix hamda shaxs va jamiyat darslarida foydalanish. Sinfda olib boriladigan o'lkashunoslik ishlarida barcha o'quvchilarning ishtirok etishi tabiiydir. Maktabdan tashqari olib boriladigan o'lkashunoslik ishlari, ya'ni, sayohatlar, arxeologik ilmiy safarlarda esa O'zbekiston Fanlar akademiyasi Tarix hamda Arxeologiya institutining tavsiyasi bilangina shu ishga layoqatli o'quvchilar ishtirok etadilar.

Taniqli o'lkashunos olim A.S.Barkovning fikricha, o'lkashunoslik xususida gap borganda unga maktablarda o'qitiladigan alohida fan sifatida qarab kelingan. A.S.Barkov, - "o'lkashunoslik - bu ilmiy fanlar majmuasi bo'lib, mazmuni va tadqiqot qilishning xususiy metodlari va turli yo'nalishlarga ega bo'lgan, lekin avlat qurilishi manfaati yo'lida o'lkani har tomonlama (kompleks) o'rganilishini taqozo etadigan fan"¹ - deya ta'kidlagan edi.

Maktab o'lkashunosligida asosiy ishlar o'qituvchi rahbarligi ostida aniq reja va maqsadlar sari faoliyat olib boradigan o'quvchilar guruhiga bog'liq bo'ladi. Shuningdek, o'lkani o'rganish bilan mahalliy aholi, sayyohlar ham shug'ullanishlari mumkin. Tuman, viloyat madaniyat uylari, turli klublar ham bu sohada faoliyat ko'rsatadilar.

Maktab o'lkashunosligining mohiyati shundan iboratki, unda o'quvchilar o'z o'lkalarining ma'lum hududini bevosita o'qituvchilari rahbarligida har tomonlama o'rganadilar.

Maktab o'lkashunosligi jamoat o'lkashunosligidan shunisi bilan farqlanadiki, u faqatgina o'qituvchilar tashabbusida amalga oshirilib, maktab oldiga qo'ygan o'quv-tarbiyaviy ishlarni davr talablari darajasida uyg'unlikda olib borishga xizmat qiladi.

O'qituvchi o'quvchilarning o'lkashunoslik ishlariga rahbarlik qilishdan oldin har bir fan dasturining talabi, sinfdagi o'quvchilarning qiziqishlari, u yerda olib boriladigan o'lkashunoslik ishlarining yo'llari va metodlarini oldindan har tomonlama o'rganib, aniq rejalab olgan bo'lmog'i kerak. Shuning uchun ham maktab o'lkashunosligining samaradorligi, uni tashkil etib boshqarayotgan o'qituvchining ta'limni qanday egallaganligi va uni boshqarish mahoratiga bog'liq bo'ladi.

O'qituvchi o'quvchini o'zi o'rganayotgan o'lkasini yaxshi, atroflicha bilib olishga, uni doim tizimli ravishda, oddiydan - murakkabga qarab o'rganib borishga yo'llaydi. Ayni vaktida maktab o'lkashunosligi o'qituvchining pedagogik mahoratini

¹ A.C. Барков, Вопросы методики и истории Краеведения. Москва, Изд-ва АПИИ РСФСР, 1962, стр. 67

sayqal topishida ham katta ahamiyatga ega.

O'quvchilar bilan o'lkashunoslik ishlarini yuqori ta'lim-tarbiyaviy darajada olib borish, ya'ni, o'quvchilarga zaruriy bilimlarni aniq raqamlar, daliliy manbalar, ko'rgazmali qurollar vositalari asosida yetkazib berish ularning bilim-saviyasi, tasavvur va tushunchalarini oshuviga xizmat qiladi. Tarixiy ulkashunoslik va turizm fani o'qituvchi uchun o'quvchilarning ta'lim-tarbiyasi bo'yicha ilmiy-pedagogik tadqiqot olib borishning eng muvofik yo'li va ob'ekti hisoblanadi.

Ta'lim tarixi tajribasi shundan dalolat beradiki, O'zbekiston xalqlari tarixini mahalliy (tuman, viloyat, respublika) o'lkashunoslik materiallarisiz va ularning asosiy manbalari: arxeologik, etnografik materiallar, toponimik ma'lumotlar, arxiv hujjatlari va muzey ashyolarisiz, shuningdek, bu boradagi davriy matbuot axborotlari va boshqa tarixiy manbalarsiz ijobiy natijalarga erishuvini ta'min etib bulmaydi. Buning uchun birinchi galda oliy ta'lim muassasalari tarix fakultetlarida talabalar va mahalliy maktab tarix o'qituvchilari uchun tizimli ravishda seminarlar o'tkazilishi, tuman, shahar, viloyat tarix va o'lkashunoslik muzeylariga sayohatlar uyushtirilishi, tarixiy o'lkashunoslik muzeylarida ma'ruzalar tashkil etilishi lozim. Bunday tadbirlarga talabalar bilan birga tuman umumta'lim maktablari, akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari tarix fani o'qituvchilarini jalb etilishi ayni muddaodir. Ana shunday ishlar bajarilgandagina ta'limning real hayot, turmush bilan aloqasini mustahkamlashga, boshqacha qilib aytganda ta'lim-tarbiyani uzviy ravishda - ham nazariy, ham amaliy jihatdan uyg'unlikda amalga oshirish imkoniyati yaratiladi.

Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o'lkashunosligiga o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimi o'quvchilari, ya'ni I - III kurslarning faol, iqtidorli talabalari jalb etiladi. Ularga Tarix, Milliy g'oya, Davlat va huquq asoslari fanlari o'qituvchilari rahbarlik qiladi. Bunda talabalar ayni vaqtda nafaqat o'qib-o'rganadilar, balki dastlabki ilmiy izlanishlarni ham olib boradilar.

Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o'lkashunosligi o'quvchilarni tarix hamda shaxs va jamiyat, Milliy g'oya, Davlat va huquq asoslari va boshqa fanlardan olgan bilimlarini kengaytiradi va oydinlashtiradi. Bularning barchasi esa turli fanlar o'rtasidagi o'zaro aloqadorlikni ta'minlashga ham xizmat qiladi.

Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o'lkashunosligi tarixiy obidalarni saqlash va himoya qilish, qadimiy manzilgohlarni topishda ham katta rol o'ynaydi va o'quvchilarni mustaqil ishlash, ijod qilishga o'rgatadi.

O'rta asrlar va yangi davrda o'lkamizning o'rganilishi. Temuriylar davri. Vatanimiz o'tmishini tarixiy manbalar asosida tahlil etar ekanmiz, bu borada davlat arboblarning ham ko'pgina fikr-mulohazalari yodga keladi.

Temuriylar tarixiga murojaat qilsak, Temur 1370 yil ramazon oyining 10 kunida Balxda yig'ilgan qurultoyda Movarounnahr hukmdori deb e'lon qilinishi bilan, u oldin Keshga, keyin davlat poytaxti deb e'lon qilingan Samarqandga

keldi.

Amir Temur nima uchun o'z davlatining poytaxti etib Kesh, Toshkent, Buxoro yoki boshqa shaharni emas, aynan Samarqandni sayladi, degan savol paydo bo'lishi tabiiydir. Darhaqiqat, Sohibqironida bunday qarorga kelish uchun muhim sabablar bor edi. Chunki, Samarqand jug'rofiy jihatdan qulayliklarga ega bo'lib, Movarounnahming o'rtasida joylashgan. U sersuv va uch taraflama tog'lar bilan o'ralgan. Daraxtzor vodiy, adir qo'shilib, xushmanzarali, xushtabiatli, orombaxsh iqlimi barqarordir.

Samarqand juda katta qurilish materiallari hamda qimmatbaho, rangli va nodir metall konlariga ega bo'lib, o'sha davrda ham ulardan davlat ishida ma'lum darajada foydalanish mumkin edi. Ana shu omillar Temur tomonidan Samarqandni o'z davlatining poytaxti qilib olinishiga asos bo'lgan¹.

Muanix Abu Toxirxo'ja Samarqandiyning yozishicha **"Samarqandda Amir Temur Ko'ragon qurdirgan bog'larkim, Eram gulistoni rashk qilar darajada yettita edi". "Bog'i shamol", "Bog'i baland", "Bog'i bihisht", "Bog'i chinor", "Bog'i dilkusho", "Bog'i zog'on" va nihoyat, "Bog'i jahonnoma"** shular jumlasidan edi. Ayrim tarixchilarning fikricha, Temur davridagi Samarqand atrofida eng yirik bog'lar soni 14 ta bo'lgan. Bular **"Bog'i nav", "Gulbog'", "Bog'i bo'ldu", "Naqshi jahon", "Bog'i Davlatobod", "Bog'cha", "Bog'i maydon"** va boshqalardir².

Sohibqironning Fransiya qiroli Karl VI ga yo'llagan maktubida (1402 yil. 1 avgust) bunday deyilgan: "Savdogarlaringizni biz taraflarga yuborib tursangiz, bu yerlarda alarga izzat-hurmat ko'rguzilgay. Bizning savdogarlarimiz ham ul safarlarga borgaylarkim, alar ham o'sha mamlakatda izzat qilingaylar. Biror zot alarga zo'rlik qilib, ranjitmasin." Shu bilan birga Temur ham mamlakatda xorijlik savdogarlarning qulay sharoitda yashashlari va faoliyat yurgizishlariga sharoit yaratib qo'ygan edi. Samarqand bozorlarida mol ko'p, - deb yozgan edi o'z xotiralarida Kastiliya elchisi Rui Gonzales, - ular mollarni Xitoy, Hindiston, Tatariston va boshqa mamlakatlardan keltiradi. Shaharda savdo-sotiq qilishga qulaylik bo'lmagani uchun senior Amir Temur shahardan katta ko'cha o'tkazishni va uning ikki tarafiga esa do'konlar qurishni buyurdi. Ko'chani juda keng qilib quradilar, uning ikki tarafini esa do'konlar va oldiga oq marmarlar qoplangan oliy o'rindiqlar bino qildilar"¹.

O'lka tarixini o'rganishda shu kabi esdalik va xotiralarni, tarixiy yozishmalarni o'rganish muhim ahamiyatga ega. Bu boradagi tadqiqotlarda esa Buyuk ipak yo'lining ham rolini alohida ta'kidlash zarur. Chunki u O'rta Osiyoni Yevropa va Sharq bilan yaqindan bog'ladi, shuningdek, o'lkamizni o'rganishda va bu yerda sayyohlikning rivoj topishida muhim ahamiyat kasb etdi.

Zahiriddin Muhammad Bobur va Mixail Vasilevich Lomonosov.

¹ Мўминов И. Амир Темурнинг Ўрта Осиё тарихида тулган ўрни ва roli. Тошкент. "Фан". 1993 й. 27-29 бет.

² "Ўзбекистон олови" газети, 1994 й. 29 март

¹ Тошпўлатов Т. Тарих ўқитиш методикаси. Тошкент. 2010 й. 219 бет.

Rossiyada Tarixiy o'lkashunoslik ko'proq rus tarixchi olimlari tomonidan yaratilgan tamoyillar, ilmiy-metodik va pedagogik tajribalar asosida olib borilib, ta'limning bu sohasiga asos solingan edi. Masalan, mashhur rus tarixchi o'lkashunos olimi N.P.Milonovning yozishicha 1761 yilda M.V.Lomonosovning mahalliy aholi va yoshlar ishtirokida o'lka tarixini tadqiqot etish yo'lida olib borgan faoliyati va 30 ta savoldan iborat tuzgan anketa-surovnomasi keyinchalik Rossiyada tarixiy o'lkashunoslik dasturi bo'lib xizmat qilganligini alohida ko'rsatib beradi. Shuningdek, 1788 yilga kelganda hukumat tomonidan qadimgi gubernalarning tarixi va xalqi, u yerda yashagan odamlar hayotini aks ettiruvchi tarixiy yodgorlik ashyolari saqlanib qolgan ko'rg'onlar, o'sha davrdagi dexqonchilik va chorvachilik ishlarining holatlari, baliqchilik, hunarmandchilik, yangidan vujudga kelgan fabrikalar, zavodlar va savdo ishlari qanday yo'lga qo'yilganligi, ishlab chiqilgan maxsulotlar qaerlarda sotishga ajatilganligi, shaharlarning gerblari qanday ko'rinishda bo'lganliklarini aniqlash to'g'risida qisqacha aniq axborot yig'ish lozimligi talab etilgan edi³.

Demak, Rus olimi M.V. Lomonosov o'z o'lkasini mukammal o'rganish maqsadida 1761 yili 30 savoldan iborat savol-javob varaqasini aholi o'rtasida tarqatishi bilan u Rossiyada o'lkashunoslik faniga asos solgan bo'lsa, o'lkani o'rganish masalasi O'rta Osiyo, jumladan, O'zbekiston hududida Rossiyadan anchagina oldinroq, ya'ni, XV asrdan boshlangan edi.

Zahiriddin Muhammad Bobur XV asrdayoq o'lka tarixi haqidagi muhim ma'lumotlarni o'zining "Boburnoma" asarida yozib qoldirgan. U "Boburnoma"da o'lka tarixi, tabiati, iqlimi, aholining mashg'ulotlari, urf-odatlari, ayrim tarixiy shaxslar haqida mukammal ma'lumotlarni keltirgan bulib, bu bilan Tarixiy o'lkashunoslikning rivojlanishiga ma'lum darajada o'z hissasini qo'sha olgan edi. Masalan, u Samarqand haqida shunday deydi:

"Rub'i maskunda Samarqandcha latif shahr kamroqdur. Beshinchi iqlimdindur. Tuli (99) ramzi nujumiy (56) daraja va daqiqadur, arzi (40) daraja va daqiqadur. Shahri Samarqanddur, viloyatini Movarounnahr derlar. Hech yog'iy qahr va g'alaba bila mung'a dast topmag'on uchun baldai mahfuza derlar. Samarqand hazrati amirulmu'minin Usmon zamonida musulmon bo'lg'ondur. Sahobadin Qusam ibn Abbos anda borg'ondur. Qabri Ohanin darvozasining toshidadur. Holo mazori Shohg'a mashhurdur. Samarqandni Iskandar bino qilg'ondur. Mo'g'ul va turk ulusi Semirkand derlar. Temurbek poytaxt qilib edi. Temurbekdin burun Temurbekdek ulug' podshoh, Samarqandni poytaxt qilg'on emastur, Qo'rg'onini faslning ustidin buyurdumkim, qadam urdilar. O'n ming olti yuz qadam chiqti".

Rus olimlari O'rta Osiyoning chorizm tomonidan bosib olinishidan

³ Историческое краеведение, Пособия для студентов педвузов. Издво «Просвещение». Москва, 1969 г. стр. 6-7.

ancha ilgari bu o'lkani o'rganish bo'yicha bir qancha ishlar qilgan edi. Biroq, XIX asming birinchi yarmidagi o'lkani o'rganish, ya'ni mahalliy tarixchilik ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotdagi biqqlikka mos bo'lib, mustamlakachilar manfaatlar uchun xizmat qilar edi. Tarix fanidan katta yer egalari manfaatlar, xonlar va ular sulolasining taxtga egaligi va "odilligi"ni mafkuraviy jihatdan asoslash uchun foydalanib kelindi. Saroy tarixchilari o'zlarining asosiy e'tiborlarini siyosiy voqeliklarni - xonlarning faoliyati va o'z raqiblari ustidan qozongan g'alabalarini ko'klarga ko'tarib maqtash, saroydagi an'analarni tasvirlashga qaratdilar. Chunki zamon o'zi shuni taqozo etar edi.

Fan o'qituvchisi esa o'quvchilarga o'z davrida kechgan shunday tarixiy jarayonlar mohiyatini izohlab berishi, ayni vaqtda ularga tarixiy manbalar ustida tadqiqiy izlanishlar olib borishni tavsiya etishi o'rinli hisoblanadi.

Turkistonda o'rta asrlar davri tarixchiligining mavzui jahon tarixchiligi mavzusidan bir qadar ajralib qolganligi bilan e'tiborda turadi. Lekin mahalliy tarixchilar Muhammad Narshaxiy, Tabariy, Rashididdin, Nizomiddin Shomiy, Abulg'ozil Bahodirxon va boshqalarning asarlari o'zining mazmundorligi, daliliy materialga boyligi bilan bu davrda yozilgan tarixiy asarlardan sezilarli darajada ajralib turdi. Sharqshunos A.A.Romaskevich Rashididdinning "Jom'e ut-tavorix" nomli asari xususida so'z yuritir ekan, haqli ravishda bu asar o'zining mazmuni va hajmi jihatidan muhimligini ko'rsatib, biz bu asardan keyin Eron tarixchiligida voqealarni bu xilda bayon qilish uchun bo'lgan intilishni ko'rmaymiz, - deb yozgan edi. Bu O'rta Osiyo tarixchiligida o'ziga xos yo'nalishdir. Shu tarika, XIX asming birinchi yarmida tarix fani ham, boshqa fanlar singari, hukmron sinfnining manfaati uchun xizmat qildi. O'quvchilar esa qo'yilayotgan masalani o'qituvchi rahbarligida qiyosiy-taqqoslash uslubini qo'llagan holda o'rgansalar, yetarli tushuncha va tasavvurga ega bo'ladilar hamda oldinga qo'yilgan maqsadga erishadilar

XIX asming 30 yillarida Buxoro amirligi saroy tarixchisi Muhammad Yoqub yozgan "**Gulshan ul-muluk**" nomli asar o'sha davr tarixiy manbalaridan biri hisoblanadi. Bu asar fors tilida yozilgan bo'lib, unda XIX asming 30 yillarigacha bo'lgan Buxoro amirligidagi siyosiy voqealar bayoni berilgan.

Asarda saroy voqeliklari, hukmron doiralar tarixi, o'zaro urushlar, unda erishilgan g'alabalar, xonlikning keyingi sulolalarning geneologiyasi (nasabnomasi) ifodalanib, jamiyat rivojlanishida asosiy kuch bo'lgan xalq ommasining ahvoli, uning tilak-orzulari, xalq harakatlari batafsil bayon etilgan.

Yana, o'sha davr fors tilida yozilgan ikkinchi manba - Buxoro saroy tarixchisi Muhammad Mir Olimning "**Tarixi Amir Nasrullo**" nomli asaridir. Bu asar Buxoro amiri Nasrulloning (1826-1860) topshirig'i bilan yozilgan. Asar XVIII asming ikkinchi yarmida Buxoro amirligida yuz bergan siyosiy

voqealarni tasvirlash bilan boshlanib, amir Nasrulloning hokimiyatga kelishi, uning dastlabki yillardagi davlatni boshqarishda tutgan siyosati bilan tugallanadi. Asarda 1821-1825 yillarda Buxoro amirligida bo'lib o'tgan dashti qipchoqlar qo'zg'oloni va uning bostirilishi haqida so'zlanadi. Ammo asarda qo'zg'olonning asosiy sababi va mohiyati ochib berilmagan. Bu tabiiy hol edi.

Shu yo'nalishda yozilgan tarixiy manbalardan yana biri mulla Ibodulla va mulla Muhammad Shariflar tomonidan fors tilida yaratilgan "**Tarixi amir Haydar**" nomli asardir. Asarda ashtarxoniylar bilan mang'itlar sulolasi tarixi, amir Haydaming o'limi (1826) gacha Buxoro amirligida bo'lib o'tgan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy voqealarga to'xtalib o'tilgan. Shu bilan birga, asarda 1820 yilda Rossiyadan Buxoroga yuborilgan A.F.Negri boshliq elchilik tashrifi to'g'risida ham ma'lumotlar berilgan.

Muhammad Sharifning xuddi o'sha davrni aks ettiruvchi "**Toj-ut-tavorix**" ("**Tarixlar toji**") nomli asarida mang'itlar nasabnomasi, turkiy va mo'g'ul qabilalari, Chingizxon, uning avlod-ajdodlari, shayboniylar, ashtarxoniylar sulolasining tarixi beriladi. Umuman, asar ashtarxoniylar, ayniqsa, mang'itlar sulolasi vaqtida Buxoro amirligidagi siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy voqeliklarni o'rganishda muhim rol o'ynaydi.

XIX asming 40 yillarida yozilgan yirik tarixiy manbalardan biri Muhammad Hakimxon To'raning "**Muntaxab-ut-tavorix**" nomli asaridir. Asarda XVIII asming 70 yillaridan to Qo'qon xoni Umarxonning vafoti (1822), undan so'ng taxtga o'tirgan Madalixongacha bo'lgan davrdagi Qo'qon xonligi siyosiy voqealari tasvirlangan.

Hakimxon to'ra xon bilan birga yurib, XIX asming birinchi choragidagi voqealarga aralashadi. U saroydagi fisq-fujur, viloyatlardagi siyosiy tortishuvlar, xonlikning tashqi va ichki siyosatini, Buxoro amirligidagi siyosiy hodisalarni o'z ko'zi bilan ko'rib, ularni o'z asarida aks ettirgan. Ashtarxoniylardan so'ng taxtga o'tirgan Dashti Qipchoq o'zbeklarining ming sulolasi haqida, Umarxonning O'rta Osiyoliklarning Rossiyaga bergan bahosini aniqlashda bu asar muhim o'rin tutadi, chunki muallif Rossiyada bo'lib (1810-1822), u yerdagi siyosiy voqealarni aniq va izchillik bilan ifodalagan. Muallif o'z asarida 1821-1825 yillarda Buxoroda bo'lib o'tgan Dashti-qipchoqlar qo'zg'olonida qatnashganlarni "xoinlar", deb qoralaydi. Bu esa muallif tutgan o'ziga xos yo'lni yaqqol ko'rsatib turibdi.

Dars jarayonida shu tarika tarixiy manbalar ustida fikr yuritilsa, o'sha davrdagi sulolalar shajarasini tuzish, uchraydigan illatlar haqida esse yoki rivoyatlarni to'plash kabi topshiriqlar berib borilsa, o'quvchilar bilimi yanada mustahkamlanadi.

Qo'qon xonligi tarixiga oid manbalardan yana biri Mulla Avaz Muhammadning fors-tojik tilida yozilgan "**Tarixi jahonnumai**" asari bo'lib, u o'z ko'zi bilan ko'rganlarining bayoni hamda tarixiy manbalar asosida yozilgan ikki kitob va jug'rofik qo'shimchadan iborat. Asaming birinchi

qismida insonning paydo bo'lishidan boshlab, to XVI asrgacha bo'lgan hukmdorlar tarixi berilgan.

Asaming ikkinchi qismida Qo'qon xonlari Olimxon (1798-1810) va Umarxon (1810-1822) hukmronliklari davridagi siyosiy hayotga doir tafsilotlar atroflicha keltirilgan. Asarda Buxoro amirining xitoy-qipchoq va qoraqalpoq xalqlariga nisbatan tutgan siyosati, Qo'qon xonligi bilan Buxoro amirligi o'rtasidagi munosabatlar, rus askarlari tomonidan Samarqand va Kattaqo'rg'on yerlarining bosib olinishi, yo'l va imoratlar qurilishi, ayrim voqealar sanalari berilgan. Shu bilan birga, asarda 1842 yili Qo'qonda Xo'ja Qalandar boshchiligida ko'tarilgan qo'zg'olon bilan bog'liq muhim voqealar haqida ham so'z boradi.

Asarda keltirilgan tafsilotlar o'lka tarixini o'rganish uchun muhimdir. Biroq bu xildagi asarlar o'sha davr hukmron sinf mafkurasi ruhida yozilgan bo'lib, unga tanqidiy ko'z bilan qarash talab qilinadi.

Qo'qon xonligi tarixchiligida Mulla Niyoz Muhammadning **"Tarixi Shohruhiy"** degan asari ham diqqatga sazovordir. Bu asar Qo'qon xonligining XVIII - XIX asrning 70 yillarigacha bo'lgan tarixiga oid muhim ma'lumotlari bilan shu davr tadqiqotchiligida juda qimmatlidir.

Toshkentdagi Qoryog'di mahallasidan Muhammad Solih Qoraxo'ja o'g'lining 1880-1885 yillar orasida yozgan **"Tarixi jadidayi Toshkand"** („Toshkentning yangi tarixi“) nomli 1200 betdan iborat asari ham juda muhim ahamiyatga ega bo'lib, u O'rta Osiyoda o'tgan uch xonlikda yozilgan tarixiy asarlardan bir muncha farq qiladi. Asar fors tilida yozilgan. U asosan hukmdorlar o'rtasidagi uchrashuvlar tarixidan iborat bo'lib, ikkinchi qismi Qo'qon xonligi va Toshkent tarixiga bag'ishlangan. Bunda muallifning tarixga yangicha qarash maqsadida ish boshlagani va tadqiqotchi A.Kundan maslahatlar olgani seziladi. Shuningdek, asarda Qo'qon siyosiy hayotida ustun rol o'ynagan guruhlar va shaxslar, Toshkentda bo'lib o'tgan xalq qo'zg'olonlari, qo'zg'olonlarning yo'nalishi va sabablari haqida mufassal ma'lumotlar berilgan. Bu asar yangi davr tarixchiligida muhim ahamiyat kasb etadi. Asaming asl qo'lyozma nusxasi Sharqshunoslik instituti axborot resurslari markazida nodir asarlar qatorida saqlanmoqda.

XIX asming birinchi yarmida Xiva xonligida yozilgan tarixiy manbalardan eng muhimi Munis va Ogahiylarning asarlari hisoblanadi.

Munis (1778-1829)ning otasi Avazbiy mirob Xiva xoni Eltuzarga qadar ham, uning hukmronligi vaqti (1804-1806)da ham saroy xizmatida bo'lagan. Eltuzar xonligi vaqtida Munis saroy xizmatiga kiradi va xoning topshirig'i bilan o'zining **"Firdavs ul-iqbol"** nomli mashhur tarixiy asarini yozishga kirishgan. Eltuzarxon Shermuhammad Munisga bu asarni Firdavsiyning **"Shohnoma"** asaridan ustun qilib yaratishni uqtiradi.

Munisning bu asari o'zbek tilida yozilgan. U Xiva xonligining XVI-XVII asrlardagi tarixini yoritishda Abulg'ozil Bahodirxon asarlaridan foydalangan. Xiva xonligining XVIII asardagi tarixiga oid voqealarni esa o'z

ko'zi bilan ko'rgan kishilar va ayniqsa, otasining bergan ma'lumotlari asosida yozadi.

XVIII asming ikkinchi yarmidagi eng muhim voqealarni, 1812 yilgacha bo'lgan tarixiy voqealarni tasvirlash paytida unga xon tomonidan boshqa vazifa, ya'ni Mirxondning mashhur "**Ravzat us-safo**" asarini fors tilidan o'zbek tiliga tarjima qilish topshiriladi. Munis "**Firdavs ul-iqbol**"ning birinchi kitobini tamomlab, ikkinchisini yozayotgan vaqtida to'satdan vafot etadi va asar muallif tomonidan tugallanmay qoladi.

Muhammad Rizo Ogahiy (1809-1864) Xiva xoni Olloqulixon (1825-1842) ning topshirig'i bilan "**Firdavs ul-iqbol**" asarini davom ettirdi va yakunladi. Uning tomonidan yana 1826-1842 yillardagi voqealar yoritilgan "**Riyoz ud-davla**", 1842-1845 yillardagi tarixiy voqealar yoritilgan "**Zubdat ut-tavorix**", 1846-1855 yillardagi voqealar yoritilgan "**Jomi' ul-voqeoti sultoniy**", 1856-1865 yillardagi voqealar yoritilgan "**Gulshani davlat**" nomli asarlar yoziladi. Ogahiy yana "**Shohidi iqbol**" nomli beshinchi asarini ham yozadi va uni Xiva xoni Muhammad Rahimxon davri (1865-1910) ga bag'ishlaydi. Ammo bu asar tamomlanmay, 1872 yilgi voqealar bilan tugagan.

Munis va Ogahiylar saroy tarixchilari bo'lsalar-da, ularning asarlari o'zining dallilariga boyligi, xronologik izchilligi, o'zida aks ettirilgan siyosiy voqealarning to'liq bayoni jihatidan o'sha davrdagi Buxoro va Qo'qon saroy tarixchilaridan birmuncha yuqori turadi. Xiva tarixchiligi va xususan Munis, Ogahiy asarlaridagi bu hususiyatni o'z vaqtida V.V.Bartold ham "**Istoriya kul'turnoy jizni Turkestana**" asarida ta'kidlab: "Munis va Ogahiyning kitoblari adabiy va tarixiy asar sifatida kamchiliklariga qaramay, bayon qilinishining to'liqligi va daliliy ma'lumotlarining soni jihatidan bizgacha yetib kelgan Buxoro va Qo'qon xonliklari tarixi bo'yicha bitilgan asarlarni orqada qoldiradi",- deb yozgan edi.

Xulosa qilib aytganda, mahalliy tarixchilar tomonidan yaratilgan tarixiy asarlar mamlakatning xo'jaligi, iqtisodiy munosabatlar, sinfiy kurash, xalq harakatlari va siyosiy voqealarning ijtimoiy-iqtisodiy ildizlarini ochib bera olmagan bo'lsa ham, o'quvchilar o'lkani o'rganishda, solnomalar tuzish, etnografik materiallar va toponomik ma'lumotlar topishda tanqidiy nuqtai nazardan foydalanishlari mumkin. Bu asarlar shuning uchun ham 1917 yilga qadar bo'lgan o'lka tarixini o'rganishda juda qo'l keladi. Chunki ularning mualliflari o'sha davrda yashagan, ro'y bergan voqea va hodisalarni o'z ko'zlari bilan ko'rgan, shuningdek, ularni oldingi davr voqealari bilan qiyoslaganlar.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. O'lkashunoslikning qanday turlarini bilasiz?
2. O'lka tarixi haqida ma'lumotlar qoldirgan qaysi mahalliy tatqiqotchilar va ularning asarlari haqida bilasiz?

3. O'lkamiz tarixiga oid qanday sayohatnoma mazmunidagi asarlar yozilgan?

Tayanch so'zlar izohi:

Sfragistika - muhrlarni o'rganuvchi fan

Geraldika - tamg'a (gerb) larni o'rganuvchi fan

Epigrafistlar - tosh, metall, sopol va yog'och kabi buyumlarning sirtidagi yozuvlarni o'rganuvchi tadqiqotchilar.

Kalit so'zlar: O'lkashunoslik turlari, o'lkashunoslikning rivojlanishi, mahalliy tadqiqotchilik, jamoat o'lkashunosligi, davlat o'lkashunosligi, maktab o'lkashunosligi, akademik-litsiy va kasb-hunar kollejlari o'lkashunosligi, o'lka o'lkaga oid materiallar, o'lka tarixi.

2 – mavzu: O'lkashunoslik va turizmning asosiy manbalari. Arxeolog va o'lkashunoslar faoliyati

Reja:

1. Arxeologiya va tarixiy o'lkashunoslik.
2. Arxeologik yodgorliklarning o'lkashunoslik va turizmga tutgan o'rni.
3. O'zbekistonda arxeolog va o'lkashunoslarning faoliyati.

O'lkashunoslikning 5 ta asosiy manbasi bo'lib, ular: **arxeologiya, etnografiya, toponimika, arxivshunoslik va muzey eksponatlaridir.** Ular o'zaro aloqador bo'lib, biri ikkinchisini to'ldiradi. Yuqorida qayd etilgan 5 ta asosiy manbalarsiz o'lka tarixini mukammal o'rganib bo'lmaydi.

“Tarixiy o'lkashunoslik va turizm fani”ning asosiy manbalaridan biri bu - **“Arxeologiya”** dir. **“Arxeologiya”** so'zi lotin tilidan olingan bo'lib, **“arxayos”** - qadimgi, **“logos”** - fan, ya'ni qadimgi davmi o'rganuvchi fan degan ma'noni bildiradi yoki uni qadimshunoslik fani, deb ta'kidlash ham o'rinlidir.

Dunyo xalqlarining bir necha yuz ming yillardan beri davom etib kelayotgan tarixi bor. Lekin shu uzoq tarixiy taraqqiyotning eng keyingi 5-6 minginchi yillaridan boshlabgina yozma asarlari paydo bo'lib, undan avval xalqlarda yozuv va ular orqali bitilgan tarix bo'lmagan.

Biroq, yozuv paydo bo'lgandan keyin ham ko'pgina voqealar batafsil yozilmay qolgan. Podsholarning buyruqlari, ruhoniylarning diniy ta'limotlari, xazinalarning hisob-kitoblari hamda turli urushlar haqidagi yozma asarlar esa o'z zamonasining ishlab chiqarish usullari va vositalarini, xalqning maishiy hayotini yetarlicha aks ettira olmagan.

Qadimgi qishloq va shaharlarning qoldiqlari qazib ko'rilganida, u

17

332848

yerlardan o'tmish xalqlarning uy-joy qoldiqlari, uy-ro'zg'or buyumlari, zebziynat buyumlari, e'tiqot yodgorliklari topildi. Bu kabi ashyoviy dalillar esa yozma tarixdagi ma'lumotlarga qaraganda o'sha davr turmushini aniqroq yoritib berishga yordam beradi. Yozma tarix paydo bo'lgungacha kechgan bir necha yuz ming yillik davr tarixi hamda yozma tarix paydo bo'lgandan keyingi davr hayotini to'laligicha o'rganish zaruriyati o'sha davr odamlaridan qolgan yodgorliklarni yoxud xalqlardan qolgan buyumlarni tekshirib ko'rishni taqozo etadi. Bunday yodgorlik namunalari tekshiruvchi fan esa **arxeologiyadir**. Arxeologiya vositasida ibtidoiy odamlar yashagan makonlar, qadimgi davrdan qolgan shahar, qishloq va mozorlar qazib ko'rib, tarixi aniqlanadi.

Arxeologlar qazishma usuli bilan ish ko'radilar. Yozuvlar paydo bo'lmasdan burungi davr tarixini shu tariqa arxeologik qazishmalarda topilgan buyumlar to'ldiradi, ularning natijalari esa matbuotda keng yoritib boriladi.

Ma'lumotlarga ko'ra o'lkamizga doir tadqiqotchilik ishlari O'rta Osiyoda juda ham qadimdan boshlangan. Biroq eng qadimgi zamonlarda yozilgan asarlar bizgacha saqlanmagan. Abu Rayhon Beruniyning yozishicha, arab istilochilari O'rta Osiyodagi mahalliy olimlarni yo'qotibgina qolmay, mahalliy til va mahalliy yozuvdagi asarlarni ham yo'q qilib, yondirib yuborganlar. Shu sababli eng qadimgi zamonlarda yozilgan asarlar saqlanmagan. Keyingi ming yil davomida yozilib kelgan tarixiy asarlar esa ko'p uchraydi. Masalan, Muhammad Narshaxiyning "**Buxoro tarixi**", Bal'amiyning "**Tarixi Taboriy**" asarlari yozilganiga ming yildan oshdi.

Lekin, O'rta Osiyoda arxeologiya, yuqorida aytilganidek juda yosh fan. Rossiyada bu fan XVIII asming o'rtalarida paydo bo'lib, XIX asrda ancha rivojlangan. O'sha vaqtda olimlar Rossiya yerlarida ko'plab topilgan O'rta Osiyo qadimgi tanga-pullarini to'plab, ularni tekshirib, Rossiya bilan O'rta Osiyo xalqlarining qadimdan iqtisodiy aloqada bo'lib kelganligini isbot etdilar. XIX asming II yarmida, O'rta Osiyo Podsho Rossiyasi tomonidan bosib olingandan keyin bu yerga kelgan har bir mutaxassis va savodxon kishi qal'alar va shaharlar xarobalarini, sun'iy tepaliklarni, qadimdan qolgan binolarning xarobalarini ko'rib, ularning tarixini surishtira boshladilar. Natijada, 1870 yillarda Toshkentda chiqa boshlagan gazeta va jumallarda bu tarixiy yodgorliklar haqida turli ma'lumotlar e'lon qilina boshlandi. Bunday xarobalarni tekshirish jarayonida, ular hatto "**xazina**" izlab, ba'zi tepalarni buzib yuborishgacha bordilar.

Bir guruh taraqqiyparvar ziyolilar - arxeologiya havaskorlari hozirgi O'zbekiston tarixi Davlat muzeyini tashkil etib, turli joylarda topilgan arxeologiyaga oid yodgorliklarni bu yerga to'plashga kirishdilar. Sharqshunoslar N.I.Veselovskiy, V.V.Grigorev, V.V.Bartold, V.L.Vyatkin shuningdek, o'zbek havaskor arxeologlaridan Akrompolvon Asqarov va boshqalar bu yodgorliklarni tarixshunoslik nuqtai nazardan o'rganish ishida

tashabuskor bo'ldilar.

Hozir Toshkentdagi tarix, san'at va tabiat muzeylarida to'plangan boy arxeologiyaga oid ashyolar to'plamining kattagina qismi o'sha havaskorlar tomonidan XIX asrda yig'ilgan.

Bundan tashqari, ular bir qancha muhim yodgorliklarda qazishma ishlari ham olib bordilar. Bu borada, ayniqsa, arxeolog-sharqshunos V.L.Vyatkinning xizmatlari alohida tahsinga loyiqdir. Sharqshunoslar Ulug'bek rasadxonasining izlarini topish uchun ko'p urindilar, nihoyat, Samarqandda istiqomat qiluvchi V.L.Vyatkin qadimgi vasiqalami o'rganish asosida rasadxonani o'mini aniqladi. 1908-1909 yillarda bu joyda arxeologik qazish olib boradi va rasadxonaning sekstanti, binoning buzilgan g'isht va naqshlari, umuman esa rasadxonaning 8 dan 1 qismi topildi. Bu ish tarix fani uchun katta kashfiyot bo'ldi. Shu bilan birga, arxeologiya havaskorlari qadimgi Samarqanddagi "Afrosiyob" tepaligida bir necha qazishma ishlari o'tkazdilar.

XX asrning 20 yillarigacha O'rta Osiyoda Arxeologiya mustaqil fan darajasiga ko'tarilmadi. Arxeologlar arxeologik yodgorliklarni ma'lum tarixiy bosqichdagi ishlab chiqaruvchi kuchlarning taraqqiyoti natijasi, deb baholay olmadilar, ishlab chiqarish munosabatlari qanday bo'lganini payqay olmadilar, madaniyatni ishlab chiqarish taraqqiyoti va ijtimoiy munosabatlar mahsuli deb tushuna olmadilar, balki uni bironta din, birorta "alohida iqtidorli shaxslar" bilan bog'ladilar. So'ngra, arxeologik yo'l bilan topilgan buyumlarga faqat yozma tarixni tasdiqlovchi materiallar sifatidagina qarab, arxeologiyaning imkoniyatlarini cheklab qo'ydilar. Shuning uchun ham ular tarixning uzoq o'tmish davrlarini o'rganishga jiddiy kirisha olmadilar.

Tarixchilikning katta yutuqlaridan biri arxeologik tadqiqotlarga katta e'tibor berishi bilan ham belgilanadi. Jamiyat tarixi ishlab chiqaruvchi kuchlar va ishlab chiqarish munosabatlarining rivoji va shu asosda ular o'rtasidagi o'zaro munosabatlarining turli davrlarda o'zgarib borishidan iborat ekanligi fanda e'tirof etilgach, tarixni ijtimoiy - iqtisodiy tuzumlarga ajratib davrlashtirish masalasi kun tartibiga qo'yildi. Sobiq ittifoq davri tarixchiligida esa butun insoniyat tarixi noto'g'ri davrlashtirilgan edi.

Bu hol esa tarixni buzib talqin qilishga olib keldi.

Akademik A.Asqarov O'zbekiston tarixini quyidagi tarzda xronologik jihatdan davriy tizimlashtirdi:¹

1. O'zbekistonda "Ibtidoiy to'da davri". Bu davrning xronologik chegarasi odamzodning Fergantrop - Neandertal ajdodlari yashagan davri (mil.avv. 1 million - 12 ming yilliklar) bilan belgilanadi. Bu davrda mulkchilikning hech bir shakli bo'lmagan. Odamzod ilk ibtidoiy holatidan tom ma'nodagi odam holatiga o'tish, fikrlovchi odam bo'lib shakllanish jarayonini boshidan kechirgan. Toshdan mehnat qurollari yasash va ular

¹ Asqarov A. Ўзбек халқининг этногенези ва этник тарихи. Т.: 2007. 20 – 236.

yordamida ijtimoiy mehnat qilish bilan boshqa jonzotlardan tubdan farq qilgan. Bu davr odamlarida hali jamoa bo'lib yashash ko'nikmalari shakllanmagan edi.

2. O'zbekistonda "Ibtidoiy urug'chilik jamoasi va mulk egaligining shakllanish davri". Uning xronologik chegarasi – urug' jamoalarining tarkib topishidan (bundan 40 ming yil avval) milodiy III – IV asrlargacha. Bu davrda jamiyat iqtisodiy hayotining ijtimoiy tarkibi dastlab matriarxat urug' jamoalari an'analari va so'ng patriarxat urug' jamoalarining erkin dehqon jamoa a'zolari - kashovarlar, ozodkor va guvakorlardan tashkil topgan. Mulkka egalik qilish dastlab (matriarxat davrida) ijtimoiy xarakterda, so'ng (patriarxat davrida) erkin ishlab chiqarish jamoasi a'zolariga tegishli xususiy mulk shakllanadi. Jamiyat mafkuraviy asosini dastlab tabiat hodisalariga sig'inish: totemistik, animistik, sehrgarlik (matriarxatda), otashparastlik diniy qarashlar (patriarxatda), so'ng esa zardushtiylik va buddaviylik, moniylik, nasroniylik va shamanizm tashkil etadi.

3. O'zbekistonda "Ilk o'rta asrlar davri". Uning xronologik chegarasi - milodiy III – IV asrlardan to IX asr boshlarigacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Bu davrda feodal mulkchilikning badavlat dehqonzodalar timsolida shakllanishi va rivojlanishi, erkin dehqon jamoa a'zolari- kashovarzlarni kadivarlarga aylanishi jarayonining jadal kechishi kuzatiladi. Mulkchilikda xususiy mulk, jamoa mulki, vag'nze mulki (zardushtiylik va ibotaxonalarga tegishli mulki) tarkib topadi. Davlatchilikning muhim bosqichlaridan hisoblangan mahalliy hokimiyatchilik bu davr davlat tizimining asosiga aylanadi. Bu davrning mafkuraviy asosida dastlab (IV-VII asrlar) asosan zardushtiylik, qisman nasroniylik, moniylik va buddaviylik yotadi. Arab istilolaridan so'ng (VIII asrdan boshlab) jamiyatning ma'naviy, axloqiy va mafkuraviy dunyosini islom e'tiqodi egallaydi.

4. O'rta Osiyo, jumladan O'zbekiston tarixining "O'rta asrlar davri". Uning xronologik doirasi - somoniylar davlatining tashkil topishidan - X asrdan to XIX asr o'rtalarigacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Bu davrda feodal munosabatlarining uzil - kesil shakllanishi va rivojlanishi va nihoyat o'zaro ichki va tashqi feodal jangu-jadallar tufayli jamiyat iqtisodiy va siyosiy hayotida turg'unlik va inqirozlar kuzatiladi. Jamiyatning ijtimoiy tarkibini asosan koranda - ijarachilar va katta mulk egalari tashkil etadi, mulkka egalik qilishning xususiy va vaqf mulk tartibi mustahkamlanadi.

5. O'rta Osiyo, jumladan O'zbekiston tarixining beshinchi davrini "Mustamlakachilik va milliy uyg'onish davri", deb atash mumkin. Uning xronologik chegarasi Chor Rossiyasi bosqinidan (1864-65y.) to 1917 yil Oktyabr to'ntarishiga qadar bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Bu davrda Rossiya kaptalining O'rta Osiyoga kirib kelishi munosabati bilan o'lkada kapitalistik ishlab chiqarish munosabatlari shakllanib boradi, ishlab chiqarishdagi yangi munosabatlar tufayli klerikal feodal tartiblari va an'anaviy xalq hunarmandchiligining zaminiga zil ketib, jamiyat ijtimoiy

tarkibida yollanma mehnat resurslari va vatan taqdiri to'g'risida qayg'uruvchi milliy ziyolilar tabaqasi paydo bo'ladi. Jadidchilik timsolida o'rta asrlar davri feodal biqirligidan chiqishga intilish, G'arb dunyosi bilan aloqa qilish, ular ta'sirida xalqni ma'rifatga tortish jonlanadi.

6. O'zbekiston tarixining oltinchi davri "Sovetlar davri" bo'lib, bu davrda jamiyat hayotining barcha jabhalari kommunistik mafkura g'oyalari asosida qurildi, jamiyat ijtimoiy tarkibi ishchi va dehqon sinfi hamda ularning avangard otryadi - ziyolilar tabaqasidan iborat bo'ldi. Mulkchilikning davlat monopolistik kapitalizmi hukmdorlik qilgan. Konstitutsiyada din erkinligi qayd etilsada, amaliy hayotda ateistik dunyoqarash jamiyatning ma'naviy va mafkuraviy asosini tashkil etadi.

7. O'zbekiston tarixining bu davri "Milliy istiqlol, demokratik davlat va fuqarolik jamiyati qurish davri" deb atashni taqozo etadi. Bu davr o'zbek xalqi va davlatchiligining yangi sahifasi, milliy boyliklar va ishlab chiqarishning barcha jabhalari bo'yicha erishilgan yutuqlarning xalq manfaatiga yo'naltirilgan davri, milliy qadriyatlarning qaytadan tiklanish davri, dunyo xaritasida "O'zbekiston Respublikasi" deb ataluvchi suveren davlatni jahon hamjamiyati va jamoatchiligi tomonidan tan olingan davri sifatida tarixga kiradi. O'zbekiston fuqarolari uchun diniy erkinlik, nafaqat qonunda, balki, amaliy hayotda ham o'z aksini topadi.

Yuqorida qayd etilgandek tarixning tizimli ravishda davrlashtirilishi o'lka tarixini chuqur o'rganishda muhim ahamiyatga ega.

Hozirgi fanning aniqlashiga ko'ra, kishilik jamiyati tarixi taxminan bir million yilga yaqinlasha boradi. Shu uzoq davrning oxirgi ming yillaridagina xususiy mulkchilika, ya'ni qulchilik munosabatlari vujudga kelgan bo'lib, unga qadar, birinchidan, tarixni ishlab chiqarish usullariga qarab davrlashtirish yo'q edi. O'zbekistonda, umuman O'rta Osiyoda ibtidoiy jamoa davri bo'lganligiga shubha bilan qaralgan edi. Ikkinchidan, O'rta Osiyoga aholi Eron va Shimoliy Hindiston tomonidan ko'chirib keltirilgan, deb tahmin qilinardi. Shu bilan birga eng qadimgi zamondan tortib, so'nggi Buxoro amirlari zamonigacha O'rta Osiyo xalqlarining hayotida o'zgarish bo'lmagan, deya uqtirildi.

Tarixni davrlashtirish masalasining kun tartibiga qo'yilishi tarixchilar va arxeologlarni ishga solib yubordi. Birinchi besh yillik oxiridayoq sobiq ittifoq tarixini shu jumladan, O'zbekiston tarixini davrlashtirish masalasi yuzasidan yozma manbalarni o'rganishga kirishish bilan birga, arxeologiya yodgorliklarini qazib topishga ham jiddiy e'tibor berila boshlangan edi. Bu ishning boshida Moskva, Sankt-Peterburg va O'zbekiston arxeologlari: A.Yakubovskiy, G.V.Grigorev, S.P.Tolstov, M.E.Masson, V.A.Shishkin, Ya.G'.G'ulomov va boshqalar turdilar. Birinchi ish O'zbekistonning alohida tumanlarida arxeologiyaga oid tadqiqotlar o'tkazishdan boshlandi.

Masalan, 1925-1930 yillarda Samarqandda V.L.Vyatkin, 1926-1928 yillarda Termizda B.P.Denike, 1929-1930 yillarda A.A.Potapovlar Farg'ona

vodiysida hamda 1932-1933 yillarda Namangan viloyatining Uchqo'rg'on rayoni Norin daryosi bo'yida elektrotansiya qurish tayorgarligi munosabati bilan Sankt-Peterburg arxeologlaridan B.A.Latinin Farg'ona vodiysining shimoli-sharqiy hududlarida; 1934 yili Sankt-Peterburg arxeologi G.V.Grigorev Yangiyo'l rayonida; o'sha yili professor A.Yakubovskiy boshliq Sankt-Peterburg va O'zbekiston arxeologlari Buxoro viloyatining sharqiy qismida, arxeolog M.E.Masson boshliq arxeologlar Ohangaron vodiysida jiddiy arxeologik qidiruv ishlarini o'tkazdilar.

1936-1937 yillarda bu ish kengayib, qadimgi Termiz shahrini qazish yuzasidan ilmiy ishlar kuchaytirilishi bilan birga prof.S.P.Tolstov boshchiligida Xorazmda, V.A.Shishkin boshchiligida Buxoro viloyatining g'arbiy qismida yangidan tadqiqotlar boshlandi. Bu ilmiy safarlar katta miqyosda uyushtirilib, bulaming hammasida Moskva, Sankt-Peterburg va O'zbekiston arxeologlari hamkorlik qildilar. Bu ilmiy safarlar 1939-1940 yillarda O'zbekistonda sug'orish sohasida xalq qurilishlari boshlanishi munosabati bilan arxeologik kuzatishlarni o'tkazdi, bu borada Farg'ona vodiysida katta natijalarga erishildi.

XIX asming ikkinchi yarmida O'rta Osiyo chor askarlari tarafidan bosib olingach, bu yerga rus olimlari kelib, ko'plab tadqiqot ishlarini olib bordilar. Shunday murakkab va og'ir sharoitda ham o'lkashunoslar o'z fikr-mulohazalarini erkin bayon etishga harakat qilganlar. O'rta Osiyoga kelgan olimlar o'lkadagi ilg'or mahalliy ziyolilarning namoyondalari bilan yaqin aloqada bo'lardilar.

Mustamlaka ma'muriyati O'rta Osiyo xalq ommasining milliy ongini o'stirishga yordamlashishni aslo ma'qul ish deb bilmasdi, aksincha, mahalliy xalq ommasi o'rtasida tarixiy bilimlarni biroz darajada keng targ'ib etish, ular diqqatini qadimgi zamon yodgorliklarini o'rganishga tortish va hokazolar chorizmning mustamlakachilik siyosatiga faqat zarar yetkazishi mumkin, deb qo'rqardi.

Holbuki, O'rta Osiyoning yangi-yangi hududlarida Rossiya hukmronligining o'rnatilishi, ularning Umumrossiya iqtisodiy taraqqiyoti yo'lga qo'shib yuborilganligi munosabati bilan turmushning o'zi yangi-yangi ilmiy tadqiqotlar o'tkazish zarurligini taqozo qilardi. O'rta Osiyoning dunustroq o'rganilmaganligi mustamlaka ma'muriyatining ishlarini qiyinlashtirdi. Ilmiy tadqiqotlardan ba'zi birlari o'zlarining ko'p yillik tarixiga, o'z urf-odatlarini, xususiyatlarini, turmush tarziga ega bo'lgan million - million O'rta Osiyo xalqlari ommasini eksplutatsiya qilish tizimini to'g'ridan - to'g'ri uyushtirishga yordam berishi lozim edi.

Tabiiy boyliklarni, madaniy merosi g'oyat boy bo'lgan va kam tekshirilgan bu o'lka rus ziyolilarning taraqqiyparvar qismini juda qiziqtirardi. Mashhur rus zoologi, zoogeografi va sayyohi, darvinizmning e'tiqodli tarafdorlaridan bo'lgan N.A.Seversov (1827-1886) Turkistonning ko'p joylarini fizik - geografik jihatdan o'rgandi, Pomir tizma tog'larining

orografiyasini tadqiq qildi.

Tabiatshunos va sayyoh A.P.Fedchenko (1844-1873) Turkiston tabiatini o'rganishda katta rol o'ynadi. U Farg'ona vodiysi bilan Oloyni birinchi marta tekshirib chiqdi. Oloy orqasidagi tizma tog'lar va uning eng baland cho'qqisini ochdi, u Zarafshon vodiysi bilan Qizilqumni ham tekshirib chiqqan. Zarafshon daryosining boshlanish qismidagi ulkan abadiy muzlikni birinchi bo'lib topganligi uchun keyinroq bu muzlik Fedchenko nomi bilan atala boshladi.

Geolog va geograf I.V.Mushketov (1850-1902) shimoliy Tyanshan tizma tog'ining tuzilishini ko'rsatib beradi. U Turkistondagi ko'pgina foydali qazilma konlarini ta'riflab, Turkiston menerallarining dastlabki ro'yxatini tuzib chiqdi. 1877-1879 yillarda Mushketov geologik tekshirish maqsadida Oloy, Pomir, Buxoro, Hisorga, Amudaryo bo'ylab va Qizilqumga sayohat qildi. 1880 yilda esa Zarafshon muzligiga ilmiy safar uyushtirdi. I.V.Mushketov 1881 yilda (G.D.Romanovskiy bilan hamkorlikda) Turkistonning birinchi geologik xaritasini tuzdi. O'rta Osiyo geologiya tuzilishining birinchi konsepsiyasini taklif qildi, uni o'rganish bosqichlarini ko'rsatib berdi. I.V.Mushketov o'z tadqiqotlarini va Turkistonni o'rgangan boshqa olimlarning ilmiy ishlarini o'zining mashhur "**Turkistonning geologiya va orografiya ta'rifi**" monografiyasida umumlashtirgan. Bu monografiyaga yozilgan katta muqaddimga tarixshunoslik nuqtai nazaridan yondashgan.

O'rta Osiyo tuprog'ini o'rganishda ham rus tadqiqotchilarining xizmati katta. Mashhur rus olimi, hozirgi zamon ilmiy tuproqshunosligiga asos solgan V.V.Dokuchaev (1846-1903) o'zining ko'pgina asarlarida bu sohada dastlabki (1898 yilda) ma'lumotlarni bergan.

Turkiston harbiy topografiya bo'limi tuzilganiga qadar (1867 yil) o'lka **topografik** jihatdan o'rganilmagan edi. Topograflar O'rta Osiyoning bosh xaritasini tuzishdi. Turkiston bosib olingandan keyin o'lkani xaritaga tushirish va iqlimini o'rganish uchun ilmiy baza yaratish masalasi tug'ildi.

Bular haqida fikr yuritilar ekan, o'qituvchi dars jarayonida talabalarga o'zlari yashayotgan hudud - viloyatlarning xaritasini chizishni vazifa qilib bersa, ularda yashaydigan manzil - o'lkaga bo'lgan qiziqish va mehrning ortishi tabiiydir.

1867 yilda Toshkent **meteorologiya (o'lka iqlimini o'rganish) markazi** tuzildi, bir oz vaqtdan keyin shunday markazlardan bir qanchasi boshqa yerlarda ham vujudga keldi.

Toshkentda falakiyotshunoslik rasadxonasi 1874 yilda Rossiyadagi eng qadimgi Pulkovo rasadxonasi xodimlarining yordamida ochildi. Shart-sharoitning qiyinligiga qaramay, bu sohada katta yutuqlar qo'lga kiritildi. Rasadxona xodimlari hozirgi O'rta Osiyo respublikalari hududida qariyb 870 falakiyot manzillarini aniqladilar. Ular o'z tashabslari bilan ilmiy-tekshirish ishlarini olib bordilar. Keyinchalik esa, mablag' yo'qligi sababli

vodiysida hamda 1932-1933 yillarda Namangan viloyatining Uchqo'rg'on rayoni Norin daryosi bo'yida elektrotansiya qurish tayorgarligi munosabati bilan Sankt-Peterburg arxeologlaridan B.A.Latinin Farg'ona vodiysining shimoli-sharqiy hududlarida; 1934 yili Sankt-Peterburg arxeologi G.V.Grigorev Yangiyo'l rayonida; o'sha yili professor A.Yakubovskiy boshliq Sankt-Peterburg va O'zbekiston arxeologlari Buxoro viloyatining sharqiy qismida, arxeolog M.E.Masson boshliq arxeologlar Ohangaron vodiysida jiddiy arxeologik qidiruv ishlarini o'tkazdilar.

1936-1937 yillarda bu ish kengayib, qadimgi Termiz shahrini qazish yuzasidan ilmiy ishlar kuchaytirilishi bilan birga prof.S.P.Tolstov boshchiligida Xorazmda, V.A.Shishkin boshchiligida Buxoro viloyatining g'arbiy qismida yangidan tadqiqotlar boshlandi. Bu ilmiy safarlar katta miqyosda uyushtirilib, bulaming hammasida Moskva, Sankt-Peterburg va O'zbekiston arxeologlari hamkorlik qildilar. Bu ilmiy safarlar 1939-1940 yillarda O'zbekistonda sug'orish sohasida xalq qurilishlari boshlanishi munosabati bilan arxeologik kuzatishlarni o'tkazdi, bu borada Farg'ona vodiysida katta natijalarga erishildi.

XIX asming ikkinchi yarmida O'rta Osiyo chor askarlari tarafidan bosib olingach, bu yerga rus olimlari kelib, ko'plab tadqiqot ishlarini olib bordilar. Shunday murakkab va og'ir sharoitda ham o'lkashunoslar o'z fikr-mulohazalarini erkin bayon etishga harakat qilganlar. O'rta Osiyoga kelgan olimlar o'lkadagi ilg'or mahalliy ziyolilarning namoyondalari bilan yaqin aloqada bo'lardilar.

Mustamlaka ma'muriyati O'rta Osiyo xalq ommasining milliy ongini o'stirishga yordamlashishni aslo ma'qul ish deb bilmasdi, aksincha, mahalliy xalq ommasi o'rtasida tarixiy bilimlarni biroz darajada keng targ'ib etish, ular diqqatini qadimgi zamon yodgorliklarini o'rganishga tortish va hokazolar chorizmning mustamlakachilik siyosatiga faqat zarar yetkazishi mumkin, deb qo'rqardi.

Holbuki, O'rta Osiyoning yangi-yangi hududlarida Rossiya hukmronligining o'rnatilishi, ularning Umumrossiya iqtisodiy taraqqiyoti yo'lga qo'shib yuborilganligi munosabati bilan turmushning o'zi yangi-yangi ilmiy tadqiqotlar o'tkazish zarurligini taqozo qilardi. O'rta Osiyoning dunustroq o'rganilmaganligi mustamlaka ma'muriyatining ishlarini qiyinlashtirdi. Ilmiy tadqiqotlardan ba'zi birlari o'zlarining ko'p yillik tarixiga, o'z urf-odatlarini, xususiyatlarini, turmush tarziga ega bo'lgan million - million O'rta Osiyo xalqlari ommasini eksplutatsiya qilish tizimini to'g'ridan - to'g'ri uyushtirishga yordam berishi lozim edi.

Tabiiy boyliklarni, madaniy merosi g'oyat boy bo'lgan va kam tekshirilgan bu o'lka rus ziyolilarning taraqqiyparvar qismini juda qiziqtirardi. Mashhur rus zoologi, zoogeografi va sayyohi, darvinizmning e'tiqodli tarafdorlaridan bo'lgan N.A.Seversov (1827-1886) Turkistonning ko'p joylarini fizik - geografik jihatdan o'rgandi, Pomir tizma tog'larining

orografiyasini tadqiq qildi.

Tabiatshunos va sayyoh A.P.Fedchenko (1844-1873) Turkiston tabiatini o'rganishda katta rol o'ynadi. U Farg'ona vodiysi bilan Oloyni birinchi marta tekshirib chiqdi. Oloy orqasidagi tizma tog'lar va uning eng baland cho'qqisini ochdi, u Zarafshon vodiysi bilan Qizilqumni ham tekshirib chiqqan. Zarafshon daryosining boshlanish qismidagi ulkan abadiy muzlikni birinchi bo'lib topganligi uchun keyinroq bu muzlik Fedchenko nomi bilan atala boshladi.

Geolog va geograf I.V.Mushketov (1850-1902) shimoliy Tyanshan tizma tog'ining tuzilishini ko'rsatib beradi. U Turkistondagi ko'pgina foydali qazilma konlarini ta'riflab, Turkiston menerallarining dastlabki ro'yxatini tuzib chiqdi. 1877-1879 yillarda Mushketov geologik tekshirish maqsadida Oloy, Pomir, Buxoro, Hisorga, Amudaryo bo'ylab va Qizilqumga sayohat qildi. 1880 yilda esa Zarafshon muzligiga ilmiy safar uyushtirdi. I.V.Mushketov 1881 yilda (G.D.Romanovskiy bilan hamkorlikda) Turkistonning birinchi geologik xaritasini tuzdi. O'rta Osiyo geologiya tuzilishining birinchi konsepsiyasini taklif qildi, uni o'rganish bosqichlarini ko'rsatib berdi. I.V.Mushketov o'z tadqiqotlarini va Turkistonni o'rganan boshqa olimlarning ilmiy ishlarini o'zining mashhur "**Turkistonning geologiya va orografiya ta'rifi**" monografiyasida umumlashtirgan. Bu monografiyaga yozilgan katta muqaddimga tarixshunoslik nuqtai nazaridan yondashgan.

O'rta Osiyo tuprog'ini o'rganishda ham rus tadqiqotchilarining xizmati katta. Mashhur rus olimi, hozirgi zamon ilmiy tuproqshunosligiga asos solgan V.V.Dokuchaev (1846-1903) o'zining ko'pgina asarlarida bu sohada dastlabki (1898 yilda) ma'lumotlarni bergan.

Turkiston harbiy topografiya bo'limi tuzilganiga qadar (1867 yil) o'lka **topografik** jihatdan o'rganilmagan edi. Topograflar O'rta Osiyoning bosh xaritasini tuzishdi. Turkiston bosib olingandan keyin o'lkani xaritaga tushirish va iqlimini o'rganish uchun ilmiy baza yaratish masalasi tug'ildi.

Bular haqida fikr yuritilar ekan, o'qituvchi dars jarayonida talabalarga o'zlari yashayotgan hudud - viloyatlarning xaritasini chizishni vazifa qilib bersa, ularda yashaydigan manzil - o'lkaga bo'lgan qiziqish va mehrning ortishi tabiiydir.

1867 yilda Toshkent **meteorologiya (o'lka iqlimini o'rganish) markazi** tuzildi, bir oz vaqtdan keyin shunday markazlardan bir qanchasi boshqa yerlarda ham vujudga keldi.

Toshkentda falakiyotshunoslik rasadxonasi 1874 yilda Rossiyadagi eng qadimgi Pulkovo rasadxonasi xodimlarining yordamida ochildi. Shart-sharoitning qiyinligiga qaramay, bu sohada katta yutuqlar qo'lga kiritildi. Rasadxona xodimlari hozirgi O'rta Osiyo respublikalari hududida qariyb 870 falakiyot manzillarini aniqladilar. Ular o'z tashabslari bilan ilmiy-tekshirish ishlarini olib bordilar. Keyinchalik esa, mablag' yo'qligi sababli

rasadxonada tadqiqot ishlari davom ettirilmasdan qoladi.

O'lkani o'rganishda statistika qo'mitalari ham muhim rol o'ynadi. 1868 yil yanvarda Turkiston statistika qo'mitasi tuzildi. Uning tashabusi bilan 1872 yildan **"Turkiston o'lkasi statistikasi uchun materiallar"** nomli to'plam chiqarila boshlandi: (1872-1876 yillar ichida hammasi bo'lib 5 ta to'plam chiqarildi). 1887 yil birinchi yanvardan boshlab Sirdaryo (Toshkentda), Samarqand (Samarqandda), Farg'ona (Yangi Marg'ilonda) viloyatlarida statistika qo'mitalari tuzildi. Qo'mitalar viloyatlarga xos ma'lumotlar to'plami nashr qilib, ularda **"tabiiy va ishlab chiqarish ishlari"**, xalq xo'jaligi, sug'orish tizimlari, yo'llar, aholi va uning mashg'uloti, o'lpon va soliqlar, ma'muriy tuzilish, sog'liqni saqlash va maorif, jamoat obodonchiligi, ob-havo kuzatishlari va hokazolar haqidagi batafsil ma'lumotlar berildi. 1886-1913 yillarga oid **"Sirdaryo viloyati obzorlari"** (Toshkent, 1887-1916 yillar), 1884-1913 yillarga oid **"Farg'ona viloyati obzorlari"** (Yangi Marg'ilon-Skobelov, 1889-1916 yillar) nashr qilingan edi. Qo'mitalar bulardan tashqari yana o'z ishlari haqida hisobotlar va boshqa kitoblarni ham nashr ettirdilar.

O'rta Osiyo xalqlarining turmushiga bag'ishlangan, ilmiy va o'lkashunoslikka doir turli habarlar va maqolalar **"Turkestanskie vedomosti"**, **"Turkiston viloyatining gazetisi"** (Toshkent, 1870-1917 yillar) va boshqa mahalliy matbuotda muntazam bosilib turdi.

1870 yilda Toshkentda ochilgan Turkiston xalq kutubxonasi (hozirgi Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi) o'lkani o'rganish bilan shug'ullanuvchi barcha tadqiqotchilar, ayniqsa, mahalliy xodimlar uchun katta ahamiyatga ega bo'ldi. Kutubxona tashabbuskor bibliofillar (kitob muharrirlari) va bibliograflarning ko'rsatgan faoliyati asosida o'lkani o'ranishga doir qimmatli asar va materiallar bilan boyib bordi. Kutubxona ochilishi vaqtida faqat 1700 jild kitob bor edi, 1917 yilga kelib undagi kitoblar soni 80 ming jildga yetdi. Hozirda esa kitoblarning umumiy soni 10 million jilddan ortiqdir. Kutubxona fondida saqlanayotgan adabiyot va manba majmualaridan O'rta Osiyoga, ayniqsa, Turkiston o'lkasiga taalluqli **"Turkiston asarlar va maqolalar to'plami"** juda ham qimmatli asar bo'lib, shu kunlarda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Bu to'plamni tuzishda ko'zga ko'ringan rus bibliografi V.I. Mejev Peterburgda 1868 yildan boshlab 20 yil davomida ish olib borgan edi.

1888 yildan **"Turkiston to'plami"**ga kirgan katta-kichik jildlarning soni 416 ga yetganida (bular 1868-1888 yillarda to'plangan materiallar edi) o'lkada chor ma'muriyatining buyrug'i bilan **"mablag' yo'qligi sababli"** bu ishlar to'xtatilgan edi. V.I. Mejev **"Turkiston to'plami"**ga uch kitobdan iborat sistematik va alfavit ko'rsatgich tuzgan. A. Kun va boshqa sharqshunoslar mashhur **"Turkiston albomi"** (Turkiston o'lkasining etnografiya, arxeologiya, kasb-hunar va tarixiga doir suratli albom)ni tuzib tamomladilar.

Albom 1262 dona rangli va rangsiz fotosuratlar yopishtirilgan 447

kartondan iborat bo'lib, badiiy jihatdan g'oyat noyob asar edi.

O'zbekistonning va umuman butun Turkistonning yodgorliklari ko'pdan buyon olimlarning diqqatini o'ziga jalb qilib kelardi. XIX-XX asr bo'sag'alarida osori atiqalar ustida arxeologik kuzatishlar, qidiruv ishlari olib borildi. Bu sohadagi tadqiqotlar ko'proq P.I.Lerx, N.I.Veselovskiy, V.A.Jukovskiy, V.V.Bartold, M.S.Andreev, V.L.Vyatkin, A.L.Kun, A.A.Semyonov va boshqalarning nomlari bilan bog'liqdir.

Sobiq Turkistonning qadimiy yodgorliklarini hisobga olish va tekshirishga Markazdagi ilmiy muassasalar; Imerator arxeologiya komissiyasi, ayniqsa rus arxeologiya jamiyatining Sharq bo'limi, shuningdek, 1903 yil aprelda tashkil qilingan O'rta va Sharqiy Osiyoni tarixiy, arxeologik, lingvistik va etnografik jihatdan o'rganish qo'mitasi ham alohida e'tiborni qaratdi.

Arxeologiya yig'malari 1871, 1874, 1889 yillardan Toshkent, Samarqand va Farg'onada ochilgan muzeylarda saqlanadi.

O'rta Osiyo tarixiga oid eng muhim manbalaridan biri Muhammad Narshaxiyning "**Buxoro tarixi**" (X asr) asari N.S.Likoshin tomonidan rus tiliga tarjima qilinib, 1897 yilda nashr etilishi (V.V.Bartold tahriri ostida) muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Qadimgi me'morchilik yodgorliklaridan asosan Samarqand yodgorliklari o'rganildi. 1895 yilda N.I.Veselovskiy rahbarligi ostida va me'mor A.V.Shchusev va boshqa mutaxassislar ishtirokida imperator arxeologiya komissiyasi Go'ri Amirni me'morchilik, dekoratsiya nuqtai nazaridan o'rganish uchun ilmiy safar uyushtirdi. Bu ilmiy ishlarning natijalari 1905 yilda ajoyib al'bom holida nashr etildi.

O'rta Osiyo chor Rossiyasi tarafidan bosib olingandan keyin O'zbekistonning tarixi va arxeologiyasi bilan birga, butun o'lkani etnografik jihatdan o'rganish ishlari ham bir muncha kengaytirildi. Bu ishlarda sharqshunos mutaxassislar bilan birga, havaskor o'lkashunoslar va mansabdorlar, ko'proq harbiylar orasidan chiqqanlar qatnashdilar. Ular Turkiston o'lkasi idora organlaridagi xizmatlarning bergan imkoniyatidan foydalanib, xalq turmushini o'rgandilar, turli joylarga borib mahalliy aholi bilan aloqa bog'ladilar. V.V.Bartold, N.I.Veselovskiy, V.Radlov, A.N.Samoylovich singari mashhur sharqshunoslarning ayrim asarlari etnografik nuqtai nazardan katta ahamiyatga ega.

XIX asr oxiri - XX asr boshlarida O'rta Osiyo gilamlariga Rossiya va Yevropa mamlakatlari juda qiziqib qolishdi. Bu borada 1908-1909 yillarda A.A. Bogolyubov tomonidan tuzilgan albom chiqdi. Bu albomda juda ko'p xil gilam nusxalari ko'rsatilgan edi. A.A.Bogolyubov unda birinchi marta ularni ilmiy asosda tasniflashga urinib ko'rgandi. Uning albomidan so'ng A.Falkerkam, S.M.Dudin va boshlaqalarning O'rta Osiyo gilamlarini mufassal ta'riflagan kitoblari chop etildi.

O'lkani o'rganishga bo'lgan ehtiyoj va talablar olimlar oldiga

yangidan-yangi vazifalarni ko'ndalang qilib qo'ydi. Bu vazifalarni hal qilish uchun katta mablag' kerak edi. O'lkada esa ilmiy-tekshirish muassasalari deyarli butunlay yo'q edi. Bu holat o'lkadagi olimlarni, umuman rus ziyolilari namoyondalarini Moskva va Peterburgdagi yirik olimlarning qo'llab-quvvatlashi bilan ilmiy jamiyatlarni tuza boshlashga undadi. Ilmiy jamiyatlarning paydo bo'lishi bu yerda mahalliy turkistonshunos xodimlar paydo bo'lganligidan va ularning ishlarini o'zaro muvofiqlash zarurligidan dalolat berardi.

Qisqa muddat ichida tashkil etilgan **Turkiston ilmiy jamiyatlari** o'lka tarixini o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bulardan ba'zi birlari faqat mahalliy ahamiyatga ega bo'lgan jamiyatlar bo'lsa, boshqalari Umumrossiya ilmiy jamiyatlarining bo'limlari. Shuningdek rus texnika jamiyatining hamda tibbiyot, arxeologiya, antropologiya va etnografiya havaskorlari jamiyatning Turkiston bo'limlari edi.

1870 yilda "**O'rta Osiyo olimlari jamiyati**" paydo bo'ldi. Bu jamiyat o'z oldiga O'rta Osiyo tarixi, geografiya, etnografiya, statistika, iqtisodiyotiga oid ma'lumotlarni to'plash, ishlash va tarqatishni maqsad qilib qo'ygan edi. Uning birinchi ochiq majlisi 1871 yil 28 yanvarda bo'ldi.

Shu bilan bir vaqtda A.P.Fedchenkning faol ishtiroki bilan tibbiyot, arxeologiya va etnografiya havaskorlari jamiyatining Turkiston bo'limi ochildi. Bo'lim a'zolari orasida N.A. Seversov, I.V. Mushketov, V.F.Oshanin kabi olimlari bor edi. Bo'lim 1879 yilda "**Tabiiyot, arxeologiya, antropologiya va etnografiya havaskorlari jamiyati Turkiston bo'limining xotiralari**" degan o'zining birinchi asarini bosib chiqardi. Bu to'plamga kirgan maqolalar orasida N.A.Seversovning "**Pomir umurtqali faunasidan ma'lumotlar**" maqolasi, N.B.Teyxning o'lka ilmiy ta'rifiga bag'ishlangan ishlari va boshqalar diqqatga sazovordir.

Bo'limda bu jamiyatning Moskvada 1872 yilda tashkil qilingan ikkinchi politexnika ko'rgazmasida Turkiston bo'limining ishtirok etishiga tayorgarlik ko'rish yuzasidan katta ishlar olib borildi. O'rta Osiyo olimlari jamiyatida bo'lgani singari, bu bo'lim majlislarida ham qimmatli ilmiy axborotlar va ma'ruzalar tinglandi. Jamiyatning 1878 yilda V.F.Oshanin rahbarligi ostida tashkil qilingan ilmiy safari natijasida Buyuk Pyotr tizma tog'lari ochildi. Mablag' yo'qligi tufayli bo'lim juda katta qiyinchiliklarni boshdan kechirdi va taxminan 1893 yilda o'z faoliyatini to'xtatishga majbur bo'ldi.

O'lkada ishlab turgan havaskor arxeologlar 1895 yilda Turkiston arxeologiya havaskorlari to'garagiga birlashdi. Turkiston arxeologiya havaskorlari to'garagi a'zolari tomonidan Farg'ona tog' tizmalaridagi Soymaylitosh degan joyda toshga o'yib solingan juda ko'p suratlarning topilishi, mashhur Biya - nayman ossuariylari va hokazolarning ochilishi fan solnomalariga juda ham muhim ilmiy kashfiyotlar bo'lib kirdi.

Mahalliy ilmiy xodimlardan bir guruhi V.F.Oshanin va boshqalarning tashabusi bilan 1897 yil boshida rus geografiya jamiyatining Turkiston

bo'limi tashkil qilingan edi. Bu jamiyat bo'limi orqali Orol dengizi va Balxash ko'li, Turkiston muzliklari va hayvonot dunyosini o'rganish singari juda muhim ishlar olib borildi. Foydali qazilmalar qidirib topilib, tekshirildi. O'rta Osiyoda zilzila sabablari va oqibatlarini aniqlash ishlari olib borildi va hokazo.

XIX asr oxiri - XX asr boshlarida o'lkada hammasi bo'lib **15 ga yaqin ilmiy jamiyat** ish olib bordi. Ular geologiya, geografiya, zoologiya, botanika, iqtisodiyot, tarix, sharqshunoslik, arxeologiya, etnografiya, antropologiya, ilmiy tibbiyot va shu kabi bilim tarmoqlari va yordamchi ilmiy fanlar sohasida tadqiqot ishlarini olib borganlar.

Mustamlaka Turkiston sharoitida ilmiy jamiyatlarning faoliyati mahalliy aholi o'rtasiga yoyilmadi. Ilmiy tibbiyot jamiyatlari bundan bir qadar mustasnodir. O'lkada Farg'ona tibbiyot jamiyati (1892-1910 yillar), Turkiston shifokorlar jamiyati (1899-1909 yillar), Turkiston tibbiyot jamiyati (1900-1908 yillar) faoliyat ko'rsatdi. Bu jamiyatlar Turkiston o'lkasida tibbiyot, tabiatshunoslar va shifokorlar ishlarini tashkil etish va yaxshilash masalasini, kishilarning sog'lig'i va hayotiga zararli bo'lgan o'rta asrchilik qoldiqlariga qarshi kurash olib borish masalarini o'rta qo'yib, ularni muhokama qildi.

XX asr boshlarida ham Turkistondagi ilmiy jamiyatlar o'z faoliyatini davom ettirdi. V.Oshanin o'lka hayvonot dunyosini o'rgandi; N.A.Zarudniy Turkiston parrandalarini o'rgandi; B.A.Fedchenko va uning onasi O.A.Fedchenko o'lkaning o'simlik dunyosini tadqiq qildi. Bu ishlar natijasida ilmiy jamiyatlar bo'limi tomonidan e'lon qilingan asarlarda o'simlik va hayvonot dunyosining 80 xil yangi urug', tur va kichik turlarini ta'riflovchi ma'lumotlar e'lon qilindi.

B.A.Fedchenkoning 1915 yilda e'lon qilingan "**Turkiston o'simliklari**" degan asarida O'rta Osiyoda ma'lum bo'lgan 5030 dan ko'proq o'simlik xillari ko'rsatib o'tilgan.

Turkistonda bo'lgan zilzilarni B.Ya.Korolenko, G.B.Leonov va boshqalar o'rgangan.

Sharqshunoslik jamiyati Toshkent bo'limining faoliyati (1901-1913) ham diqqatga sazovordir. Bu bo'lim tashubussi bilan o'lkada tub joy aholining rus tilini o'rganishi uchun bepul kechki kurslar tashkil qilingan. Bu kurslarda xunarmand - kosiblar va shahar aholisining quyi tabaqisidan bo'lgan boshqa kishilar o'qigan. 1906 yilda jamiyat bo'limi S. M. Slovyovning "**Boshlang'ich o'qish uchun rus solnomasi**"ni nashr qildi, buni o'zbek tiliga N.S. Likoshin tarjima qiladi. Bu asar 2700 nusxada bo'lib, rus - tuzem maktablariga bepul tarqatilgan. Bunda albatta, umumiy ta'lim maqsadigina emas, shu bilan birga, siyosiy, maqsadlar ham ko'zda tutilgan edi.

1907 yilda bibliograf I.V.Dmitrovskiy rahbarligi ostida "**Turkiston to'plamini tuzish ishlari**" yangidan boshlandi. 1917 yilga qadar to'plam

jildlarining soni 394 ga yetkazildi. Yuqorida ko'rsatib o'tilganidek, bu to'plam juda ham qimmatli va nodir yodgorliklar majmui hisoblanadi. Unda O'rta Osiyo va unga qo'shni bo'lgan Sharq mamlakatlarining tarix, arxeologiyasi, etnografiyasi, adabiyoti, iqtisodiyoti, madaniyati, tarixi va boshqa masalalariga oid keng ma'lumotlar bor.

O'rta Osiyo tarixi va arxeologiyasi XX asr boshidan chuqurroq tekshirila boshlandi. Bunda birinchi rahbarlik o'rinda, shubhasiz, g'oyat bilimdon olim, mashhur sharqshunos akademik V.V Bartold (1869-1930) turdi. U sharq tilini yaxshi bilganidan hamisha uning ilmiy faoliyati markazida turgan O'rta Osiyo tarixigina emas, shu bilan birga, butun **"musulmonlar Sharqi"** tarixiga oid juda ko'p birinchi manbalarni puxta o'rganish imkoniyatiga ega bo'ldik. Uning **"Turkiston mo'g'ullar xuruji davrida"** (1898-1900 yillar) singari asarlari puxta to'plangan, tatqiq qilingan, asl nusxali ma'lumotlarga boyligi jihatidan, O'rta Osiyoning o'tmishini o'rganishda fanga qo'shilgan g'oyat katta hissadir. V.V.Bartol'dning **"Ulug'bek va uning zamoni"**, **"Turkistonning sug'orish tarixiga doir"** nomli asarlari va boshqa ko'p kitob, maqola, tatqiqot va mulohazalari g'oyat qimmatli va o'z ahamiyatini yo'qotmagan asarlardir. Polkovnik A.G.Serebryannikov to'plagan O'rta Osiyo istilosi tarixiga oid 70 ta katta - katta jilddan iborat ma'lumotlar O'rta Osiyoning 1839-1876 yilgacha o'tgan davr tarixini o'rganishda ma'lum darajada qiziqarli manbadir. Bular Peterburg, Moskva, Orenburg, Tifliz va Omsk arxiv ma'lumotlari asosida tanlab olingan. Bulardan faqat 14 jildi nashr qilingan xolos.

Mahalliy arxeologlardan V.L Vyatkinning (1869-1932) ishlari diqqatga sazovordir. Bu olim 1908 yilda Samarqanddagi Ulug'bek rasadxonasining qoldiqlarini ochdi, Samarqand yodgorliklarini o'rganish va saqlash bilan shug'ullandi, qadimgi Afrosiyob qo'rg'oni va uning atroflarini tatqiq etdi.

V.V.Bartold o'zining 1894 yilda bosilib chiqqan **"Turkistonda arxeologik tatqiqotlar masalasiga doir"** kitobida o'lkani jiddiy ravishda o'rganish hali oldimizda turibdi, bu ishda bosh rolni mahalliy ilmiy kuchlar o'ynamog'i lozim, degan edi. Uning taklifi bilan 1895 yili oktabr oyida **Turkiston arxeologiya havaskorlarining to'garagi va uning nizomi tasdiqlandi.** To'garakka Turkiston general-gubernatori baron B. A. Vrevskiy rais etib saylangandi. To'garakning 108 a'zosi bo'lib, bular ichida V.V. Bartold, D.V. Oshanin va boshqalar ham bor edi.

O'rta Osiyo, shu jumladan Ko'qon xonligi, Namangan va Toshkentda yashagan o'zbek xalqining tarixi, tilini va urf odatlarini o'rganishda Vladimir Petrovich Nalivkinning (1852-1918) ham qo'shgan hissasi kattadir.

Uning ilmiy faoliyati O'rta Osiyo xalqlari tarixi, tili va etnografiyasini o'rganishdan boshlandi. U rafiqasi M.V. Nalivkina bilan hamkorlikda **"Farg'ona mahalliy aholisi ayollarining turmush tarzi haqida ocherk"**

degan kitob yozdi. V.P.Nalivkin rus olimlari ichida birinchi bo'lib mahalliy tillarni o'rganib, mahalliy tarixchilar qo'lyozma asarlarini o'rgangan va shular asosida **“Qo'qon xonligining qisqacha tarixi”** va **“Ruscha - sarcha va sarcha - ruscha lug'at”** hamda **“Intihob ut - tavorix mamlakati Rossiya”** kitoblarini va qirqdan ortiq ilmiy asarlar, maqolalar yozgan. Mahalliy xalq tilini juda mukammal bilganligi sababli uni yerli axoli **“Jahongir to'ra”**, deb ataganlar, u ham bir necha asarini **“Jahongir to'ra”** nomi bilan chop ettirgan.

XX asrning 20 yillariga qadar tadqiqotchi olimlar va havaskor turkshunoslarning sa'yi harakatlari bilan o'lkamizni o'rganishga doir anchagina materiallar to'plandi.

Qadriyatlarimiz esa o'z o'lkamiz tarixini o'rganishdan boshlanishi hech kimga sir emas. Biroq sobiq ittifoq davrida kechgan 70 yildan ortiq davr mobaynida yosh avlodga o'tmish tariximizni o'rgatishda katta xatolik va chalkashliklarga yo'l qo'yib kelingan edi.

1917 yilgacha yashagan bir qator sharqshunos olimlar va mahalliy tarixchilarning o'lkani o'rganishga bag'ishlangan ko'pgina asarlari unutildi. O'lka tarixi bilan bevosita shug'ullanganlari esa millatchilik tamg'asiga duchor bo'ldilar. Zero tadqiqotchi olimlarning izlanishlari tufayligina o'tmish tariximiz oydinlashib boradi.

O'lkamiz juda qadimdan dunyo bo'yicha yirik ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jarayonlar kechgan hudud ekanligi tarixdan ma'lum. Masalan, O'zbekiston hududida mezolit (o'rta tosh) davri miloddan avvalgi 12 ming yillikdan 5 ming yillikkacha davom etgan bo'lib, o'sha vaqtda ibtidoiy tasviriy san'at boshqa joylardagiga qaraganda o'lkamizda ancha keng rivojlangan edi. G'orlarda yashagan odamlar qoya toshlarga qizil bo'yoq bilan naqsh chizib yoki o'yib yozib, ajoyib ov manzaralarini qoldirib ketganlar. Bunday nodir san'at obidalari Surxondaryo viloyatidagi Zarautsoy darasida, Jizzax viloyatidagi Takatosh, Navoiy viloyatidagi Sarmish, Qoraungursoylarda, Toshkent vohasidagi Qorazov, Xo'jacentda va Parkent hududlaridan topib o'rganildi. Bularning barchasi O'zbekistonning ibtidoiy davri tarixini o'rganishda g'oyat qimmatli tarixiy hujjatlar hisoblanadi.

Termiz yaqinidagi Ayritomda toshga o'yilgan bo'rtma rasmlar, Xorazmning qadimgi poytaxti - Tuproqqal'adan chiqqan haykal, devorga ishlangan rasmlar hamda Surxondaryodagi Xolchayon, Dalvarzintepadan topilgan gil va ganchdan yasalgan haykallar xalqimizning qadimda o'ziga xos betakror usullar bilan yuksaklikka ko'tarilgan tasviriy san'at madaniyatini yuzaga keltirganligini ko'rsatadi. Ammo bular haqidagi ma'lumotlar va ularning mazmuni tarixiy haqiqat nuqtai nazaridan mustabid tuzum davrida yoshlarga yetarlicha o'rgatilmadi. Masalan, o'lkamizda mineral boyliklarni qidirgan, qo'rg'oshin va feruza konlarini topgan xo'jandlik Mulla Sangin, Chimkentda o'lkadagi birinchi rus - tuzem maktabini ochishda faollik ko'rsatgan, Qo'qon shahar maktabida ishlagan

etdi. Bu borada uning o'zbek va rus tillarida nashr etilgan **"Xorazmning sug'orish tarixi"** (1957 – 1959) nomli yirik asari katta ahamiyatga ega. Asarda Xorazm vohasida eng qadimiy davrlardan to o'tgan asrimizning 50 yillarigacha bo'lgan vaqt ichida sun'iy sug'orishning paydo bo'lishi, rivoji, inqirozga uchrashi, uning sabablari batafsil yoritilgan. Asar keyingi yillarda sun'iy sug'orish tarixi bo'yicha chop etilgan va chop etilayotgan ishlarning nazariy asoslari sifatida hamon o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q.

1950 yilda Yahyo G'ulomov mazkur tadqiqot bo'yicha Moskvada doktorlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli yoqladi. Yahyo G'ulomov tarix va arxeologiya institutlarining asoschilaridan biridir. U o'ta millatparvar va vatanparvar odam edi. O'z oldiga milliy arxeologiya fanini rivojlantirish, o'zbek xalqining jahon tamadduniga qo'shgan hissasini jahon uzra taratishni maqsad qilib qo'ygan edi. U bu oliy maqsadga erishish uchun kuch-quvvatini ayamay sarfladi. Yahyo G'ulomov O'zbekistonda arxeologiya bo'yicha milliy kadrlar tayyorlab, O'zbekiston arxeologiya maktabini yaratdi.

Yahyo G'ulomov 1943–1977 yillarda, ya'ni umrining oxirigacha O'zbekiston Fanlar akademiyasi dastlab tarix va arxeologiya, 1970 yildan tarix institutining "Qadimgi va O'rta asrlar tarixi" bo'limiga boshchilik qildi. 1956 yilda O'zbekiston Fanlar akademiyasining muxbir a'zosi, 1966 yildan akademigi etib saylandi. 1956-1959 yillarda Tarix va arxeologiya instituti direktori lavozimida ishladi.

Davlat va jamoat arbobi, yetuk arxeolog olim, akademik **Ahmadali Asqarov** 1935 yil Namangan viloyati, Norin tumani, Uchtepa qishlog'ida tug'ilgan. 1957 yil Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika institutining Tarix fakultetini tugatgan. Dastlab o'rta maktabda o'qituvchi, keyin 1958-1961 yillarda Leningradda aspiranturada o'qidi. Taniqli professor, arxeolog M.P.Gryaznov rahbarligida ilmiy tadqiqot ishlarini olib boradi. 1963 yil "Quyi Zarafshonda Bronza davri madaniyati" mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini yoqlaydi. 1977 yili Moskvada Ittifoq akademiyasining Arxeologiya institutida "Janubiy O'zbekiston Bronza davrida" nomli doktorlik dissertatsiyasini yoqladi. Rasmiy opponentlar akademik B.B.Piotrovskiy, tarix fanlari doktorlari G.E.Markov, Ye.N.Chernыхlar dissertatsiyaga ijobiy baho berdilar"¹. Bu O'zbekistonda arxeologiya fanining katta yutug'i edi. Ushbu ish o'lka tarixini o'rganish uchun muhim manba hisoblanadi. Tadqiqot ishining mazmuni "Bronza davrida Janubiy O'zbekistondagi qadimgi dehqonchilik madaniyati"² kitobida to'la aks ettirilgan. A.Asqarov janubiy O'zbekistonda qadimgi dehqonchilik ma'daniyati tarixi bo'yicha olib borigan izchil tadqiqotlari tufayli fan olamida o'z o'mini topdi. Bu izlanishlar tufayli O'zbekistonda sug'orma dehqonchilik ma'daniyati tarixi rosa ming yilga qadimiylashdi,

¹ Qajomov A. Akademik Ahmadali Asqarov. T.: Fan, - 2003. – 376.

² Asqarov A. Bronza davrida Janubiy O'zbekistondagi qadimgi dehqonchilik madaniyati T.: Fan, - 1977. – 2326.

paxtachilik, ipakchilik, bog'dorchilikning tarixiy ildizlari bronza davriga borib taqaldi, ya'ni 3,5 ming yil - miloddan avvalgi II ming yillikning birinchi yarimigacha borib yetdi; Janubiy O'zbekiston hududlari qadimgi Sharq tamaddunining beshinchi o'chog'i bo'lganligi ilmiy isbotlandi.

A.Asqarov 1961 yilda "Zamonbobo madaniyati"ga oid chuqur tadqiqotlar olib bordi, ustozlari Yahyo G'ulomov boshlagan ishni sinchkovlik bilan davom ettirdi. Bu ilmiy ishlarning natijalari uning o'nlab maqolalari va 1966 yilda akademik O'.Islomov va ustozlari Ya.G'ulomov bilan chop etilgan "Zarafshon qo'yi havzalarida ibtidoiy madaniyat" nomli monografiyasida o'z aksini topgan. Olim o'zining sermazmun ilmiy faoliyati davomida 400 dan ortiq ilmiy maqola, 116 ta monografiyalar, darsliklar va o'quv qo'llanmalar yaratdi. Ayniqsa, ustozning 2007 yilda "**O'zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi**" nomli o'quv qo'llanmasining nashr etilishi Mustaqil O'zbekiston tarixida muhim ahamiyatga ega bo'ldi. A.Asqarov O'zbekiston Fanlar akademiyasining Samarqandda ochilgan arxeologiya institutini tashkil etishda, uning ilmiy jamoasini uyushtirishda jonbozlik qilgan va ushbu arxeologiya instituti nufuzini jahonga olib chiqqan fidoyi, jonkuyar olim va fan tashkilotchisi, Ya.G'ulomov ilmiy maktabining davomchisidir. Bir necha yillar davomida mazkur oliygohning "Vatan tarixi" kafedrasida kafedra mudiri lavozimida ishladilar. Hozirgi kunda A.Asqarov nafaqada bo'lsada yosh arxeolog va tadqiqotchilarga ustozlik qilmoqdalar.

Tarix fanlari doktori, arxeolog olim, akademik **O'tkur Islomov** 1932 yil Toshkent shahrida, pedagoglar oilasida dunyoga kelgan. Olimning otasi Ismoilov Islom O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan o'qituvchi, onasi Ismoilova Habiba butun hayotini yoshlarga bilim berishga bag'ishlagan jonkuyar o'qituvchilardan biri bo'lgan. O'tkur Islomov 1947-1951 yillarda Toshkent pedagogika bilim yurtini, 1952-1956 yillarda Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika institutini imtiyozli tamomlaydi. U mehnat faoliyatini 1956 yilda poytaxt viloyati, Qorasuv tumanidagi 14- o'rta maktabda o'qituvchilikdan boshlaydi. Bo'lajak olimning tirishqoqligi va bilimdonligi Yahyo G'ulomovning e'tiboriga tez tushadi. O'tkur Islomov 1963 yili «Quyil Zarafshonning neolit madaniyati» mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini, 1978 yilda esa «O'rta Osiyo mezoliti» nomli doktorlik dissertatsiyasini Novosibirskiy arxeologiya institutida himoya qildi. Olim 1963 - 1964 yillarda Toshkentdagi Tarix va arxeologiya institutining kichik ilmiy xodim, 1964-1970 yillarda katta ilmiy xodimi, 1970-2000 yillarda bo'lim mudiri lavozimlarida ishladi. Hozirgi kunda esa O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Arxeologiya institutining Toshkent bo'limi mudiri lavozimida xizmat qilib kelmoqda. U O'rta Osiyoda birinchi bo'lib, Samarqandda ochilgan O'zbekiston Fanlar akademiyasi Arxeologiya institutida rahbarlik lavozimlaridan birida ish olib bordi. U o'z safdoshlari bilan birgalikda Samarqand arxeologiya institutini oyoqqa turg'azishda, «Samarqand arxeologiya maktabini» tashkil etishda faol qatnashdi. U Qizilqum

cho'llarida va Surxon, Toshkent, Farg'ona tog'larida, Rossiyaning mashhur paleolit makoni - Kostenokovodan tortib to Uzoq Sibir kengliklarigacha bo'lgan hududlarda ko'plab arxeologik izlanishlar o'tkazgan. Olim 2000 yildan O'zbekiston Fanlar akademiyasining akademigidir.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. O'lkashunoslik qanday manbalarga asoslanadi?
2. O'lkashunoslikda arxeologiya faning ahamiyati qanday?
3. V.L.Vyatkinning arxeologiya sohasidagi tadqiqotlari haqida nima bilasiz?
4. O'zbekistonda arxeologiyaning rivojlanishiga doir qanday ma'lumotlarga egasiz?
5. O'zbek arxeologlaridan kimlarni bilasiz?
6. Akademik Ya.G'.G'ulomov ilmiy maktabi haqida nimalarni bilasiz?

Tayanch so'zlar izohi:

Moddiy yodgorliklar - inson tomonidan yaratilib, bizgacha saqlangan bigiz, bolta, taqinchoq kabi ashyoviy narsa, buyumlar.

Madaniy qatlam - o'tmishning ma'lum bir davrlariga xos odamlarning hayot tarzi kechgan joy.

Kalit so'zlar: O'lkashunoslik va turizmning asosiy manbalari, arxeologiyaning o'lkashunoslik va turizmdagi o'rnini, qadimshunoslik, moddiy yodgorliklar, arxeologik topilma, moddiy jismlar, ashyo, ilmiy-madaniy muassasalarning shakllanishi, "Turkiston viloyatining gazetasi", "Turkiston to'plami", ilmiy jamiyatlar, Ulug'bek rasadxonasi, arxeologik tadqiqotlar, arxeolog olimlar, o'zbek arxeologlari,

3-mavzu: Mamlakatimizda o'lka tarixining o'rganilishi

Reja:

1. O'lkamiz qadimgi davrining o'rganilishi.
2. Yerga egalik munosabatlarining shakllanishi va rivojlanishi davri.
3. O'lkamiz yangi davrda.

Ibtidoiy jamoa davri ilk odam zotining paydo bo'lishidan to jamiyatining sinflarga ajralishigacha bo'lgan uzoq davmi o'z ichiga oladi.

Dastlab odamlar urug'-aymoq va oila degan narsani bilmasdan ibtidoiy (to'da) holda yashaganlar. Bu davr odamlari toshdan qurol yasab, uni ishlatib va qurollarni takomillashtira borgan sari, o'zlari ham rivojlanib borgan. Bu qurollar qo'lda qo'pol qilib, kertib ishlangan bir-ikki xildan oshmagan tosh qurollar bo'lgan. Ishlab chiqarish texnikasi jihatidan bu davr ilk paleolit (qadimgi tosh) (milloddan avvalgi 2 mln. 100 ming yilliklar (dunyo tarixida 3 mln. yillar oldin boshlangan)) davri deb atalib, mehnat qurollari taraqqiyot bosqichi jihatidan olduvay, shell, ashel va must'e davrlari deb ham ataladi;

bu davr paleolit davrining quyi va o'rta bosqichini tashkil qiladi. Bu davrlarda yashagan zinjanthrop (Afrika odami), pitekanthrop (maymun odam), sinantrop (xitoy odami), geydelberg (germaniya odami), neandertal tipidagi odamlar tuzilishi jihatidan odam bilan maymun o'rtasidagi holatda bo'lganlar. Ular to'da-to'da bo'lib yashab, mayda hayvonlar, hashorot, turli meva va o'simlik ildizlarini yeb kun kechirganlar. Ular so'zlashishni bilmaganlar. Sinantrop ashel texnikasidan foydalangan bo'lsa, neandertal odami muste davriga to'g'ri keladi.

Janubiy Turkmanistonda, Toshkent viloyatining Bo'stonliq tumanida va Farg'onada, Qoraqum cho'lida ham ashel davrining ba'zi qurollari topilgan. Demak, bundan taxminan 400 - 500 ming yillar ilgari O'rta Osiyo va O'zbekistonda ashel qurollarini ishlatgan ibtidoiy, to'da holatidagi odamlar yashagan.

Bu davrda tosh qurollarning turi va ishlanishi texnikasi ancha yaxshilanganligi sababli, odamlar yog'ochning uchini six qilib ishlash hamda suyakdan asbob yasashni o'rgandilar. Qo'l mehnatining nisbatan yuqoriroq shakllangan bu davri o'rta paleolit (miloddan avv. 100-40 ming yilliklar) da "must'e madaniyati" davri, deb ataladi. Bu ashel davridan keyin keladi. Bu davrda neandertal odami yashagan. Bular ibtidoiy to'da holidan urug'-aymoq munosabatlariga o'tishga yaqinlashib, bir oz so'zlashishni ham o'rgana boshlaganlar. Bu davr kishilari jamoa bo'lib, katta-katta hayvonlarni ovlash, bir joyda ko'plab yashash orqasidan to'da holatdan urug' tartibiga ko'cha boshlaganlar.

1938 yili Surxondaryodagi Boysun tog'ida joylashgan "Teshiktosh g'ori" tekshirilganda bu joy must'e davrida yashagan odamlarning makoni bo'lib chiqdi.

1946 yilda Samarqand viloyati Urgut tumanidagi "Omonqo'ton g'ori" da o'sha davr odamlarining makoni va tosh qurollari topildi. 1954 yilda Farg'ona vodiysining Qayroqqum cho'lida ham bir necha yerda must'e davri mehnat qurollari topilgan.

Keyingi yillarda bir qancha yangi-yangi yodgorliklar topilib tekshirilishi tufayli, O'zbekiston paleoliti must'e davri sinchiklab o'rganildi. Must'e makonlari Toshkent viloyatining Chirchiq vodiysidagi "Xo'jaken't" va "Obirahmat" g'orlarida, Ohangaron vodiysidagi "Ko'lbuloq"da, Buxoro viloyatidagi "Uchtut"da, Farg'ona vodiysining "Qal'a" va "So'x" atroflarida topib tekshirildi.

Must'e davrining oxirlariga kelib ov qilinadigan qurollarning ko'payishi, uzoq atrofdagi aholi bilan aloqa bog'lanishi natijasida ma'lum bir joyda muqim holda yashagan bir guruh kishilar o'rtasida qon-qarindoshlik munosabatlari boshlanadi.

Ishlab chiqarish imkoniyatlarining rivoji jihatidan bu davr must'e davrining oxiridan boshlanadi. Pitekanthropdan to neandertal odamigacha yarim million yildan ortiqroq o'tgan vaqt ichida o'zgarib kelgan odam tipi bu

davrdan hozirgi odam holatiga aylanadi. Olimlarning hisoblab chiqishiga qaraganda, bu davrning tugaganiga 40 ming yilcha bo'lgan, endi quyi va o'rta paleolit tamom bo'lib, yuqori paleolit boshlanadi.

Yuqori paleolit (miloddan avv. 40 – 12 ming yillik) da urug'chilik sharoitida ov va baliqchilik mahsulotlari ko'payib borgan va dev, pari, jin va xudolar haqidagi turli afsonalar to'qila boshlangan. O'zbekistonda yuqori paleolit davrining deyarli barcha bosqichlari madaniyatidan darak beruvchi makonlar Toshkent yaqinidagi **Shoyimko'prikda, Boysun tog'larida, Machay g'orida, Amir Temur g'oridan** topilgan. Bundan tashqari Samarqand shahrida soy bo'yida, Surxondaryo viloyatida esa 15 ga yaqin yuqori paleolit makonlari, Toshkent atrofida 3-4 ta makon, Samarqand viloyatida 5-6 ta makon topilgan.

Bular ichida Shoyimko'prik va Machay g'ori yodgorliklari odamlarning o'tmish hayoti haqida muhim ma'lumotlarni beradi. Yuqori paleolitda yashagan odamlarning asbob-anjom va makonlari ko'p topilgan bo'lsada, yaxshi o'rganilgani Samarqand makonidir. 1939 yilda ochilgan bu yodgorlikda O'zbekiston Fanlar akademiyasi va Samarqand Davlat universitetining D.N.Lev boshliq arxeologik ilmiy safarlari natijasida 1958 yilda qazishmalar olib borildi. Samarqand makoni uchta madaniy qatlamlardan iborat bo'lib, undan bir necha o'choq qoldiqlari va tosh qurollari: pichqosimon plastinkalar, keskichlar, yoy, tig'li qirg'ichlar, botiq tig'li tosh qurollar hamda hayvonlar: yovvoyi ot, kiyik, tuya, qo'y, qoramol suyaklari topildi. Bulardan tashqari, Samarqand makonida yuqori paleolit odamining ikkinchi pastki jag'i ham topildi. Bu Teshiktoshdan topilgan neandertal bola qoldig'idan keyingi ikkinchi nodir topilma bo'lib, garchi u so'nggi paleolitga mansub bo'lsada genetik jihatdan Teshiktosh odami bilan bog'liqdir.

Yuqori paleolit davriga oid tosh qurollar Buxoro viloyatidagi Uchtut qishlog'i atrofida, Toshkent yaqinida Bo'zsuv 1, Bo'zsuv 2 makonlarida, Ohangar va vodiysidagi Ko'lbuloq makonida va boshqa joylardan topildi.

Paleolit tamom bo'lib, **Mezolit davri** (mil. avv. 12–7 ming yillik) boshlanadi. **Mezolit - o'rta tosh davri** bo'lib, qadimgi tosh davri (paleolit) bilan yangi tosh davri (neolit) ning orasida o'tgan davr bo'lgani uchun shunday ataladi. Bu davrda kishilar o'q-yoyni kashf qiladi, ovchilik bir muncha osonlashadi, birinchi marta it uy hayvoni sifatida honakilashtiriladi.

O'rta tosh asri, ya'ni **mezolit** davri yaxshi o'rganilgan bo'lib, bu davrda yashagan ajdodlarimiz ibtidoiy san'at mo'jizalarini yarata boshlaganlar. Bularga esa asosan g'orlarga va qoya toshlarga qizil bo'yoq yordamida yoki o'ymakorlik usulida tasvirlangan ov manzaralarini kuzatish orqali iqror bo'larniz. Bunday yodgorliklar Surxondaryo viloyatidagi Zarautsoy dasasida, Jizzax viloyatining Takatosh mavzesida, Navoiy viloyatidagi Sarmishsoy va Qoraangursoylarda, Toshkent viloyatining Parkent, Chotqol tog' tizmalarida, Xo'jakent yaqinida hamda Andijon viloyatining Xo'jaobod tumani hududidagi Imomota tog' tizmalarida topib o'rganilgan. Ular orasida

Zarautsoy, Takatosh va Imomota yodgorliklaridagi suratlar ayniqsa, diqqatga sazovordir. Zarautsoy darasidagi suratlarda yovvoyi buqalami ov qilish manzarasi qizil bo'yoqlar yordamida yorqin gavdalantirilgan.

Boshqa bir manzarada ovchilar guruhi yovvoyi buqalami va tog' echkilarini o'rab olayotgani, o'q-yoy otayotgani tasvirlangan. Bu yerdagi manzaralardan birida o'ndan ortiq ovchilar yovvoyi buqa va arxarlar podasiga kamonlardan o'q uzayotgani ifodalangan. O'rtadagi ko'rinarli joyda ayolning rasmi katta qilib solingan. Rasmlarda itlar ham bor. Bu, shubhasiz, odam qo'liga o'rgatilgan dastlabki hayvonning tasviridir.

Mezolit davrida yaratilgan tasviriy san'at asarlari orasida Xo'jaobod tumani hududidagi Imomota g'ori ichidan topib o'rganilgan asarlar ham alohida ajralib turadi. Shulardan biri, qoya toshga o'yib ishlangan jigarrang ko'rinishdagi tasvir bo'lib, unda shoxlari bir necha bor qayrilib ketgan bir-biridan ulkan arxarlar va ularning o'rtasida yanada ko'zga tashlanarli qilib ishlangan duldul ot tasviridir. Bu esa mezolit davriga oid topilgan dastlabki nodir suratlardan sanaladi. Hududimizda mezolit davrida chizilgan qoya toshlardagi suratlar - qadimgi tasviriy san'atning bu kabi yodgorliklari mustaqillikka erishgan O'zbekistonning ibtidoiy jamoa tarixini chinakamiga o'rganishda g'oyat qimmatli tarixiy hujjat bo'lib xizmat qiladi. Ana shunday makonlar to'g'risida ma'lumotlarni to'plashni o'quvchilarga vazifa qilib berish, hikoyalar yozisha, rivoyatlarni to'plash uchun topshiriqlarni berish ularning ongida vatanparvarlik tuyg'usini o'sishida muhim omil bo'ladi.

Neolit (yangi tosh) (miloddan avv. 6-4 ming yillik) davriga o'tish, asosan toshni silliqlash va teshish usullarini rasm-odat qilishdan boshlanadi. Bu davrda odamlarning katta yutuqlaridan biri - sopol idishlar yasash bo'ldi. Ularning ko'pchiligi bu davrda daryo, ko'l va dengizlar bo'yida, aksariyati qum ustida chayla qurib yashaganlar. Bular asosan o'troq aholi bo'lib, faqat ovchilik va baliqchilik bilan kun kechirganlar. Shuning uchun sopol idishlarning tagi tekis emas, yumaloq yoki tuxum uchiga o'xshash bo'lgan. O'zbekistonda Boysun tog'laridagi Machay, Amir Temur g'orlarida, Uzboy atrofida va Qoraqalpog'istondagi Yonbosh qal'a atroflarida neolit davri madaniyatining qoldiqlari topilgan. Bu makonlar ichida eng diqqatga sazovori Amudaryoning quyi oqimi Oqchadaryo o'zani bo'yidagi Kaltaminorliklar chaylasidir.

Professor S.P.Tolstov boshliq Xorazm arxeologiyasi ilmiy safari 1937 yilda qidirish ishlari olib borib, Janubiy Qoraqalpog'istondagi Qizilqum ichida qolib ketgan qadimgi obod yerlarda g'oyatda ko'p va ahamiyatli yodgorliklarni topib tekshirdi. Bu yodgorliklar orasida eng qadimgisi Kaltaminorliklar chaylasi bo'lib, unda so'nggi davrlarning yodgorliklari ham yaqshi saqlangan.

Qizilqum sahrosidagi qum tepaliklar orasida Yonbosh qal'a nomli qir ustida eramizdan 3-4 ming yillar ilgari solingan qal'a bor. O'sha qal'aning janub tomon etagida shamolda buzilib nurayotgan taqirlar tagida kul, sopol

siniqlari: mayda tosh qurollar va boshqa narsalar ko'rinib qolgan.
1940 yili o'sha joy qazilganda, u yer qum tepasini tekislab, xodachalar va qamishdan juda katta chayla qurilgani aniqlandi.

Professor S.P.Tolstovning taxminiga ko'ra, deb yozadi marhum akademik Ya.G'.G'ulomov, bu chaylada 100-120 odam ona urug'i oilasi tarkibida yashagan. Chaylada qumni o'yib ishlagan 20 dan ortiq o'choq bo'lgan. Har bir o'choq atrofida baliq suyaklari, kiyik, yovvoyi cho'chqa, qirg'ovul, suv qushlarining, o'rdak, g'oz tuxumlarining po'choqlari, yovvoyi jiyda danaklari, chaqmoqtoshdan yasalgan mayda pichoqsimon asboblar, toshni silliqlab ishlangan burg'usimon asbob, sopol idish siniqlari va shunga o'xshash narsalar ko'p bo'lgan. Bu joyda hali metall, uy hayvonlari, qo'lda ekiladigan ekin qoldiqlari yo'q edi.

Metallning yo'qligi, uy hayvonlari va dehqonchilik alomatlarining mavjud emasligi - bular hali ona urug'i bosqichida yashaganligidan darak beradi. Bu chayla ahli bundan 5000 yillarcha muqaddam **yangi tosh (neolit)** davrining oxirida yashagan. Bu O'zbekistonda ona urug'i tartibining oxiri hisoblanadi.

O'lkamizda **eneolit** oxiri - **bronza** davri boshlariga kelib odamlar turmushida, ijtimoiy-siyosiy hayotida ayrim o'zgarishlar ruy bera boshladi.

Bu davrgacha odamlar tabiatdagi bor narsalami tutib va terib yeb, tirikchilik qilib kelganlar. Ular chorva boqishni, ekin ekishni ham bilmaganlar.

Ovchilik va baliqchilikning rivojlanib borishi natijasida kishilar avval misni va keyinroq misga qalayni qo'shishdan hosil bo'lgan **jez (bronza)** ni ishlata boshlaganlar.

Mustahkam o'mashmagan dehqon va chorvadorlar madaniyati birinchi marta Xorazmda o'sha Kaltaminor chaylasi yaqinlarida aniqlangani uchun "**Tozabog'yob madaniyati**", deb atalgan. Qariyb shu xil madaniyat Moxondaryo havzasida topib o'rganildi. Moxondaryo Zarafshon daryosining quib qolgan bir irmog'i bo'lib, Qoraqum manzilgohining shimolidagi cho'lda uning izlari hali yo'qolib ketmagan va uning bo'ylarida o'sha ibtidoiy davr qishloqlari va mozorlarining izlari mavjud. Bu joylar professor Ya.G'.G'ulomov tomonidan 1950 yildan buyon tekshirila boshlangan.

Qorako'l tumani markazidan qariyb 15 kilometr shimoliy- g'arbda **Zamonbobo ko'li** bo'yida o'sha davr aholisining katta qabristoni topilib tekshirildi. Mozorlarda o'liklarning oyoq-qo'lini bukib, g'ujanak qilib, chap tomonga yonboshlatib ko'mganlar. Shu taxlitdagi 41 ta mozor ochilib, o'rganilgan. Ulardan ba'zilarida er-xotin birga dafn etilgan. U zomonda ona urug'i davri bitib, ota urug'i hukmron bo'lgan va erkakning xo'jalikdagi va oiladagi mavqei ortgan, xotin unga xususiy mulk qatori tobe bo'lib qolgan davr edi. Shuning uchun er o'lsa, xotini ham o'ldirib birga ko'mish odat bo'lgan. Bunday holat asosan qabila boshliqlari ko'milgan mozorlarda uchraydi. Mozorlarda idishlar, o'qlar, zeb-ziynat buyumlari, ba'zi qurollar,

hatto jez oynalar o'likning oldiga qo'yilgan. Lahat qilib ko'mish o'sha vaqtda amalda bo'lgan. Shunga yaqin bir joyda topilgan ikkinchi bir qabristonda o'liklarni yuqoridagiday g'ujanak qilib ko'mganlar. Topilgan suyaklar yonida jez isirg'alar, qimmatbaho toshlardan marjonlar, jez bilakuzuklar topilgan.

Namangan viloyati Chust shaharchasi yonidagi **“Buvana mozor”** degan joyda ham shunday qishloq topilgan. U yerdagi aholi atrofdagi buloq suvlaridan foydalanib, dexqonchilik qilib, o'troq holda qishloq-qishloq bo'lib yashaganlar. Chustliklarning sopol idishlari Turkmaniston o'troq dehqonlariniki singari bo'yoqli, xilma-xil bo'lgan. Jezdan quyma buyumlar ko'p ishlatilgan. Xom g'ishtlardan yerto'la uylar qurib yashaganlar. Bu qishloq aholisi bundan qariyib 3 ming yil muqaddam, temir davriga ko'chishda ham o'sha joyda kun kechirganlar.

Xuddi shunday qishloq Andijon viloyati Qo'rg'ontepa tumanidagi Dalvarzintepada ham topilgan. Bularning har ikkisi ham bir xil tarzda bo'lib, bu holat jez davrida Farg'ona soylari suvidan foydalanib dehqonchilik qiluvchi o'troq dehqonlar qishlog'i ko'p bo'lgan, degan xulosaga imkon beradi.

Jez davrida bunday obod bo'lgan Xorazm, Moxondaryo manzillari, Chust, Dalvarzin va Kuchuktepada olib borilgan arxeologiyaga oid qazilmalardan shu ma'lum bo'ladiki, Chust madaniyatini yaratgan qadimgi dehqonlar atrofi devorlar bilan o'ralgan mustahkam qishloqlarda paxsa yoki xom g'ishtlardan qurilgan uylarda yashaganlar. Masalan, qadimgi Chust qishlog'i xarobasida uzunligi - 286 metr, eni 2 - 3 metr va balandligi - 1,5 metrcha keladigan tashqi devor qoldiqlari ochildi. Shunday devor qoldiqlari Dalvarzinda ham 200 metr masofada topilib, uning eni - 4,6 metr, balandligi - 2,5 metr keladi. Dalvarzintepada atrofi devor bilan o'ralgan ark xarobasi topilib, devorining uzunligi - 130 metrga va balandligi - 2,5 metrga teng. Dalvarzintepaning sharqiy qismida hatto 80 metr masofada, eni 4 metrli tosh yo'l ochildi. Bulardan tashqari, bu yerda bir necha to'rt burchakli paxsa devorli uylar ham topilgan.

Hozirgi zamon dexqonchiligi va chorvachiligining asosi o'sha jez davrida, taxminan hozirgi zamonamizdan 4000 yillar avval vujudga kelgan. Misr, Iroq, Turkmaniston kabi mamlakatlarda undan ham ilgariroq vujudga kelganligi tarixdan ma'lum.

Bundan keyin jamiyat vohalarda o'troq dehqonlarga, dasht va tog'larda esa ko'chmanchi chorvadorlarga ajraladi. Chorvasi ko'payganlar o'tloq izlab, molini haydab, joydan - joyga ko'chib yurishga majbur bo'lib qoladi.

Bundan 3000 yilcha ilgari odamlar temimi olovda eritish yo'lini topib, uni ishlata boshlaganlar. Bu davrda ishlab chiqarish imkoniyati shu darajaga yetadiki, bir kishining mehnatidan undagi daromat uning bir o'zini boqishgagina emas, balki bir necha kishini boqishga kifoya qila boshlaydi.

O'rta Osiyoda patriarxal qulchilik munosabatlarining ayrim

ko'rinishlari Parfiya, Gresiya, Baqtriya hamda Kushon kabi davlatlar hukmronligi zamonida paydo bo'ldi. Bu davrda qal'alar bino qilish, sug'orish, kanallari qurish, hunarmandchilikda, shahar hayoti, yo'l ishlari, ichki va tashqi savdo hamda san'atda jiddiy ko'tarilish yuz berganligi, sinfiy munosabatlarning keskinlashganligi ko'rinadi. Bu holat faqat Xorazmda topilgan arxeologik ashyolardagina emas, balki butun O'rta Osiyoda o'tkazilgan va o'tkazilayotgan tekshirishlardan ham yaqqol ko'rinib turadi.

Zardo'shtiylik(zarozstrizm) - Otashparastlik dinining rivoji Eronda emas, O'rta Osiyoda bo'lganligi arxeologlar tomonidan isbotlandi. Buni esa qazishmadan topilgan daliliy ma'lumotlar tasdiqladi. Milodimizdan bir necha asr burungi yodgorliklarni tekshirish bu sohadagi muammolarni oydinlashtirdi. Chunonchi akademik Ya.G'.G'ulomov 1936 yili Xorazmning Mang'it tumanidagi Qubba tog'i ostida zardo'shtiylarning qabristonini topdi. Unda katta xom g'ishtlardan qurilgan 60 metrli tor bino harobasi ichidan odamlar suyaklari topildi. Suyaklarning ko'miklari g'ajilgan, ba'zi mayda suyaklari mutlaqo yo'q. Suyaklarni allaqaerlardan to'plab, binoning ichiga tashlay berganlar. Keyinchalik alohida kishilarni suyaklarini sopoldan yasalgan maxsus qutilar yoki ostadonlarga solib, o'sha bino (naus)da saqlaydigan bo'lganlar.

Arxeologlar zardushtiylarning muqqaddas kitobi sanalgan "Avesto"da ham qadimgi yunon yozuvlarida aytilgan marosimga duch kelganlar. "Avesto" da aytilishicha, qadimgi zardushtiylar o'likni yerga ko'mishni, suvga tashlashni, o'tda kuydirishni qattiq gunoh deb hisoblaganlar. Shuning uchun o'likni uzoqdagi yalang qoyalar ustiga eltib tashlaganlar. Uni yirtqich hayvonlar va qushlar yeb ketganidan keyin uning suyaklari uzoq vaqt quyosh ta'sirida qolib tozalangach, yig'ib olingan va "naus" da saqlangan. Suyaklarni ossuariylarda saqlash odati keyingi zamonlargacha, ya'ni O'rta Osiyoda islom dini keng tarqalgungacha davom etgan. Bu xildagi suyaklar solingan sopol qutilar hozir ham O'rta Osiyoning ko'plab joylaridan topilmoqda.

II asrda Kushon davlati budda dinini Hindistondan O'rta Osiyo va Sharqiy Turkistonga tarqatib, uni davlat dini darajasiga ko'targan. O'zbekiston, ayniqsa uning janubiy tumanlarida va Sharqiy Turkistonda topilgan ko'plab buddizm yodgorliklari o'sha davrga qarashlidir.

III asrda Eronda moniy dini vujudga keldi, lekin u uzoq saqlanmadi, uning tarafdorlari O'rta Osiyo va Sharqiy Turkistonga qochib o'tib, ko'proq savdo yo'li ustidagi shaharlarda bu dinini tarqatdilar.

Ba'zi arxeolog olimlar O'rta Osiyoda topilgan ko'plab suratkashlik va haykaltaroshlik yodgorliklaridagi tasvirlarning murakkabligiga qarab, ularni moniy dini bilan bog'lashga harakat qiladilar. Bu davrda, birinchidan, qabilalarning o'troqlikka ko'chib, sug'oriladigan yerlarda joylashuvi kuchaygan bo'lsa, ikkinchidan, quldor aristokratiya jamoalari o'z ichidan buzilib, butun-butun qishloqlar quldor aristokrat - "dehqon"larga tobe bo'lib

qoladi. Bu yer egaligining kurtaklari edi.

Ekin maydonlarining ko'payib borishi, hususan sug'oriladigan yerlarning kengayishi, qishloqlarning ko'payishi, yer hosildorligini orttiruvchi sun'iy o'g'itlarning yaratilishi, suvni baland yerlarga ko'taradigan charxpalaklarning va suv tegirmonining kashf qilinishi, paxta ekinining tarqalishi, meva navlarining yaxshilanishi yo'lidagi muvafaqiyatlarning hammasi zamonaning ishlab chiqaruvchi kuchlarini o'stirib yubordi bu esa, yerga egalik munosabatlarini shakllanishiga olib kelgan yangi ijtimoiy voqea bo'ldi.

III asrdan boshlab ko'chmanchilarning Movarounnahrda, O'rta Osiyo ikki daryo oralig'iga kiiib kelishi kuchayadi. Natijada shaharlarda tinch hayot tanazzulga uchraydi va ular xarobalikka yuz tutib, iqtisodiy hayot asosan alohida vohalarga, qishloqlarga ko'chadi. Yer aristokratiyasi - "dexqon"lar qishloqlarga, ariqlar boshiga kelib, ko'shklar bino qiladi. VI asrga kelib, ular turk g'ulomlaridan qurolli yigitlar - chokarlar saqlab, atrofdagi qishloq aholisini o'z foydasiga ishlatib, kun kechiradi. Shu taxlitda milodiy I asrning 25 yilidan to IV asrning 50 yillariga qadar hukm surgan kuchli Kushon davlati tugab, har qaysi shahar atrofidagi vohada alohida-alohida mustaqil hukmdorlar paydo bo'ladi va ularning boshida "dehqon" larning vakili turadi.

Hozirgi Toshkent, Samarqand, Buxoro, Jizzax, Farg'ona vodiysidagi va boshqa ko'plab shaharlar atrofidagi sug'oriladigan yerlarda baland - baland "oq tepa" lar bor. Arxeologiyaga oid qazilmalar, bularning hammasi yer egalari xom g'ishtdan soldirgan ko'shklarning xarobasidan iborat bo'lib, "dehqonlar" yashab o'tgan joylarning qoldiqlari ekanligini ko'rsatadi. Akademik Ya. G'. G'ulomovning kuzatishlariga ko'ra bunday ko'shklarning qoldiqlari hozirgacha saqlanib kelayotganligini ko'rsatadi.

Yerga egalik munosabatlarining shakllanish davrida urushlar, xalq qo'zg'olonlarini bostirish uchun keskin choralar ko'rish natijasida ancha vayronagarchilik, qirg'inbarotlar bo'lib, butun-butun hududlar vaqtinchalik bo'shab qolgan. Shunga qaramay, ishlab chiqaruvchi kuchlar rivojida ma'lum siljishlar bo'ldi. Bu siljishlarni madaniyat sohasida ham ko'rish mumkin. Masalan, Xorazmda Tuproqqal'a ko'shkini qazishda u yerdan "**Podsholar zali**" deb atalgan zal topilgan. Zalning atrof devorlariga taxmon singari ravoqlar ishlanib, ularning har biriga turli qiyofadagi kishilarning haykallari o'rnatilgan. Haykallar nihoyatda yuqori did bilan ishlangan. Professor S.P.Tolstov "Bu zalda Xorazmda Afrig' xonadoniga mansub podsholarning haykallari ota-bobolar ruhiga sig'inishi tariqasida aks ettirilgan", - deb aytadi. Bu joyda haykallardan tashqari, turli bo'yoqli devor suratlari ham bo'lib, undagi manzaralarda dengiz to'lqini, baliqlar, yirtqich hayvonlar, sozanda qizlar surati va boshqa narsalar tasvirlangan. Bu saroydan Xorazm shohlarining yozma hisob-kitob arxivi ham topilgan bo'lib, bular qadimgi Xorazm yozuvi bilan taxtaga va charmga bitilgan.

1938 yili VI - VIII asrlarga oid Xorazm pullaridagi yozuvlar

yordamida ulaming ko'pgina asarlari aniqlangan. Umuman, Tuproqqal'adan topilgan arxiv yozuvi fanga juda ko'p yangiliklarni bergan.

1934 yili Samarqand yaqinidagi Mug'tepadan Panjikent hokimi Divashtichning VIII asrga oid arxivi topildi. Arxivdagi sug'diycha va arabcha xatlar asosida sug'd yozuvining xususiyatlari aniqlandi, bu esa tarix faniga ancha ravshanlik kiritdi. Bunga Xorazm arxivining qo'shilishi esa O'rta Osiyodagi o'sha zamon hayoti va madaniyatiga doir ko'p masalalarni aniqlash imkoniyatini berdi.

Keyingi yillarda Surxondaryo viloyatida "**Bolaliktepa**" degan joyni qazish jarayonida uning bir zali devorlari odam suratlari bilan bezatilgan ibodatxona ekanligi ma'lum bo'ldi. Unda zeb-ziynatli kiyimlar kiyib, qo'llarida qimmatli qadahlar tutgan va tavoze bilan allaqanday bir ishorat ko'rsatib turgan erkak va ayol suratlari shubhasiz, moniy mazhabi ibodatxonasida o'tkazilayotgan marosimdan darak beradi. Bu bino asr oxirlariga tegishli deb topildi. Qadimgi Panjikent xarobasi marhum professor A.Yu. Yakubovskiy boshchiligida qazilganida u yerda ham VII - VIII asrlarga doir shunday bino topilgan. Devorlarga bo'yoqli suratlar solinib, ularda dafn marosimi bazmi va boshqa diniy marosimlar tasvirlangan.

Tuproqqal'a, Bolaliktepa, Varaxsha, Fayoztepa, Panjikentlardan topilgan rasmlarning san'ati va tasvirlarining boyligi yerga egalik munosabatlari davri madaniyatining o'z zamonasida ancha rivoj topganligini va mulkdorlik davrida an'anaviy ravishda taraqqiy qilib kelgan tasviriy san'atning bu davrga kelib avj olganini tasdiqlaydi. VIII asrda arablar istilosidan keyin bunday san'atga ham katta ahamiyat berilgan.

Bu davrda savdo-sotiq va hunarmandchilik, xususan, idishlarni sirlash va nozik shisha buyumlarini ishlash texnikasi rivoj topdi.

Shaharlarning qadimgi, yerga egalikning ilk davrlaridagi va so'nggi asrlardagi tarixiy topografiyasi, me'morchilik yodgorliklari va boshqa o'rta asr inshootlari hozirgi kunda ancha yaxshi o'rganilgan. Eski Urganch, Marv, Buxoro, Xiva, Samarqand va boshqa bir qator shaharlarning tarixiga bag'ishlangan maxsus asarlar maydonga keldi. Bulardan tashqari, Samarqandda Go'ri Amir maqbarasidagi mozorlarning ochilishi, Ulug'bek rasadxonasining qayta tiklanishi (1941, 1948, 1967 yillar), Shahrisabzda Amir Temur tomonidan soldirilgan bir dahmaning 1933 yilda ochilishi va boshqa tadqiqotlar ko'pchilikning e'tiborini o'ziga jalb etdi.

Garchi Ulug'bek rasadxona (observatoriya) si 1908 yili topilib, uning yer ostidagi sekstant qismi qazib ochilgan bo'lsada, bu yodgorlikning yer ustidagi shakli qanday bo'lganligi noma'lum edi. Rasadxona 1948 yilda **V.A. Shishkin** boshchiligida qazilib, uning qanday bo'lganligi aniqlandi.

Shunday qilib, respublikamizda olib borilgan arxeologiyaga oid tadqiqotlar tufayli xalqimizning uzoq o'tmishi, ishlab chiqarish va sug'orish, davlatchilik, fan va madaniyat sohasida asrlar davomida orttirgan tajribalari ochib berildi. So'nggi yillarda Yahyo G'ulomov rahbarligida

o'rganilgan manzilgoh - Obirahmat g'oridir. Obirahmat g'ori Toshkentdan 100 km. shimoli – sharqda, Chotqol va Paltov daryosining o'ng qirg'og'ida joylashgan. 1962-1970 yillarda uni R.X.Sulaymonov 10 m. chuqurlikda qazib, 21 ta madaniy qatlarga ajratgan (Sulaymonov, 1972). Lekin madaniy qatlamlar muayyan, alohida yodgorlik singari sof qatlam sifatida ajralib turmaydi. Demak, manzilgoh ibtidoiy odamlar uchun uzluksiz tarzda turar joy bo'lib xizmat qilgan. R.H.Sulaymonovning fikricha, Obirahmat manzilgohi xronologiyasi mustedan yuqori paleolitga o'tish bosqichi bilan davrlanadi¹.

Hozirda Obirahmat g'ori yodgorligida 1998 yildan Rossiya – O'zbekiston, 2007 yildan O'zbekiston – Rossiya va Belgiya qo'shma kompleks ekspeditsiyalari hamkorlikda tadqiqotlarni davom ettirmoqda.

Bu yerda «2003 yilda o'tkazilgan tadqiqot ishlari natijasida 16–madaniy qatlamdan arxeologik materiallar bilan birga odam suyaklari topildi. Bular 6 ta tish suyaklari, 1 ta quloq suyagi va maydalanib ketgan bosh suyak qoldiqlaridir. Bu suyaklar 8 – 9 yashar bolaga tegishli bo'lib, tish va bosh suyak qoldiqlari homa supins, quloq suyagi neandertal odamniki bo'lib chiqdi. Suyak qoldiqlari ustida asosan, Avstriyaning Insbruk tibbiyot markazida, Novosibirskdagi Yadro fizikasi, Germaniyaning Maksa Planka nomli institutida tadqiqot ishlari o'tkazildi. Natijada, shunday xulosaga kelindiki, xoma sapins (homa supins) odami, ya'ni hozirgi zamon odamiga o'xshagan inqilobiy yo'l bilan paydo bo'lmasdan, evolyusion yo'l bilan neandertal odamidan kelib chiqqan, degan xulosaga kelindi. Chunki, shu vaqtgacha fanda homa supins birdan paydo bo'ldi va mil. avv. 20000 yillikka kelib, neandertal odamlari qolmadi, homa supins odami rivojlanib ketdi, degan fikr mavjud edi. O'zbekiston arxeologiyasida bunday kashfiyotlarni albatta, Yahyo G'ulomov boshlagan ishlarning natijasi, deb bilmoq kerak. Hozirda ushbu qo'shma ekspeditsiya Ko'lbuloq manzilgohida ish olib bormoqda. Ilk paleolit davri yodgorliklari Toshkent viloyatining Ohangaron daryosi vohasida ham qayd etilgan. Bular Qizilolmasoy va Ko'lbuloq yodgorliklaridir»¹.

Keng ko'lamda respublikamizda olib borilayotgan arxeologik tadqiqotlar tufayli O'zbekiston arxeologiyasining deyarli hamma davrlariga: paleolit, mezolit, neolit, eneolit, bronza va temir davlari hamda antik dunyo va o'rta asrlarga oid juda ko'p xilma - xil ajoyib moddiy madaniyat yodgorliklari topib tekshirildi. Shu sohada amalga oshirilgan tekshirishlar natijasida to'plangan boy va qimmatli moddiy manba O'zbekiston xalqlarining qadimgi tarixini yoritish imkonini beribgina qolmay, balki o'rta asrlar tarixi, shuningdek, shaharlar yoshini aniqlashga ham katta yordam berdi.

¹ Исломов Ў., Мирсоатова С. Ўзбекистон ибтидоий археологиясини ўрганишда академик Яхё Фуломовнинг роли. Т.: - 2009. 19 бет.

O'lkamizning yangi davri.

Hozir yurtimizda 130 dan ortiq millat va elat vakillari bir oila farzandlaridek ahil va inoq yashamoqdalar. Respublikamizda izchil amalga oshirilayotgan millatlararo totuvlik siyosati asosida turli millat va elatga mansub fuqarolar uchun o'z ota-bobolari tilini, madaniyati va urf-odatlarini rivojlantirishlari uchun barcha shart-sharoitlar yaratilgan. Ulkan bunyodkorlik, yaratuvchanlik ishlari mustakillik davriga xos fazilatga aylanib bormoqda. Shahar va kishloklar obodonchiligiga kata e'tibor karatila boshlandi. Vatanimiz poytaxti Toshkent ayniksa, bunga yaqqol misol bula oladi.

Toshkent qadimdan tinchlik, do'stlik shahri degan ta'riflarga sazovor bo'lib kelgan.

Buyuk ipak yo'lining markazida joylashgan poytaxtimiz o'z sahovati, mehmondo'stligi, turli millat va elat vakillariga hurmat – e'tibori bilan nom chiqargan. Ko'hna tarixning guvohlik berishicha, bu hududda biron-bir millatlararo ixtiloflar ro'y bermagan, shahar fuqarolari o'rtasida hamisha totuvlik barqaror bo'lgan.

XX asrda esa jahon siyosati olamida "Toshkent ruhi" degan atama yuzaga keldi. Bu ruh qo'lda qurol bilan uzoq yillar davomida bir-birlariga qarshi murosasiz jang olib borgan davlatlar rahbarlarining bevosita Toshkent shahrida yarashib, sulhga imzo chekishlarida, turli qit'alar va mamlakatlar vakillari ishtirokida tinchlikni mustahkamlashga qaratilgan nufuzli uchrashuvlar, xalqaro san'at, turizm, adabiyot, kino festivallari o'tkazilib turilishida o'z ifodasini topgan edi. Mustaqillik davriga kelib bu an'ana nafaqat tadrijiy ravishda davom ettirilayapti, balki u yangicha tus olib, o'zining istiqbolli ko'rinishini namoyon etmoqda. Toshkent - yer sharining turli mintaqalari, ya'ni: Osiyo, Afrika, Lotin Amerikasidan keladigan sayyohlar, kino san'atkorlari, yozuvchilar muntazam uchrashib turadigan sayyohlik (turistik) shahriga aylanib bormoqda.

Mustaqillik yillarida shahrimizning xalqaro miqyosdagi nufuzi ortdi. Bugungi kunda poytaxtimiz Toshkentda BMTning, YuNESKO, YuNISEF kabi xalqaro tashkilotlarning vakolatxonalarini, 40 dan ortiq davlat elchixonalarini faoliyat ko'rsatmoqda. Yurtimiz turli hududlarida MDH, Markaziy Osiyo respublikalari, turkiy tillarda so'zlashuvchi davlatlar rahbarlarining oliy darajadagi uchrashuvlarini, turli xalqaro anjumanlarni o'tkazish an'anaga aylanib qolgan. Bu yerga kelgan mehmonlar, ular sayyoh bo'ladimi yoki davlat rahbarimi, vatanimizning Samarqand, Buxoro, Xiva kabi eng so'lim go'shalarini, tarixiy obidalarini ziyorat qilmay ketmaydilar.

Poytaxtimiz do'stlik va tinchlik shahri sifatida xalqaro va mintaqaviy muammolarni tinch yo'l bilan hal qilishga qaratilgan muzokaralarning muvaffaqiyatli o'tkazilishini ta'minlab kelmoqda. Ayniqsa, uzoq yillar davomida qirg'inbarot urushlar olib borilayotgan Afg'onistonda tinchlik o'rnatish masalasini hal etishda Toshkentda o'tkazilgan "6+2" guruhining


oliy darajadagi uchrashuvi juda katta xalqaro ahamiyatga egadir. Buni shu uchrashuvda qabul qilingan "Toshkent deklaratsiyasi"ga BMT Bosh Assambleyasi tomonidan insoniyat taqdiri va kelajagiga daxldor bo'lgan muhim hujjat maqomi berilganligi ham tasdiqlab turibdi. Shu munosabat bilan BMT Toshkentga "Tinchlik elchisi" sharaflini unvonini berdi.

Bugungi kunda jahonning ko'pgina yirik shaharlari yurtimiz shaharlari bilan birodarlashganlar. Birinchi marta 1973 yilda AQShning Sietl shahri Toshkent bilan ana shunday do'stlik aloqasini o'rnatgan edi. Shahrimiz bugungi kunda Germaniyaning Berlin, Belgiyaning Kortreyk, Xitoyning Shanxay shaharlari bilan mustahkam aloqalarni o'rnatgan. Sietllik amerikaliklar "Toshkent" bog'ida sayr qilib, O'zbekiston poytaxtini yodga olsalar, Belgiyaliklar u yerda joylashgan Kortreyk shahridagi buyuk bobomiz - jahon tibbiyot ilmining asoschilaridan biri bo'lgan Abu Ali ibn Sinoning qad rostlab turgan haykalini tomosha qilib, xotirasiga hurmat bajo keltiradilar. Germaniya poytaxti Berlinda O'zbekiston madaniyati kunlari o'tkazildi. Berlin bilan biz nafaqat madaniyat va sport sohalarida, balki turizm, kino, iqtisodiyot yo'nalishlarida ham yaqindan hamkorlik qilamiz.

Birodarlashgan shaharlar bilan muntazam davom etadigan bunday hamkorlik aloqalari dolzarb bo'lib, u nafaqat tomonlardagi shaharlar va ularning aholisi o'rtasida, balki, mazkur davlatlar bilan bo'ladigan o'zaro munosabatlarni manfaatli va istiqbolli rivojlantirilishida muhim ahamiyat kasb etadi. 2007 yil Toshkentga xalqaro Islom Konferensiyasi tashkiloti AYSESKO qarori bilan **Islom madaniyati poytaxti** degan maqom berildi. Azim shahrimizning bunday yuksak darajaga sazovor bo'lishi bejiz emas albatta, chunki azaldan bu yerda islom qadriyatlari ulug'lab kelingan, hozirda ham yuqorida qayd etilganidek, boy madaniy an'analar bardavom o'z rivojini topayotgan markaz hisoblanadi.

Yurtimiz poytaxti Toshkent shahrida Gyote institutining, Konrad Adenauer jamg'armasining bo'limlari muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatmoqda. Diniy bag'rikenglik yurtdoshlarimizning muhim fazilatlaridan biridir. Poytaxtimizda ota-bobolarimiz e'tiqodi - Islom dini bilan birgalikda boshqa ko'pgina diniy konfessiyalar ham o'z faoliyatlarini erkin davom ettirmoqda. Xususan, shaharda 5 ta rus Provaslav cherkovi, protestantlar, nasroniylar, katoliklar, yaxudiylar, lyuteranlar, umuman 17 ta konfessiya - diniy muassasalari ishlab turibdi. Bunday diniy bag'rikenglikka Toshkenttda bo'lgan Rossiya yepiskopi Aleksey II ham juda yuqori baho bergan edi.

Islom dinining muqaddas bayramlari - Ramazon va Qurbon hayiti kunlari Toshkentdagi provaslav diniy tashkiloti rahbarlari mufti hazratlarini bayram bilan qutlasalar, Rojdestvo va Pasxa kunlari O'zbekiston musulmonlari idorasi mutasaddilari provaslav diniga e'tiqod qiladigan hamshaharlarimizni muborak ayyom bilan tabriklaydilar. 2000 yilda yurtimizda jahonning turli diniy konfessiyalariga mansub diniy idoralar rahbarlarining yuqori nufuzli anjumani o'tkazilganligi ham tasodifan emas.



Bularning barchasi yurtimizda yashayotgan turli millat vakillari o'rtasidagi tinch-totuvlikning barqarorligida, buyuk kelajak sari harakat

qilayotgan xalqimiz bilan orzu-maqсадlarning mushtarak bo'lishida muhim omildir.

Mustaqillikka erishilgan dastlabki kunlardan oq Toshkentda **Respublika Baynalmilal madaniyat markazi** tashkil etilganligi xuddi shu oliyjanob maqsadlarga xizmat qilmoqda.

Bugungi kunga kelib, bu markaz atrofiga 110 ta milliy madaniyat markazlari uyushdi. Ularning vakillari poytaxtda o'tkaziladigan bayram va tantanalarda o'z madaniyatlarini namoyish etish imkoniyatiga egalar.

Bularning barchasi yurtimizda kechayotgan tinchlik, millatlararo totuvlikda muhim ahamiyatga ega.

O'zbekistonda yashovchi turli millat va elat vakillari davlatimizning teng huquqli fuqarolaridir. Ular mamlakatimiz parlamenti – Oliy Majlisga deputat qilib saylanganlar, hukumatimizning yuksak mukofotlariga sazovor bo'lganlar. Millati turlicha, ammo O'zbekistonni o'z ona Vatani, deb biluvchi toshkentliklar ham mamlakatimizning ijtimoiy - siyosiy, iqtisodiy, madaniy hayotida faol ishtirok etib kelmoqdalar.

Biz yurtdoshlarimiz - taniqli olimlar Galina Pugachenkova, O'. Islomov, A.Asqarov, Yu.Buryakov, M. Filanovich, E. Rtveladze, A.Sagdullaevlar bilan, O'zbekiston bayrog'ini halqaro musobaqalarda yuksaklikka ko'targan Liliya Cheryazova, Oksana Chusovitina, Artur Grigoryan va boshqalar bilan haqli ravishda faxrlanamiz.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

- 1.O'lkamizning eng qadimgi davri arxeologlar tomonidan qanday o'rganiladi?
- 2.O'lkamizda ona urug'i (matriarxat) davri qancha davom etgan?
3. Kaltaminoraliklar chaylasi haqida nima bilasiz?
- 4.O'lkamizda ota urug'i (patriarxat) davri qachon shakllangan?
5. Metallning ishlab chiqarishga joriy etilishi nimalarga olib keldi?
6. O'lkamizda kechgan o'rta asrlar davri hayotining xususiyatlari haqida so'zlang.
7. O'lkamizda yerga egalik munosabatlari qachondan va qanday shakllanib bordi?
8. Yangi davrdagi ilmiy tadqiqotlar haqida nima bilasiz?
- 9.O'lkamizning yangi davri haqida qanday ma'lumotlarga egasiz?

Tayanch so'zlar izohi:

Arxeologiya – lotincha “arxayos” - qadimgi, “logos” – fan, qadimgi davrni o'rganuvchi fan yoki “qadimshunoslik” fani, degani.

Selung'ur – ilk tosh davriga oid Farg'ona vodiysidan topilgan qadimgi odamlar manzilgohi.

Teshiktosh – O'rta tosh davriga oid Surxondaryoning Boysun tog'laridan topilgan manzilgoh.

Zardusht - shu nomdagi din asoschisining nomi. **NAUS** – ostadonlar saqlanadigan joy – xona. **OSTADON** – odam suyaklari saqlanadigan idish. **DEHQON** – ilk oʻrta asrlarda katta yer egasi (XI –XII asrlardan esa qishloqning oddiy jamoa aʼzosi). **DEGREZ** – quyuvchilik kasbi.

Kalit soʻzlar: Ibtidoiy jamoa davri, muste madaniyati, soʻngi paleolit, eneolit, bronza davrlarida oʻlkamiz, Kaltaminorliklar chaylasi, Tozabogʻyop madaniyati, Zamonbobo yodgorligi, Zardushtiylik dini yodgorliklari, Tuproqqalʼa, Bolaliktepa, Varaxsha, Fayoztepa, Panjikent yodgorliklari, oʻlkamiz yangi davrda, Toshkent – Islom madaniyati poytaxti, konfessiya, Respublika baynalmilal madaniyat markazi.

4–mavzu: Yozuvlar tarixi

Reja:

1. Qadimgi yozuv turlari.
2. Piktografik yozuv usullari. Ular haqida tushuncha.
3. Mixxat yozuvlar. Tadqiqotchilar tomonidan mixxat yozuvining yigʻilishi va ilk marotaba oʻqilishi.
4. Oromiy yozuvi.
5. Qadimgi Soʻgʻd yozuvi.
6. Qadimgi Xorazm yozuvlari.

Eng dastlabki yozuv usuli fanda piktografik belgilar deb ataladi. Uni Shumerliklar miloddan avvalgi IV ming yillikda ixtiro qilgan. Shumer piktografik yozuvi dastavval surat tariqasida vujudga kelgan. Insonlar tabiatda mavjud boʻlgan va uchraydigan narsalarning surati yordamida oʻz fikrlarini ifodalashgan. Bunda hayvonot va oʻsimliklar dunyosi, tabiat jismlari, sayyoramiz yoʻldoshlari tasvirlarida eng koʻp foydalanganlar.

Piktografik belgili yozuvlar Qadimgi Sharqning koʻplab hududlarida, jumladan Qadimgi Hindiston, Eron, Xitoy va Oʻrta Osiyoning janubiy viloyatlarida topildi. Surxondaryo vohasining bronza va ilk temir davri yodgorliklari – Jarqoʻton, Gʻozdan soʻnggi yillarda sopollarga bitilgan belgilar topildiki, bu ashyoviy manbalarni ilk tamaddun oʻchoqlaridan topilgan piktografik belgili yozuvlarga taqqoslash natijasida ularning oʻxshashligi qayd etildi.

Jarqoʻton sopollariga bitilgan belgilar oʻtkir tigʻli asbob bilan timab yozilgan. U oddiyliqi, zoolatik tavsifi bilan Shumer, Qadimgi Eron piktografik yozuvlarini takrorlaydi. Oʻzining shakli va yozilish uslubiga koʻra Jarqoʻton yozuvlari Shahdod, Toʻgʻaloq, Gonur piktografiya maktabiga juda yaqinligi kuzatiladi. Bu esa jarqoʻtonliklarning bronza davrida Janubiy Turkmaniston va Eron aholisi bilan juda yaqin madaniy va iqtisodiy aloqada boʻlganligini tasdiqlaydi.

Jarqo'tonda piktografik yozuvlarning, Qoratepa hamda Fayoztepada qadimgi baqtriya, braxma va kxaroshtxi yozuvlarining topilishi, shubhasiz O'rta Osiyoni yozuv paydo bo'lgan mintaqalar qatoriga qo'shishga to'la imkon beradi. Shu tariqa O'rta Osiyo Mesopotamiya, Eron, Hindiston, Misr va Xitoydan keyin turadigan tamaddun o'chog'i sifatida jahon tarixiga kirdi.

Insoniyat tarixida shumerliklar miloddan avvalga IV ming yillikda - bugungi kundan olti ming yillar avval piktografik yozuv usulini ixtiro qilganlar.

Piktografik yozuv usuli. Ingliz arxeologi J. Koper, X. Nissen hamda L. Vulle so'nggi yillarda qadimgi Shumerning bir qator yodgorliklarida tadqiqot olib borib, shumerliklar tarixini yanada oydinlashtirdilar. Ular Diyali "nom"i markazi Qutu shahri (hozirgi Tel-Asmar yodgorligi), Sippar "nom"i markazi Kish shahri (Tel- Uxaymir yodgorligi), Kesh "nom"i markazi Abu-Salabih yodgorligi, Niffer, Fira yodgorliklari, Eredu, Ubayd kabi ko'plab yodgorliklardan piktografik yozuvlar topdilar.


Shumerliklar o'zlari aytmoqchi bo'lgan so'zlarini rasm bilan ifoda etgan. "Qush" so'zini qushning rasmini chizish bilan ifoda etgan bo'lsa, "tug'moq" so'zini qush va tuxum rasmi bilan, "ko'rmoq" so'zini ko'zning rasmi bilan, "yig'lamoq" so'zini ko'z va suv tasviri yordamida ifodalaganlar. Mesopotamiyada bu yozuv uzoq vaqt qo'llanib kelingan. Piktografiya yozuv usuli Uruq davlati davrida paydo bo'lgan bo'lsa, vaqt o'tishi bilan takomillashib borgan. Bu takomillashuv tilning rivojlanishi, ijtimoiy hayotning o'sishi bilan hamohang ravishda o'sib borgan.

Tel-Asmar yodgorligida rasmlar bilan birga bog'lovchi va ma'lum tovushlarni ifodalovchi maxsus belgilar paydo bo'lganligini ko'ramiz. Abu-Xabba yodgorligi piktografik yozuvlarida bo'g'in belgilarining shakllanganligini ko'rish mumkin. Bu yerda rasmlarning orasida bo'g'in ifodalari qo'llanilgan. Larsa, Ur, Eredu yodgorliklarida piktografik yozuvlarning yanada takomillashganligi kuzatiladi. Bu yodgorliklarda rasmlar to'liq chizilmay, eng e'tiborli tomonlari ifodalangan. Masalan, hayvonlarning faqat bosh qismi ifodalanishi kuzatilgan. Ular ham sxematik holatda chizilgan xolos. Qadimgi Akkad yodgorliklarida piktografik tasvirlar shu darajada sxemalashtirilganki, ular mix yoki pona ko'rinishini egallagan va shu tariqa mixxat yozuvlariga asos solingan.


Qadimgi Xitoy piktografik yozuvi. Bugungi kunga qadar In tamadduni yozuvlariga bag'ishlangan 1200 dan ziyod ilmiy monografiyalar nashr yuzini ko'rdi. Ulardan atigi 1 mingta belgi - yozuv o'qilgan xolos. Bu yozuvlar In tamaddunining turli davrlariga oid bo'lib, takomillashib borgan. Arxeologlar sirli yozuvning hozirgi Xenan o'lkasi va unga qo'shni hududlarda borligini aniqlashdi. Yanshao va Lunshan yodgorliklaridan sopollarga bitilgan belgi - timsol (simvol) lar topildi. Shu manbalar asosida Dun Szo-bin miloddan avvalgi III ming yillikda Xitoyda ilk yozuv paydo bo'lganligi nazariyasini ilgari surdi.




Zartepa yodgorligi. Milodiy IV-V asrga oid.



Ayrim haykallardan qolgan namuna.




Kampirtepa. Baqtriya yozuvi.



Yakkaporson. Teriga bitilgan xorazm yozuvi.



Fayoztepa. Sopolga bitilgan hind yozuvi.



Fayoztepa. Sopolga bitilgan hind yozuvi

Товушда «фодаланиши»	Лобан суви	Нилсамн суви	Мидил суви
mm			
mm			
ma			
ma			
mu			
ma			
mm			
mu			

	Куён		Тери
	Балиқ		Кулок

Qadimgi Sharqda piktografik yozuv ko'rinishi. Mixxatlar

Qadimgi Xitoy piktografik yozuvi.



Пунининь белгилари	Иинь белгилари		
	Күем	Олон	Тол

Qadimgi Xitoy-Lunshan va In bitiklari.

Ayniqsa, Go-Mo-Jo tadqiqotlaridan so'ng qadimgi xitoy yozuvining paydo bo'lish tarixi o'z yechimini topdi. Uning izlanishlariga ko'ra, Qadimgi Xitoy yozuviga bundan 5-6 ming yillar oldin asos solingan bo'lib, eng qadimgisi Yan-shao madaniyatiga oid Banpo yodgorligidan topilgan sopollarga bitilgan belgilardir

Sopollitepaning piktografik yozuvlari. Sopollitepa sopollariga bitilgan belgilarni **akademik Ahmadali Asqarov** jamlab chop qilgan. 1969 – 1973 yillarda Sopollitepadan 29 ta belgi chizilgan idishlar topilgan. Ularni A.Asqarov shakllariga qarab 8 ta guruhga ajratgan¹. Birinchi guruh belgilari yarim oy shaklida bo‘lib, shu singari 4 ta belgi topilgan. Ikkinchi guruh belgilari tortilgan kamon shaklida bo‘lib, shu belgi markaziga to‘g‘ri chiziq tortilgan. Uchinchi guruh belgilari parallel ikki chiziqdan iborat bo‘lib, ularning topilgan soni - 6 ta. To‘rtinchi guruh belgilari xoch shaklidir, ularning topilgan soni - 4 ta. Beshinchi guruh belgilari bitta idishda ifodalangan bo‘lib, ikkita aylanani birlashtiruvchi to‘g‘ri chiziqdan iborat. Ushbu belgini “arava” ko‘rinish deb talqin qilish mumkin. Oltinchi guruh belgilari shakli jihatidan birinchi guruh, ya‘ni yarim oy ko‘rinishidagi belgilarga o‘xshaydi. Ularning soni - 6 ta. Yettinchi guruh belgilari “A” harfini eslatadi. Uchta xuddi shunday belgi topilgan. Sakkizinchi guruh belgilar ilon shaklini eslatadi. Sopollarda tasvirlangan belgilar qanday fikrlarni ifodalaganligi hozircha ma‘lum emas.



Sopollitepa. Arava g‘ildiragi ifodalangan yozuv.

¹ Asqarov A.A. Сополлитепа. Т.: 1973.

Jarqo‘ton piktografik yozuvlari. Qadimgi Sharq ilk shaharlarining iqtisodiy asosi asosan dehqonchilik bilan bog‘liq bo‘lgan. Shunday ekan, omoch yordamida yer haydashni ifodalash piktografik belgi-yozuvda ifodalanishi kutilgan ko‘rinishlardan biri hisoblanadi. Xuddi shunday ifoda Jarqo‘ton piktografik belgilarida ham kuzatiladi. Bu belgilarning haqiqatdan ham omoch ekanligi Misr piktografiyasida ifodalangan omoch tasviridan bilsa ham bo‘ladi¹. Jarqo‘ton qabrlarida bronzadan yasalgan “narvon” nusxasining uchrashi juda ko‘p marotaba kuzatilgan². Sopolli madaniyati piktografik belgi – yozuvlarining Janubiy Turkmaniston, Markaziy Eron, Xarappa madaniyatlarida taqalgan piktografik yozuvlar bilan o‘xshashligi o‘sha xalqlar bilan yaqin madaniy aloqalar bo‘lganligidan dalolat beradi.



Jarqo‘ton piktografik yozuvi.

¹ Askarov A.A. Sapallitepa. T.: 1973. Str.25


² Askarov A.A. Drevnezemledelcheskaya kultura epoxi bronzi yuga Uzbekistana. T.: 1983, Str. 13-37.



G'oz yodgorligi piktografik yozuvi.

Sherobod vohasidagi Ulanbuloqsoy o'zanining boshlang'ich oqimlarida Dobilsoyning o'ng sohilida Dobilqo'rg'on yodgorligi joylashgan. Bu yodgorlikka ilk temir davrida asos solinganligi haqida 1974 yilda akademik E.V. Rtvladze¹ tomonidan qayd etilgan. Shu yodgorlikdan ilk temir davriga oid sopollar majmualari va toshdan yasalgan o'g'ir (keli) topilgan. Bu topilma O'zbekiston hududida yozuvning paydo bo'lishi xususida yangi ma'lumotlarni beradi. Idishning tashqi tarafida 13 ta piktografik belgili yozuvlar majmuasi joylashgan. O'g'ir (keli) fors tilida "hovana" deb atalgan. "Hovana" termini zardushtiylikdagi din peshvolari - "hovan" lar bilan bog'lanadi. Aytish mumkinki, o'g'ir sirtidagi tasvirlarda zardushtiylik marosimlariga oid voqeliklar ifodalangan bo'lishi mumkin.

¹ Ртвладзе Э.В. Разведочное изучение памятников на юге Узбекистана. Древняя Бактрия. Л.: 1974. стр.34



G'oz yodgorligi piktografik yozuvi

Mixxat yozuvlari. Mixxatlar Old Osiyoning eng qadimgi yozuv usuli bo'lib, ular vertikal, gorizontal va egri chiziq ko'rinishida ifodalangan. Uni ham dastlab shumerliklar kashf etgan. Undar so'ng bobilliklar mixxat yozuvni o'zlashtirgan va rivojlantirganlar. Akkad, Xett davlatida, Urartuda, suriyaliklar va ossuriyaliklar ham mix ko'rinishli yozuvdan foydalanishgan. Shundan so'ng eronliklar, tabiiyki, O'rta Osiyoliklar ham bu yozuv turidan foydalanganlar. Miloddan avvalgi ikki ming yillik o'rtalarida mixxat xalqaro diplomatik yozuviga aylangan¹. Qadimgi Sharqning shahar-davlat hukmdorlari bir-birlari bilan bo'lgan aloqa xatlarini, ilk davlatlarning kodekslari va hatto savdogarlar tovarlarning narx-navolarini ham mixsimon yozuvlarda yozishganlar².

¹ Чориев З.У., Шайдуллаев Ш.Б., Аннаев Т.Ж. Ўзбекистон худудида ёзувнинг пайдо бўлиши ва таракқиёти. Т.: 2007. - 8 б.

² Дьяконов И.М. Люди города Ура. М.: 1990. С.-28

Eng qadimgi mixxatlar Shumer, Akkad, Ur kabi Mesopotamiyaning shahar xarobalari va saroylarini o'rganish mobaynida ko'plab topilgan. Ular, asosan, sopol parchalari, loy shakllariga, qoya toshlarga, terilarga bitilgan. Qadimgi zamon tarixchilari Geradot, Strabon mixxatlarni "Ossuriya xarflari", Afenet esa "Xaldey harflari" deb ataganlar. Miloddan avvalgi VIII asrda Ossuriyada harfli yozuv kashf etilgandan so'ng mixsimon yozuvlar unutilib ketgan. Mixxatlarning o'rganilish tarixi, o'qilishi yoki "qayta tirilishi" tarixi ham ancha qiziq.

XVII asrda Italiyalik sayyohlar butun jahon bo'ylab turistik sayyohat qilganlar. Shunday sayyoh va savdogarlardan biri **Petro Della Valle** Eronga keladi. U umrining 12 yilini sharqqa - Turkiya, Misr, Falastin, Iroq, Suriya va Eronga sayohat qilishga bag'ishlaydi. Ahamoniy shahanshox Doro qurdirgan saroy devorlariga bitilgan chiziqsimon bitiklarga ko'zi tushadi va uning e'tiborini tortadi. Yozuv bo'laklarini "turistik sovg'a" sifatida Yevropaga olib ketadi. Petro Della Vallening umr yo'ldoshi uzoq vaqt bu yozuvni dugonalariga, shahar ayyonlariga ko'rsatib yuradi.

XVIII asrda Shumer, Ossuriya, Persepol, Suza shaharlari xarobalaridan Yevropaga ko'plab mixxat yozuvlari turistlar orqali tashib olib ketilgan. Sayyohlar ularni uylarining eng ko'rinarli joylarida saqlaganlar. Birinchi marta daniyalik olim **Karsten Nibur** mixxat yozuvlarini to'plash, ulardan nusxalar olish va o'qish ishlari bilan shug'ullangan. Persepol mixxatlarini to'liq o'qishga muvassar bo'lgan olim **Georg Grotefend**dir. U 27 yoshida, 1802 yilda Persepol saroyida bitilgan mixxatlarning sirini ochadi.

Ingliz sayyohi **G.Roulinson** esa fors mixxat yozuvlarini, ayniqsa, Bexistun qoya bitiklarini muvaffaqiyat bilan o'qiydi. Bexistun bitiklari bo'g'inli yozuv ekanligini isbotlaydi. Uning eng buyuk xizmatlaridan biri, dunyo bo'ylab sayohatlarda bo'lib, ossuriya mixxatlarini o'qiganligi va "ossuriyashunoslik" faniga asos solganligidadir.

Oromiy yozuvi. Qadimgi Sharqda oromiy yozuvining paydo bo'lishi smit qabilalari uyushmasiga kirgan oromiylar bilan bog'liqdir. Miloddan avvalgi VII - VI asrlarda o'rganish uchun qulay 22 ta harfdan iborat oromiy yozuvi Old Osiyoda hukmron bo'lgan akkad, shummer va Urartu mixxatlarining qo'llanilishini keskin kamaytirgan. Oromiy yozuvidan, amaldorlar o'zlarining ma'muriy va davlat ishlarini rasmiylashtirish uchun foydalanganlar. O'rta Osiyoda oromiy xatining eng qadimgi namunasi miloddan avvalgi V- IV asrga oiddir.

Qadimgi Baqtriya yozuvi. Baqtriya - O'rta Osiyoning qadimiy tarixiy-madaniy o'lkalaridan biri bo'lgan. Baqtriya yozuvining rivojlanishida oromiy yozuvining o'mi muhim bo'lib, miloddan avvalgi II asrda oromiy - baqtriya yozuvi yuzaga kelgan. Ko'hna Termiz (Tarmita) atrofidagi Fayoztepa o'midagi buddaviylik ibodatxonasini arxeolog L.I. Albaum tomonidan (1969 - 1976 yillar davomida) tadqiq etilganida milodiy I asrga oid oromiy - baqtriya yozuvi topilgan.


2004–2006 yillarda arxeolog T. Annaev rahbarligida Fayoztepa ibodatxonasini qayta o‘rganish jarayonida sopol sirtiga bitilgan davriy jihatdan milloddan avvalgi I - milodiy I asr oralig‘iga oid ikkita xat bo‘lagining topilishi oromiy – baqtriya yozuvi shakllanib, rivojlana borishi jarayonlarini bir qadar oydinlashtiradi. Baqtriya O‘zbekiston tarixida qadimgi til va yozuvning taraqqiyotida alohida o‘rin tutgan.

“Baqtriya yozuvi va tili”ning tarix, tilshunoslik va sharqshunoslik fanlariga kiritilishi mashhur olmon olimi V. Xenning nomi bilan bog‘liq. Mutaxassislar baqtriya xatini ikki, ya‘ni mahobatli yoki lapidar, hamda kursiv ko‘rinishda mavjud bo‘lganligini ta‘kidlaydilar. O‘zbekiston hududidagi eng dastlabki baqtriya yozuvlari 1962 yilda arxeolog B. Ya. Staviskiy rahbarligida Ko‘hna Termizning Qoratepa g‘orsimon buddaviylik ibodatxonalari majmuini o‘rganish davomida aniqlangan. Bu yozuvlar III- IV asrlarga oid bo‘lib, sopol sirtidagi baqtriya yozuvlari esa II asrga oiddir.

ENG QADIMGI BAQTRIYA YOZUVLARI QAYD ETILGAN **YODGORLIKLAR**

Mirzaqultepa	M. avv. I – milodiy I asrlar
Fayoztepa	Milodiy I asr
Kampirtepa	Milodiy II asrning I yarmi
Qoratepa	Milodiy II – IV asrlar
Ayritom	Milodiy II – III asrlar
Zartepa	Milodiy III – IV asrlar
Dalvarzintepa	Kushon davri
Xotinrabot	Kushon davri
Hayitobodtepa	Milodiy IV – V asrlar

V-VIII asrlar davomida baqtriya yozuvi Baqtriyaning o‘rnida yuzaga kelgan Toharistonda keng tarqalgan va o‘lkaning rasmiy xati hisoblangan.



7. Mug tog'idan topilgan s'gd hujjati.

7. Mug' tog'idan topilgan so'g'd hujjati.

Qadimgi so'g'd yozuvi. Zarafshon vohasi va Qashqadaryo havzasini o'z tasarrufiga olgan So'g'd o'lkasi miloddan avvalgi VI asrda ahamoniylar Eroni yozma manbalarida So'g'da yoki Sug'uda shaklida tilga olingan. V asrdan Buyuk Ipak yo'li (Buxoro, Yettisuv, Mongoliya va Xitoy) va uning tarmoqlari (Farg'ona yo'nalishi) bo'ylab so'g'diylar qishloqlarga va savdo

shaxobchalariga asos sola boshlaganlar. Buyuk Ipak yo'li va uning shaxobchalari bo'ylab so'g'd tili va yozuvi ham keng tarqala boshlagan. Yettisuv, Xo'tan va Mo'g'uliston hududlarida so'g'd yozuvlarining topilishi buning isbotidir.

So'g'diylar uch turdagi: so'g'd, manixey va suriya yozuvlaridan foydalanganlar. Ular VII–VIII asr boshlarida o'zlarining alifbolarini 23 ta harfdan iborat deb, hisoblaganlar. Ularning 22 tasi kelib chiqishi va alifbo qatoriga joylashishi jihatidan oromiy alifbosining asl nusxasiga borib taqaladi.

1932-1933 yillarda A.A.Freyman rahbarligida Mug' qal'asini o'rganish davomida 74 ta teri, qog'oz va tayoqlarga yozilgan so'g'd hujjatlari topilgan.

Qadimgi Xorazm yozuvi. Xorazmda yozuv oromiy alifbosi asosida shakllangan. Qadimgi Xorazm davlati poytaxti - Tuproqqal'a tekshirilganda III asrga oid Xorazm podsholari arxivi topilgan. Tuproqqal'a saroyidagi podsho arxivida 1947-1949 yillarda S.P.Tolstov rahbarligida Xorazm arxeologik – etnografik ekspeditsiyasi a'zolari 8 ta teriga va 19 ta to'liq bo'lmagan taxtachalarga bitilgan xatlar va mingdan ortiq loyda saqlanib qolgan harf va so'z bo'laklarini topishga muvaffaq bo'lganlar.

To'qqal'a yodgorligidan esa 1959–1962 yillarda A.V. Gudkova tomonidan sirtiga xorazm yozuvlari tushirilgan ostadonlar qazib ochilgan.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. Mixxat yozuvlari haqida nimalar bilasiz?
2. Sayyohlar mixxat yozuvlarini nima maqsadlarda to'plaganlar?
3. Xitoy piktografik yozuvlari haqida nimalar bilasiz?
4. Jarqo'ton piktografik yozuvlarini aniqlashda tadqiqot ishlari olib borgan o'zbek olimlari faoliyati haqida so'zlang.
5. G'oz yodgorligi piktografik yozuvlari haqida nimalar bilasiz?

Tayanch so'zlar izohi:

Mixxat - Old Osiyoning eng qadimgi yozuv uslubi. **Oromiy yozuvi** – parfiya, baqtriya, so'g'd, xorazmlik amaldorlar asosan davlat va ma'muriy ishlarda foydalangan yozuv turi.

Kalit so'zlar: Dastlabki yozuvlar, Piktografik yozuv, Qadimgi sharq yozuvlari, Sopollitepa yozuvi, Jarqo'ton, G'oz yodgorligi piktografik yozuvlari, Oromiy, qadimgi Baqtriya yozuvlari, So'g'd yozuvi, qadimgi Xorazm yozuvi.

II BOB. O‘ZBEKISTONDA TURIZMNING RIVOJLANISHI

5-mavzu: Turizmning shakllanish omillari va manbalari

Reja:

1. Turizmning vujudga kelishi va rivojlanishi.
2. Turizm sohasi kadrlarini tayyorlash.
3. Turizmning shakllari.
4. Turizmning turlari.
5. Asosiy turistik yo‘nalishlar.
6. Sobiq ittifoq davrida turizmning ahvoli.
7. Mustaqillik va turizm.

Turizm–sayohat, ijtimoiy-tarbiyaviy xususiyatlarga ega bo‘lgan nazariy va amaliy fan sifatida o‘qitiladi. Uning ijtimoiy tuzumlar (formatsiyalar) bilan bog‘liq bo‘lgan o‘z tarixi hamda rivojlanish jarayonlari bor.

Turizm umumiy ma‘noda sayr - sayohatlar, sarguzashtlarni ifoda etadi. Shu sababdan ijtimoiy-turmush va mehnat jarayonlarida tarkib topadi.

Turizmning vujudga kelishi va rivojlanishi. Turizm (fransuzcha tour-sayr, sayohat), sayyohlik - sayohat (safar) qilish; faol dam olish turlaridan biri. Turizm deganda jismoniy shaxsning istiqomat joyidan sog‘lomlashtirish, ma‘rifiy, kasbiy-amaliy yoki boshqa maqsadlarda borilgan joyda (mamlakatda) haq to‘lanadigan faoliyat bilan shug‘ullanmagan holda uzog‘i bilan 1 yil muddatga jo‘nab ketishi (sayohat qilishi) tushuniladi.

Turizm (sayohat) piyoda va ulovlarda yurish, tarixiy va boshqa diqqatga sazovor joylarda sayr - tomosha qilish, kuzatish xushmanzarali oromgohlarda dam olish , sof havo, quyosh nurlari va zilol suvlarda chiniqish demakdir. Tabiiyki, kechadigan bunday ijtimoiy-madaniy va tarbiyaviy jarayonlarda atrof-muhitni o‘rganish, ma‘lum maqsadlar yo‘lida qo‘yilgan vazifalarni bajarish, turli toifadagi kishilar bilan muloqotda bo‘lishga to‘g‘ri keladi. Shu sababdan ham qadimgi ajdodlarimiz ov qilish hamda turli xil mashg‘ulotlarni bajarib borishi barobarida eng muhimi, jismoniy sifatlarni (chaqqonlik, tezlik, epchillik, chidamlilik va h.k.) ham takomillashtirib borganlar. Bu haqda halq og‘zaki ijodida ta‘rif etilgan turli xil rivoyatlar, afsonalar va hikoyalardagi dalillar, mushohadalar ham guvohlik beradi. Ulardan ba‘zi namunalarni misol tariqasida ko‘rsatish mumkin. Chotqol, Nurota, Sariosiyo va Turkiston tizma tog‘lari orasida yassi va silliq toshlarga o‘yib chizilgan suratlar (shakllar) orasida ov jarayoni, turli xil yovvoyi hayvonlarni nayza bilan sanchish, yoy o‘qi bilan otish, odamlarni yugurishi, hayvonlar bilan olishuvi, nayza, kamon va boshqa qurollarni ishlatish yo‘llari aynan yorqin ifodalangan.

Sarvon vodiqidagi Dalvarzintepa, Samarqanddagi Afrosiyob va boshqa hududlarda olib borilgan arxeologik qazashmalarning topilmalarida sayohat qilish, shaharlarda savdo uyushtirish, manzarali joylarda barcha chiqarish, tuya, ot, nachirlarga yuk ortib, ularni piyoda yetaklab borish, goho ularni minib yurish kabi amaliy harakatlarning tasvirlari keltirilgan. Bunday tasviriy dalillar O'zbekiston tarixi Davlat muzeyi, San'at muzeyi, Afrosiyob muzeyi va viloyatlardagi boshqa tarix muzeylarida ehtiyot bilan saqlanib va namoyish qilib kelinmoqda.

Egiz qadimgi ajdodlarimizning ijtimoiy-madaniy hayoti, sayohatlar haqida "Avesto", "Alpomish", "Go'ro'g'li", "Qirq qiz", "To'maris afsonasi", "Shiroq afsonasi" va juda ko'p boshqa xalq og'zaki ijodi namunalarida qiziqarli voqealar bayon etilgan.

Yuqorida zikr etilgan manbalarni o'rganish asosida qadimgi davrlarning ijtimoiy-madaniy hayotidagi sayohatlar haqida ba'zi bir muhimlar yuritish mumkin. Sirdaryo, Zarafshon, Amudaryo va boshqa kichik daryolarning boshlanishi, o'rta qismi va ularning so'nggi irmoqlari hududida o'tmish ajdodlarimiz hayot kechirganlar. Ular chorva bilan shug'ullanib, yilning fasllariga qarab doimo yaylovlarda ko'chib yurishgan. Bunda o'zlarining ham bevosita birgalikda yurishiga to'g'ri kelgan. Bu esa kishilarning asosan sohillar, yaylovlar, tog'li joylarda piyoda, ulovlarda (ot, nachir, bo'kiz, eshak va h.k.) yurishini taqozo etgan. Katta-yu kichiklarni bunday sharoitlarda jismoniy jihatdan chiniqishiga to'g'ri kelgan. Tog'ma-tog', yaylov-ma-yaylov ko'chib yurish, qishki paytlarda o'zlarining o'troqli mahallalarida yashashi davomida bo'ri, tulki, kiyik, arxar (yovvoyi qo'y), kashlik, ustovuch, bedana ovlash bilan shug'ullanib epchillik, chaqqonlikka ega bo'lishgan. Tabiiyki bunday ovlarda asosan o'rta yoshdagilar, yigitlar, o'smirlar va hatto yosh bolalar ham ishtirok etishgan.

Tarixiy ma'lumotlarga qaraganda baland tepalaklar ustiga, goho tekis yaylovlarda ham toshlarni yig'ib mo'la (belgi) yasashgan. Mo'laning yasashdan zaxiriy maqsad, ov joylarini belgilab qo'yishdir. Shuningdek, kim birinchi bo'lib toqqa chiqsa - qadam tegmagan joylarga ilk bor yetib borishsa, esdalik uchun mo'la yasashgan. Hatto mo'lalarga uni yasovchi yoki ulug' kishilarning nomini berishgan. Ehtimol "Xontangri" (Xitoy), "Kazbek", "Ehrus" (Kavkaz) kabi cho'qqilar ham shu tariqa atalgan.

Yurtimizda "Nurota", "Turkiston", "Olmaliq" kabi tog'lar ham balkim qadimgi ehtimol shu odatlar bo'yicha nomlangan.

Buyuk bobokalonimiz, she'riyat mulki sultoni hazrat Alisher Navoiyning "Farhod va Shirin" dostonida ham sayohatlarga aloqador masalalar o'z ifodasini topganligining guvohi bo'lamiz. Dostonda "Dengiz safari, bo'ron va ayriliq" (XXVIII bob) qismida Farhodning suvda suzishi, haloketga uchragan kemadagi kishilarni qutqarish kabi jasoratlari bilan bir qatorda Yaman o'lkasidan Armanlar yurtiga (Shopur orqali) kelib qolishi, tog'larda sayr qilishi, Shirinning visolini ko'rish maqsadida harsang toshlarni

o'yib ariq qazishi va boshqa juda ko'p sarguzashtlar o'z aksini topgan. Farhodning Chin (Xitoy) mamlakatidan Armanlar yurtiga sayohat qilib kelishi qadimgi ajdodlarimizning sayyohlik faoliyatlaridan darak beradi.

Afsonaviy sayr-sayohatlar "Go'ro'g'li" turkumidagi o'nlab dostonlarda madh etilgan, ya'ni Avazxon, Hasaxon, Ravshaxon, Rustam va boshqa o'nlab ijobiy qahramonlar timsolida "uchqur otlar"da tog'dan-toqqa uchib o'tish, daryo va chakalakzorlar ustidan sakrab o'tish kabi jarayonlar talqin qilingan. Bunda yuksak darajadagi chavandozlik mahorati orqali yigitlarning har qanday to'siqlarga bardosh berishi va ularni yengib chiqishi ifodalanadi. Xalq og'zaki ijodida keltirilgan bunday ramziy timsollar orqali ajdod-avlodlarimizning Vatanni himoya qilish, el-yurt xizmatida bo'lish, mashaqqatli mehnatlar evaziga o'z sevganiga yetishuvi, ota-onani qadrlab, ularni e'zozlaganliklarini tushunish qiyin emas.

Ijtimoiy-tarbiyaviy jihatdan muhim bo'lgan bunday an'anaviy sayr-sayohatlar jarayoni nafaqat hozirgi kunlarimizgacha saqlanib qolgan, balki, ular yangi davr talab-ehtiyojlari asosida tobora rivojlanib bormoqla, qadriyat sifatida hayotda o'z o'mini topib, ko'p qirrali yangicha shakllari va mazmuni bilan boyitib borilayotir.

"Alpomish" dostoni xalqimiz hayotiga chuqur singib ketganligini inkor qilib bo'lmaydi. Undagi el-yurt ori uchun va sevgan yori uchun bo'lgan dahshatli kurashlar, shiddatli janglarda piyoda yurish, tog'lardan oshish, daryolardan kechib o'tish, ko'l yoqalarida dam olib, hordiq chiqarish, otda poyga qilish, pahlavon-alplar bilan kurash tushish kabi keng qamrovli amaliy faoliyatlar sayohat mazmuniga mos keladi.

Dostonda ifoda etilishicha Asqar tog'i, Oy na ko'li, Chilvir cho'li va h.k.larning nomlari, Oyna ko'li yoqasida Barchinoy o'z kanizaklari bilan baxmal o'tovda yashab, atroflarda sayr qilishi bejiz emas, albatta. Chunki bundan bir necha ming yillar ilgari Boysun-Qo'ng'iro't elatlari shu manzilgohlarda yashab, tabiat qo'ynida uning saxiy ne'matlaridan bahramand bo'lishgan. Boychibor kabi otlar zotini ko'paytirishgan. Tog' yonbag'irlarida qo'y boqib, tekisliklarda arpa-bug'doy ekib, dehqonchilik qilishgan. Bularning barchasi insonlarning sog'lom yashashi, oilada farzandlarni barkamol qilib tarbiyalashiga omil sifatida xizmat qilgan.

Diqqatga sazovor tomonlardan yana biri shundaki, jahonga mashhur bo'lgan yurtdoshlarimiz Abu Nasr Forobiy, Al Xorazmiy, Ibn Sino, Mahmud Pahlavon, Amir Temur, Alisher Navoiy, Mirzo Bobur va boshqa buyuk allomalarning asarlari, ilmiy meroslarida qadimgi ajdodlari-mizning ijtimoiy-madaniy hayotida sayohatlarning tutgan o'mi haqida ham ko'p bora to'xtab o'tilgan. Navoiy, Bobur va boshqalarning asarlariga bitilgan suratlarda ovchilik, bog' va daryo, ko'l sohillarida hordiq chiqazish manzaralari tasviri berilgan. Sayohatlarning kishilar salomatligini yaxshilash, ummi uzaytirish, jismoniy va ijodiy mehnat qobiliyatini oshirishdagi o'mi tarannum etilgan. Mahmud Qoshg'ariy o'zining "Devonu lug'atit turk" kitobini yozish uchun

Turkiston o'lkasini piyoda va ulovlarda kezib chiqqan. Uning sayyohlik faoliyatiga doir ilmiy-qidiruv ishlari nafaqat o'z davrida balki, keyingi ming yillik davomida Turon o'lkasida qadrlanib keldi. Uning bu asari asosida ko'plab ilmiy tadqiqotlar bajarilgan. Ayniqsa talaba-yoshlar M.Qoshg'ariyning hayoti haqida hamda uning asarlarini yaxshi o'rgansalar foydadan xoli emas.

Eng qadimgi odamlar yashash uchun ov va mehnat qurollarini yaratishga harakat qilishgan. Shu tarzda tog'lar, yovvoyi hayvonlarni ovlaganlar, ularni qo'lga o'rgatib mehnat bilan shug'ullanishgan. Ov manzillari va dam olishga qulay bo'lgan joylarda ma'lum bir belgilarni (tur) qo'yishgan. Zarur paytlarda ana shu joylarga kelib hordiq chiqarishgan, turli o'yinlar tashkil qilib musobaqalashishgan.

Ishlab chiqarish - mehnat jarayonining takomillashuvi, ov va jang qurollarini yaratishning yangi usullari odamlarning uzoq joylarga borib ov va mehnat qilishiga, shu asosda eng qulay va yaxshi joylarni tanlab, dam olishi, hatto o'troqlashib qolishiga olib kelgan. Shu tariqa daryolar, ko'llar, dengizlarda ov qilish, sayr o'tkazish uchun kemalar yasab, ulardan maqsadli foydalanganlar. Bu sohada Xristofor Kolumbning Amerika qit'asiga borib qolishi (kashfiyoti), turli sayohatchilarning Hindiston, Afrika, Avstraliya va boshqa qit'alar, mamlakatlarga borganligi tarixdan ma'lum.

Qadimgi O'zbekiston zaminining so'lim tabiati, qo'hna shaharlaridagi osori-atiqalar, dunyo tamadduni (sivilizatsiyasi)ga katta hissa qo'shgan allomalarni voyaga yetkazgan maskanlar jahon ahlini, sayyohlarini o'ziga chorlab kelgan. Aleksandr Makduniy (mil.avv. IV asr) bilan kelgan yunon ma'rifatparvarlari o'lkaning tabiati va hayotiga oid qiziqarli esdaliklar yozishgan. Xitoylik sayyoh Chjan Szyan (mil.avv.II asr) Farg'ona vodiysidan Qizilqum cho'llarigacha bo'lgan hududlarni kezib chiqqan. Shuningdek, Xitoylik Syuan Szan (VII asr), italiyalik Marko Polo (XIII asr), arabistonlik Yoqut Hamaviy (XIII asr), marokashlik Abu Abdulloh ibn Battuta (XIV-asr), ispaniyalik Rui Gonsales de Klavixo (XIV asr), germaniyalik Iogann fon Shiltberger (XIV-XV asrlar), Buyuk Britaniyalik Entoni Jenkinson (XVI asr), vengriyalik Arminiy Vamberi (XIX asr) kabi dunyo kezgan sayyohlar qo'hna yurtimizda bo'lishgan va ko'rgan-kechirganlari to'g'risida xotiralar yozib qoldirishgan.

Shuningdek, Turon zaminining mashhur kishilari ham dunyo kezib, safar taassurotlari asosida qimmatli asarlar yozishgan. Abu Rayhon Beruniyning hind eliga safaridan keyin yaratilgan "Hindiston" (1030 yil), Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" (1518/19-1530 yil), Abdurauf Fitratning Turkiyaga sayohati xotiralarini o'z ichiga olgan "Sayyohi hindi" (1912 yil) kabi asarlar shular jumlasidandir. Umuman sharq badiiy adabiyotiga mansub sayohatnoma janrida ham qadim yurt hayotiga bag'ishlangan asarlar bor (Muqimiy, Nodim va boshqalarning asarlari).

Mavoraunnahrda ilk sayyohlarning safarlari Amir Temur va temuriylar davrida faollashgan. Amir Temur Fransuz qiroli Karl VI va ingliz qiroli Genrix IV bilan doimiy aloqada bo'lgan. Uning elchisi 1403 yil Parijga kelgan. Ispaniyalik Klavixoning "Buyuk Temurning hayoti va faoliyati" kitobida Mavoraunnahrdagi ijtimoiy hayot va sayyohlarning Temur davlatiga intilishlari to'g'risida qayd etilgan.

Turizm sohasi kadrlarini tayyorlash. Mustaqillik davriga kelib O'zbekistonda turizmga, shuningdek soha kadrlarini tayyorlashga katta ahamiyat berilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekistonda turizm sohasi uchun kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi (1999 yil 2 iyul) qarori asosida Toshkent iqtisodiyot universitetida Xalqaro turizm fakulteti, Toshkent, Samarqand va Buxoroda turizm kollejlari ochildi. Vazirlar Mahkamasining "Samarqand iqtisodiyot va servis institutini tashkil etish to'g'risida"gi qarori (2004 y. 26 mart) bilan faoliyatini qayta qurgan oliy o'quv yurtida ham turizm fakulteti ish boshladi. Shuningdek, mamlakatdagi boshqa ba'zi oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarida ham turizm sohasi uchun kadrlar tayyorlanadi. Xodimlarning malakasini oshirish va qayta tayyorlashni "O'zbekturizm" milliy kompaniyasiga qarashli Respublika ilmiy-konsalting o'quv markazi amalga oshiradi. 2005 yilda markaz tomonidan 51 gid, 201 gid-tarjimon, 90 turistik operator tayyorlandi. 140 mutaxassisga malaka oshirish o'quv mashg'ulotlari, 190 xodimga seminar-trening uyushtirildi.

Bu borada olib borilayotgan chora-tadbirlar va ishlarning barchasi O'zbekistonda turizmning keng avj olishi uchun yordam beradi.

Turizmning shakllari. Hozirgi davrda turizm dunyoning juda ko'p mamlakatlarida ommaviy tus olgan. Odatda, turizm turistik tashkilotlar orqali turistik marshrutlar bo'yicha uyushtiriladi. Turizmning juda ko'p turlari va shakllari mavjud (ichki, xalqaro, havaskorlik turizmi, uyushgan turizm, yaqin joyga sayohat, uzoqqa sayohat, bilim saviyasini kengaytirish maqsadida turizm, toqqa chiqish, suv turizmi, avtoturizm, piyoda yuriladigan turizm, sport turizmi va boshqalar).

O'zbekistonda turizm sohasiga rahbarlikni «O'zbekturizm» milliy kompaniyasi (1992 yil 27 iyulda tuzilgan) olib boradi. Kompaniyaning asosiy vazifasi turizm infrastrukturasi rivojlantirish, chet el sarmoyasini jalb qilib, zamonaviy turistik komplekslarni barpo etish, yangi turistik yo'nalishlarni ishlab chiqish, xizmatlar doirasini kengaytirish va boshqalardan iborat.

Turizm amaliy harakatlarni taqozo etuvchi o'z belgilariga ko'ra jismoniy tarbiyaning muhim vositalaridan biri hisoblanadi. Ayni vaqtda ta'lim-tarbiyaviy xususiyatlari bo'yicha pedagogik jarayon ham bo'lib, jamiyatning ma'naviy-madaniy taraqqiyotda muhim o'ringa ega. Ya'ni sayohatlar davomida bilim va amaliy malakalarni oshirish yo'li bilan ishlab chiqarish sifatini yaxshilash hamda sog'lom turmush tarzini shakllantirish imkoni yuzaga keladi.

Ular (ekskursiya) qo'yilgan maqsadlar asosida shug'ullanuvchilarning sog'lom va qulay faoliyati va salomatligiga qarab uyushtiriladi. Ularning o'ziga xos va talablar quyidagi tarzda namoyon bo'ladi:

1. Maktab yoshigacha bolalar tarbiya muassasalarida sayrlar.
2. Maktab o'quvchilarning sayr-sayohatlari.
3. O'z ta'limi, kasb-hunar ta'limi o'quvchilarining sayr-sayohatlari.
4. Oliy o'quv yurtlari talabalarining sayr-sayohatlari.
5. Maktab tashqir xodimlarining sayr-sayohatlari.
6. Axborot ishqomat joylarida kishilarning sayr-sayohatlari.
7. Xorijiy mamlakatlardan kelgan mehmonlarning sayrlari.

Turizmni tashkil qilishning asosiy maqsad va vazifalarini quyidagicha tushunish mumkin:

1. Tarixiy va madaniy obidalarni tomosha qilish va ularning tarixini o'rganish.
2. O'zi yashab turgan joylarning tarixi, rivojlanishi va xalqi hayotini o'rganish (bilish).
3. Arofl-muhit, tabiat manzaralari bilan tanishish, aholi yashaydigan joylarga loyiq joylarni o'rganish.
4. Shug'ullanuvchilarning (qatnashchilar) sahat-salomatligini yaxshilash uchun piyoda kezish, xordiq chiqarish, qulay joylarda mashqlar, o'yinlar o'tkazish.
5. Diniy maqsadlarda muqaddas qadamjolar va boshqa tarixiy yodgorliklarni ziyorat qilish, borib ko'rish va hokazo.
6. Ilmiy izlanishlar (mutaxassislar) olib borish va hokazo.

E'tibor etish lozimki, mazkur sayrlar bilim (tushuncha) va amaliy malakalar hosil qilish yo'lida ta'lim – tarbiya vazifasini ham o'taydi. Shu bilan birgalikda qatnashchilarning sahat-salomatligini yaxshilash, jismoniy barqarorligini o'stirishga xizmat qiladi. Demak turizm shakl va mazmun jihatdan tarbiyaviy hamda sog'lomlashtiruvchi xususiyatlarni o'zida mujassamlashtirishi bilan muhim ahamiyatga ega.

Sayr (ekskursiya) qilishda qatnashchilarning belgilangan joyga yetib borishi, ularga chiqish va tushishlari, sayr-sayohat manziliga kirish va boshqalar sayr-sayohatlarda ishtirok etish jarayonida piyoda yurish asosiy o'rin o'ynaydi. Chunki, erkin ravishda turli faoliyatlarni bajarish- yuklarini ko'tarib yurish, sharoitlarga qarab tez yoki sekin yurish, to'xtash, ba'zan to'xtashga ham to'g'ri keladi. Bunday amaliy harakatlar sayohatchilarning salomatligini yaxshilashga ko'mak beradi.

Zohir qilib aytganda turizمنى ulovlarda sayr-sayohat va piyoda yurish shakllari mazmun va mohiyat jihatdan o'z xususiyatlariga ega. Ularni tashkil qilish va olib borishda mutasaddi xodimlarning mas'uliyatlari o'ziga xos bo'ladi.

Turizمنى turlari. Turizm mazmun jihatdan keng qamrovli ijtimoiy – tarbiyaviy xususiyatga ega bo'lgan jarayon hisoblanadi. Insonlarning ko'proq

amaliy faoliyatlarini taqozo etib, ularning tabiat manzaralariga, tarixiy yodgorliklar bilan tanishuvga, salomatlikni mustahkamlash uchun dam olishga bo'lgan ehtiyoji va qiziqishlarini e'tiborga olgan holda turizm ko'p tarmoqli sohadir. Ularning eng asosiy turlarini quyidagilarga ajratish mumkin:

1. Piyoda yurish sayohati.
2. Tog'larda yurish sayohati.
3. Qoyalarni zabt etish sayohati.
4. Chamalab topish (orientirovanie) sayohati.
5. Tezoqar daryolarda eshkak eshish sayohati.
6. Ulovlarda (avtomoto, velosiped va hokazo) yurish sayohati.

Ta'kidlash lozimki, mazkur turlar mazmun jihatdan bir-biridan tubdan farq qilib, tartib-qoidalari, xususiyatlariga qarab mustaqil sport sohalari ham hisoblanadi.

Piyoda yurish sayohatida uning shakllariga (bir kunlik, ko'p kunlik) qarab masofalar belgilanadi va ulrga ma'lum darajada talablar qo'yiladi.

Tog' turizmi (tog'larda yurish sayohati) piyoda yurish sayohatining davomidir. Ya'ni bunda barcha harakatlar takrorlanadi. Faqat kategoriyalik (qiyinchilik darajalari: 1.2.3.4.5.6) jihatdan boshqa turizm turlaridan farq qiladi. Aniqroq aytganda balandligi 1,5-5 km. (dengiz sathiga nisbatan) tog'larga chiqish, dovonlardan oshish, tezoqar suvlardan kechib o'tish kabi murakkab harakatlar bajariladi.

Qoyalarni zabt etish turizmi (skalalazanie) piyoda yurish va tog' turizmi bilan bevosita bog'liqdir. Faqat tik qoyalar, qoyalarga tirmashib chiqish (arqonlar, himoya vositalari va hokazo) bilan tubdan farq qiladi.

Chamalab topish (orientirovanie) turizmi ham piyoda yurish, tog' turizmi bilan bevosita bog'liqdir. Ya'ni ma'lum masofani piyoda o'tish, to'siqlar, dovonlardan oshish hollari bunda ham qo'llaniladi. Boshqa turizm turlaridan farqli o'laroq, bunda xarita, chizma, kompas, quyosh, oy, yulduz va boshqa vositalardan foydalangan holda maqsadga yetib borishdir. Ya'ni noma'lum va notanish joylarni topish asosiy faoliyati hisoblanadi. Turizmning bu turidan piyoda yurish, tog' turizmi va boshqa sohalari bo'yicha o'tkazilgan maxsus musobaqalarda (slyotlar) keng foydalaniladi.

Avtomobil, mototsikl, velosiped kabi ulovlarda yurib sayohat qilish ham turizmda muhim o'rinni egallaydi. **Tez oqar daryolarda qayiq, eshkak, sol va shunga o'xshash moslamalarda o'tirib sayohat qilish** ham amalda mavjud. Buning uchun katta tayyorgarliklar, jismonan maxsus mahoratlarga ega bo'lish talab etiladi.

Xulosa shundan iboratki, turizm o'z mohiyatiga ko'ra ko'pgina turlarga bo'linadi. Ularning mazmuni shug'ullanuvchilarning jismoniy barkamolligini oshirish bilan bir qatorda kishilarda vatanparvarlik va g'urumi, o'zaro mehnatsevarlik, hamkorlik va do'stlik kabi insoniy fazilatlarni tarbiyalashga xizmat qiladi.

Asosiy turistik yo'nalishlar.

«O'zbekturizm» milliy kompaniyasi sayohat qilish turiga qarab quyidagi turistik yo'nalishlarni ishlab chiqqan:

- **klassik turistik yo'nalish** (Toshkent, Samarqand, Buxoro, Xiva, Toshkent; Toshkent, Samarqand, Buxoro, Shahrisabz, Toshkent) eng qadimiy yodgorliklar va tarixiy – madaniy obidalarga tashrif bilan bog'liq;

- **arxeologik turistik yo'nalishi** (Qoraqalpog'iston, Samarqand, Surxondaryo hududlari bo'ylab) eng qadimiy arxeologik ashyolar topilgan va ayni paytda qazilma – qidiruv ishlari olib borilayotgan joylar bilan tanishishni maqsad qilib qo'yadi;

- **ekologik turistik yo'nalishi** (Chatqol tizmasidagi dam olish va davolanish oromgohlari, Zomin va Buxoro viloyatlaridagi qo'riqxonalar) alohida muhofaza qilinadigan tabiiy hududlar va inson salomatligi uchun foydali joylarga sayohat bilan bog'liq;

- **ekstremal turistik yo'nalishi** (Chimyon, Farg'ona vodiysi tog' yon bag'ri, Orol bo'yi, Buxoro va Navoiy viloyatlari tekisliklari bo'ylab) tabiiy qiyinchiliklarni yengib o'tishni nazarda tutadi;

- **ma'naviy turistik yo'nalishi** (Toshkent, Samarqand, Buxoro va boshqa viloyatlardagi) tarixiy-diniy obidalarni ziyorat qilish bilan bog'liq;

- **havo yo'llari turistik yo'nalishi** (O'zbekiston shaharlari va Germaniya, Gollandiya, Italiya, Rossiya, Xitoy, Yaponiya kabi xorijiy davlatlardagi) ko'zlangan manzilga samalyotda yetkazish bilan bog'liq;


Shuningdek, mamlakat bo'ylab madaniy sayr – tanishuv, sport-sayyohlik, davolanish, maqsadli, dam olish turistik yo'nalishlari va boshqalar bor.

Turizmning tarixi XIX asr boshlariga borib taqaladi. Dastlab Angliyadan Fransiyaga uyushgan sayyohlik tashkil etilgan (1815 yil). Turizmning asoschisi hisoblanmish ingliz ruhoniysi Tomas Kuk 1843 yilda 1-temir yo'l sayyohligini tashkil qildi. Shundan so'ng u o'zining xususiy turistik korxonasini tuzdi va 1866 yil dastlabki sayyohlik guruhlarini AQShga jo'natildi.


Tarixiy ma'lumotlarga qaraganda XIX asrning birinchi yarmida rus sayyohlari Markaziy Osiyoning tarixi, madaniyati, tabiiy boyligi va geografik muhitini o'rganishga ilk qadamlar qo'yishgan. Ayniqsa, bu jarayonlar XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asrning boshlarida keng avj olgan. Bunga tarix, geografiya, botanika, etnografiya, arxeologiya va boshqa ko'p sohalar bo'yicha olimlar, harbiy mutaxassislar safarbar etilgan. Ularning tashriflaridan maqsad ko'p qirrali jarayonlar bilan bog'liq bo'lib, **mohiyatan istilochilik bilan bog'liq manfaatlar asosiy o'rinda turgan**. Shular qatorida geografik muhit va tabiiy boyliklarni o'rganish, ularni qidirib topish ham muhim ahamiyat kasb etgan. Bunday murakkab va mashaqqatli tadbirlarni tashkil qilish hamda amalga oshirishda B. A. Fedchenko, P. P. Semenov-

Tyan'-Shanskiy katta jasoratlar ko'rsatishgan, ya'ni ular Tyan'-Shan, Pomir-Oloy tizma tog'lari, ularning quyi tarmoqlarini xaritaga olganlar.

1-jadval



2-jadval



Bular o'z navbatida o'sha davrda va keyingi vaqtlarda tog'lar, daryolar, konlarni o'rganishda, shuningdek, guruh bo'lib sayohatlar tashkil qilishda ancha xizmat vazifalarini o'tagan.

1900 yilda Sankt-Peterburgda Rus tog' jamiyati tashkil qilindi. D.N.Anuchin, V.I.Vernadskiy, I.V.Mushketov, P.P.Semyonov-Tyan-Shanskiy, B.A.Fedchenko va boshqalar uning tashkilotchilari bo'lishgan. Bu jamiyat turli yo'nalishlar (marshrut) (sxema) chizmalarini ishlab chiqdi va Kavkaz, Olmaota va boshqa joylarda o'z bo'limlarini tashkil etdi.

Ta'kidlash lozimki, taniqli tarixchi N.K.Gupin, geolog A.P.Parpinskiy, yozuvchi D.N.Mamin-Sibiryak, olimlar K.A.Timiryazov, D.I.Mendeleev, I.P.Pavlov, sayyohlar N.M.Prjevalskiy, N.A.Nordensheld va boshqalar joylardagi bu jamiyatning faol tashkilotchilari va a'zolari bo'lishgan.

Sovet hokimiyati yillarida turizmning ahvoli. Bunday tarixiy dalillarni tilga olishdan maqsad shuki, ularning tajribalari O'zbekiston sharoitlarida ham qo'llanilgan. Sovet hokimiyati yillarida turizm kommunistik mafkuraga moslashtirilgan. Turizm dam olish, sayohat qilish, tabiatni muhofaza qilish shakliga aylanib yildan-yilga takomillashib bordi.

Mamlakatda yoshlarni mehnat va mudofaaga tayyorlash, tabiatni, tarixiy yodgorliklarni muhofaza qilishda muhim ahamiyat kasb etdi. Jismoniy tarbiya va sport, mehnat va mudofaaning muhim omillaridan bo'lib qoldi. Sovet jismoniy madaniyat harakatining rivojlanishi turizmni ham jismoniy tarbiyaning asosiy vositasiga aylantirdi.

1919 yilda Moskvada o'quvchilar ekskursiyasining Markaziy byurosi tashkil etilib, u 30-yillarga kelib Markaziy bolalar ekskursiya-turistik stansiyasiga aylantirildi.

Turizmni ommalashtirishda Moskva komsomollarining xizmati katta bo'lgan. 1928 yilda "Komsomolskaya pravda" gazetasi va Moskva shahar komsomol tashkiloti rahbarligida Volxovstroy va harbiy shon-shuhrat joylariga birinchi ommaviy yurish tashkil qilindi. Shu yillarda bolalar va o'smirlar turizmida ham ancha siljishlar yuz berdi. 1927 yilda Maorif xalq komissarligi "Bolalar va o'smirlar o'rtasida ekskursiya ishlarini yanada rivojlantirish haqida" qaror qabul qildi.

Bu qaror O'zbekistonda ham amalga oshirildi. Turistik harakatni yanada takomillashtirish va uni ommalashtirish maqsadida partiya va hukumat qaroriga asosan 1930 yilda Butunittifoq ko'ngilli proletar turizmi va ekskursiya jamiyati (OPTe) tuzildi. 1932 yil 3 aprelda bu jamiyatning birinchi Butunittifoq s'ezdi bo'lib o'tdi. S'ezdda 290 delegat ishtirok etdi.

1936 yildan boshlab VSSPS ommaviy turizm va alpinizm ishlariga bevosita rahbarlik qila boshladi. Butunittifoq turizm seksiyasi tashkil qilindi.

1949 yilda turizm Butunittifoq yagona sport klassifikatsiyasiga mustaqil sport turi sifatida kiritildi. Shundan keyin turizm bo'yicha sport masterlari va masterlikka nomzodlar paydo bo'la boshladi. Sport klassifikatsiyasining

o'sha davrdagi talabi bo'yicha sport masteri talabini bajarish uchun 12 ta uzoq sayohatlarda 3000 km. masofani bosib o'tish kifoya edi.

Shuni alohida qayd qilish kerakki, 50-yillarning oxiri va 60-yillarda Butunittifoq ko'ngilli "Spartak" sport jamiyati va uning quyi organlarida turizm yaxshi rivojlandi. Ishlab chiqarish korxonalari, savdo tizimlari, o'rta maxsus o'quv yurtlarida ommaviy turistik poxodlar, slyotlar o'tkazish an'anaga aylandi va yoshlarni "sovet vatanparvarligi" ruhida tarbiyalash kuchaytirildi. Quyi jamoalaridagi faol, tajribali turistlar Butunittifoq turistlar slyotlarida qatnasha boshladilar. 1963 yilning avgustida Issiqko'l va Olmaota yaqinida "Spartak" sport jamiyatining III Butunittifoq turistlar slyoti o'tkazildi. Bu slyotda O'zbekiston terma komandasidan Toshkent va Samarqand turistlari qatnashdilar. Ular orasida o'zbek turisti R. Abdumalikov ham bor edi.

Turizmning barcha turlari bo'yicha targ'ibot va tashviqot ishlarini yuqori saviyada olib borish, tarixiy, madaniy va hordiq chiqarish joylari bilan mehnatkashlarni tanishtirishda "Turist" jurnalining (u 1966 yildan boshlab chiqa boshlagan) xizmati katta ahamiyatga ega edi.

Bundan tashqari, turizm haqida juda ko'plab adabiyotlar, metodik qo'llanmalar, ma'lumotnomalar ham nashr qilindi. Ayniqsa, A.X.Abukov (1970, 1980), A.Belyakov (1969), P.N.Bogdanov (1974), A.Kolesnikov, V.Kudryavsev (1974) kabi mutaxassislarning turizm bo'yicha nazariy va amaliy asarlarida turizmning taraqqiyoti, uning kelajagi, turistik poxodlarni tashkil qilishning ilg'or shakli hamda metodlari, ko'pgina korxonalaridagi turistik ish tajribalari o'z aksini topgan. M.S.Yunonev (1974), D.Armand (1965), Yu.A.Shtyurmer (1974) kabi mualliflar qo'llanmalarida esa turizm va tabiatni muhofaza qilish masalalariga keng o'rin berilgan.

1960-1976 yillarda O'zbekistonning barcha viloyatlari bo'yicha ham turistik marshrutlar, sayohat yo'llari va qo'llanmalar tayyorlangan, piyoda yurish, tog' turizmiga oid adabiyotlar yaratildi. Chunonchi, V.Rasekning "Chimyon", "O'rta Osiyo yo'llari bo'ylab", A.Kolbinsevning "O'zbekiston yo'llari bo'ylab", "Farg'ona vodiysi bo'ylab sayohat", R.Abdumalikovning "Sayohat sahifalari" va boshqalar shular jumlasidandir.

1951-1960 yillar mobaynida Samarqand shahri va viloyat turizmi birmuncha rivojlangan. Hatto turizm va ekskursiya bo'yicha universitet tashkil qilingan bo'lib, unda faqat o'lkani o'rganishgina emas, balki piyoda yurish, tog' turizmi bo'yicha ham mashg'ulotlar o'tkazilib turilgan. Bu universitetda asosan turizm kadrlari - o'lkani o'rganish bo'yicha instruktorlar, jamoatchi turistikfaollar tayyorlangan. Bunda A. Navoiy nomidagi O'zbekiston Davlat universitetining (hozirgi Samarqand Davlat universiteti) geografiya fakulteti, "Iskra" (keyinchalik "Spartak") sport jamiyati qoshida tashkil qilingan turizm seksiyasi katta faoliyat ko'rsatgan. Shahardagi 6-, 21-, 30- va boshqa maktab o'quvchilari o'zlarining geografik

va jismoniy tarbiya o'qituvchilari yordamida ko'p kunlik turistik poxodlarda faol qatnashganlar.

1955 yilga kelib respublikada turizm bilan shug'ullanuvchilar soni 8327 kishiga yetdi. Bu paytda 6 mingdan ortiq jamoalarda turizm seksiyalari ish olib borgan edi. Turistlardan atigi 3 tasi birinchi razryad, 155 tasi yoshlar razryadiga ega edilar. Ular asosan Samarqand, Farg'ona va Toshkent shaharlarining vakillari edi.

1960 yilda Toshkent viloyat turizm kengashi 24 ta dam olish kuni poxodini tashkil qildi, unda 543 kishi qatnashdi. 1-2 kategoriyali poxodlarda esa 26 kishi ishtirok etdi. Faqat Samarqand shahrida 2225 kishi turizm bilan muntazam ravishda shug'ullandi. Samarqand viloyat "spartak" sport jamiyati qoshidagi turizm seksiyasining raisi A. P. Avanesov boshchiligida Zarafshon tizma tog'laridagi Og'aliq, Mironqul va Samarqandning shimoli-sharqida joylashgan Afrosiyob tepaliklariga poxodlar uyushtirildi. 1960 yilning boshlarida 1820 metr balandlikdagi Og'aliq tog'iga qishki poxod tashkil qilinib, cho'qqilardan biriga "Spartak" nomi berildi. Bu poxodda 18 kishi qatnashdi. Keyinchalik bu cho'qqiga chiqish turistlar uchun eng qiziqarli mashg'ulot bo'lib qoldi.

1961 yili respublika bo'yicha bir kunlik turistik poxodlarda jami 4620 kishi qatnashdi. 1962 yilda respublika "Spartak" sport jamiyati bo'yicha 380 jamoada (shundan 67 tasi o'quv yurtlari) 5931 kishi turizm bilan shug'ullandi. Ular orasida 1 ta sport masteri, 561 ta "SSSR turisti" nishondori, 11 ta birinchi razryad, 22 ta ikkinchi razryad, 96 ta uchinchi razryad, 123 ta jamoatchi instruktor, 70 ta sudya bor edi.

VSSPSning 1962 yil 20 iyuldagi "Turizmni yanada rivojlantirish to'g'risida"gi qaroriga asosan 1962 yilda O'zbekiston SSRda turizm Soveti tashkil topdi va uning birinchi tashkiliy plenumi 1962 yil 13 sentyabrda bo'ldi.

1962 yili Samarqandda respublika turistlarining 1-slyoti bo'ldi. O'zbekiston vakillari shu yiliyoq Butunittifoq turistlar slyotida birinchi o'rinni egallashga muvaffaq bo'ldilar. Bu davrga kelib Samarqand viloyat turistlarining mahorati birmuncha oshdi. Shahar turistlar seksiyasida tajribali turistlar paydo bo'la boshladi. A.P.Avanesov, V.N.Boysoni (texnik), O.T.Nikonov, R.P.Suxareva, V.P.Zaruskiy, R. Abdumalikov ana shular jumlasidandir.

Respublikada 1963 yilda 296 ta turistik seksiya mavjud bo'lgan bo'lsa, 1984 yilda ulaming soni 1000 taga yetdi, turistlar soni esa 23,7 mingdan 50 mingtagacha o'sdi. Poxod qatnashchilarining soni 80 mingdan 160 mingga ko'paydi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, Sobiq Ittifoq davrida turizm ishlarini Markazdan turib boshqarish, amalga oshirishning mazmun-mohiyati sovetlar manfaati, mafkurasi izmida edi. O'zbekistonda turistlar kelib ko'radigan ko'plab masjid va madrasalar xaroba axvolda edi.

Mustaqillik va turizm. O'zbekistonda mustaqillik qaror topgach turizm ishlari keng yo'lga qo'yila boshlandi. Uning huquqiy va iqtisodiy asoslari yaratildi.

Jahon Turizm Tashkiloti Bosh Assambleyasining Bali shahrida (Indoneziya) 1993 yilda bo'lib o'tgan X sessiyasida "O'zbekturizm" milliy kompaniyasi unga to'la huquqli a'zo etib qabul qilindi.

O'zbekistonda turistik faoliyat bilan shug'ullanuvchi 408 ta firma va korxonalar bor. 14 mingdan ortiq o'ringa ega bo'lgan 168 ta mehmonxona faoliyat ko'rsatadi (2006 yil). Respublikaga 2005 yilda dunyoning 117 mamlakatidan 241,9 ming xorijlik turist sayohatga keldi. O'zbekiston fuqarolaridan 380,9 ming kishi chet elga turistik sayohatga chiqdi. Shuningdek, mamlakat ichki turizmidan 334,1 ming kishi foydalandi.

Mamlakatda "O'zbekturizm" milliy kompaniyasi muassisligida rus va ingliz tillarida "Turizm O'zbekistana" (Tourism of Uzbekistan) jurnali nashr etiladi va kompaniya o'zining www.Uzbektourism.uz veb saytiga ega.

Qishki turistik zona. Mamlakatdagi qulay qishki turistik zona Toshkentdan 80 km. shimoliy-sharqda, Chatqol tog' tizmasi yon bag'rida joylashgan. XX asrning 70-yillarida bu maskanda qurilish va tekislash ishlari boshlangan. Hozirgi kunda bu zonada bir-biriga yaqin "Chimyon oromgohi" (dengiz sathidan 1500 m. baland), "Chorvoq oromgohi" (dengiz sathidan 890 m. baland) salomatlik markazlari va tog' chang'i sport markazi bo'lib, dam oluvchilarning dekabr-aprel oylarida qishki sport turlari bilan shug'ullanib, qish ziynatidan bahra olgan holda salomatligini tiklashlari uchun sharoit yaratilgan. Xizmat ko'rsatish shoxobchalarida turli rusumdagi chang'i, chana va snoubordlar ijaraga beriladi. Bu vositalarda uchish uchun dengiz sathidan 1500-4100 m. balandlikda uzunligi 300, 500, 800, 1500 va 3000 m. qiyaligi 25-52° bo'lgan turli tipdagi trassalar bunyod etilgan. Dam oluvchilar balandlikka kanat (osma) yo'l, bugel ko'targich, yanada balandroqqa vertolyotlar yordamida chiqishlari mumkin. Maskanda 700 dan ziyod o'rinli mehmonxona va kottejlar, 100 kishiga mo'ljallangan restoran, tamaddixonalar, diskoteka, sport zallari, sauna va boshqa maishiy xizmat ko'rsatish shoxobchalari bor.

Xususiy turizm. O'zbekiston Respublikasi Vazirlari Mahkamasining "Sayyohlik tashkilotlari faoliyatini takomillashtirish to'g'risida"gi (1998 y. 8 avg.) qarori mamlakatda turizm ishini yanada takomillashtirish, kichik va o'rta turistik tashkilotlar xizmat ko'rsatish bozorini faollashtirish hamda xorijiy sarmoyani turizm sohasiga jalb qilishni jadallashtirishga qaratildi. Shu qaror asosida Toshkentda "Xususiy turistik tashkilotlar assotsiatsiyasi" (XTTA) tuzildi (1998 yil). Mamlakatda faoliyat ko'rsatayotgan "Sayram turizm", "Dolores tur", "Otel Orient star", "Sitara interneysht", "Movarounnahr" kabi turli tipdagi turistik tashkilotlar XTTA ning ta'sischilari bo'lishdi. O'zbekiston va xorijdagi tashkilotlar bilan hamkorlikda ishlayotgan XTTA ning hozirgi kunda 50 dan ziyod a'zosi bor

(2006 yil). XTTA a'zolariga turistik faoliyat ko'rsatish litsenziyasini uzaytirish, sayyohlarni mehmonxonalarga joylashtirish, temir yo'l va havo yo'llarida olib yurishda imtiyozlar belgilangan.

Turizm sohasidagi munosabatlarni huquqiy jihatdan tartibga solish, turistik faoliyat bilan shug'ullanuvchi sub'ektlar va turistlarning huquqlari hamda qonuniy manfaatlarni himoya qilish maqsadida O'zbekiston Respublikasining "Turizm to'g'risida"gi qonuni qabul qilindi (1999 y.). O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Turizm faoliyatini litsenziyalash to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida"gi (2003 y. 11 noyabr) qarori turizm bilan shug'ullanishni istagan sub'ektlarga qulaylik yaratdi. 2006 yilda mamlakatda 326 ta xususiy turistik tashkilot faoliyat ko'rsatdi. Hozirda esa bu raqam yanada ko'payib bormoqda.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar.

1. Turizmning jamiyatdagi o'rnini nimalardan iborat va u qanday xususiyatlarga ega?
2. Turizm shakllari qanday turlarga ega?
3. Sayr-sayohat tushunchalari bir-biridan nimasi bilan farq qiladi?
4. Turizmning asosiy turlari haqida nimalarni bilasiz?
5. Piyoda yurish, tog'da yurish, qoyalarga chiqish, chamalab topish kabi turizm turlarining bir-biridan farqlari nimada?
6. Turizmning qanday yo'nalishlari mavjud?

Tayanch so'zlar:

Xususiy turizm, turistik tashkilotlar, turistik zona, mehmonxonalar, turizm kadrlari, tog' turizmi, sayohatchilar, ulovlar, xizmat ko'rsatish bozori.

6-mavzu: O'zbekiston va xalqaro turizm

Reja:

1. O'zbekistonda xalqaro turizm uchun sharoitlar.
2. Buyuk ipak yo'li.
3. Ekologik turizm.
4. Sarmishsoy yodgorligi.

O'zbekistonda xalqaro turizm uchun sharoitlar. Bozor munosabatlarga o'tish davrida respublikada ro'y berayotgan chuqur siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar milliy iqtisodiyotning muhim va istiqbolli sohalaridan biri bo'lgan turizm faoliyatida ham o'z ifodasini topmoqda.

O'zbekiston o'zining turistik imkoniyatlari bo'yicha Markaziy Osiyoda 1-o'rinda, dunyo bo'yicha esa 10-15 o'rinlarni egallaydi.

Xalqaro va "O'zbekturizm" milliy kompaniyasi ekspertlarining baholashicha bugungi kunda mamlakatimiz o'z turistik salohiyatining faqatgina 12-15 foizidagina foydalanilmoqda, xolos.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining so'nggi yillarida turizmga oid e'lon qilingan farmonlari va Vazirlar Mahkamasining qarorlari millatlararo aloqalarni kengaytirish va mustahkamlash, xalqaro turistik bozorga integratsiyalashish, O'zbekistonning madaniy-tarixiy va ma'naviy merosini jahon hamjamiyatiga targ'ib qilish hamda sayyohlarga xizmat ko'rsatish sifatini jahon andozalari darajasiga yetkazishga qaratilgan tadbirlarni o'z ichiga oladi. Bu qonuniy hujjatlar Respublikada turizm sohasi va uning infratuzilmasini rivojlantirish bo'yicha ko'pgina tadbirlar bilan birga qator muammolar yechimlarini ham ko'zda tutadi. Turizm sohasining raqobatbardoshligini oshirishni ta'minlaydigan shart-sharoitlarni yaratishda davlatning rolini oshirish, turizm rivojlanishining jahon amaliyotida jamlangan ilg'or tajribasini, usullari va vositalarini milliy iqtisodiyotimizga joriy qilish shular jumlasidandir.

Hozirgi davrda respublikamizda milliy turizmning barqaror rivojlanish muammolarini hal qilishning nazariy, uslubiy va amaliy yondashuvlarini ishlab chiqish, turistik mahsulotlar bozorini shakllantirish, mazkur soha faoliyatini tartibga solishning iqtisodiy usullari va uni boshqarishning tashkiliy tuzilmalarini, turizmni rivojlantirishning iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Xalqaro turizm insonlarning o'lkalar bilan tanishish, zavqlanish, dam olish, bo'sh vaqtini samarali o'tkazish, sog'lig'ini tiklash, dunyo sport musobaqalarida qatnashish, ma'naviy dunyosini boyitish kabi ishlarga ehtiyojining ortib borishi, boshqa xalqlarning urf-odati va turmush tarzini bilish uchun intilishida alohida o'rin egallaydi. Shuni ta'kidlashimiz joizki, o'tmishga nazar soladigan bo'lsak, insoniyat har doim makonda o'zining harakat doirasini o'zgartirib, yangi-yangi yerlarni kashf qilgan, turmush-tarzini boyitgan va ijtimoiy munosabatlarning yanada rivojlanishi, takomillashishi uchun intilgan. Bu esa shaxsni shakllanishi va kamol topishiga ijobiy ta'sir ko'rsatib, bunda turizm, ayniqsa uning xalqaro yo'nalishi hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan. Xalqaro turizm juda ko'p qirrali bo'lib, uning tarkibiy qismlari bo'lgan mehmonxona, ovqatlanish, transport, savdo, dam olish va sayr qilish joylari va boshqa ko'plab sohalar, jarayonlar bir-biri bilan uzviy bog'lanadi va harakatga keladi.

Jahon iqtisodiyotida xalqaro turizmning roli va ahamiyati yildan-yilga ortib borib, u jahondagi eng ko'p daromad keltiradigan asosiy sohalardan biriga aylanib bormoqda. So'nggi yillarda globallashtirish va xalqaro integratsiya jarayonlarining chuqurlashuvi turizm rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. XX asming so'nggi choragida jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlarda yuz bergan tub o'zgarishlar natijasida mamlakatlar o'rtasida savdo-iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy va madaniy aloqalar sezilarli

darajada faollashdi. Jahonning turli mamlakatlarida iqtisodiy taraqqiyotning yuksalishi kishilarning turli maqsadlarda bir mamlakatdan ikkinchisiga qatnab turish ko'lamining kengayishini taqozo etadi. Bu esa turizmni milliy iqtisodiyotning eng istiqbolli tarmoqlaridan biriga aylantirmoqda.

Butunjahon turistik tashkiloti (BTT) ma'lumotlariga ko'ra hozirgi vaqtda jahon yalpi milliy maxsulotining 11 foizi, investitsiyalarni 10 foizi, jahon iste'mol xarajatlarining 11 foizi, soliq tushumlarining 5 foizi turizm sohasi hissasiga to'g'ri keladi¹. XX asr 90-yillarining boshlaridan hozirgi vaqtga qadar mazkur sohaga kiritilgan investitsiyalarni o'rtacha yillik o'sish sur'ati 30 foizni tashkil etdi va 16 ish o'midan biri turizm tarmog'i zimmasiga to'g'ri keladi. Jahon eksportida turizm neft va neft mahsulotlari hamda avtomobillar eksportidan so'ng uchinchi o'rinni egallaydi¹.

Turizm taraqqiyoti uchun qilinadigan sarf-xarajalar boshqa sohalarga qilinadigan sarf-xarajatlarga qaraganda o'zini tezroq oqlaydi. Shu bilan birga turizm iqtisodiyotning o'ziga xos va muhim tarmog'i yoki daromad manbaigina emas, balki mamlakatlar orasidagi tashqi siyosiy aloqalarni har tomonlama rivoj toptirish, do'stona munosabatlarni yaxshilash, turli mamlakatlar va xalqlar madaniyati, san'ati, an'anaviy urf-odatlarini bilan yaqindan tanishish imkonini beradi.

Butun jahonda tez sur'atlar bilan rivoj topayotgan turizm yaqin kelajakda ko'rsatiladigan xizmat sohalari orasida eng oldingi o'ringa chiqib olishi mumkin. Hozirgi o'zida jahon miqyosida shunday mamlakatlar borki, ular asosan turizmni rivojlantirish hisobiga yashaydi, ravnaq topadi, boyiydi. Ayrim mamlakatlarda turizm rivojlanishidan tushadigan daromad mamlakat milliy daromadining deyarli yarmini tashkil etadi. Turizmdan tushgan daromad evaziga Andorra, Lixtenshteyn, Monako, San-Marino singari mitti davlatlar o'zini zarur noz-ne'matlar bilan ta'minlabgina qolmay, balki boylik ortirmoqda. Bunday mamlakatlarda turizm iqtisodiyot negizi hisoblanib, milliy daromadning 20 foizidan 50 foizigacha beradi.


Xalqaro turizmni rivojlantirish borasida Avstriya, Germaniya, Shvesariya, Skandinaviya mamlakatlari katta tajribaga ega. Keyingi yillarda bu muhim sohada Xitoy, Malayziya, Isroil, Turkiya kabi mamlakatlar ham ulkan ishlarni amalga oshirmoqda.

O'zbekiston turizm sohasini har tomonlama rivojlantirish uchun qator imkoniyatlarga egaki, o'zining qulay geografik o'rni, jannatnamo tabiiy sharoiti tufayli jahon madaniyatida o'ziga xos o'rin egallaydi hamda noyob me'morchilik yodgorliklari bilan qator mamlakatlar bilan bellasha oladi. Shirindan-shirin ho'l mevalari, qovun-tarvuzlari, xilma-xil o'ziga xos milliy taomlari va nihoyat go'zal an'analari, urf-odatlar, ochiq yuz va mehmondo'st xalqi bilan butun dunyo ahlining e'tiborini o'ziga tortadi.

¹ Puzakova Ye.P. Mejdunarodnyy turisticheskiy biznes. M. Izdatel'svo «PRIOR», 2001, str.3

¹ Balabanov I.T., Balabanov A.I. Ekonomika turizma. M. Finansy i statistika, 2000, str.3.

Sayohat qiluvchi shaxslarning tasnifi



O'zbekistonda xalqaro turizm rivoji haqida Osiyo bo'yicha jahon turizmi tashkilotining mintaqaviy vakili Xarish Varmanning quyidagi so'zlarini eslatib o'tish o'rinlidir. "Toshkent va umuman O'zbekiston, -deydi u,- menda katta taassurot qoldirdi. O'zbekiston va uning qadimiy shaharlari turizmni rivojlantirish uchun ulkan imkoniyatlarga ega ekanligi ko'zga tashlanadi. Xalqning boy madaniyati, ko'p asrlik tarixi, arxeologik ob'ektlar, arxitektura yodgorliklari, jozibali tabiat va eng muhimi - iliq, do'stona mehmonnavoz muhiti kishini lol qoldiradi. Bularning bari - sayyohlarning bu yoqqa kelishi uchun yaxshi asos"².

² Axmedov Э. "Ўзбекистон шаҳарлари мустакиллик йилларида", Т."Абу Али ибн Сино", 2002 йил, 85-86 бет.

Buyuk ipak yo'li. Sharq va G'arb mamlakatlarni o'zaro bog'lagan qadimiy karvon yo'li shu nom bilan ataladi. Bu atama shu karvon yo'lidan uzoq yillar tashilgan qimmatbaho xom-ashyo – Xitoy ipagi bilan bog'liq. G'arb mamlakatlarida ipak ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgach, XV asrlarga kelib bu karvon yo'lida qatnov to'xtadi. 1987 y. YuNESKO madaniy taraqqiyot bo'yicha BMTning umumjahon o'n kunligi doirasida "Ipak yo'li - muloqot yo'li" xalqaro dasturini qabul qildi. Bu dastur Sharq bilan G'arb o'rtasidagi madaniy va iqtisodiy aloqalarni yanada mustahkamlash, shuningdek, qadimiy karvon yo'lida istiqomat qilayotgan O'rta Osiyo xalqlari boy madaniy tarixini keng tadqiq etish ishlari boshlanishiga asos bo'ldi.

O'zbekiston hududi qadimiy "Buyuk ipak yo'li" ning markazida joylashgani uchun har jihatdan jadal rivojlandi. Xitoy va Yevropani bog'lagan karvon yo'llari o'tgan joylarda savdogarlarga, sayyohlarga qulaylik yaratish maqsadida karvonsaroylar, sardobalar, rabotlar qurilgan.

Yo'lovchilar Poykent karvonsaroylari, Buxoro yaqinidagi Raboti Malik, Mirzacho'ldagi Sardoba kabi inshootlarda dam olib o'tishgan. X asrda hozirgi O'zbekiston hududida 10 mingdan ziyod karvonsaroy, XVI asrda esa 400 (ba'zi manbalarda 1000)dan ziyod sardoba va rabot bo'lganligi qayd etilgan.

Shu farmon asosida "O'zbekturizm" milliy kompaniyasi "Buyuk ipak yo'li" o'tgan tarixiy manzillar bo'ylab 200 dan ziyod turistik yo'nalishlari ishlab chiqdi va arxeologik-madaniy yodgorliklarni ta'mirlash va obodonlashtirish borasida chora-tadbirlar belgiladi. WTO bilan hamkorlikda Samarqand va Xivada shu mavzuga bag'ishlangan yig'ilishlar uyushtirildi. Samarqandda WTOning "Buyuk ipak yo'li" vakolatxonasi ochildi (2004 yil). Bu O'zbekistonning qadimiy yo'nalish markazi sifatida faoliyat ko'rsatishida muhim rol o'ynaydi.

"Buyuk ipak yo'li" yo'nalishida Janubiy-Sharqiy Osiyoni Yevropa bilan tutashtiruvchi "Trans Osiyo" transport magistralining qurilishi Markaziy Osiyo, shu jumladan, O'zbekistonda turizmni rivojlantirish uchun katalizator vazifasini bajaradi. Bu magistral Yaponiya, Xitoy, Hindiston, Armaniston, Gruziya, Ozarbayjon, Pokiston, Eron va Yevropa mamlakatlarini o'z ichiga qamrab olgan. Ushbu transport liniyasining muhim qismi Transkavkaz koridori (TRASEKA loyihasi) hisoblanib, u 1996 yildan boshlab faoliyat ko'rsata boshladi.

TRASEKA loyihasi doirasida "Delfin" tadqiqoti o'tkazilmoqda. U karvonsaroylar qurishni texnik-iqtisodiy jihatdan asoslash bilan shug'ullanadi. Ekspertlar fikriga ko'ra, u "Buyuk ipak yo'li"ning rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, chunki O'zbekiston va Turkmanistonning asosiy marshrutlarida yoqilg'i quyish shahobchalari, uy-joy, ustaxonalar, ovqatlanish va telekommunikatsion uskunalarning qurilishi

yangi turistik zonalar shakllanishiga, shuningdek, turistik avtotransportlarni yuklash ishlarining faollashuviga olib keladi.

Ma'lumki, BMTning 1972 yilda qabul qilgan konvensiyasida xalqlarning nodir madaniy yodgorliklarini avaylab asrashga kelishilgan. Hozirgi kunda dunyo bo'yicha 500 dan ortiq madaniy yodgorliklar alohida ro'yxatga olingan bo'lib, ular o'ziga xos takrorlanmas tarixiy-madaniy ansambllar, me'morchilik yodgorliklari, tabiiy qo'riqxonalar va boshqa turistik ahamiyatga molik ob'ektlarni qamrab olgan. Bu borada O'zbekiston o'zining turistik ob'ektlarining salohiyati bo'yicha jahonda katta mavqega ega.

O'zbekistonda siyosiy barqarorlikning ta'minlanganligi va 1996 yildan boshlab yalpi ichki mahsulot hamda real sektorda mahsulot ishlab chiqarish hajmining muttasil o'sib borishi, inflyatsiya darajasining mo'tadilligi, aholi nominal va real daromadlari hajmidagi ijobiy o'zgarishlar turizm rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlarni vujudga keltiradi.

O'zbekistonda turizm rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi omillardan yana biri ko'p asrlik tarixiy rivojlanishni o'zida aks ettiruvchi o'ziga xos madaniy merosning mavjudligi va respublikamizning diniy-tarixiy obidalarga boy ekanligi bilan bog'liq. Respublikamiz xududida 4 mingdan ortiq me'morchilik obidalari va yodgorliklari mavjud bo'lib, ularning aksariyat qismi YuNESKO tomonidan himoya qilinadi. Samarqanddagi Ulug'bek rasadxonasi (1428-1429 yy.), Shohi Zinda me'morchilik majmuasi (IX-XIX asrlar.), Hazrat Xizr masjidi (XIX asr o'rtalari), Bibi-Xonim Jom'e masjidi (1399-1404 yy.), Ulug'bek (1417-1420 yy.), Sherdor (1619-1635/36 yy.), Tillakori (1647-1659/60 yy.) madrasalari, Ruhobod (1380 yy.), Go'ri Amir (1404 y.) maqbaralari, Oqsaroy (1470 yy.), Xo'ja Ahror (XV-XX asr) ansambli, Toshkentdagi Ko'kaldosh (XIV asr) madrasasi, Hazrati Imom me'moriy ansambli (XVI asr), Buxorodagi Ark (XI-XX asrlar), Somoniylar (IX-X asrlar) maqbarasi, Chashmai Ayyub (1380 yoki 1384/85 yy.) mozori, Abdullaxon (1596/98 yy) madrasasi, Gaukushon (XVI asr), Labi Hovuz (XVI-XVII asr) ansambllari, Sitorai Mohi Xosa (XIX asrning oxiri - XX asrning boshi) majmuasi, Xivadagi Saidboy (XVIII asrning oxiri - XIX asrning boshi) masjidi va madrasasi, Oq machit (1832/42 yy.), Muhammad Aminxon (1871 y.) madrasasi, Shahrisabzdagi Oqsaroy (1380-1404yy), Hazrati Imom (XIV asr., 2007 yil qayta tiklandi.) Jom'e masjidi, Ko'k Gumbaz (1435 y.) masjidi, Termizdagi Qirqqiz (IX - XIV asrlar) qal'asi, Hakim at-Termiziy (X-XV asrlar) me'morchilik majmuasi, Sulton Saodat (X-X III asrlar) ansambli, Qoratepa (II-IV asrlar), Fayoztepa (I-III asrlar), Farg'ona vodiysidagi Xudoyorxon (1870 y.) qal'asi, Said Ahmad hoji (XIX asrning boshi) madrasasi ana shular jumlasidandir. Bularning barchasi respublikamizda diniy va tanishuv turizmini rivojlantirishga keng imkoniyatlar yaratadi.

Ekologik turizm.

Hozirgi vaqtda jahondagi ko'pgina davlatlar iqtisodiyotida turizm yetakchi o'rinlardan biriga aylangan holda, uning asosiy tarmoqlaridan biri bo'lgan ekoturizm esa nisbatan eng istiqbolli soha sifatida sayyohlar diqqat-e'tiborini o'ziga tobora ko'proq jalb etib bormoqda.

Mutaxassislar fikricha jahon turizm bozorida ekoturizmning hissasi 10-20 % ni tashkil etmoqda. BMT tomonidan 2002 yilni "*Ekologik turizm yili*", deb e'lon qilinishi ham bejiz bo'lmay, soha istiqbolining yorqin ekanligi dunyo miqyosida e'tirof etilayotganligiga yaqqol misol bo'la oladi.

Ekoturizm o'zi nima? Uni ingliz tilida "ecological tourism" yoki "ecotourism"- ya'ni tabiat bo'ylab sayohat, deb talqin etish mumkin.

Inson doimo tabiatning biron bir muhitida, ya'ni undan ajralmagan holda istiqomat qiladi. Shuningdek, unda go'zal tabiatga oshuftalik, uning qo'ynida sayr qilishga, tabiatning rang-barang "mu'jizalari"ni: nabotot olami, hayvonot dunyosi, shuningdek, uzoq va yaqin o'tmishdan bizgacha saqlanib qolgan turli ko'rinishlardagi tabiiy-tarixiy yodgorliklarni tomosha qilishga ishtiyoq bor. Bularning barchasi soha istiqbolida muhim hisoblanadi.

Mamlakatimizda ekoturizm uchun asosiy omil bo'ladigan ob'ektiv muhitning ko'pligi va rang-barangligi tufayli ham mazkur turistik sohani jadal sur'atlarda rivojlantirishni davrning o'zi taqozo etmoqda.

Ekologik turizm ishtirokchilari deya ataluvchi sayyohlar oldiga bir necha qoidalarga amal qilish shart qilib qo'yiladiki, ularning zaminida esa kishilarning tabiatga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishi, ya'ni, ekologik madaniyatga amal qilishlari zarurligi turibdi.

Shu tariqa ekologik turizmda quyidagilar inobatga olinsa maqsadga muvofiq bo'ladi:

- biz yashab turgan muhitga zarar keltirmaslik;
- ekologik jihatdan bilim-tasavvurga ega bo'lish, ya'ni, tabiat bilan muloqot qilish ko'nikmasini egallash;
- joylardagi ijtimoiy-madaniy muhitni saqlanishiga e'tibor berish;
- ekoturistik tashrif amalga oshirilayotgan tuman yoki joyning iqtisodiy samaradorligiga erishish.

Ekologik turizm o'z xususiyatlariga ko'ra bir qancha turlarga bo'linadi.

1. Ilmiy turizm - tabiatni tadqiq etishning har-xil ko'rinishlari, turizm bo'yicha dala-joylarni kuzatish va ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish.

2. Tabiat tarixi turlari - bu atrof-muhitni bilish, tarixiy yodgorliklar va mahalliy madaniyatni bilish.

3. Amaliy turizm - u (tabiat bo'ylab) sayohatning barcha turlarini, tabiatda dam olish va unda harakatlanishning turli vositalarini o'z ichiga oladi.

Hozirgi vaqtda O'zbekistonga keluvchi 50 yoshdan oshgan sayyoh (turist)larning 41% manzarali tabiat va qo'riqxonalar hududlariga, 26% yoshlar esa respublikaning ekologik muammoli joylariga tashrif qilish istagini bildirmoqdalar.

Mintaqada joylashgan O'zbekiston hududi 447,4 ming kv. km. egallagan bo'lib, eng baland nuqtasi – 4643 metr – Hisor tizmasidagi Hazrati Sulton cho'qqisidir. Eng quyi nuqtasi esa – Markaziy Qizilqumdagi Mingbuloq botig'i – vodiychasi bo'lib - 145 metrdan iborat.

O'zbekiston o'ziga xos ekoturistik manzillarga boy bo'lib, ayniqsa ulardan 9 tasi yirik qo'riqxonalar, 2 tasi tabiiy milliy bog'lar va 1 ta ixtisoslashtirilgan "Jayron" ekologik markazi diqqatga sazovordir. Ulardan: o'rmonli hududlar (Kaspiy-Orol bo'yi o'rmonchilik hududi, To'g'ay o'rmoni, Archazor o'rmoni), tog'li hududlar (Chimyon, Nurota, Hisor tog'lari, Pomir-Oloy tog' tizmalari), qo'riqxonalar (Nurota, Zomin, Surxondaryo, Zarafshon, Hisor, Qizilqum, Baday-To'qay, Kitob, Chatqol), hayvonlarning Qizil kitobga kirgan nodir turlari, qushlar, o'simlik va hashorotlar mavjud bo'lgan qo'riqxonalaridagi hayvonot olami bilan tanishuv sayyohlar uchun muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, poytaxtimiz Toshkentda 1990 yili yangidan barpo etilgan 69 ga hududdagi Hayvonot bog'ida 415 turdagi 5000 bosh hayvolarning saqlanayotganligi ham muhimdir. 1998 yili esa Toshkent Hayvonot bog'i Buyuk Britaniyada nashr etiladigan "Jahonning eng yaxshi hayvonot bog'lari" kitobi ro'yxatiga kiritilgan.

O'zbekistonda qo'riqlanadigan hududlarning umumiy maydoni 2 mln.ga yoki mamlakat hududining 4.5 %ni tashkil etadi. Bularning barchasi yurtimizda soha istiqbolining muhimligini va asosli omilga ega ekanligini ko'rsatadi.

Hozirgi vaqtda jahon hamjamiyati tomonidan umume'tirof etilayotgan masalalar qatorida mahalliy, mintaqaviy va jahon miqyosida iqtisodiyotning barcha sohalarini, xususan xizmat sohasining yetakchi tarmoqlaridan biri bo'lgan turizmni ham barqaror rivojlanishiga erishish dolzarb masala bo'lib turibdi.

Barqaror rivojlanish esa ekologik muommolarning ijtimoiy va iqtisodiy muommolar bilan yagona tizimda turishi, ularni kishilik jamiyati faoliyatining barcha jabhalarida yaqin amaliy hamkorlik qilish orqali hal etish mumkin ekanligini ko'rsatadi. Bunda esa, mamlakatimizning barcha mintaqalarida turizmning zamonaviy istiqbolli yo'nalishlaridan biri - ekoturizmni rivojlantirish ham dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Turistik mintaqaning jozibadorligini ko'rsatuvchi asosiy omillar bu O'zbekistonning ekzotik tabiati, boy landshafti, hayvonot va o'simlik dunyosining rang-barangligidir.

Nafaqat tabiatning go'zal qadamjoylari, balki insonlarning xo'jalik faoliyati (antropogen omil) ta'sirida buzilgan tabiat komplekslari (landshaftlar yoki joyning tabiiy ko'rinishi va holati) ham ekologik turizmning ob'ekti bo'la oladi. Zero ekologik turizmning asosiy vazifalaridan biri aynan buzilgan tabiat komplekslarini qayta tiklashdir.

O'zbekistonning ekoturistik hududlari ichida Orol bo'yi havzasi ham alohida e'tiborga loyiq bo'lib, bu haqda alohida to'xtalib o'tamiz.

Orol va orolbo'yi kabi inqirozli ekologik hududlarga qiziquvchi sayyohlarning soni kundan kunga ortib bormoqda, ammo uni ekologik nuqtai nazardan to'g'ri uyushtirish lozim. Aslida Orol masalasi zamonamizning eng dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi.

Orol dengizi havzasini ekoturistik hududga aylantirish qanday amaliy ahamiyatga ega ekanligi quyidagilarda o'z aksini topadi:

- har bir tabiiy-jug'rofiy hudud yoki mintaqa o'zining ekoturistik imkoniyatlariga, ya'ni o'ziga xos hududiy xususiyatlarga ega. Shu tufayli iqtisodiy samaradorlik nuqtai nazardan ekoturizmni tarixiy turizm bilan birgalik olib borish, jumladan, Xiva shahriga tashrif buyurgan xorijdan kelgan sayyohlarga tabiat va inson "mahsuli"ni ko'rsatish ;

- xorij olimlari, tadqiqotchilarini mazkur hududga jalb qilib, ularning muammolar bo'yicha ilmiy xulosalarini davlat tomonidan muhokama qilish va tegishli tadbirlarni amalga oshirish orqali ekologik muommalarni yengillashtirish maqsadga muvofiqdir.

Orol dengizining qurigan qismi, Ustyurt platosini ekoturistik markazga aylantirishda quyidagi omillarga e'tibor berish lozim bo'ladi:

- bu yerga uyushtirilgan sayyohlikning mohiyatida tabiatni muhofaza qilish yotadi;

- ekologik xavfga aylangan hududga salbiy ta'sirlarni kamaytirish;

- keng jamoatchilikning ekologik ongi va madaniyatini ko'tarish.

Orol bo'yi hududi ekologik inqirozli ekoturistik hudud bo'lganligi uchun ham unda vujudga kelgan inqiroz holati asosiy ekoturistik ob'ekt hisoblanadi. Turistik marshrutlar bir paytning o'zida Orolning qurigan va uning ta'sirida turgan hududlarni ham qamrab olishi zarur. Ekoturistik sayohatlarlar nafaqat piyoda yoki tuya va otlarda, balki, samolyot va vertolyotlarda ham olib borilishi mumkin.

Bunday ekoturistik hududlarga sayyohatchi va tadqiqotchilarni jalb qilishning quyidagi yo'llari mavjud:

1. Xalqaro ekologiya ishlari bilan shug'ullanuvchi tashkilotlar bilan hamkorlikni yanada kuchaytirish maqsadida tegishli dastur va takliflar bilan chiqish.

2. Internetga yuqorida ko'rsatilgan ekoturistik hududlar to'g'risida ma'lumotlar berish va unga muhim ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy landshaftlarimizni aks ettiruvchi fotolavha va suratlarni kirgizish.

3. Internetga Xiva shahriga, umuman, o'lkamiz bo'ylab tarixiy turistik sayyohat uyushtirgan va tashrifi kutilayotgan turistlarga yuqorida sanab o'tilgan ekoturistik hududlar bo'yicha qo'shimcha yo'nalishlarni ham kiritish.

Bu loyihalar ustida ishlash va uni davom ettirish nafaqat quyi Amudaryo hududiga, balki O'zbekiston, Markaziy Osiyo davlatlari uchun ham ijtimoiy, iqtisodiy jihatdan muhimdir.

Orol dengiz bo'yi hududlarida ekologik turizmni rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlariga e'tibor berib, bunda birinchi navbatda bu hududlarda ekoturizmni xalqaro va ichki turizmda rivojlantirishning strategik vazifalarini aniqlab olish talab qilinadi.

Bu vazifalar quyidagilardan iborat:

- Xorazm viloyati va Qoraqalpog'iston Respublikasida ekoturizmni mintaqaviy turizm sohasida davlat ahamiyatiga molik yo'nalish deb qabul qilish;

- mazkur tabiiy hududlarni ekologik toza saqlashga asoslangan mintaqaviy ekoturizmni rivojlantirish dasturini ishlab chiqish;

Orol dengizi bo'yicha ekoturizmni rivojlantirishning strategik vazifalarini amalda bajarish uchun quyidagi taktik vazifalarni bajarishga to'g'ri keladi:

- mintaqada tabiat muhofazasida ekoturizm manfaatlariga mos bo'lgan viloyat va respublika hukumati qarorlarini qabul qilish;

- mintaqadagi kollej va universitetlarda ekoturizm bo'yicha malakali mutaxassislarni tayyorlash;

- ekoturizm bo'yicha xalqaro va ichki turizm darajalariga moslangan turmahsulotlar ishlab chiqish;

- ekoturizmda ishonarli baho siyosatini ishlab chiqish;

- ekoturizmning mukammal axborot-reklamalarini, ekoturizm marshrutlarini, ekoturizm ekskursiyalarini ishlab chiqib, turizm bozoriga chiqarish.

Orol dengizi bo'yi hududida ekologik turizmni rivojlantirishning strategik va taktik vazifalarini bajarishdagi dastlabki ishlar bu hududdagi barcha ekoturizm ob'ektlarining mukammal ro'yxatini tuzib chiqish va ularning mukammal ta'rifi, tavsifi, mohiyatlarini tayyorlash hisoblanmog'i kerak. Bu vazifani boshqarish mintaqadagi universitetlar va turizm kollejlari zimmlariga yuklatilishi maqsadli va natijali bo'ladi.

Umuman olganda O'zbekistonda ekologik turizmni rivojlantirish uchun yuqorida qayd etilganidek, katta imkoniyatlar mavjud bo'lib, o'zining istiqbolli jihatlariga ega.

Sarmishsoy yodgorligi. Jug'rofiy o'rni va tabiati. Sarmishsoy Navoiy viloyati hududidagi Qoratog'ni janubiy yonbag'riga joylashgan. Qoratog' qo'shni tizmalar bilan birga Oloy-Turkiston tog'larining eng chekka g'arbiy tarmoqlarini tashkil qiladi. Tog'ning janubiy yon bag'rida Zarafshon vohasi, g'arb va shimoliy g'arb tomonida Qizilqum cho'li yastlanib yotadi. Qoratog'ning geografik o'mi va tabiatining qulayligi har-xil hayvonlarning, ovchi va chorvadorlarning mavsumiy ko'chishlarini yo'naltiruvchi joyiga aylantirgan. Uning har ikki yon bag'rida dara va soylar juda ko'p. Janubiy yon bag'ridagi eng sersuv soylardan biri Sarmish bo'lib, u qor, yomg'irdan va buloqlardan suv oladi. Sarmishsoyda Zarafshon vohasining qadimiy ko'chmanchi va o'troq aholisi tomonidan, bizga meros qilib qoldirilgan qoya

tosh rasmlari va boshqa arxeologik yodgorliklari bu joyni ochiq osmon ostidagi muzeyga aylantirgan. Rasmlarning eng ko'p joyi Navoiy shahridan 30 - 40 km. shimoliy sharqda, Novbahor tumani hududida joylashgan.

Sarmishsoyning arxeologik yodgorliklari. Sarmishsoy vohasida juda ko'p arxeologik yodgorliklar borligi aniqlangan. Bularga tosh davri makonlari, ustaxonalari, shaxtalari, kuhna qishloq o'rinlari, qadimgi mozorlar va sug'orish inshootlarining qoldiqlari kiradi. Bularning hammasi 20km.kv. masofada joylashgan bo'lib, ko'p qirrali arxeologik yodgorliklar yig'indisini tashkil etadi. Ana shu yodgorliklar orqali bu yerda qadimda va keyingi davrlarda yashab o'tgan ajdodlarimizning, qabila va urug'larimizning tarixini bilib olish mumkin.

Vohani qulay tabiiy sharoiti bu yerda odamlar paleolit davridan (miloddan av. 300 ming yildan to 15 ming yilgacha) boshlab yashay boshlagan, degan fikmi inkor etmaydi. Bunga asos vohani janub qismida joylashgan Uchtut chaqmoqtosh makoni va shaxtasi bo'la oladi. Bu joy o'rta tosh davridan(muste) to bronza davriga qadar Zarafshon vodiysi va uning atrofida yashagan qabila va urug'larni chaqmoqtosh bilan ta'minlashda muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Paleolit davrida (300 ming yildan to 15 ming yilgacha) odamlar Uchtut va uning atrofidagi yer ustida joylashgan sifatsizroq chaqmoqtoshlardan foydalanishgan. Ammo, neolit davriga kelganda (millodan av. VI-IV ming yilliklarda) uchtutliklar mehnat qurollari yasash uchun xom ashyoni, yer ostidagi sifatli chaqmoqtosh ona jinsidan sindirib olishni o'rganganlar va yer ostiga bir necha metr chuqur shaxtalar qazib tushganlar. Bunga sabab ular yuzadagi chaqmoqtoshga nisbatan, yer ostidagi nam tortib yotgan toshlardan qurollar yasash ancha oson va unumli bo'lishini anglaganligidir.

Sarmishsoyga neolit davridayoq Qizilqumda yashagan kaltaminor madaniyatiga mansub ovchi va baliqchilarning bir guruhi kelib joylashgan. Bu yerlar hovasining tozaligi, suvining mo'lligi, hayvonat olamining boyligi ularga ma'qul kegan. Bu yerlarda – darada yovvoyi hayvonlarni ov qilish ochiq joyga nisbatan ancha qulay bo'lgan. Chunki hayvonlar har kuni bir vaqtda suv ichish uchun soyga kelgan. Ovchi esa ularni shu yerlarda poylab o'tirgan va ov qilgan. Suvning va hayvonlarning ko'pligi soyni qadimdan ulug'lanishiga asosiy sabab bo'lgan. Asta sekin Sarmishsoy odamlar uchun muqaddas dargohga aylanib borgan. Endi bu yerga kelgan odamlar har xil diniy urf-odatlarini bajara boshlaganlar. Ana shunday urf-odatlardan biri toshlarga rasm chizish bilan bog'liq bo'lgan. Bunday urf-odatlar qadim zamonlardan to yaqin davrlarga qadar davom etib kelgan.

Sarmishsoyda 10000 dan ortiq *petrogliflar* – *tosh tasvirlari* borligi aniqlangan. Rasmlarning asosiy qismi, soyni o'rtasi bo'ylab joylashgan zich toshli 2-2,5 km. masofadagi darada qoya toshlarga urib chukichlangan. Tasvirlar kembriy geologik davrida shakllangan qizil va qora rangli qumtoshlar va slanetsli qoyalarning tik sirtiga, ba'zi birlari yotiq sirtlariga

solingan. Shu joyda qadimiy ko'chmanchi va o'troq aholini mozor qo'rg'onlari, qurbonlik makonlari joylashgan. Demak, xulosa qilish mumkinki, bu joyga odamlar qadimdan har xil diniy marosimlarni, ibodatlarni bajarishga, bayramlarni o'tkazishga kelganlar.

Sarmishsoydagi arxeologik yodgorliklar bir tekisda yoki meyorida o'rganilmagan. Lekin, soyni qirg'oqlaridan har xil davrlarga taalluqli juda ko'p arxeologik topilmalar yig'ib olingan. Ularning orasida VII-VIII asrlarga oid ostadon parchalari ko'plab uchraydi. Ular asosan buzilib ketgan mozor qo'rg'onlarning yonlaridan topilgan. Sarmishsoy arxeologik yodgorliklarga juda boy bo'lgani uchun, uni nodir asarlar arxivi bilan tenglashtirish mumkin.

Sarmishsoy rasmlarining davri. Qoyatosh rasmlarining ishlangan davrini aniqlash, mutaxassislarni fikriga ko'ra eng mushkul vazifalardan biri hisoblanadi. Chunki boshqa arxeologik yodgorliklarni yoshi ulardan topiladigan tosh qurollar, sopol idishlar, tanga va shu sinagri boshqa ashyoviy manbalariga qarab aniqlansa, petrogliflarda esa bu narsalar uchramaydi. Shuning uchun bu soha olimlari har-xil uslublarga, biron bir davr haqida ma'lumot beruvchi arxeologik topilmalarga murojaat qiladilar. Ular suratlarining turini va chizilish uslubini tahlil qilishadi, ularni etnografik materiallar bilan solishtiradi. Shuning bilan bir qatorda rasmlarni ishlanish texnikasini, saqlanishini, quyosh nurida qoriyishini va qoya sirtiga joylanishini o'rganishni ham ta'kidlab o'tadilar. Qoya tosh rasmlarini davrlashtirishda albatta uning atrofidagi boshqa arxeologik yodgorliklarni o'rganish, ular bilan solishtirish katta ahamiyatga ega.

Sarmishsoy petrogliflarini turi, mazmuni, ishlanish texnikasi, uslubi, katta-kichikligi bir-biridan faq qiladi. Shunday ekan, ularning davri ham har xil. Buni bir qancha dalillar isbot etadi. Masalan, tosh va bronza davri rasmlari juda jonli, harakatchan holda ko'rsatilgan. Bunday tasvirlarga ibtidoiy buqa turlarini, tog' takalarini va ularga ov qilish manzaralarini kiritish mumkin. Sak-skif davri rasmlari juda ixcham, ular ko'proq "hayvon"lar tasvirida ifodalangan. Bunga tog' takalari, kiyiklar, yirtqichlar, otlar, odamlar va boshqa rasmlarni kiritish mumkin. O'rta asrlarga taalluqli tasvirlar esa asosan uy echkileri, otlar, tuyalar, eshaklar, itlar va arab yozuvlaridan iboratdir.

Sarmishsoy qoya toshlaridagi rasmlariga ko'z yugurtirib chiqishni o'zidan sezish mumkinki, ular turli davrlarda urib chukichlangan. Ana shulardan kelib chiqqan holda, Sarmishsoy suratlarini uch tarixiy davrga: tosh (neolit, eneolit) va bronza davrlari, ilk temir davri (sak-skif) va so'ngi davr rasmlariga bo'lib o'rganish maqsadga muvofiq.

Sarmishsoyning qadimiy suratlarini orasida asosan odamlarning, buqa turlari, bizonlar, kiyiklar, qulonlar, jayronlar, sher, arslon, gepard, tog' echkileri, itlar va boshqa hayvon larning tasvirlari tez-tez uchrab turadi.

Sarmishsoy petrogliflarini qanday qilib saqlash va ulardan qanday unumli foydalanish mumkin? Sarmishsoy darasi yurtimizdagi go'zal

ko'rinishli, tabiiy va tarixiy boyliklarga boy tog' vodiylaridan biridir. Inson bu vodiyni qadim zamonlardan boshlab o'zlashtirgan va undan oqilona foydalanib kelgan. Bu haqda bu yerdan topilgan arxeologik yodgorliklar guvohlik beradi. Ta'kidlash lozimki, Sarmishsoy O'zbekiston hududidagi eng ko'p va beqiyos qoyatosh rasmlarini saqlab kelayotgan galareyali vodiidir. Bu noyoblik Sarmishsoyning dunyo miqiyosidagi yodgorliklar qatoriga qo'shadi va uning ahamiyatini oshiradi. Sarmishsoyning tabiiy ko'rinishini va uning petrogliflari, boshqa arxeologik yodgorliklarini saqlab qolish davlatimiz oldida turgan muhim masalalaridan biri hisoblanadi.

Sarmishsoy tabiat yaratgan, ochiq osmon ostidagi tayyor, tabiiy va madaniy muzeydir. U O'zbekiston ekoturizmida eng muhim joylardan biri hisoblanadi. Bu yerda hamma yodgorliklar o'zining tabiiy va tarixiy o'mida bo'lib, asrlar davomida tabiat va inson sinovlariga dosh berib kelmoqda. Tarixiy yodgorlik-obidalarga bo'lgan e'tibor ular to'g'risidagi bilimlarni oshirishga va axborotlarni ko'paytirishga, xalq madaniy merosini va shu jumladan, Sarmishsoyni saqlab qolishimizga yordam beradi. Shunday qilib, dunyo madaniyati xazinalaridan biri bo'lgan Sarmishsoy qoyatosh rasmlarini saqlab qolishimizga va undan unumli foydalanishimizga yo'l ochildi.

Sarmishsoy rasmlarini aniqlash maqsadida bu yerda ko'p yillardan buyon arxeologlar ilmiy izlanishlarni olib bormoqdalar.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. Xalqaro turizm to'g'risidagi tushunchalaringizni ayting.
2. O'lkamizda xalqaro turizmning rivojlanishi haqida qanday ma'lumotga egasiz?
3. Xalqaro turizmning qanday turlari va shakllari bor?
4. Mamlakati iqtisodiyoti va ijtimoiy-siyosiy hayotida xalqaro turizm qanday o'ringa ega?
5. O'zbekistonda turizmning istiqboli haqidagi fikringizni ayting.
6. Ekoturizm nima?
7. Sarmishsoy yodgorligi haqida nimalarni bilasiz?

Tayanch so'zlar izohi:

Sayyohlik, sayr-sayohat, tarixiy maskanlar, qulay tabiiy sharoit, islomiy obidalar, muqaddas qadamjolar, ziyoratgohlar, turizm turlari va shakllari, xorijiy sayyohlar, Ekoturizm – tabiat bo'ylab sayohat.

III BOB. TARIXIY O'LKASHUNOSLIK VA TURIZM TARAQQIYOTIDA ETNOGRAFIYA, TOPONIMIKA, ARXIVLAR VA MUZEYSHUNOSLIKNING ROLI

7-mavzu: O'lkashunoslik va turizmga etnografiyaning ahamiyati

Reja:

1. Etnografiya va o'lkashunoslik.
2. O'zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixini sayr-sayohatlar orqali o'rganish.
3. O'zbek xalqining urf-odatlarini va an'alarining turizmga aks etishi.
4. Mustaqillik davrida milliy qadriyatlarga e'tibor. Navro'z.
5. O'zbek xalqi etnografiyasini o'rganish borasida turistik yo'nalishlar va ularni takomillashtirish.

Etnografiya atamasi qadimgi yunoncha (etnos – xalq, grapxio – yozish) xalq haqidagi fan bo'lib, u xalqni o'rganuvchi, ta'riflovchi fan yoki xalqshunoslik fani deb yuritiladi. Etnografiya yer yuzida yashovchi barcha xalqlarning paydo bo'lishi davridan to hozirgacha bosib o'tgan tarixiy-madaniy taraqqiyotiga tayanib, ularning iqtisodiy, moddiy va ma'naviy, ijtimoiy va oilaviy hayoti, turmush tarzi, urf-odati va ijtimoiy ongi hamda etnik xususiyatlarini chuqur o'rganuvchi fandır. Etnografiya xalqlarning o'zaro tafovutlari, umumiyliigi va o'xshashligini, ularning o'ziga xos jihatlarni tadqiq etadi va o'lka tarixini o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Etnografiyani ba'zi olimlar tomonidan «etnologiya» deb ham atalmoqda. «Etnos» - yuqorida ta'kidlanganidek - «xalq», «logos» - «so'z» yoki «fan» degani bo'lib, xalq haqida fikrlovchi, so'zlovchi yoxud xalqni ta'riflovchi fan demakdir. Bu ikkala fan o'rtasida chegara bo'lmay, balki biri ikkinchisini to'ldiradi.

Demak, etnografiya - dunyo xalqlarining madaniyatini, maishiy hayotini, kelib chiqishi (etnogenezi)ni, joylashishini (etnik jo'g'rofiyasi), madaniyati tarixini hamda o'zaro aloqa va munosabatlarini o'rganuvchi tarixiy fan sifatida maydonga kelgan.

Etnografik bilimlar asrlar davomida to'planib kelgan nihoyatda boy va rang-barang ma'lumotlarni o'zlashtirib, ma'lum xulosa va nazariyalar, dunyoqarashlar tizimi va yo'nalishlarni hosil qildi.

Dastlab, etnografik ilmiy jamiyatlar, maxsus asarlar, to'plamlar paydo bo'ldi. Natijada XIX asr o'rtalariga kelib, mustaqil fan sohasi - etnografiyaning tug'ilishi uchun shart – sharoitlar yaratilgan edi.

Etnografiya so'zi ilgari ham ba'zan tilga olingan bo'lsa-da, lekin fanni ifodalagan edi. Dastlab bu atamani XVII asr boshlarida olmon yozuvchisi **Chogani Zumner** ishlatgan, keyin esa XVIII asr oxiri – XIX asr boshlarida

(1808 yilda) maxsus jumallar shu nom bilan chiqa boshlagan.

“Etnografiya” so‘zi mashhur fransuz tabiatshunosi va fizigi **Jan-Jak Amper** tomonidan 1830 yilda taklif qilingan edi. Rossiyada “etnografiya” atamasi XIX asr boshlarida ba‘zan uchrab turgan, keyin esa rasmiy ravishda fan deb tan olingan. 1845 yilda Rossiya jug‘rofiya jamiyati etnografiya bo‘limining tashkil etilishi buning yaqqol dalilidir.

Etnografik bilimlarning paydo bo‘lishi, shunga doir zarur ma‘lumotlarning to‘planishi, dalillarning anglab olinishi aytarli bir vaqtda sodir bo‘ladi. Masalan, ayrim qo‘shni qabila, elat va xalqning maishiy turmushi, madaniyati, urf-odatlarini, etnik xususiyatlarini o‘rganish, ularni aniq turmushining amaliy ehtiyojlarini qondirish taqozosi bilan vujudga kelgan. Uzoq–yaqin qo‘shnilar bilan savdo–sotiq munosabatlarini o‘rnatish, shuningdek, maqsad yoki sharoit taqozosiga ko‘ra ularga qarshi muvaffaqiyatli urushlar olib borish uchun ham, birinchi navbatda, etnografik bilimlarga ega bo‘lish juda ham zarur bo‘lgan. Mana shunday sabablar etnografik bilimlarning paydo bo‘lishida muhim rol o‘ynagan.

Etnografiya fani turli xalqlarning hozirgi davrdagi hayotini o‘rganishda sotsiologiya va geografiyaga murojaat etadi. Shuningdek, arxeologiya, antropologiya, folklor, tilshunoslik, ruhshunoslik, paleografiya, numizmatika, toponimika, din tarixi bilan bevosita aloqadordir. So‘nggi yillarda sohaga doir fanlarning yangi tarmoqlari – **etnosotsiologiya, etnopsixologiya, etnolingvistika, etnik antropologiya, etnodemografiya** kabilar paydo bo‘ldi.

Bundan tashqari, etnografik tadqiqotlarda yozma manbalar, geografik hujjatlar, moddiy va maishiy materiallardan ham foydalanadi.

Jahondagi xalqlar muayyan hududlarda joylashgan. Ammo tili yoki maishiy–madaniy jihatdan yaqinligi bilan ajralib turadigan ayrim elatlarning o‘zaro aralashishi jarayoni doimo sodir bo‘lib turgan, etnik jihatidan chegaradosh xalqlar orasida esa, bu jarayon ayniqsa, kuchli bo‘lgan.

Kishilar qaysi urug‘, qabila, elat, xalq, millatga mansub ekanligi bilan ham bir–birlaridan ancha farq qiladilar. Kishilarning eng qadimiy birligi urug‘ (qavm) dir. Bunday birlik asosan ibtidoiy jamoa davrida vujudga kelgan. Urug‘chilik qon-qarindoshlikka asoslangan bo‘lib, har bir urug‘ odamlari bir - birlari bilan xo‘jalik va ijtimoiy jihatdan o‘zaro bog‘langan. Barcha urug‘ a‘zolari birgalikda mehnat qiladilar. Ularning ijtimoiy hayoti, turmushi va shakllanayotgan o‘ziga xos madaniyati ham bor.

Kishilarning urug‘ (qavm)ga nisbatan yuqori birligi - qabiladir. Bu birlik bir qancha urug‘ (qavm)larning birlashuvidan hosil bo‘ladi. Bu birlikning asosi ham ibtidoiy davrga xosdir. Dastlabki qabilalar o‘zaro dual ekzoganiya ya‘ni, bir – biriga qiz berib, qiz olish asosida qon – qarindoshlik iplari bilan uzviy bog‘langan bir necha juft “quda”lashgan urug‘dan tashkil topgan.

Har bir qabila bora–bora o‘z tili yoki shevasi, yashash joyi bilan bir–

birlaridan farq qiladigan bo'lib qolgan. Har qaysi qabila muammolarini maxsus kengash hal etgan. Bu kengash qabilaga birlashgan urug'larning boshliqlaridan iborat bo'lib, ularning eng keksalari qabila kengashi boshlig'i etib saylangan. Eng dolzarb masalalar ana shu umumqabila yig'ilishlarida hal etilgan.

Kishilarning qabiladan keyingi birligi elat, xalq bo'lib, u o'lkamizda qadimgi, ya'ni antik davrda tashkil topa boshlagan. Yerga egalik davrida kuchaygan. Har bir elatning o'z nomi, tili, madaniyati va o'ziga xos ruhiy xususiyatlari shakllanadi. Umumiy yagona ona yer, yurt vujudga keladi, muayyan iqtisodiy aloqa, munosabatlar birligi paydo bo'ladi. Iqtisodiy va hududiy mehnat taqsimoti vujudga kela boshlaydi. Elatlar birlashib, millatlar tashkil topadi.

Etnografiyada urug', qabila, elat (xalq), millatni yagona nom etnos - nomi bilan yuritish qabul qilingan. Demak, hozir jahon aholisi o'z ijtimoiy - iqtisodiy va siyosiy kelib chiqishiga qarab turli etnoslar (urug', qabila, elat (xalq), millat)dan iborat.

Hozirgi davrda bir nechta elat yoki xalqning yaqinlashishi va uyushishi natijasida paydo bo'lgan etnik birliklar (amerika xalqi, afrika xalqi kabi) makroetnoslar deyiladi. Mahalliy xalq yoki millat ichida ba'zi xususiyatlari (shevasi, moddiy va ma'naviy madaniyati, diniy tasavvurlari) bilan ajralib turgan mayda etnografik guruhlar esa mikroetnoslar deyiladi.

Ba'zan xalqlar diniy e'tiqodi asosida o'ziga xos mikroetnoslar va makroetnoslar birligi bilan ham farqlanadilar. Masalan, butun Janubiy Osiyo xalqlari feodal davrida paydo bo'lgan xinduzm tevaragida turli tildagi xalqlarni birlashtirgan makroetnoslar bo'lsa, Fillipin xalqining bir qismi islom diniga e'tiqod qiluvchi maro nomli elatlardir. Erondagi gerblar (zaroastrizm) tarafdorlari yoki Xitoydagi musulmon (dungan) lar mikroetnos sifatida maxsus etnografik guruhlarini tashkil etadilar.

Etnografiyada jahon xalqlari quyidagicha tavsiflanadi:

1. Etnografik.
2. Antropologik.
3. Lingvistik (til bo'yicha).
4. Diniy.
5. Xo'jalik madaniy tiplar yoki tarixiy-madaniy viloyatlar.

Jug'rofiy jihatdan tasniflash qoidasi jahondagi xalqlarni o'zining xududiy joylashishi, ayrim etnik guruhlarining turar joyiga qarab belgilanadi. Etnografiyada hozir quyidagicha jug'rofiy tasniflash mavjud:

1. Avstraliya va Okeaniya xalqlari.
2. Amerika xalqlari.
3. Afrika xalqlari.
4. Osiyo xalqlari.
5. Yevropa xalqlari.

Ba'zi elatlar tarixiy-jug'rofiy elatlarga qarab «Kavkaz xalqlari» yoki

«Markaziy Osiyo xalqlari» deb, yuritiladi va farqlanadi. Lekin jug'rofiy tasniflash faqat hududda davlatlar bilan chegaralanib qolgan xalqlarning, ayrim etnik guruhlarining to'la kelib chiqishi, qiyofasini bilishga imkon bermaydi.

Irq - odamlarning kelib chiqishi, gavda tuzilishi va qiyofasi o'xshash bo'lgan, tarixan tarkib topgan xududiy birligidir. Fransuz olimi **F. Berne** 1675 yilda «irq» tushunchasini odamga nisbatan birinchi marta qo'llagan. 1735 yili shved tabiatshunosi **K. Linney** odamning tashqi jismoniy farqlari asosida inson irqalarini tasniflagan.

Qadimgi xalqlar tanasining terisi, sochining rangi, yuz tuzilishi, bosh suyagining shakli, burun, lab tuzilishi, ko'zlarining rangi, kengligi yoki qisqaligi, erkaklarning yuzi va tanasida tuk bor-yo'qligi, qon guruhi va boshqa jihatlariga qarab bir-biridan keskin farq qiladi. Shu sababdan ham ilm-fanning so'nggi yutuqlariga asosan xalqlar uchta yirik irqqa bo'linadi:

1. **Yevropoid** (Evroosiyo) irqi. Bu irqqa mansub kishilar tana terisi oq yoki qorachadan kelgan, sochlari to'g'ri yoki jingalak, to'lqinsimonligi, erkaklarning yuzi va badanida tuklarning ko'pligi, burunlari kichik, tor, lablari yupqa, o'rta bo'yli va boshqa bir qadar o'ziga xos irqiy belgilari bilan ajralib turadi. Yevropoid irqidagi odamlar dunyo aholisining ko'pchiligini tashkil etib, ular asosan Shimoliy va Janubiy Yevropada, Shimoliy Hindistonda, Lotin Amerikasida yashaydilar.

2. **Mongoloid** (Osiyo, Amerika) irqi. Bu irqqa mansub odamlarning tanasi sariq yoki oq qo'ng'ir (bug'doy rang), sochlari to'g'ri, qattiq, yuzi va badanida tuki kam, ko'zlari qisq, yuz suyagi (yonog'i) bo'rtib chiqqan. Ular Shimoliy va Sharqiy Osiyoda, Shimoliy va Janubiy Amerikada yashaydilar.

3. **Negroid** (afrikan) irqiga negrlar, bushmenlar, gottentotlar, negroid va yevropoid aralashmasidan paydo bo'lgan epirof tipi, sudanliklar, mulatlar kiradi.

Etnoslarning shakllanishida va ularni farqlashda til asosiy rol o'ynaydi. Til birligiga qarab ayrim xalq va elatlar aniqlanadi, ko'pincha til asosida nom ham beriladi. Lingvistik tasnifot tarixiy - qiyosiy o'rganish orqali aniqlanadi. Odatda kelib chiqishi bir bo'lgan xalqlarning tili yaqin bo'ladi.

Jahondagi tillar o'zining **genesologik** (kelib chiqishi) va **morfologik** (so'z tuzilishi) yaqinligi bilan quyidagi eng yirik oilalarga bo'linadi:

1. Hind - Yevropa oilasi (bunga Yevropaning anchagina qismi, Shimoliy va Janubiy Amerika, Shimoliy Hindiston, Eron xalqlari kiradi).

2. Oltoy oilasi (turk, mo'g'ul, tungus - manjur guruhlar).

3. Xitoy - Tibet oilasi (Sharqiy va Janubiy - Sharqiy Osiyo xalqlari).

4. Malayya - Polineziya oilasi (Tinch va Hind okeani orollarida yashayotgan xalqlar).

5. Dravid oilasi (Janubiy Hindiston xalqlari).

6. Semit - Xamit (soixom) oilasi (Janubiy - G'arbiy Osiyo, Shimoliy Afrika xalqlari).

7. Monxmer oilasi (Hindi – Xitoy xalqlari).
8. Bantu oilasi (Janubiy Afrikaning tub xalqlari).
9. Ural oilasi (Evropaning ba'zi mamlakatlari, Rossiyaning Yevropa qismi, Sibirning ayrim rayonlaridagi xalqlar).
10. Kavkaz oilasi (Kavkaz ortida yashovchi xalqlar).

Har bir katta til oilasi o'z navbatida ayrim til guruhlariga va shahobchalariga bo'linadi. Masalan, Oltoy til oilasiga oid turkiy tillar guruhi o'zbek, qozoq, ozarbayjon kabi tillardan iborat.

Yer yuzida yashovchi xalqlar o'zlarining uzoq davr ichida shakllanib kelgan umumiy turmush tarzi, xo'jalik-madaniy xususiyatlarining tarixiy birligi va o'zaro bog'liqligi, yagona ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot va umumiy yoki yaqin tabiiy-jug'rofiy muhit asosida ayrim turkumlarga bo'linadi. Bunday farqlanish etnografiya fanida xo'jalik-madaniy tillar tasnifoti deyiladi.

Ilk ibtidoiy davrda paydo bo'lgan, ammo ko'p qit'alarning issiq tropik va subtropik iqlimli o'lkalarida tarqalgan Markaziy Afrikadagi pigmeylar, Shri Lankadagi veddalar, Hindistonning ayrim mayda etnik guruhlari, Janubiy Amerika o'rmonzorlarida yashovchi ba'zi qabilalar ovchilik va yig'im – termachilik xo'jalik – madaniy tiplarni tashkil etadi. Taygada yashovchi har xil tilda gaplashuvchi ovchlari va baliqchilar, Shimoliy Osiyoning ovchi bug'uchilari, tropik va subtropik mamlakatlardagi motiga dehqonchiligi, sahrodagi ko'chma chorvachilik yoki yuksak madaniyat markazlarida (Misr, Mesopotamiya, Xitoy, Markaziy Osiyo va hokazo) paydo bo'lgan sun'iy sug'orish dehqonchiligi ayrim xo'jalik-madaniy tiplari ham bu tasnifotga kiradi.

Xalqlarning moddiy madaniyati (uy – joy, aloqa vositalari, uy – ro'zg'or buyumlari, kiyim bezaklari) qisman ma'naviy madaniyatining (dini, urf – odatlari, xalq ijodi namunalari) yaqinligi va umumiyligiga qarab ular tarixiy – etnografik viloyatlarga ham bo'linadi. Masalan, Volga, Kama bo'yi, O'rta Osiyo xalqlari har xil tilda gaplashishsada, o'zaro moddiy va ma'naviy madaniyatining yaqinligi yoki birligi tufayli ayrim tarixiy - etnografik viloyatlar birligidan iborat.

O'zbekistonning Farg'ona, Zarafshon vodiylari, janubiy viloyatlari (Qashqadaryo, Surxondaryo) ham alohida tarixiy-etnografik mintaqalardir. Xalqlarning uzoq tarixiy davr ichida muayyan tabiiy - jug'rofiy va ijtimoiy – iqtisodiy sharoit asosida shakllanib kelgan xususiyatlari xo'jalik-madaniy tillar tasnifotida o'z aksini topgan.

Yer yuzidagi mavjud uch-to'rt mingdan ziyod millat, xalq, elat va qabila - etnoslarning kelib chiqishi, etnik umumiyliigi va o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Yoshlarimiz o'z xalqining o'tmish tarixi va madaniyatini yaxshi bilishlari shart. Zero, shu orqali ularda o'z Vatani va xalqiga muhabbat, jahon xalqlariga nisbatan hurmat hissi shakllanadi.

Maktab va boshqa o'quv yurtlarida olib borilgan ko'p yillik kutubxonalarga ko'ra, ba'zi yoshlarimizda o'zbek xalqining kelib chiqishi, shakllanishi va o'tmishi, madaniyati haqida yetarli tasavvurlar yetishmaydi.

Hozirgi istiqlol va milliy o'zlikni anglash davrida o'zbek xalqining o'tmish tarixini o'rganishga bo'lgan e'tibor tobora ortib, buning uchun esa ko'pgina imkoniyatlar yaratilmoqda. Keyingi yillarda o'quv yurtlarida «Tarixiy o'lkashunoslik va turizim» bo'yicha ma'ruza, seminar va boshqa turdagi mustaqil amaliy mashg'ulotlarga ko'plab soatlar ajratilganligi ham buning yaqqol ifodasidir.

Ma'lumki, "o'zbek" etnomining kelib chiqishi Dashti Qipchoqda tashkil topgan Oq O'rda va Shaybon ulusida, ya'ni Sirdaryo, Orol dengiz va Volga bo'ylari oralig'idagi keng hududda ko'chib yurgan, XIV asrdan boshlab o'zbeklar deb yuritilgan turk-mug'ul qabilalari bilan bog'liqdir.

Bu qabilalar XV asr davomida nihoyatda zo'r harbiy-siyosiy kuchga ega bo'lgan davlat tashkil qilib, XVI asrning boshlaridan Muhammad Shayboniyxon boshchiligida O'rta Osiyoga, shu jumladan, hozirgi O'zbekiston hududiga bostirib kiradi va o'masha boshlaydi.

Ayrim tadqiqotchilar o'zbek xalqining kelib chiqishi tarixini mazkur istilo davri bilan bog'lab, o'zbek xalqining shakllanishi XV-XVI asrlardan boshlanadi, degan mutlaqo noto'g'ri fikr yuritib kelgan edilar. Yirik olimlar, chunonchi, S.P.Tolstov, A.Yu.Yakubovskiy, Ya.G'ulomov, A.Asqarov, B.Ahmedov, I.Jabborov va boshqalar o'zbek xalqining boshlang'ich yadrosi O'rta Osiyoda qadimgi davrda yashagan qadimgi so'g'diylar, xorazmiylar, sak qabilalari va urug'-aymog'chilikdan o'troq dexqonchilikka o'tib sarti nomini olgan, turkiy tilda so'zlashuvchi chigil, qarluq, yag'mo, tuxsi, arg'u kabi qavmlardan iborat ekanligini, o'zbek elatining shakllanishi asosan XI-XII asrlarda tugallanganligini va XVI asr boshlarida paydo bo'lgan ko'chmanchi Shayboniy o'zbeklari o'zbek xalqlarining qadimgi yadrosiga zudlashib ketib, unga faqat o'z nominigina berganligini asosli dalillar bilan isbotlab berganlar.

O'rta Osiyo, shu jumladan, O'zbekiston xududida Rossiya Fanlar akademiyasining va O'zbekiston Fanlar akademiyasining Tarix va Etnologiya institutlari tomonidan uyushtirilgan ko'p yillik samarali ishlar natijasida o'zbeklarning avlod-ajdodlari qadimdan o'troq hayot kechirgani, faqat yag'mo qishqirish inshootlariga asoslangan dexqonchilikka, mustaqil, o'ziga xos madaniyatga ega bo'lganligi isbot qilindi. Bu holat ba'zi tadqiqotchilarning O'rta Osiyo xalqlari go'yo tarixiy xalq emas, ularning madaniyati Eron va boshqa mamlakatlarning madaniyatiga tobe, bu o'lkada ko'pgina mamlakatlar toqat ko'chmanchi, yovvoyi qabilalar yashagan, degan har xil fikrlar bilan toqat qilib va puchga chiqardi. Holbuki, irqiy "nazariyani" targ'ib qilib o'z fikrining ushbu ajdodlari ibtidoiy madaniyatga endi erishgan fikrini qadimgi Xorazmda Chirchikdagi Bobishmulla, Qo'yqirilgan qal'a, Tuproqqa qal'a kabi yodgorliklardan qazib topilgan ajoyib me'morchilik, san'at

hamda yozuv durdonalari, Bolaliktepa va Panjikent, Afrosiyobda kashf etilgan har xil marosimlarni tasvirlovchi rang-barang rasmlar, Varaxshaning go'zal ganch haykal va bezaklari, butun qadimgi davr ichida qurilgan hashamatli shahar va qal'alar, dabdabali sug'orish inshootlari o'zbek va boshqa O'rta Osiyo xalqlarining uzoq o'tmishda nihoyat zo'r iqtisodiy va madaniy taraqqiyotga ega bo'lganligini yaqqol ko'rsatib turibdi.

O'zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi, xalq, millat bo'lib shakllanishi jarayonlarini akademik Ahmadali Asqarov o'z tadqiqotlarida ilmiy jihatdan asoslashga harakat qilgan¹. Har bir xalqning etnogenezi va etnik tarixi uning umum tarixining ajralmas tarkibiy qismidir. Shuningdek, o'zbek etnogenezi va etnik tarixi ham O'zbekiston xalqlari tarixining tarkibiy qismini tashkil etadi. Ma'lumki, etnologiya fanidagi ilmiy konsepsiyaga ko'ra, har bir xalqning kelib chiqishi tarixi uch bosqichdan iborat bo'ladi. Birinchi bosqichda qo'shni, hududiy jihatdan yaqin, turli til va lahjalarda so'zlashuvchi qabila va elatlarning iqtisodiy va madaniy aloqalari asosida etnomadaniy yaqinlashish, aralashish va etnik qorishuv, ya'ni etnogenetik jarayonlar kechadi. Bu hodisa har bir xalq tarixida juda uzoq davom etadigan ob'ektiv tarixiy jarayon bo'lib, uning yakuni aynan olingan xalqning shakllanishiga olib keladi, ya'ni, etnogenetik jarayon yakunida xalq shakllanadi. Xalq tarixining etnogenez qismi, uning elat, xalq bo'lib shakllanishiga qadar bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Etnogenezning boshlang'ich nuqtasi, uning ibtidosi qabiladan boshlanadi. Etnogenez yakunida etnosga xos barcha etnik belgilar, etnik alomatlar birin-ketin yuzaga chiqib, mujassamlashgan bo'ladi. Etnik alomatlarni esa xududiy birlik, atropologik tip birligi, etnik nom, o'zlikni anglash, til birligi va siyosiy uyushma birligi tashkil etadi.

Ikkinchi bosqich, bu elat – xalq tarixidir. Ya'ni xalq etnogenezi yakunlangach, uning shakllangan xalq tarixi boshlanadi. O'zbek xalqi misolida bu etnogenetik jarayon XI asrgacha davom etadi va u G'arbiy Qoraxoniylar davlati doirasida XI – XII asrlarda o'z nihoyasiga yetdi. Shundan so'ng o'zbek xalqining etnik tarixi boshlandi. Etnik tarix ham uzoq davom etadigan etnomadaniy jarayon bo'lib, u XIX asrlargacha davom etadi. Bu jarayon o'zining ma'lum nuqtasiga yetgach, uning millat bo'lib shakllanish jarayoni boshlanadi.

Uchinchi bosqich, millat tarixi bosqichi bo'lib, bu nuqtaning ijtimoiy hayotda namoyon bo'lishi jamiyatda kapitalistik ishlab chiqarish munosabatlarining boshlanishi bilan yuz bera boshlaydi. O'zbek xalqining millat bo'lib shakllanishi jarayoni XIX asrning oxiri - XX asrning boshlaridan boshlab, to hozirgi kungacha shakllanish jarayonida davom etib kelmoqda.

Professor A.Yu. Yakubovskiy 1941 yil Toshkentda chop etilgan

¹ Asqarov A. Ўзбек халқининг этногенези ва этник тарихи. Т.: "Университет". 2007. - 56 - 75 б.

“O‘zbek xalqining yuzaga kelishi haqida” nomli asarida o‘zbek etnogenezi Turk xoqonligidan boshlanadi, degan edi. S.P.Tolstov esa, Xorazmda olib borgan keng ko‘lamli arxeologik, antropologik va etnografik materiallarning yozma manba-ma‘lumotlar bilan qiyosiy o‘rganib, “Qang‘ davlatining tarkibida va u egallab turgan mintaqalarda o‘zbek xalqining ilk ajdodlari yashagan, bularning etnik tarkibi va tili bir xilda bo‘lmagan”, degan g‘oyani ko‘tarib chiqdi. K.Shoniyozov esa, “Qang‘ davlati va qang‘lilar”, hamda “O‘zbek xalqining shakllanish jarayoni” nomli asarlarida mana shu g‘oyani qat‘iy himoya qilib chiqdi. U, Qang‘ davlati ichida miloddan oldingi II - milodiy I asrlar davomida mutlaqo yangi, turkiy tilli xalq - qang‘ar elati vujudga keladi. Bu elat eroniy tilli xalqlar bilan turkiy tilli qabilalarning aralashib, qorishib borishi natijasida tashkil topdi, degan xulosaga keladi.

Akademik A.Asqarov bu sanani yanada qadimiylashtirib, uni so‘nggi bronza davri bilan belgilaydi. Olimning fikricha, o‘zbeklarning ikki tilda so‘zlashuvchi etnik qatlamlarning (so‘g‘diy va turkiy) qorishuvi natijasida vujudga kelganligi va ularning ilk bor aralasha boshlagan nuqtasi so‘nggi bronza davrida yuz berganligini qayd etadi¹.

“Etnik jarayon” nima? Etnik jarayon deb – etnik birliklar tarkibiga kirgan, etnik guruhlar o‘rtasidagi etnik, iqtisodiy-xo‘jalik va madaniy aloqalarning uzluksiz rivojlanib borishiga aytiladi.

O‘zbek xalqi etnogenetik jarayonlarining jadal kechgan vaqti miloddan avvalgi III – milodiy V asrlar davomida Qang‘ davlati doirasida yuz berdi. Bu davrda turli tilli etnik guruhlarining bir-birlariga yaqinlashishi, qo‘shilish jarayonlari jadal kechdi. Etnik guruhlarining tashqi qiyofasi, tili, moddiy va ma‘naviy madaniyatida yaqinlashish, fe‘l-atvorida umumiylik hosil bo‘ldi. Miloddan avvalgi II – milodiy I-II asrlarda Tangritog‘ shimoli – sharqiy hududlarida usunlarning katta guruhi, Xitoyning shimoli-g‘arbiy mintaqalarida va Janubiy Sibirda yashagan xu, di, dinlin, tele, xunn va boshqa turkiy tilli ko‘chmanchi etnoslarning katta guruhi Qang‘ davlati xududiga kelib, o‘mashdilar. Mana shu davrda yuz bergan etnogenetik jarayonlar, ya‘ni Movarounnahr va unga tutash mintaqalarda ularning sug‘diylar, xorazmiylar, baqtriylar, Farg‘ona va Chochning o‘troq aholisi bilan qorishuvi natijasida turkiy tilli qang‘ar elati shakllanadi. Bu etnos o‘zbek elatining shakllanishiga asos solgan eng qadimgi yirik turkiy qatlamni tashkil etgan¹.

O‘lkamizda arablar istilosi arafasiga oid bo‘lgan boy yodgorliklar, har xil haykal va devorga ishlangan rasmlar, o‘ymakor bezaklar ajoyib san‘at durdonalari bo‘libgina qolmay, o‘sha davrda yashagan xalqning xo‘jalik faoliyati, etnik tuzilishi, moddiy va maishiy turmushi, urf-odatlarini o‘rganishda muhim va birinchi darajali tarixiy-etnografik manba bo‘lib xizmat qiladi.

¹ Asqarov A. O‘zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi. T.: “Universitet”. 2007. 60 - 61 betlar.

¹ Asqarov A. O‘zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi. T.: “Universitet”. 2007. 74 - 756. 126-bet

Arablar istilosidan keyingi asrlarga oid etnografik ma'lumotlar mahalliy va arab yozuvi asosida yozilgan sayyohlarning asarlarida mavjud. Ibn Hurdodbeh, Ubaydullo ibn Abdulloh («Al – masolik va al – mamolik»), («Yo'llar va mamlakatlar»), London, «Pril» nashriyoti, 1889y.), Abu Is'hoq Ibrohim ibn Muhammad al - Forsiy – Karxiy (346-x/ 957 – m.y. vafot etgan), IX – XII asr mualliflaridan Istaxriy (IX asrning so'nggi choragi va X asrning 57 yillarida yashab o'tgan), Ibn Havqal, Mas'udiy, Yoqut singari yirik geograf va sayohatchilar, mahalliy mualliflardan faylasuf, musiqashunos Abu Nasr Forobiy, mashhur qomuschi olim Abu Rayhon Beruniy va buyuk tabib Abu Ali Ibn Sino, etnograf, tarixchi olim Abu Sa'd Abdulkarim ibn Muhammad tadqiqotlarida hamda noma'lum muallif yaratgan “Hudud ul – olam” singari asarlarda O'zbekiston hududidagi o'sha davrda yashagan aholi to'g'risida ba'zi etnografik lavhalar keltirilgan. Ma'lumki, Chingizxon hukmronligi davrida mo'g'ullar saltanati misli ko'rilmagan darajada kengayib ketdi. Ular bosib olgan o'lkalami vahshiylarcha taladi va qishloqlarning kulini ko'kka sovurdi.

O'rta Osiyoda o'zbek xonliklari paydo bo'lganidan keyin markazlashgan rus davlati bilan ular orasida muntazam ravishda savdo va diplomatik munosabatlar o'rnatila boshlanadi. XVI asrning faqatgina ikkinchi yarmidayoq O'rta Osiyodan Rossiyaga 8 marta elchilar yuborilgan bo'lsa, XVII asrda Xiva xonligidan 12 marta, Buxorodan esa 13 marta elchilar jo'natilgan. Bunga javoban rus davlati ham o'z elchilarini o'zbek xonliklariga yuboradi va ularga diplomatik topshiriqlardan tashqari, mazkur o'lkalar to'risida har xil ma'lumotlarni to'plash vazifalari ham topshiriladi. Rus elchilarining to'plagan ma'lumotlari hozir ham ilmiy jihatdan o'z qimmatini yo'qotmagan.

Bu sohadagi tashabbusni dastlab 1558 yilda Xitoyga O'rta Osiyo orqali savdo yo'lini aniqlash maqsadida Moskvaga kelgan Angliya savdo kompaniyasining vakili Antoniy Jenkinson boshlab berdi. U Moskva hukumati yordamida Astraxan' va Kaspiy dengizi orqali Xiva va Buxoroga borib, O'rta Osiyo etnografiyasi haqida anchagina ma'lumotlarni to'pladi.

Rossiya bilan O'rta Osiyo o'rtasidagi munosabatlar ayniqsa XVIII asrda Buyuk Pyotr davrida kuchayadi. 1720 yili Buxoraga rus elchisi bo'lib kelgan Florio Beneveni ham Xivaga borib, O'rta Osiyoning geografiyasi, tarixi hamda etnografiyasiga oid ma'lumotlarni to'plagan.

Xorazm aholisining XVIII asr o'rtalaridagi turmushi to'risida etnografik muhim ma'lumotlarni 1740 – 1743 yillarda Dmitriy Gladishev va Ivan Muravin boshchiligidagi tadqiqotchilarning Orol dengizi va Xivaga ilmiy safaridan hamda 1753 yilda Samara savdogari Daniil Rukavinning Xivaga qilgan sayohati davrida to'plagan materiallaridan olish mumkin. 1774 yilda Orenburg cho'llarida qozoqlar tomonidan asir olingan rus unter – ofitseri Filipp Yefremov asirlikdan Qo'qon, Marg'ilon, Qashqar, Yorkent, Tibet, Hind orqali qochib, ko'rgan–bilganlarini yozib qoldiradi. Shuningdek, bu

haqda yana 1781 yilda Buxoraga elchi bo'lib kelgan Mendiyo Bekchurin va 1794 – 1796 yillarda Buxoroga sayohat qilgan T. Burnashevning hikoyalari ham bor. Shu davrdagi Xiva xonligiga oid tarixiy va etnografiyaga oid ma'lumotlar xonning taklifi bilan Xorazmga kelgan ko'z shifokori, mayor Blankennagelning yozib qoldirgan xotiralarida ham mavjud.

O'zbek xalqiga oid etnografik ma'lumotlarni to'plash, XIX asming birinchi yarmida N.N.Muravev, A.F.Negri olib borgan kuzatishlar O'rta Osiyo xalqlari, shu jumladan, o'zbeklarning etnografiyasini o'rganishdagi dastlabki ilmiy qadamlar bo'ldi.

1819 – 1820 yillarda Xiva xonligiga sayohat qilgan kapitan N.N. Muravev tomonidan yozilgan asarning ba'zi boblarida bevosita o'zbeklarning tabiati, diniy e'tiqodlari, urf-odatlari, ma'rifati, kiyim-kechagi, uy-ro'zg'ori, urug'-aymoqchiligi kabi etnografik ma'lumotlar qayd etilgan. Unga ko'ra o'zbeklar asosan to'rt toifadan: qiyot-qo'ng'iroq, uyg'ur-nayman, qang'li-qipchoq, mang'itdan iborat; har bitta toifa mustaqil hokim-inoqqa ega, ammo ularning eng kattasi qiyot-qo'ng'iroq inoqidir. Uning ko'rsatishicha, Xiva xonligidagi qadimiy o'zbeklar ko'chmanchi bo'lgan. Ularning ko'pchiligi qora uylarda yashaganlar, ammo boy urug'doshlari o'troq sart singari katta paxsa devor bilan o'ralgan uylarga ega bo'lishgan.

1820 yili Buxoraga jo'natilgan A.F.Negri boshchiligidagi diplomatik missiya qatnashchilaridan Ye.A. Eversman, X.P.Yakovlev, Budrin va polkovnik G. Meyendorflaming kitob va xotiralari nihoyatda boy tarixiy etnografik ma'lumotlarga ega. G. Meyendorfnung turli tillarda nashr qilingan **“Orenburgdan Buxoroga sayohat”** nomli kitobida Buxoro xonligining geografik o'rni, ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli, davlat tuzilishi, aholisi va uning mashg'uloti, qishloq xo'jaligi sug'orish tizimi, hunarmandchiligi, ichki va tashqi savdo, oila va xotin-qizlarning turmushi haqida qimmatbaxo ma'lumotlar keltirilgan. Bu borada ayniqsa, 1833–1841 yillarda Orenburg gubernatorining maxsus topshirig'iga binoan ishlagan iste'dodli yozuvchi, folklorchi, etnograf, vrach, adabiyotshunos, mashhur leksikograf V.I.Dallning olib borgan ilmiy ishlari diqqatga sazovordir.

Chet el mualliflaridan biri – fors tilini yaxshi bilgan ingliz sayohatchisi Aleksandr Boris 1831-1832 yillarda Buxorada turib, muhim siyosiy, iqtisodiy, harbiy va etnografik materiallar to'playdi. Boris yozib qoldirgan sayohatnomada o'zbeklar haqida nihoyatda qiziqarli ma'lumotlar mavjud.

1840–1850 yillar ichida Qozog'iston va O'rta Osiyo xalqlarining etnografiyasini ilmiy jihatdan o'rganishda talantli aka - uka Nikolay va Yakov Xanikovlarning xizmatlari katta. Ya.Xanikovning 1851 yilda nashr qilingan **“Orol dengizi va Xiva xonligi xaritasiga izohnoma”** asarida etnografiyaga alohida e'tibor berilgan.

Etnografiyaga oid muhim ma'lumotlar 1843 yilda Xiva xonligiga diplomatik missiya a'zolari bilan kelgan polkovnik G.I.Danilevskiy, F.N.Baziner asarlarida ham keltirilgan.

O'sha davrlarda atoqli sharqshunos olim V.V. Grigorev Orenburgda istiqomat qilgan va u Rossiyada birinchi bo'lib Sharq xalqlari tarixi kursini o'qita boshladi. Uning 200 dan ortiq ilmiy ishlari orasida O'rta Osiyo xalqlariga, jumladan, o'zbeklarga tegishlilari ham mavjud. A.Vamberi (vengr) o'zbek urug'lari haqida gapirib, birinchi bo'lib "o'zbek" so'zining kelib chiqishi to'g'risida mulohaza yuritadi. A. Vamberi 32 o'zbek qabilalarining ro'yxatini beradi va ularning kiyim-kechaklari, taomlari, o'yin va musiqa asboblari, urf-odatlar va diniy marosimlari to'g'risida hikoya qiladi.

Yozma va etnografik manbalarga ko'ra o'zbek elati dastlab 24 ta (XV asr), so'ngra 32 ta (XVI–XVII asrlar), provardida 92 ta urug'dan tashkil topgan. Keksalardan o'zbek urug'larining soni so'ralganda ular "92 bov", "bog'" deb javob berishadi. Quyida biz o'zbeklar urug'–qabilalarining ro'yxatini keltiramiz:

1. Ming	17. Boyovut	33. Jiyit	49. Oqilon	65. Jurat	81. Yobu
2. Yuz	18. Burlan	34. Juyut	50. Qora o'g'lon	66. Tatur	82. Targ'il
3. Qirq	19. Ishmirchik	35. Turmaut	51. Arab	67. Yo'rg'a	83. Turak
4. Jaloyir	20. Kabe	36. Obmaut	52. Burqut	68. Batash	84. Tayin
5. Saroy	21. Nujyan	37. Jaljiut	53. Elachi	69. Qovchin	85. Ko'xat
6. Qo'ng'irot	22. Kishkes	38. Arlyat	54. Juburg'an	70. Tubali	86. Faxr
7. Olchin	23. Buryat	39. Karvit	55. Qishliq	71. Talov	87. Sho'ran
8. Arg'in	24. Ubrat	40. Ongut	56. Kerev	72. Kerderi	88. Ko'talik
9. Nayman	25. Kiyot	41. Kiichi	57. Durmon	73. Saxgiyon	89. Derajot
10. Qipchoq	26. Xito	42. Tangut	58. Tabin	74. Qirg'in	90. Qimot
11. Qalmoq	27. Qang'li	43. Mang'it	59. Tama	75. Shirin	91. Shujaat
12. Chaqmoq	28. Uryuz	44. Jalaut	60. Ramadon	76. O'g'lon	92. Avg'on
13. Qirg'iz	29. Junalxi	45. Mamasit	61. Uyshun	77. Chimboy	93. No'xas
14. Qirlik	30. Quti	46. Merkit	62. Badan	78. Sho'ran	94. Ravish
15. Xitoy	31. O'tarchi	47. Kent	63. Hofiz	79. Uyg'ur	95. Novshlik
16. Turkman	32. Quyuchi	48. Quralas	64. Avarji	80. Agar	96. Sirg'ali
					97. Tamg'ali

Bu oxirigacha keltirilgan tugal ro'yxat emas. Aslida o'zbek urug' – qabilalarining soni juda ko'pchilikni tashkil etadi. XIX asrning oxiri - XX asr boshlarida yuqorida qayd etilgan urug'–qabilalarning aksariyati urug' – qabilalarini unutib, o'zlarini o'zbek deb atay boshlaganlar.

Etnograf B.X. Karmisheva "Turkiston va O'zbekiston janubiy rayonlarining etnik tarixiy ocherklari"¹ kitobida XIX asrning oxiri - XX asr boshlarida ushbu mintaqa o'zbeklarini uch guruhga bo'lgan: Birinchi guruh o'troq, aholi (ular urug'–qabilalarga bo'linmagan) - ularga chig'atoylar, xo'jalar, qarshiliklar kirgan. Ikkinchi guruh - avvalgi qabilalar Movarounnahrning o'troq mahalliy aholisi bilan aralashib ketmasdan, yarim

¹ Кармишева Б.Х. Туркистон ва Ўзбекистон жанубий районларининг этник тарихий очерклари. М.: 1976-ет

ko'chmanchi holatini saqlab qolgan. Va urug'-qabilalarga bo'lingan ko'hna turk-mo'g'ul qabilalari bu yerlarga mo'g'ullar istilosi davrida kelib qolgan turk-mo'g'ul qabilalaridir. Ularga turk, qarluq, halacha, no'g'oy, mirishkorlar kirgan. Uchinchi guruh keyingi qabilalar esa Movarounnahrda XV asrning oxirida Shayboniylar bilan birga Dashti Qipchoqdan kelgan va bu yerga XVI asrning boshlarida batamom o'mashib olgan o'zbek qabilalarining avlodlari - ularga qo'ng'iroq, yuz (juz), laqay, semiz, kesatir, qatag'on, do'rmon, nayman, saroy, ming, qang'li, yobu, kenagas, qovchin, jaloyir va boshqalar kirgan.

XVI-XIX asr o'rtalarigacha bo'lgan davr ichida mahalliy mualliflar tomonidan yaratilgan tarixiy asarlarda ba'zi muhim etnografik lavhalar bor. Iste'dodli tarixchi, shoir va musiqashunos Xofiz Tanish Buxoriyning "Abdullanoma", tarix, tibbiyot va adabiyot sohasida tanilgan davlat arbobi Abulg'oziyning bir necha bor chet tillarga tarjima qilingan "Shajarai turk va mo'g'ul" hamda "Shajarai tarokima" kabi asarlari mavjud. Mashhur o'zbek tarixchilari Shermuhammad Munis, Muhammad Rizo Ogahiy va Muhammad Yusuf Bayoniylarining "Firdavs ul - iqbol", "Riyoz ud - davlat", "Zubda ut - tavorix", "Jomi' ul - voqeoti Sultoni", "Gulshani davlat", "Shohidi iqbol", "Shajarai Xorazmshohiy", "Xorazm tarixi", kabi asarlarida XVII asrning II yarmidan to XX asr boshlarigacha Xorazm va qo'shni yurtlarda ro'y bergan tarixiy voqealar mahorat bilan tasvirlanadi. O'zining boy mazmuni, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy ma'lumotlarning ko'pligi va rang-barangligi bilan ajralib turuvchi bu tarixiy asarlar o'sha davrdagi o'zbek xalqi etnografiyasini o'rganish uchun muhim manba bo'la oladi.

O'zbek xalqining etnografiyasini o'rganish bilan shug'ullangan N.P.Ostroumov, N.S.Likoshin singari tadqiqotchilar o'lkadagi mustamlakachi ma'murlarning vakillari bo'lib, o'z asarlarida chorizmning tub manfaatlarini, siyosatini targ'ib etdilar. Shunga qaramay ularning asarlarida mahalliy aholining turmushi, madaniy hayotiga doir dalillarga asoslangan bir qancha diqqatga sazovor ma'lumotlar bor.

O'rta Osiyo yurishlari davrida V.V.Radlov, A.P.Fedchenko, A.L.Kun, M.A.Middendorf kabi tadqiqotchilar katta va samarali mehnat qildilar. V.V.Radlov O'rta Osiyo xalqlarining tili, geografiyasi haqida ma'lumotlar to'plagan. O'rta Zarafshon vodiysi bo'ylab sayohat qilib, qiziq-qiziq ocherklar yozgan.

A.P.Fedchenko ham o'z rafiqasi bilan o'zbek xalq etnografiyasiga oid juda ko'p ma'lumotlarni to'plagach "Qo'qon xonligida" degan asarini yozgan.

Ilmiy jamiyatlar va to'garaklar ichida o'zbek etnografiyasini o'rganishda Rus geografiya jamiyati va uning Turkiston bo'limi, Turkiston arxeologiyasi va etnografiya xavaskorlari jamiyati Turkiston bo'limining faoliyati alohida e'tiborga sazovor.

O'rta Osiyoda 1920-1924 yillarda o'tkazilgan aholi ro'yxatining

tashkilotchisi va faol qatnashchisi I.P. Magidovich diqqatga sazovor ish qildi. U o'zining aholi o'rtasida to'plagan tarixiy etnografiyaga oid ma'lumotlariga asoslanib, o'zbek xalqi qabilalarining ro'yxatini tuzdi. Aholini etnik o'rganish komissiyasi a'zosi I.I.Zarubin ham o'zbek etnografiyasi haqida materiallar to'plab, ba'zi maqolalarni chop ettirgan. Shu yillari ajoyib geograf va etnograf professor N.G. Malliskiy o'zining ma'ruzalari va ilmiy geografik asarlarida o'zbeklarning urug'-aymog'i va ularning etnografiyasiga oid o'z tavsiflarini berdi.

O'zbekiston hududida urushdan oldingi yillarda yirik etnografik ishlarni o'tkazish dastlab O'rta Osiyo Davlat dorilfununida, Qadimgi yodgorliklar va san'atni muhofaza qilish qo'mitasida, shuningdek, Toshkent, Samarqand va Buxoro muzeylarida markazlashgan edi. Keyinchalik 1943 yilda tashkil topgan O'zbekiston Fanlar akademiyasi, chunonchi, Tarix va arxeologiya institutining etnografiya bo'limi etnografiyaga oid tadqiqotlarning markazi bo'lib qoldi.

Hamdo'stlikda istiqomat qiluvchi barcha xalqlarning, shu jumladan, o'zbeklarning moddiy va ma'naviy madaniyati, xalq san'ati va folklorining hususiyatlarini aniqlash uchun ularning etnografiyasini o'rganish 1917 yildan keyingi davrlarda juda keng avj oldi.

Xorazmda chorak asrdan ko'p vaqtdan beri ish olib borgan S.P.Tolstov rahbarligidagi etnograflarning ilmiy safari O'zbekiston xalqlarining turmush va madaniyatini o'rganishda yangi sahifa ochdi. Bu ilmiy safar asosan qadimgi Xorazm madaniyati yodgorliklarini o'rgandi va etnik tarixini tekshirdi. Urushdan keyingi davrda ilmiy safar tarkibida O'zbekiston etnografiya guruhlarini tuzildi. Bu guruhlar oldiga vohadagi hozirgi o'zbek aholisining moddiy va ma'naviy madaniyatini mufassal o'rganish vazifasi qo'yildi. Ilmiy safar a'zolari ko'p yillar davomida olib borgan o'z ishlarining samaralarini bir necha jilddan iborat kitoblarda yoritib berdilar.

O'zbek xalqi etnografiyasini o'rganish sohasida erishilgan yutuqlar mahalliy tadqiqotchilarni umumlashtirilgan yirik ilmiy asar yozishga undadi. Mahalliy mualliflar tomonidan tayyorlangan ma'lumotlar 1972 yildan boshlab, O'zbekiston etnograflarining ilmiy to'plamida yoritila boshlandi. 1917 yildan ilgari va undan keyin to'plangan ko'pgina ma'lumotlar, o'tkazilgan ilmiy safarlar etnografiyaga oid har xil buyumlarning to'planishiga imkon tug'dirdi. Hozirgi kungacha to'plangan bu boy ashyolar Respublikamizning muzeylarida, ayniqsa, Toshkent, Samarqand, Xiva, shuningdek, Moskva va Sankt-Peterburg muzeylarida saqlanib kelinmoqda.

Xalq madaniyati deyilganda keng ma'noda etnos hayotidagi barcha qadriyatlar tushunilsa ham, uning tub ma'nodagi negizini xalq an'analari tashkil etadi. Ularning ba'zilari haqida to'xtalamiz.

“An'ana” - tarixiy taraqqiyot jarayonida tabiiy va ijtimoiy ehtiyojlar asosida vujudga keladigan, ajdodlardan avlodlarga meros bo'lib o'tadigan, kishilar madaniy hayotiga ta'sir o'tkazadigan ijtimoiy hodisadir. An'ana

o'ziga xos ijtimoiy qoida sifatida kishilar ongiga singgan (umum yoki ma'lum guruh tomonidan), qabul qilingan tartib va qoidalar majmuasi hisoblanadi¹. Marosim atamasi nisbatan tor tushuncha bo'lib, u shu xalq hayotining ma'lum sohalarida omma tomonidan qabul qilingan, ko'pincha ramziy tavsifga ega bo'lgan va ma'lum kishilar majmui tomonidan maxsus uyushtiriladigan namoyishlardan iborat. Shuningdek ma'rosim inson hayotining moddiy va ma'naviy turmushining talab va ehtiyoji tufayli yuzaga kelgan va keladigan hodisadir. Har qanday marosim u yoki bu xalqning ma'lum bir tarixiy taraqqiyoti bosqichidagi ijtimoiy- iqtisodiy, siyosiy hamda madaniy rivojlanish darajasini ko'rsatuvchi asosiy belgilarni o'zida mussamlashtirgan holda vujudga keladi va yashaydi². Boshqachasiga aytganda marosim - umum tomonidan qabul qilingan ramziy harakatlarga ega bo'lgan hayotiy tadbir.

“Urf-odatlar” deyilganda kishilarning turmushiga singib ketgan, ma'lum muddatda takrorlanib turuvchi hatti-harakatlar, ko'pchilik tomonidan qabul qilingan xalq- atvor qoidalari ko'nikmasi tushuniladi. Demak, ma'rosim va urf-odatga berilgan qisqacha qaydlardan ham ko'rinib turibdiki, urf-odat tushunchasi xalq hayotining barcha sohasini o'z ichiga qamrab olsa, marosim tushunchasi esa hayotning muayyan sohalarigagina aloqador, xolos. Urf-odat bir vaqtning o'zida bir shaxs yoki ko'pchilik tomonidan bajarilishi majburiy qoida bo'lsa, ma'rosim belgilangan shaxslar tomonidan bajarilishi lozim bo'lgan hatti-harakatdir. Kichikning kattaga birinchi salom berishi yoki ko'pchilikka kamchilikning salom berishi yoxud mehmonlarga alohida hurmat, bayram arafasida yaqinlari, keksa qariyalar holidan xabar olish kabi ko'rinishlar o'zbeklarga xos milliy urf-odatlardir. Milliy urf-odat bo'lsa, motam marosimida hasrat bilan, sochlarini to'zg'itib qayg'uli ahvolda motam aytimlarini aytib yig'lash odati bu motam marosimida ishtirok etayotgan ayrim kishilarnigina vazifasiga kiradi. Urf-odatlar bilan marosim orasidagi o'zaro farqni ular ichidagi ramziy harakatlarning qo'llanilishi darajasi orqali ham anglab olish mumkin. Jumladan, urf-odat o'z ichiga ramziy va ramziy bo'lmagan harakatlarni to'la qamrab olsa, marosim faqat ramziy xolatdagi hatti-harakatlarnigina qamrab oladi. Qolaversa urf-odatlar muayyan xalq uchun asosan, bir xil - o'zgarimas qoida, norma bo'lsa, marosim bir xil xalq doirasida keskin farqlanishlarga ham ega bo'ladi. Har qanday ma'rosim urf-odat hisoblanadi, ammo har qanday urf-odat marosim hisoblanmaydi¹. Marosimlar ikki katta guruhlarga - oilaviy-maishiy va mavsumiy marosimlarga bo'linadi². Ular: a) oilada farzand tug'ilishi va uning tarbiyasi bilan bog'liq bo'lgan urf-odat va marosimlar; b) nikoh – to'y marosimlari; v) oila a'zosini so'nggi yo'lga kuzatish, ya'ni dafn etish va ta'ziya bilan bog'liq

¹ Аширов А., Атаджанов Ш. Этнология. Т.: 2008. - 132 бет.

² Уша жойда. - 132 бет.

¹ Саримсоқов В. Маросим фольклори. Т.: 1998. – 13 бет.

² Аширов А., Атаджанов Ш. Этнология. Т.: 2008. - 134 бет.

urf–odat va marosimlar.

Mavsumiy ma'rosimlarga, ya'ni qishki, bahorgi, yozgi turkum marosimlarni quyidagicha tasnif etish mumkin:

1. Qishki marosimlar. Bu marosimlarga gap-gashtak, birinchi qor yoqqanda o'tkaziladigan "qor yog'di" kabi marosimlar kiradi.

2. Bahorgi marosimlar. Bunga dastlab "shoxmoylar" - dalaga qo'sh chiqarish marosimi, yerga dastlabki urug'ni qadash marosimi, "Navro'z", "sumalak sayli", "sust xotin", "loy tutish", "hashar" kabi marosimlar kiradi.

3. Yozgi marosimlar. "Choy momo", "qovun sayli", "uzum sayli" kabi marosimlar.

4. Kuzgi marosimlar. "Oblo baraka", "shamol chaqirish" va "hosil bayrami" kabilar kiradi.

O'zbek xalqining azaliy va boy an'ana va qadriyatlari o'lkada sayyohlik - turizm rivoji uchun muhim omillardan biri hisoblanadi.

Etnograf Adham Ashirov diniy marosimlarni ham alohida marosimlar ro'yxatiga kiritgan. Unga esa, hayitlar, mavlud o'qitish, bibimushkulkushot, bibisheshanba, bibichorshanba marosimlari kiradi.

O'tkazilgan marketing tadqiqotlari vujudga kelgan turistik yo'nalishlar va xizmatlarni yanada takomillashtirish, tarixiy hududlarda yangi ob'ektlarni turistik muomala sohasiga kiritish hisobiga yangi yo'nalishlarni shakllantirish bo'yicha bir qancha umumiy xulosalar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish imkonini beradi. Mazkur ma'lumotlarga ko'ra, 2005 yilga qadar bo'lgan davrgacha turistik oqimlarning asosiy qismi respublikaning turistik talab katta bo'lgan hududlari va turistik markazlari – Toshkent, Samarqand, Buxoro, Xorazm va Farg'ona vodiysiga to'g'ri keladi. Respublikaning Qoraqalpog'iston, Orolbo'yi kabi mintaqalari, Respublika janubi, shu jumladan Termiz turizm sohasida boy potensial imkoniyatlarga ega, ammo ular yaxshi o'zlashtirilmagani va asosiy markazlardan uzoqda joylashgani uchun turistik korxonalar loyihalashtirilgan majmuasini rivojlantirish istiqbollari kiritilishi lozim.

Shundan hamda turistlar sayohat va safarlardan yorqin taassurot va ma'rifiy axborot olishi shartidan kelib chiqib, biz eng avvalo qadimda "Buyuk ipak yo'li" o'tgan asosiy shaharlar va manzilgohlarni o'z ichiga oluvchi turistik yo'nalishlarni ko'rib chiqamiz¹.

Yurtimizga xorijdan keladigan rasmiy va norasmiy mehmonlar, turistlar sir emaski, o'zbek xalqining urf-odatlari, udumlari, an'analari, tarixiy obidalari, to'y va a'za ma'rosimlari; **bayramlari:** Ramazon hayiti, Qurbon hayiti, Navro'z umumxalq bayrami; **milliy taomlari:** Sumalak, Halim; ko'pkari, arqon tortish, besh tosh kabi **milliy o'yinlariga** azaldan qiziqib kelganlar. Toshkent, Samarqand, Buxoro, Xorazm va Farg'ona kabi shaharlar esa turistik markazlar hisoblanadi.

¹ Мирзаев. Р. Солнце путешествует по миру чтобы рассеять. Т.: «Шарк», 2005.- 130 б.

Miloddan avvalgi II asr oxiri – I asr boshida “Buyuk Ipak yo‘li” trassalari vujudga kelgan: Qoshg‘ar (Sharqiy Turkiston) orqali Oloy vodiysiga, qo‘g‘ot dovoni orqali – Farg‘ona vodiysiga, Jo‘nqar darvozasi (Xo‘jand hududida) orqali yo‘l rivojlanib borgan. Yo‘lning bir tarmog‘i janubiy-g‘arbga qarab ketgan va yanada qadimgi yo‘l – Shohruh yo‘liga qo‘shilib, Samarqand – Buxoro – Amul (Chorjo‘y) – Marv – Hamadon – Mashhad (Eron) orqali Suriya (Aleppo)ga va undan Vizantiyaga (hozirgi Turkiya davlati hududiga) o‘tib, Efesgacha (O‘rtaer dengizi sohilida) borgan va undan Misr va Yevropaga o‘tib ketgan. Mana shu tarmoqqa Samarqand hududida “Nefrit yo‘li” (Hindistondan) qo‘shilgan. Buxoro hududida yo‘l shimolda Kat (Beruniy)ga qarab, Amudaryo bo‘ylab Urganchga, quruqlikdan Elbe, Volga daryolari – Sharqiy Yevropaga qarab tarmoqlanib ketgan.

Buyuk ipak yo‘lining ikkinchi tarmog‘i Farg‘ona vodiysidan chiqqach, shimolga: Jizzax – Choch (Toshkent) – Chimkent – Taroz (Jambul) – Issiqko‘l orqali Sibirga qarab ketgan. Taroz hududida yo‘l yana ikkiga ayrilgan va uning bir tarmog‘i Sirdaryo bo‘ylab pastga, Elba daryosiga (Ural janubida) tushgan, undan Volga daryosiga – Shimoliy Qora dengiz bo‘yiga o‘tgan, Qora dengiz orqali Suriyaga o‘tib, undan Yevropaga qarab yoki Volga daryosi bo‘ylab Sharqiy Yevropaga qarab ketgan. Ana shu qadimgi yo‘nalishlar hozirda ro‘y bergan o‘zgarishlarni hisobga olgan holda turistik yo‘nalishlarni shakllantirish uchun asos qilib olinishi mumkin.

Yevropaning ayrim mamlakatlarida ommaviy tus olgan turistlarga xizmat ko‘rsatishning qishloqqa xos yo‘nalishlarini ham respublikamizda rivojlantirish mumkin. Mazkur yo‘nalish turi qishloqlarda yoki alohida uylarda joylashtirish, ovqatlantirishni tashkil etish bilan bog‘liq. Shu bilan birga, turistlarga qishloq xo‘jalik ishlarini kuzatish yoki ularda bevosita ishtirok etish imkoniyati beriladi. Turistlar qishloq yoki shaharchadan baza sifatida foydalanib, mazkur hudud bo‘ylab safarlarga chiqishlari mumkin. Baliqchilar yashaydigan qishloqlar va shaharchalarda mahalliy aholi ham turistlarni o‘z uyiga joylashtirishi va ularga baliq ovida ishtirok etish imkonini berishi mumkin. Turizmning mazkur turini tashkil etish uchun texnik yordam talab etilishi mumkin. Bundan tashqari, turizm rivojlanayotgan hududlarda xizmatlarni bronlashtirish, markazlashtirilgan tizimini tashkil etishga zaruriyat tug‘iladi.

Ekologik yo‘nalishlar milliy turistik mahsulotning jadal sur‘atlarda rivojlanayotgan turlaridan biri hisoblanadi. Ekologik turizm atrof muhitni saqlash muammolaridan tashvishda bo‘lgan, mahalliy ekologiya va madaniyatning holati haqida ko‘proq bilishni xohlagan odamlar orasida ayniqsa mashhur. Bu yerda keng miqyosda ish olib borish talab etilmaydi. Garchi turizmning mazkur turi kapital qo‘yilmalarga muhtoj bo‘lmasa-da, uni rivojlantirishda puxta nazorat olib borish bilan faoliyatni ekologik talablarga uyg‘un tarzda bog‘lash zarur. Malakali gidlarning mavjudligi, shuningdek

safar joylarida tabiatni qo'riqlash chora-tadbirlarini qat'iy amalga oshirish katta ahamiyatga ega.

Statsionar turizm, agar mehnat ta'tiliga chiqqanlar va nafaqaxo'rlar o'z mablag'larini shu yerda sarflashini hisobga olsak, mahalliy aholiga katta foyda keltirishi mumkin. Biroq, shu bilan birga, turizmning mazkur turi muayyan muammolarni tug'dirishi, xususan, katta qurilish munosabati bilan mahalliy infratuzilma zo'riqishiga, mahalliy o'ziga xoslikning yo'qolishiga, qurilishning nooqilona (ekologik muammolarni keltirib chiqaradigan) usullari qo'llanilishiga olib kelishi mumkin.

Etnik va nostalgik yo'nalishlar ham milliy turistik mahsulotni rivojlantirish yo'llaridan biri hisoblanadi. Mazkur turistik mahsulotlar nomining o'zidayoq safarga turtki beruvchi omillar mavjud. Turizmning bu turlari ko'p joylarda ajoyib salohiyatga ega. Bunday safarlarga otlangan turistlar, qoida tariqasida, an'anaviy turistik ob'ektlar va xizmatlardan foydalanadi. Shunga qaramay, ayrim hollarda maxsus gidlar xizmatini tashkil qilish ham o'ziga xos yo'nalishlar ishlab chiqishni talab etadi.

Diniy turistik yo'nalishlar respublikamizda milliy turistik mahsulotni rivojlantirishda juda muhim ahamiyatga ega. Diniy ziyoratchilarni joylashtirish va ularni boshqa ob'ektlar bilan ta'minlash odatda o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'ladi. Biroq, turistik faoliyat sub'ektlari sifatida, ziyoratchilar ham mahalliy aholi uchun qo'shimcha daromad manbai hisoblanadi.

Yuqorida sanab o'tilgan turistik yo'nalishlarni tashkil etishda ishlab chiqishda nafaqat milliy turistik mahsulotning rivojlanishiga, turistlar e'tiborini jalb etish uchun qiziqarli ob'ektlarning mavjudligi, tabiiy – iqlimiy shart – sharoitlar, respublikaning muayyan hududlarini turistik yo'nalishlarga moslashtirilganligi, shuningdek, muayyan shaharlar va aholi yashaydigan punktlarning ijtimoiy – iqtisodiy rivojlanish darajasi, shu jumladan obodonchilik, muhandislik ta'minoti darajasi, tashqi va ichki transport aloqalari, mazkur omillarning rivojlanish istiqboli ham hisobga olinishi lozim.

Yo'nalishlarning ssenariy rejasi milliy turistik mahsulotni rivojlantirish istiqbollari va Respublika bo'ylab qiziqarli sayohatlarni tashkil etish istiqbollari tarzida, turistlar faoliyatining barcha turlari: ma'rifiy ekskursiyalar, dam olish, bo'sh vaqtni mazmunli o'tkazish va h.k.ni hisobga olgan holda ishlab chiqiladi.

Milliy turistik mahsulot va turistik sayohatlarni rivojlantirish ssenariy rejaları ishlab chiqilishi bilan bevosita bog'liq holda, Respublika "Meros" milliy dasturi ham ishlab chiqilgan bo'lib, u O'zbekistondagi barcha (qadimgi davrdan to hozirgi kungacha bo'lgan) madaniy meros yodgorliklarini saqlash, o'rganish, tiklash va targ'ib qilish tadbirlarini o'z ichiga oladi.

O'zbekistonda tog'lar, daryolar, ko'llar, sahrolar, o'rmonlar va ov uchun mo'ljallangan maxsus hududlar juda ham ko'p. Ular esa turistik yo'nalishlarning 100 dan ortiq turlarini tashkil etishi mumkin. Hozirda faqat respublika tashkilotlarining o'zi maxsus turistik yo'nalishlarning 34 turini tashkil qilgan.

Respublikada tog'lar bo'ylab sayohat, tuyalarda, otlarda sayohat, ov, baliq ovi, veloyo'nalishlar, ekologik turlar kabi maxsus turistik yo'nalishlar rivojlanmoqda. O'zbekiston hududida mazkur yo'nalishlar bilan shug'ullanuvchi maxsus firmalar mavjud. "Osiyo-trevel", "Yordamchi", "Glavoxota" tashkilotlari shular jumlasidan. Respublika bo'yicha eng ko'p turistlarni jalb qilayotgan turistik yo'nalishlarga quyidagilar kiradi: "Boysun tog'lari va g'orlari", "Sarichelak ko'llari", "Kaklik ovi", "Parranda ovi", "Tog' echkisi ovi" va b. Mazkur turlar bilan Jizzax, Namangan, Navoiy, Samarqand va Farg'onadagi viloyat turistik tashkilotlari ham shug'ullanadilar¹.

O'zbekiston O'rta Osiyoning qoq markazida joylashgan bo'lib, o'ziga xos jo'g'rofiy va iqlimiy xususiyatlarga ega.

Mamlakat hududida juda ko'p milliy bog'lar va qo'riqxonalar bor. Faol dam olish, sarguzashtlar va sayohatlar ishqibozlari uchun bu yerda juda ko'p imkoniyatlar mavjud. Omitologiya, qum barxanlari va tuyada sayr qilish ishqibozlari uchun bepoyon qizilqum sahrosida turistik yo'nalishlar tashkil etish mumkin. Tog'da sayr qilish va alpinizm ishqibozlari uchun mahobatli Tyan-Shan va Hisor tizma tog'larini taklif qilish mumkin. Speleologlarni bu yerda Boysun platosidagi son-sanoqsiz sirli g'orlarning labirintlari o'ziga jalb qiladi.

Suvda dam olish ishqibozlariga O'rta Osiyoning Chotqol, Oqbuloq, Ohangaron, Zarafshon, Sirdaryo va Amudaryo kabi ajoyib daryolari bo'ylab murakkablik darajasi har xil bo'lgan yo'nalishlar taklif qilinadi.

Respublikada me'morchilik yodgorliklarini tomosha qilish va O'rta Osiyo xalqlarining ko'p asrlik tarixi bilan tanishishni o'z ichiga oluvchi aralash yo'nalish eng ommabop yo'nalishlardan biridir. Bu esa Buxoro, Samarqand, Shahrisabz kabi qadimgi shaharlar bo'ylab ekskursiyalarni o'z ichiga oladi. Yo'nalishning trek qismi Hisor tog'lariga besh kunlik safarni nazarda tutadi. Bunda mashhur Amir Temur g'origa ekskursiya uyushtiriladi, qadimgi hayvonlarning toshda qotib qolgan izlari borib ko'riladi, Hisor tog' tizmalaridan o'tiladi va Qizilqum sahrosi bo'ylab tuyalarda ikki kunlik safar uyushtiriladi. Bundan tashqari, uch, to'rt va hatto besh yo'nalishdan iborat har xil aralash ekologik turlar tashkil etish imkoniyatlari ham juda ko'p. O'zbekistonning har xil tabiiy va tarixiy ob'ektlari bir-biriga yaqin joylashgani bunga keng imkoniyat yaratadi.

¹ Мирзасв. Р. Солнце путешествует по миру чтобы рассеять. Т.: Ипак «Шарк», 2005.- 130 ст.

O'zbekistonda Oqsuv va Karavshin hududlari, Turkiston tizma tog'lari, Sarichelak ko'li kabi mashhur tabiiy yodgorliklarning joylashganligi ham maxsus turistik yo'nalishlarni rivojlantirish uchun juda qulaydir.

Ko'pgina maxsus turlar narxi chet mamlakatlaridagi shunday turlarning narxlaridan 10–20 baravar arzon. Shu sababli ular ko'pgina xorijiy mutaxassislarni va bunday turlarga qiziquvchilarni jalb qilmoqda. Xatto Respublika ichida ham bir xil turlarga har xil narxlar belgilangan bo'lib, bu maxsus turistik yo'nalishlar bilan shug'ullanuvchi turistik tashkilotlar turli idoralarga bo'ysunishi bilan izohlanadi.

Respublikaga keluvchi turistlarni hisobga olish faqat Toshkent aeroporti bo'yicha amalga oshiriladi. Biroq, bojxona va chegara xizmati boshqa aeroportlarda ham mavjud. Ular boshqa davlatlardan charterli reyslarni qabul qiladi. Ammo konsullik xizmati nizomiga binoan chet ellik turist vizaga ega bo'lgan holda chegaradan avtobus, avtomobil va temir yo'l transporti vositalari orqali o'tishi mumkin.

Turistlar o'tadigan asosiy punktlarga quyidagilar kiradi: Qirg'izistondan Krasnogorsk, Qozog'istondan Sariog'och, Tojikistondan Panjikent, Turkmanistondagi Toshovuz va b. Bundan tashqari, O'zbekistonga chet ellik turistlar kelishi mumkin bo'lgan avtomobil yo'llari ham mavjud. O'zbekistonga keluvchi norezidentlar rezidentlarga qaraganda shu qadar ko'pki, respublikaga barcha mamlakatlardan tashrif buyuruvchilar hisobi yuritilmaydi. Qozog'iston, Rossiya, Qirg'iziston, Tojikiston va Turkmanistondan har yili taxminan 5 mln. norezidentlar tashrif buyuradilar.

O'zbekiston Respublikasining chegaralaridan o'tuvchi avtomobil, avia va temir yo'llarda yo'lovchi tashish ko'rsatkichlarining tahlil natijalarini quyidagicha tavsiflash mumkin:

1 – jadval

Qo'shni mamlakatlarga xalqaro yo'nalishlar bo'ylab tashilgan yo'lovchilar miqdori (ming kishi hisobida)

Jami	2002 yil	2005 yil
Avtobusda yo'lovchi tashish	8445	7998
Temir yo'lda yo'lovchi tashish	6454	4080
Havo transportida yo'lovchi tashish	1797	1904
Boshqa transportda yo'lovchi tashish	84,0	13,0

Eslatma: O'zbekiston Respublikasi Statistika boshqarmasi baholagan.

Qo'shni mamlakatlardan barcha yo'nalishlar bo'yicha keladigan norezidentlar 2,5 mln. kishini tashkil etadi. Ular tijoratchilar, qarindoshlarinikiga kelgan mehmonlar, qo'shma korxonalarining xodimlari bo'lishi mumkin. Yo'lovchi tashish ma'lumotlarida shaxsiy mashinasida tashrif buyuruvchilar hisobga olinmagan. Vaholanki, ular tashilgan jami yo'lovchilarning kamida 20% ni tashkil etadi. Bir kun ichida chiqib ketishni

ham hisobga olganda, O'zbekistonga tashrif buyuruvchilar soni bir yilda 5,0 mln. kishidan oshmaydi.

Mamlakatlar bo'yicha norezidentlarning tahlilini, chet ellik turistlarni hisobga qo'shmaganda, quyidagicha baholash mumkin: Qozog'istondan – 50-60%, Tojikistondan – 20-25%, Rossiyadan – 10-15%. Qozog'istondan keluvchi norezidentlar ulushining kattaligi O'zbekiston hududining o'ziga xos xususiyatlari va juda ko'p yo'llar Vatanimiz orqali o'tishi bilan izohlanadi.

Xulosa qilib shuni aytish lozimki, turistik yo'nalishlarni rivojlantirish uchun asosiy omil bu - kadrlarning bilimi va tajriba salohiyatidir. Hozirda Respublikamizda turistik yo'nalishlarni rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar mavjud bo'lsa ham bu borada juda kam yo'nalishlar ishlab chiqilgan. Bu yo'nalishlar faqat «Buyuk Ipak Yo'lida» joylashgan shaharlarga qaratilgan. Lekin respublikamizda turistlarning kelishi va dam olishlari uchun tarixiy va xushmanzara joylar ko'p. Faqat ularni yuqori darajada tanishtirish, hamda yo'nalishlar tizimi va turistlarni o'sha joylarga joylashtirish yo'llari ishlab chiqilishi kerak. Hozirda asosiy yo'nalishlar faqat «Uzintur» tomonidan tuzilgan yo'nalishlar asosida faoliyat ko'rsatmoqda. Shuning uchun ham barcha turistik yo'nalishlarni qaytadan ko'rib chiqish va yo'nalishlar davomida turistlarning foydalanishlari uchun motel va kempinglar barpo etish juda muhim masalalardan biri hisoblanadi.

Mazkur mavzudagi 3 va 4 rejalarni talabalar tomonidan mustaqil ravishda tayyorlash tavsiya etiladi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Etnografiya fanining tatqiqot ob'ektiga nimalar kiradi?
2. O'zbek xalqining kelib chiqishi xaqida etnograf olimlar qanday fikrga ega?
3. O'zbek etnografiyasi rivojiga katta hissa qo'shgan qaysi o'zbek olimlarini bilasiz?
4. O'zbeklarning moddiy madaniyati, urf-odati, an'analari hamda turmushi haqida nima bilasiz?
5. Etnogenez nima? U qanday kechadigan jarayon?
6. Etnik tarix nima?
7. O'zbeklar qachon xalq sifatida shakllandi?
8. O'zbeklarning millat bo'lib shakllanish jarayoni haqida nima bilasiz?
9. Turistik yo'nalishlarning shakllanish omillari nima?
10. Turistik yo'nalishlarning ijtimoiy va iqtisodiy o'sishiga ta'sir qiluvchi omillar nima?
11. Turistik yo'nalish motivatsiyalarini izoxlang?
12. Asosiy tur hujjatlarga nimalar kiradi?
13. Turistik yo'nalish turlarini izoxlang?
14. Turizmدا aylanma yo'nalish nima?

15. Turizmda chiziqli yo‘nalish nima?
16. Turizmda davomli yo‘nalish nima?
17. Turizmda transport yo‘nalishlari qanday tuziladi?
18. Turistik yo‘nalishlarni tashkil etishda «Pekidj-tur» ning ahamiyati qanday?

Tayanch so‘zlar izohi:

Etnografiya – xalqshunoslik fani.

Millat – rabcha “xalq”– kishilarning yagona tilda so‘zlashishi, yaxlit hududda yashashi, umumiy madaniyat va ruhiyat birligi asosida tarixan tashkil topgan birligi.

Kalit so‘zlar: An‘ana, qadriyat, bayram, to‘y, marosim, urug‘-aymoq, xalq, elat, millat, etnik guruh, o‘zbek xalqi, oziq-ovqat, moddiy yodgorlik, uy-joy, ma‘naviy madaniyat, buyuk siymolar, kiyim-kechaklar, zeb-ziynat buyumlari, milliylik, turistik sayohat, turizmda pekidj-tur, turistik yo‘nalish, turizmda davomli yo‘nalish..

8-mavzu: O‘lkashunoslik va turizmning asosiy manbalaridan - toponimika

Reja:

1. Toponimika asosida o‘lka tarixini o‘rganish.
2. Sayr–sayohat orqali joylardagi toponimik atamalarni o‘rganish usuli.
3. Toponimik ma‘lumotlarni to‘plash usuli.
4. Toshkent shahri va vohasi toponimlari.
5. O‘zbekiston viloyatlarining toponimlari.
6. O‘zbekistonda turizm.

Toponimika jug‘rofiy nomlarni o‘rganadigan fan sifatida maydonga keldi. 1917 yilga qadar toponimika musatqil fan sifatida o‘rganilmay, uning vazifasini tarixiy geografiya fani bajarar edi.

Toponimikani “**Zamin tili**”, ya‘ni, “er tili” deb ham deb atashadilar. Toponimika atamasi lotin tilidan olingan bo‘lib, “topos” – joy, “onima” – nom, ya‘ni, joy nomini o‘rganadigan fan, - degan ma‘noni bildiradi. Jug‘rofiy nomlar toponimikaning o‘rganish manbai hisoblanadi va ular toponimlar deb ham aytiladi.

Toponimlar xalk tili va tarixi mahsulidir. Ular joyning nomini bildirishdan tashqari o‘lka va xalq o‘tmishini oydinlashtirishga xizmat qiladi.

Toponimika 2 ob‘ektdan: mikro va makro toponimlardan iborat bo‘lib, **mikrotoponimika** – fanda o‘rganilishi jihatidan mayda ob‘ektlarni, **makrotoponimika** esa, atoqli otlar, ya‘ni yirik ob‘ektlarning nomlarini tatqiq qiladi.

Hozirga vaqtda toponimika faqat yirik ob'ektlarning: tog'lar, o'rmonlar, vodiylar, vohalar, shaharlarning nomlarinigina emas, balki, kichik ob'ektlarning – mahallalar, daralar, jarliklar, anhorlar va ko'llarning nomlarini ham o'rganmoqda.

Antroponim so'zi – lotin tilidan olingan bo'lib, “antropo” – odam, “onoma” – nom, kishi ismi, laqabi, familiyasi demakdir; **antroponimika** – kishi ismlarini o'rganadigan fan tarmog'idir.

Gidronim – grekcha – “gidro” – suv, “onoma” – nom, suv ob'ektlarining, masalan, kanal, ariq, anhor, daryo, soy, jilg'a, irmoq, buloq, quduq, dengiz, ko'l va qo'ltiq, bo'g'oz, shar shara kabilarning nomlarini o'rganadi.

Diminutiv – lotin tilidan olingan so'z bo'lib, kichraytirilgan shakldan toponim yasash demakdir. O'zbekistonda – **cha** va – **ak** ba'zan – **ik** affikslari diminutiv shaklidagi toponimlarni yasaydi; bunday toponimlar otlardan (Hisorak, Xumdonak, Rudak), sifatlardan (Ko'kcha, Oqcha, Qoracha, Saricha), etnonimlardan (Do'rmoncha, Naymancha) yasalishi mumkin. Ba'zi hollarda esa (katta toponimga taqlid qilib) nom qo'yilganda ham diminutiv shakldan toponimlar yasaladi, chunonchi Buxorocha, Samarqandak, Bag'dodik, Registonak va boshqalar.

Metateza – lotin tilidan “metatesis” – joy almashtirish – so'zdagi tovushlarning o'rin almashishi (Beshog'och – Bechogosh, Sayram – Saryom).

Metafara – grekcha “ko'chirish” – so'zining ko'chma ma'noda ishlatilishi. Masalan, (Tuyatosh – kattaqoya, Mingbuloq – ko'p buloq), etak – daryoning, tog'ning, soynig yoki odamning etagi, Burun – odamniki, qayiqniki va boshqalar.

Metonimiya – grekcha “qayta nom qo'yish” – toponimikada joy nomining qo'shni ob'ekt nomiga o'tishi. Masalan, daryo nomining shahar nomiga aylanishi (Zarafshon daryosi – Zarafshon shahri, Chirchiq daryosi – Chirchiq shahri), daryo nomining tog' nomiga ko'chishi (Ko'ksuv daryosi – Ko'ksuv tizmasi, Vaxsh daryosi – Vaxsh tizmasi). O'zbekistonda metonomiya hodisasi juda keng tarqalgan.

Mikrotoponimiya – grekcha “mikro” – kichkina, “onoma” – nom, kichik ob'ektlar: buloqlar, quduqlar, dalalar, o'tloqlar, jarlar, yo'llar, kichik tepalar, ko'chalar va hatto atoqli otga ega bo'lgan ayrim daraxtlarning nomlari; mikrotoponimiya va makrotoponimiya orasida muayyan chegara yo'q, masalan, ba'zi bir tatqiqotchilar ko'chalarni mikrotoponimlar desalar, boshqa birovlar makrotoponim deb hisoblaydilar.

Urbanonimiya so'zi ham lotin tilidan olingan bo'lib, “urbanus” – shahar, aholi punktlari; xutor, ovul, qishloq, shaharcha, stansiya, shaharlarning nomlarini o'rgatadigan maxsus fandır.

Hozirgi vaqtda toponimistlar joy nomlarini faqat etimologiya va semantik jihatdangina emas, balki so'z yasalishi jihatidan ham tahlil

qilmoqdalar. **Antroponim** - kishining ismi, familiyasi, laqabi (Mahmud Qoshg'ariy, Munis Xorazmiy), **antroponimika** - kishi ismi, familiyasi, laqabini (masalan, Toshkentboy, Qo'qonboy, Xo'jaqul), etnotoponimika esa qabila, urug' - aymoq millat, xalq nomiga qo'yilgan nomlarni (Qozoqboy, Qirg'izboy, O'zbekxon) o'rganadigan fan tarmoqlaridir. Sabur (Saburov) - turkiy "sabr", arabcha "sobir" (chidamli) so'zlaridan olingan. Polvonov - turkiy tillarda "polvon", forscha "Paxlavon" (botir, qahramon ma'nosida) so'zlaridan olingan, keyinchalik ruscha "ov" qo'shimchasi qo'shilib Polvonov familiyasi kelib chiqqan.

Dalvarzin, Qo'ng'iroq, Nukus, Mitan va hokozolarni istisno qilganda, barcha toponimlar ikki va undan ortiq tarkibiy qismdan (komponentdan) iborat. Bunday qaraganda hech qanday qo'shimchasiz faqat bir so'zdan iboratday tuyuladigan Jizzax, Qo'qon, Yozyovon, G'alcha kabi toponimlar aslida ikki komponentdan tuzilgan.

Biroq, Qarshi (saroy, qasr), Hisor (qo'rg'on), Buxoro (Bixara-ibodatxona), Chim (qo'rg'on), Yon (bekat), Yop (kanal) kabi nomlar mustaqil toponimlar shaklida uchraydi. Ba'zan esa Qum, zax, supa kabi geografik atamalar ham hech qanday qo'shimchasiz toponimlar xosil qilgan. Biroq ana shunday birgina geografik atamadan tuzilgan nomlar ko'pincha shu toponimlarning xalq og'zida qisqartirilgan shakli bo'lib chiqadi. Masalan, Qumqishloq deyish o'miga Qum; Zaxariq deyish o'miga Zax; Supatepa deb qo'ya qolishadi. Biroq hech qanday qo'shimchasiz tol, Pidana (yalpiz), yantoq, tulki kabi nomlar ma'no jihatdan aslida bu o'simlik va hayvonlarga hech qanday aloqasi bo'lmasligi, ko'pincha tamomila boshqa so'zlarning fonetik jihatdan o'zgarishi natijasida shu shaklni olgan bo'lishi mumkin.

Yuqorida aytilganlardan shunday xulosaga kelish mumkin: toponimika **uch prinsipga asoslanadi:** a) toponimlarning paydo bo'lish tarixini o'rganish; b) toponimlarning geografiyaga oid ma'lumotlarini aniqlash; v) asosiy qidirilayotgan toponimlarning barcha nomdagilarini ilmiy asosda alohida - alohida o'rganib, ulardan xulosa chiqarishdir.

Geografik nomlarni ularning kelib chiqishi va tarixi bilan bog'liq holda o'rganish, ularni klassifikatsiya qilish nisbatan yaqin vaqtlarda boshlangan. Bu sohada atoqli toponimist A.X.Vostokovning xizmati kattadir. U Rossiyadagi daryo nomlarini ularning oxirgi qo'shimachlariga qarab guruhlarga bo'ladi va bu qo'shimchalar hozir katta ma'noni anglatmasa ham qadimgi xalqlar tilida ma'lum ma'noni bildirgan bo'lsa kerak, degan xulosaga keladi. A.X.Vostokov fikri XIX asr oxiri - XX asr boshlaridagi ba'zi bir toponimistlarning asarlarida o'z rivojini topdi.

XX asr boshlarida toponimik tatqiqotlar ancha keng quloq yoydi. Ikkinchi jahon urushidan oldingi davrda olimlardan A.I. Sobolevskiy, N.Ya.Marr, S.V.Veselovskiy, V.V.Bartold, V.P.Semyonov - Tyanshanskiy, V.G. Shastakovich toponimika sohasida ayniqsa samarali ishlar qildilar.

O'rta Osiyo, jumladan O'zbekiston toponimikasini o'rganish sohasida V.V.Bartoldning xizmatlarini alohida qayd qilib o'tish kerak. Urushdan keyingi yillarda toponimika rivojida katta bir o'sish davri bo'ldi. Endilikda toponimika sohasida ko'pgina olimlar jamoasi ish olib bormoqdalar. Ayniqsa keyingi davrlarda T.Nafasov "Qashqadaryo toponimikasi", I.Qodirova "Toshkent mikrotoponimikasi", E.Begmatov esa Antrotoponimika – kishi nomlarini o'rganish sohasida ilmiy ishlar olib bordilar.

O'rta Osiyo, jumladan O'zbekiston toponimlarini o'rganish uzoq tarixga ega. O'zbekiston toponimikasini o'rganishda mashhur rus sharqshunos olimlari hamda tarixchilari: V.L.Vyatkin, N.F.Sityakovskiy, L.N.Sobolev, V.V.Bartold, S.P.Tolstov, P.P.Ivanov, M.E.Masson, O.A.Suxareva va boshqalar bu sohada katta ishlarni amalga oshirdilar.

Respublika joy nomlarining kelib chiqishi tarixini va millat, qabila, elat, urug'-aymoq nomlarining kelib chiqishi tarixini hamda geografiyaga oid atamalarini o'rganishda Ya.G'.G'ulomov, A.Asqarov, R.N.Nabiev, A.R.Muhammadjonov, F.Abdullaev, S.Ibrohimov O'zbekistonda birinchi toponimik kartateka tuzishda ishtirok etgan X.T.Zarifov: etnonimlar – O'.Fozilov, M.Shoabdurahmonov, X.Doniyorov, R.Qo'ng'irov, A.Ashirov; geograf-toponimistlardan X.Hasanov, S.Qoraev kabilarning ishlari diqqatga sazovordir.

Toponimlarni o'rganish ma'lumot to'plashdan boshlanadi. Bu ish odatda O'lkashunoslik bo'yicha tatqiqot olib borilayotgan kichikroq hudud - qishloq, ovul, keyinchalik ma'muriy tuman hamda viloyat va o'lka miqyosida amalga oshiriladi. Ish boshlash oldidan taxminiy ish reja va dastur ishlab chiqilishi zarur. Shu asosda tayyorgarlik ishlari olib boriladi, so'ng dala tatqiqot ishlariga o'quvchi va talabalar jalb etiladi.

O'lkashunoslik bilan shug'ullanuvchi o'qituvchilar toponimikaga doir adabiyotlar bilan yaxshi tanishib chiqashlari zarur. Bu borada ularga quyidagilarni taklif etish mumkin: V.A.Nikonovning "Vvedenie v toponimiku" va "Kartkiy toponimicheskiy slovar" asarlari, X.Hasanovning "O'rta Osiyo joy nomlari tarixidan", Xodi Zarifning "Lug'at va termin to'plovchilarga yordam", Ye.M.Mirzaev va V.G.Mirzaevalarning "Slovar mestnyx geograficheskix terminov" va S.Qoraevning "Geografik nomlar ma'nosini bilasizmi?", "O'zbekiston viloyatlari toponimlari" kabi asarlari.

Toponimlardan nom olgan buyumlar, o'simlik, hayvonlar shu qadar ko'pki, ba'zan hatto ularning etimologiyasi to'g'risida o'ylab ham o'tirmaymiz. Qo'qon arava, Buxoro qovuni, Chust pichog'i kabi so'zlarda o'sha joy nomlari esga kelishi mumkin. Biroq akademiya (Afina yaqinidagi changalzor), vulkan (Tirren dengizidagi Vulkan o'roli nomidan), kofe (Afrikadagi Kaffa o'lkasi nomidan), Olimpiada (Gresiyadagi eng baland Olimp tog'i nomidan), Roman (Rim shahri nomidan olingan) kabi so'zlarning ham aslida toponimlar ekanini ko'pincha xayolimizga

keltirmaymiz.

Qit'alar va dengizlar nomlaridan hosil bo'lgan toponimlar: Avstraliya – grekcha “Janubiy quruqlik” degani, Yevropa – Ossuri tilida ereb – kun botish, qorong'ulik, g'arb degan ma'nolarni bildiradi. Osiyo - ruscha Aziya, Xitoycha Yasiya, yaponcha Adziya degani. Bu nom dastlab Gomer dostonlarida tilga olingan. Mil.avv. V asrda Gerodot Osiyo deb hozirgi Turkiyaning g'arbiy qismini tushungan. Xullas Osiyo nomi O'rta dengizi sohillariga xos atoqli otdir. Keyinchalik bu nom Sharqiy yerlarga ham yoyilib, umumlashib ketadi va avvalgi Quyi Osiyo, Buyuk Osiyo nomlari, XVIII – XIX asrlarda Kichik Osiyo, O'rta Osiyo, Markaziy Osiyo singari ayrim qismlarni anglatuvchi nomlar paydo bo'ladi. Osiyo nomining ma'nosi turlicha izohlangan. Ossuriya tilida “Asu” - “Kun chiqish tomon” ma'nosini ham anglatadi. “Sharq” ma'nosida ham qo'llanilgan.

Bolqon – Yevropadagi yarim orol. Turkiy tillarda Balxan – tog', tog'li yer, degan ma'noni anglatadi.

Avstraliya - nemischa Osterreyx: Ost – sharq, reyx – o'lka, ya'ni sharqiy o'lka degani. Angliya – G'arbiy Yevropadagi Buyuk Britaniya davlatining nomi; V – VI asrlarda kontinental Yevropadan shu yerga suzib o'tgan *angl* qabilalari nomidan olingan.

O'simlik va hayvonlar nomidan olingan toponimlar: Apelsin – gollandcha “Xitoy olmasi” degani. Hazorasp – ming ot, Sariosiyo – bosh tegirmon degani.

Oziq-ovqat nomlari toponimlari: Lag'mon (xitoycha) – “lag” - uzun, “man”- xamir, “uzun xamir” degan ma'nolarni bildiradi. Buterbrod (nemischa) – go'sht va yog' degan ma'nolarni bildiradi.

Ichimliklar nomlari: Borjomi – mineral suv (Gruziyadagi kurort shahrining nomi). Toshkent mineral suvi (Toshkent shahrining nomidan olingan) va hokazo.

TOSHKENT SHAHRI

Tadqiqotchi olimlar, arxeologlar tomonidan sunggi vaqtlarda olib borilgan tadqiqotlar natijasida shaharning yoshi 2200 yildan kam emasligi aniqlanib, xalqaro YuNESKO tomonidan tasdiqlandi. 2009 yilda esa shaharning 2200 yilligi keng miqyosda nishonlandi. Shunday qilib qadimiy va navkiron Toshkent shahri Chirchiq daryosining soxilida bundan 2200 yil avval vujudga kelgan .

Toshkent - Respublika poytaxti, sanoati yuksak rivojlangan, fan va madaniyati ilg'or, juda ko'p xalqaro uchrashuvlar, anjumanlar, festivallar o'tkaziladigan joy. Shu tufayli u **Sharq darvozasi**, deb ham ataladi. Shahar o'zida rang-barang va betakror me'moriy qurilish-inshootlarni jamlaganligi tufayli ham uni **noyob qurilishlar ko'rgazmasi shahri** deyilishi ham o'rinlidir.

Toshkent dengiz sathidan 450-480 metr balandlikda joylashgan bo'lib, uning maydoni 360 km.kv.ni tashkil etadi. Aholisi esa 2,5 mln. kishidan

ortiq. Undan Bo'zsuv, Solor, Anhor, Qora suv, Kaykovus, Bo'rjar, Oqtepa, Qoraqamish va boshqa kanallar oqib o'tadi.

Poytaxtimiz ko'cha-ko'ylar soni jihatidan respublikamiz shaharlari orasida oldingi o'rinda turadi. Unda 3 mingga yaqin katta-kichik ko'chalar bor.

Quyida Toshkent so'zi, shahar ob'ektlarning nomlari (urbonimlar) hamda ularning kelib chiqishi to'g'risida so'z boradi. Toshkent toponimini "tosh shahar" deb izohlaydilar. Shu so'zda m'lum ma'noda shahar tarixi ham o'z aksini topgan. Uning qachon paydo bo'lganligi aniq emas, lekin Toshkentning juda qadimiy shahar ekanligi aniq. Shahar hududida tosh asriga oid buyumlar topilgan. Toshkentdagi qabristonlardan birida topilgan haftjush (bronza) ko'zgular, turli mamlakatlarning tangalari va topilgan boshqa daliliy ashyolar shahar tarixining 2200 yildan kam emasligidan darak beradi.

Toshkent shahri haqidagi ilk yozma ma'lumotlar milodning dastlabki asrlariga to'g'ri keladi. Chunonchi, shaharning geografik o'rniga oid ma'lumotlar yunon olimi Klavdiy Ptolemeyning "Geografiyadan qo'llanma" asarida uchraydi. Ptoleme bu asarida Yer sharining obod qismini, ya'ni oykumenani 26 xaritada tasvirlagan. Shu xaritalardan birida O'rta Osiyo va uning atrofidagi o'lkalar ko'rsatilgan. Ana shu xaritada Xitoyga boradigan savdo yo'li ustida, Yaksart (ya'ni, Sirdaryo) havzasining sharqida Terri Lapideya degan joy ko'rsatilgan. Olimlar ana shu yunoncha nomni "Tosh qo'rg'on" deb tarjima qilib, Toshkentga nisbat berganlar.

Toshkent shahrining nomi yozma manbalarda Choch, Chochiston, Shosh, Shoshkent shaklida uchraydi. Choch so'zi ham so'g'd tilida "tosh" demakdir. Shosh esa Choch nomining arabcha shaklidir. Choch yoki Shosh deganda Toshkent xamda uning atroflari tushunilgan. 10-asrda noma'lum muallif tomonidan fors tilida yozib qoldirilgan. "Hudud ul-olam" (Olam chegaralari) asarida bunday deyiladi: "Choch katta viloyat, xalq jangovar, boy va saxiydir. U yerda o'q-yoy tayyorlanadi. Binkat - Chochning poytaxti. Bu katta shahar, ayni vaqtda podshoning karorgoxidir".

Arabinavis olimlardan Istaxriy, Ibn Havqal, Muqaddasiy va boshqalar (IX - X asrlar) Shosh viloyati haqida yozganda uning markazi Binkat shaxri deb ko'rsatganlar. Binkat hozirgi Eskijo'va va Chorsu oralig'ida bo'lgan. Binkat nomi forscha bo'lib, "ko'rimli shahar" demakdir (bin -ko'rinish, ko'zga tashlanish, kat - sug'dcha shahar, qishloq, manzilgoh degan manolarni bildirgan).

Buyuk olim Abu Rayhon Beruniy o'zining "Qonuni Mas'udiy" asarida "Binkat - bu Shoshning poytaxti, turkiy tilda "Toshknd" yunonchadan arabchaga tarjima qilinsa - "Burj al-hijora" (Tosh minora) deb yozilgan. Beruniyning so'zlarini boshqa olimlar ham tasdiqlaganlar. Masalan, buyuk tilshunos Mahmud Qoshg'ariy o'zining "Devonu lug'otit turk" asarida "Tarkan - Shoshning nomi, uning aslnomi Toshkand - toshdan qurilgan shahar demakdir", deb yozgan. Demak, poytaxtimiz nomining "Toshkent"

shakli birinchi bor Beruniy va Mahmud Qoshg'ariy asarlarida uchraydi va shahar boshqa nomlar bilan ham atalgan, nihoyat hozirgi nomi g'olib chiqqan. Toshkent haqidagi ozmi-ko'pmi malumotlar XIU-XIX asrlardagi O'rta Osiyoning siyosiy, harbiy va madaniy hayotidan baxs etuvchi boshqa asarlarda ham qayd etilgan.

Toshkent qadimdan turli xorijiy bosqinchilar tazyiqi va xurujlariga duchor bo'lgan.

VI asrda u turk xoqonligi tarkibida, VIII asr boshlarida esa arablar ta'siriga tushgan. IX-X asrlarda Somoniylar davlati, X asr oxiri - XIII asr boshlarigacha Qoraxoniylar va Qaraxitoylar tarkibida bo'lgan. XIII asr boshida Toshkentni Muhammad Xorazmshoh istilo etgan. Ko'p o'tmay shahar mo'g'ullar ta'siriga tushdi (XIII - XIU asrning birinchi yarmi). Amir Temur hokimiyat tepasiga kelgach (1370 yil) Toshkent shahrida tiklanish ishlari boshlangan.

XUII asr o'rtalarida Toshkent to'rt daha (Sebzor, Ko'kcha, Beshyog'och, Shayxontahur)ga bo'lingan bo'lib, ularning har birini mustaqil hokim boshqargan. Shahar devorining uzunligi 14 km. va unda 12 ta darvoza bo'lgan. Ular: Labzak, Taxtapul, Qorasaroy, Sag'bon, Chig'atoy, Ko'kcha, Samarqand, Kamolon, Beshyogoch, Qo'qon, Qashg'ar, Qo'ymas kabilardir. XIX asrning 30-40 yilarida Toshkentda 40 ga yaqin qabriston, 150 masjid, 26 madrasa, 5000 ga yaqin do'kon, 200 dan ziyod mahalla, 500 chamasi hovuz, 1500 bozor rastalari, 200ga yaqin mavze, (shahar chetlaridagi bog'hovlilil mahallalar) bo'lgan.

XIX asr ikkinchi yarmida (1865yil) Toshkentni podsho Rossiya qo'shinlari bosib olgan edi. 1917 - 1991 yillarda esa uning ijtimoiy-iktisodiy, siyosiy va madaniy hayoti sobik ittifok ta'sirida shakllandi. 1991 yili mustaqillik qaror topgach, Toshkent shahri o'ziga xos ko'rk va nufuzga ega bo'la boshladi. Qisqa yillar ichida shaharda amalga oshirilgan turli sohalardagi ulkan o'zgarishlar, bunyodkorlik ishlari uning mavqei va nufuzini dunyo buylab keng yoyilishiga olib keldi.

Yuqorida qayd etilganidek, 2007 yili Toshkent Islom Konferensiyasi Tashkiloti tomonidan (ISESCO)Islom madaniyati poytaxti deb e'lon qilindi. Uning bugungi me'moriy qiyofasida tarixiylik va zamonaviylik mujassam. Abadiy navqiron shahar deya atalayotgan shahrimiz endilikda dunyoning bir qator yirik poytaxt shaharlari sazovor bo'lgani kabi *megapolis* maqomiga ham egadir.

TOSHKENT SHAHRI TOPONIMLARI.

Hadra - Toshkentdagi hozirgi Hadra maydoni bo'lib, Hadra-chegara, chekka degan manolarni bildiradi. Bo'rjar - ilgari bu yerda bo'ri yoki chiyabo'ri ko'p bo'lgani uchun shu nom berilgan. Taxtapul - bu so'z etimologiyasi taxta - yog'och, pul - fors tilida ko'prik, ya'ni, taxtako'prik degan ma'noni bildiradi.

Qo'yliq - Toshkent shahrining chegarasidagi joy. Professor X.Hasanov Qo'yliqni "Quyilik", "pastlik" deb izohlaydi.

Sag'bon - Ko'kcha dahasi mahallalaridan biri. Sakbon "it boqar" so'zidan olingan deyлади. Keyingi vaqtda Sag'bon arabcha suq - "bozor" va forscha bon - "qarovchi", "boquvchi" ya'ni, Suqbon - "bozor qorovuli" deb izohlanmokka.

Toshkent - hammaga tushunarlidek tuyiladigan bu toponimni kelib chiqishi hamon uzil-kesil hal qilinmagan. Toshkent vohasi (demakki shahar) ilk bor Choch (Chochiston) shaklida Eron shohi ShopurI ning "Zardush kabaasi" da milod boshlarida tilga olingan ; Xitoy manbalarida Shi, Chje-shi, Ta-shi-xan, o'rta asrlarning boshlarida Tarkan, keyinroq Binkat, arab manbalarida Madina ash-Shosh shakllarida qayd qilingan.

Toshkent so'zining etimologiyasi haqida turli fikrlar bayyon etilgan. Shulardan eng ko'p tarqalganlari Toponimning Tosh (arabcha - fijara, yunoncha - petros) so'zi bilan aloqadorligidir: "Toshkent - toshqala" demakdir. Ptolemeyning "Geografiya" kitobida u lififos pitros "Burj ul-xijora" (Tosh kal'a) deb atalgan (Beruniy).

Qashqar - Shayhontahur tumanidagi mahallalardan birining nomi. Bu yerda XIX asr birinchi yarimida Qashg'ardan kelgan qashg'arliklar - uyg'urlar yashagan.

Qoramurt (Qoramurtqopqa) - Shayxontoxur daxasi mavzalaridan birining nomi. Qoramurt o'zbek urug'laridan birining nomi bo'lib, ma'nosi "qora muylovli" demakdir.

ANDIJON VILOYATI

Andijon viloyati 1941 yilda tashkil etilgan, bo'lib Farg'ona vodiysining sharqiy qismida joylashgan. Uning maydoni 4,24 ming km. kv. bo'lib, aholisi - 2,2 mln. kishidan iborat.

Andijon viloyati maydoni nisbatan kichik, lekin aholisi zich joylashgan. Uning maydoni Respublika hududining 1 % ini egallasa-da, bu erda O'zbekiston aholisining qariyb 10% yashaydi.

Tarkibida 14 qishloq tumani (Andijon, Asaka, Baliqchi, Buloqboshi, Bo'z, Jololquduq, Izboskan, Marhamat, Oltinko'l, Paxtaobod, Ulug'nor, Xo'jaobod, Shahrixon, Qo'rg'ontepa), 11 shahar (Andijon, Asaka, Marhamat, Paxtaobod, Oxunboboev, Poytug', Xonobod, Xo'jaobod, Shahrixon, Qorasuv, Qo'rg'ontepa), 5 shaharcha (Andijon, Bo'z, Janubiy Olamushuk, Kuyganyor, Polvontosh) bor. Ma'muriy markazi - Andijon shahri. Andijon - Toshkent shaharlari o'rtasidagi masofa - 450 km.

Viloyatning qisqacha toponomik lug'ati.

Andijon - shahar, Andijon viloyati markazi. X asrdan boshlab arab geograflari Istaxriy, Ibn Havkal, Muqaddasiy asarlarida va boshqa manbalarda *Andiyan*, *Andikon*, *Andukon*, Zahiriddin Bobur asarlarida *Andijon* deb yozilgan.

Turklarning afsonaviy podshosi Afrosiyob shahar qurib, uni o'zining qizi nomi bilan *Odinajon* deb atagan ekan. Boshqa bir rivoyatga ko'ra bir xon bu shaharda xotini qolib ketganidan «Anda qoldi jonim mening» deganidan shahar shunday atalganmish. Boshqa birovlar Andijon so'zini *olti jon* – «olti kishi» degani, deb izohlaydilar.

A.Muhammadjonov fikricha, Andijon toponimi “andi” va “gon, kon yoki jon” so'zlari birikmasidan yuzaga kelgan. Andi – yaqin; gon, kon va jon so'zlari “suv”, “soy” ma'nolarini anglatgan. Demak, Andijon toponimi “soyga yaqin”, “soybo'yi”, “suv yoqasi” ma'nosiga ham ega.

Asaka - shahar, Asaka tumani markazi.

Tarixchi A.Muhammadjonov Asaka aslida Asikal shaklida talaffuz etilib, as-turkiy urug', kal- suv yoki soy demakdir, ya'ni Aslar soyi degan ma'noni anglatgan deydi.

Jig'achi - qishloq, Andijon tumani. Jig'a- sallaga taqiladigan bezak. Jig'ani aksariyat xon va xonzodalar taqqanlar. Jig'achi “jig'a yasovchi ustalar yashaydigan qishloq”, - ma'nosini anglatadi.

Zulfiqor - qishloq. Baliqchi tumani. Zulfiqor xalifa Hazrati Alining afsonaviy qilichi. Zulfiqor degan ism ham bor. Qo'qon yaqinidagi Zulfiqor qishlog'i Qo'qon xoni Xudoyorxon davrida Zulfiqor ismli kishining chek erida paydo bo'lgan.

Musulmonqulariq – Baliqchi tumanida Qoradaryodan chiqarilgan ariq. Ariqni 1842-1852 yillarda Qo'qon xoni Xudoyorxonning qaynotasi Musulmonqul qazdirgan.

Sulduz – qishloq, Andijon tumani. Sulduz XIII - XIV asrlarda Ozarbayjon, Eron, Xuroson va Movarounnahrda yashagan turklashgan mo'g'ul qabilasidir. *Sulduz* urug'i 92 bovli o'zbek “qavmlari” tarkibida qayd qilingan. Sulduz mo'g'ulcha *suldes* “bayroqdorlar” so'zidan olingan: *sulde* “bayroq”, “s” - ko'plik affiksi hisoblanadi.

Yuziya – qishloq, Asaka tumani. *Yuziya* – “yuz qabilasi vakillari yashagan qishloq”.

O'lmas – qishloq, Baliqchi, Izbosgan tumanlari. Qipchoqlarning *o'lmas* degan urug'i bo'lgan.

BUXORO VILOYATI

Buxoro viloyati o'zining maydoni jihatidan mamlakatdagi eng katta viloyatlardan hisoblanib, u 40,3 ming km. kv.ni tashkil etadi. Aholisi 1,5 mln. kishi. O'zbekistonning markaziy va janubi-g'arbiy qismlarida joylashgan. Tarkibida 11 qishloq tumani (Buxoro, Vobkent, Jondor, Kogon, Olot, Peshku, Romitan, Shofirkon, Qorovulbozor, Qorako'l, G'ijduvon), 11 shahar (Buxoro, Vobkent, Gazli, Galaosiyo, Kogon, Olot, Romitan, Shofirkon, Qorako'l, Qoravulbozor, G'ijduvon), 3 shaharcha (Jondor, Zafarobod, Yangibozor). Ma'muriy markazi – Buxoro shahri. Bu shahardan Toshkentgacha bo'lgan masofa – 620 km. Viloyatda 1500 ga yaqin aholi punkti bor.

Buxoro – O‘rta Osiyodagi eng qadimiy shaharlardan biri, Buxoro nomi ilk bor yunon astronomi Klavdiy Ptolomeyning “geografiya” asarida (II asr) uchraydi. Tojikistondagi Mug‘ tog‘idan topilgan sug‘d hujjatlarida (VIII asr boshlarida) esa *Puxar* shaklida tilga olingan.

Hozirgi Buxoro o‘rnida islom dini tarqalishidan bir necha asr oldin shahar bo‘lgan. Shahar xitoy manbalarida dastlab V asrda *Nyumi* shaklida tilga olingan (bu Buxoro nomlaridan biri Numijkat shahrining xitoycha transkripsiyasi). Ko‘pchilik olimlar, jumladan, akademik V.V.Bartold, nemis olimi V.Tomashek *Buxoro* nomi sanskritcha *vixara* so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, “Budda ibodatxonasi” demakdir deb hisoblaganlar. V.V.Bartold Balxda yoki Samarqanddagi kabi, Buxoroning yonginasida ham Budda ibodatxonasi bo‘lgan deydi. Bu olimlar Buxoro ana shu sanskritcha so‘zning turkcha-mo‘g‘ulcha shakli deb hisoblaydilar. Tarixchi Narshaxiy (X asr) Buxoroning *Numijkat* (Lumijkat), *Bumiskat*, *Madinat us-sufriya* - “*Mis shahri*”, *Madinat ut-tujjor* - “Savdogarlar shahri” degan nomlari borligini aytgan; tarixchi davom etib, “Buxoro degan nom u nomlarning hammasidan mashhurroqdir, Huroson shaharlaridan birontasi ham bunchalik ko‘p nomga ega emas, degan. Bir hadisda Buxoro nomi *Foxira* bo‘lib kelgan, chunki, «qiyomat kuni Buxoro shahri o‘zida shahidlarning ko‘pligi bilan faxr qiladi” deyilgan. Xalq orasida Buxoro bog‘lari ko‘pligidan *Bog‘oro* degan ma‘noni bildiradi degan rivoyat ham bor. Tarixchi Hofiz Tanish (XVI asr) yozishicha, “Buxoro” so‘zi- “buxor” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, otashparaslar tilida “ilm makoni” degan ma‘noni bildirishini aytgan.

VILOYATNING QISQACHA TOPONIMIK LUG‘ATI.

Afshona – qishloq, Peshku tumani, Abu Ali Ibn Sinoning tug‘ilgan joyi. Ustrushona (Jizzax bilan O‘ratepa o‘rtasidagi tarixiy viloyat) hokimi afshin deyilgan. Afshona afshin so‘zining ko‘pligi.

Narshax – qishloq, Vobkent tumani. Bu joy Muqanna qo‘zg‘aloni bilan mashhur: VIII asrning 70 – yillarida oq kiyimlilar Muqanna rahbarligida qishloqni mustahkam istehkomga aylantirib, arablarga qaqshatqich zarba beradilar va nihoyat taslim bo‘ladilar. Narshax qishlog‘ida mashhur tarixchi Abu Bakr Muhammad ibn Ja‘far Narshaxiy tug‘ilgan (X asr). Narshax qishlog‘i Narjak deb ham atalgan.

Ovgir – kanal, Jondor tumani. Forscha obgir “suv olinadigan joy”, “hovuz” ma‘nolariga ega.

Regzor – qishloq, Buxoro tumani. Regzor – “qumloq”, “qumli er” ma‘nosiga ega.

Torob – qishloq, Jondor tumani. Tarixiy manbalarda Torob qishlog‘i Buxorodan ham oldin paydo bo‘lganligi qayd qilingan. Qishloq dastlab Narshaxiyning “Buxoro tarixi” asarida tilga olingan. Bu qishloq 1238 yilda dehqon va hunarmandlarning mo‘g‘ullarga va mahalliy mulkdorlarga qarshi ko‘targan qo‘zg‘aloni (Mahmud Torobiy qo‘zg‘aloni) bilan mashhur; Torob – “daryo bo‘yi” demakdir.

Toqisarrofon – Buxoro shahridagi bozor. Toq soʻzi qadimiy meʼmorlik terminlaridan boʻlib, “ravoqli bino” demakdir. Buxoro xonligida usti yopilgan bozor **toq** deyilgan. Masalan, Toqitelpakfurushon – “telpak sotuvchilar bozori”, Toqisarrofon ham ana shunday bozor (rasta)lardan biridir (sarrof – “pul maydalovchi”).

Gʻijduvon – shahar, Gʻijduvon tumani markazi, Narshaxiyning “Buxoro tarixi”da Muqanna (VIII asr) voqeasi munosabati bilan birinchi marta tilga olingan. Boshqa tarixiy manbalarda **Gʻujduvon** (Muqaddasiy) shakllarida ham qayd qilingan. Xalq ogʻzida Gʻijduvon Gʻuji devon – “bir toʻp dev” yoki Gʻuji dehon – “bir toʻp qishloq” demakdir degan rivoyat bor.

Chitgaron – qishloq, Vobkent tumani. Chitgaron – “chitga gul bosuvchi ustalar” demakdir.

JIZZAX VILOYATI

Viloyat 1973 yil tashkil etilgan. Maydoni 21,2 ming km. kv. Aholisi 1 mln. kishini tashkil etadi. Respublikaning markaziy qismida joylashgan. Tarkibida 12 qishloq tumani (Amasoy, Baxmal, Doʻstlik, Jizzax, Zarbdor, Zafarobod, Gʻallaorol, Zomin, Mirzachoʻl, Paxtakor, Forish, Yangiobod); 7 shahar (Gagarin, Dashtobod, Doʻstlik, Jizzax, Marjonbuloq, Paxtakor, Gʻallaorol); 8 shaharcha (Boʻston, Zarbdor, Zafarobod, Zomin, Usmat, Uchquloq, Yangiqishloq, Qoʻytosh) bor. Maʼmuriy markazi - Jizzax shahri. Bu shahardan Toshkentgacha boʻlgan masofa – 205 km.

Hozirgi jizzax viloyati maydonining koʻp qismi miloddan avvalgi bir necha asrdan tortib ilk oʻrta asrlargacha mavjud boʻlgan **Ustrushona** (Istaravshan) tarixiy oʻlkasida boʻlgan; bu togʻli tarixiy viloyat Jizzax shahri bilan (bazi maʼlumotlarga koʻra Tojikistonning Panjakent shahri bilan) hozirgi Xoʻjand shahri oraligʻiga toʻgʻri keladi. Ustrushona xalqi jangovar, mohir xalq boʻlgan, viloyatda meʼmorchilik rivojlangan. Oʻlkada **Dizak** (Jizzax), **Bunjikat** (Panjakent), **Nujkat**, **Zomin** kabi yirik shaharlar boʻlgan. Makedoniyalik Aleksandr (Iskandar Zulqamayn)ga qaqshatqich zarba bergan ettita mustahkam qalʼaning biri – **Gaza** Ustrushona hududida joylashgan.

Viloyatning qisqacha toponimik lugʻati.

Abuz – qishloq, gʻallaorol tumani. Qoʻngʻirot qabilasi (uzlar)ning bir urugʻi **abiz** (aviz) deb atalgan.

Aydarkoʻl – koʻl, Forish tumani. Oldin shoʻrxok keyinroq, Chordara suv omborining suvi va sugʻorishdan chiqqan oqava suvlar toʻplanib, katta koʻl hosil boʻlgan. Mahalliy aholi koʻpincha tepasida tosh uyumli doʻnglikni haydar kokilga oʻxshatib, **aydar** deb keladi.

Arnasoy – koʻl, Amasoy tumani. Xorazmda **arna** katta kanal, Jizzax viloyatida – jar maʼnosiga ega.

Achchi – qishloq, Zomin tumani. Qishloq suvi shoʻr boʻlganidan shunday nom olgan deyishadi (shevalarda **achchiq** oʻrniga **achchi** deyishadi).

Baxmal – qishloq, Baxmal tumani. Baxmal toponimi boshqa yerlarda ham bor. “Duxoba” maʼnosidagi baxmal soʻziga hech aloqasi yoʻq.

Toponimist T.Nafasov qovchinlarning bir urug'i *baxmal* (baqman) deb atalishini yozadi.

Gazaikalon – Zomin tumanidagi tog'. *Gaza* – “tog' qirasi”, “tog' tepasi”, *kalon* – “katta” ma'nolariga ega.

Gumsoy – Zomin tumanidagi soylik. Bu o'rinda *gum* “chuqur, gir-atrofi baland” degani. G'allaorol tumanidagi *Gumsoy* – “chuqur o'zandan oqadigan soy” degani.

Jizzax – shahar, Jizzax viloyati markazi. O'rta Osiyodagi eng qadimiy shaharlardan. Birinchi bor arab geograflari Ibn Havkal va Muqaddasiy asarlarida *Dizak* shaklida tilga olingan: sug'diycha *diz* – “qal'a”, “istehkom”, *-ak* kichraytirish affiksi (cha).

Ko'rpasoy – Jizzax tumani. *Ko'rpa* degan qishloqlar bor. Turkman-o'zbeklarning bir urug'i ko'rpa deb atalgan; qoraqalpoqlarning qtay qabilasi tarkibida ham *ko'rpe* urug'i bo'lgan; *ko'rpa* qadimiy turk tilida *qo'zichoq* degan so'zdir.

Sangzor – Baxmal va G'allaorol tumanlaridagi vodiy va daryo. Sangzor “toshloq” degani.

NAVOIY VILOYATI

Viloyat 1982 yil 20 aprelda tashkil etilgan. Maydoni 110,9 ming km. kv. Aholisi 800 ming kishi. Tarkibida 8 qishloq tumani (Karmana, Konimex, Navbahor, Nurota, Tomdi, Uchquduq, Xatirchi, Qiziltepa), 6 shahar (Zarafshon, Karmana, Navoiy, Nurota, Uchquduq, Qiziltepa), 8 shaharcha (Konimex, Langar, Malikrabod, Muruntov, Tinchlik, Shalqar, Yangirabod, G'ozg'on) bor. Ma'muriy markazi – Navoiy shahri. Navoiy – Toshkent shaharlari orasidagi masofa – 510 km.

Navoiy viloyati – O'zbekistonning eng katta viloyati – Respublika maydonining deyarli $\frac{1}{4}$ qismini egallaydi. Shunga ko'ra, viloyat toponimlar soni jihatidan ham Respublikada oldingi o'rinlarda turadi.

Viloyatdagi *aholi punktlari* – shahar-shaharchalar, qishloq-ovullar soni qariyb 1500 ga yetadi.

Viloyatning qisqacha toponimik lug'ati.

Ayronchi – qishloq, Karmana tumani. Nayman qabilasi tarkibida ayronchi urug'i qayd qilingan. Karmana tumanida *Ayronni* qishlog'i ham bor. Ayronchi, Ayronni (Ayronli) – “ayron urug'ining vakillari yashaydigan qishloq”. Qo'ng'iroq qabilasi tarkibida ham *ayron* urug'i qayd qilingan.

Andoq – qishloq, Xatirchi tumani. Dastlab Yoqut Hamaviyning “Mu'jam ul-buldon” asarida qayd qilingan. Qiziltepa tumanida ham Andoq qishlog'i bor. Zarafshon vohasida *andoq* – “qayir” (poyma) degan ma'noga ega (A.R.Muhammadjonov).

Aristan – qishloq, Tomdi, Konimex tumanlari. Qozoqcha *aristan* – arslon, sher demakdir. Hozirgi O'zbekiston hududida arslon (turkiy) yoki sher (forscha) yoyinki asad (arabcha) bo'lgan emas.

Varq–qishloq, Karmana tumani. Varq (varg‘) sug‘diycha «to‘g‘on» demakdir. Samarqand va Buxoro atroflarida to‘g‘onchilarni varqbon deyishgan.

Zarmitan – qishloq, Qiziltepa tumani. Shu tumanda Zarmitancha degan qishloq ham bor. Mitan (miton) “manzil”, “istehkom”, “qal‘a” demakdir.

Karmana – shahar, Karmana tumani markazi. Rivoyatlarda keltirishicha, arablar Buxoroga kelganda Karmana atroflari erining unumdorligi, suvining sifatiga ko‘ra “Armanistonga o‘xshar ekan, deganlari uchun, Ki-Armaniya” deb nom olgan emish. A.Muhammadjonovning fikricha, Karmana Xarmana shaklida talaffuz etilgan va “Katta saroy” ma‘nosini anglatgan.

Murdash – qishloq, Xatirchi tumani. Murdasho‘y – “g‘assol”, “yuvg‘uchi”, ya‘ni “murda yuvg‘uchi” demakdir.

Navoiy – shahar, Navoiy viloyati markazi. Buyuk o‘zbek shoiri, mutafakkir, davlat va jamoat arbobi Alisher Navoiy nomi bilan atalgan.

Nurota – shahar, Nurota tumani markazi. Shu erdagi tog‘ tizmasi ham shu nom bilan atalgan. Rus adabiyotida Nurota nomi mo‘g‘ulcha *nuru* – “tizma tog‘” va turkiycha *tog‘* so‘zlaridan olingan degan gaplar uchrardi. Aslida Nurota mo‘g‘ullar kelmasdan ancha oldinoq Nur nomi bilan ma‘lum bo‘lgan. Tarixchi Narshaxiy Nur qishlog‘i Buxoro shahri vujudga kelmasdan oldin ham bor edi deb yozgan.

O‘tar – qishloq, Tomdi tumani. O‘tar (ba‘zan otar deyishadi) qo‘y podasi, suruv (“o‘t”, “yaylov” so‘zidan) ma‘nolariga ega.

NAMANGAN VILOYATI

Viloyat Respublikaning sharqiy, Farg‘ona vodiysining shimoliy qismida joylashgan. Maydoni 7,44 ming km. kv. Aholisi 2 mln. kishi. Tarkibida 11 qishloq tumani (Kosonsoy, Mingbuloq, Chortoq, Chust, Namangan, Norin, Pop, To‘raqo‘rg‘on, Uychi, Uchqo‘rg‘on, Yangiqo‘rg‘on), 8 shahar (Namangan, Kosonsoy, Pop, To‘raqo‘rg‘on, Uchqo‘rg‘on, Chortoq, Chust, Haqqulobod), 12 shaharcha (Jomasho‘y, Ittifoq, Navbahor, Oltinkon, Oqtosh, Toshbuloq, Uychi, Uyg‘ursoy, Chorkesar, O‘nhayot, Xalqabod, Yangiqo‘rg‘on). Ma‘muriy markazi – Namangan shahri. Namangandan Toshkentgacha – 435 km.

Viloyatning qisqacha toponimik lug‘ati.

Axsikat – Farg‘ona vodiysidagi qadimiy shahar, Namangan tumani-dagi Aysi qishlog‘i yonida bo‘lgan.

O‘rta asrlarga oid “Hudud ul-olam” asarida “Axsikat – Farg‘ona poytaxti, amirlar va vazirlar qarorgohi” deyilgan. Shahar XVI asrdan so‘ng xarobaga aylangan. Bu joy esa hozir eski Aysi deb ataladi. Sug‘dshunoslarning fikricha, Axsikat (Xshikat) “oq shahar” demakdir.

Bo'ston – qishloq, Kosonsoy, Namangan, Uychi, Uchqo'rg'on, Mingbuloq tumanlari. "Yashnagan bog'", Bog'-rog' ma'nolariga ega. Dashti Qipchoq o'zbeklari va qozoqlar tarkibida ham bo'ston urug'i bo'lgan.

Kosonsoy – qishloq, Kosonsoy tumani markazi. Ilgarilari Koson deb atalgan. Milodning boshlarida Farg'onadagi Koson shahri, ya'ni Kosonsoy Farg'onaning siyosiy markazi edi. VIII asr oxiri - IX asr boshlarida Koson Farg'ona podsholarining poytaxti bo'lgan. Koson arab geograflaridan Istaxriy, Ibn Havqal, Muqaddasiy asarlarida qayd qilingan. Koson nomi aslida kas (kat) "qishloq" so'zidan olingan.

Namangan – shahar, Namangan viloyati markazi. Birinchi marta "Boburnoma"da tilga olingan. Shahar nomini Namakkon – "tuz koni", nomiyan – "aziz va nomdor shahar", namang – "marjon (koni)" deb izohlashgan. Aslida "nav+man+gon" so'zlari birikmasidan yuzaga kelgan. Nav – "yangi", man- "saroy" va g'on, kon, gon – "suv" yoki "soy" demakdir.

Professor H. Hasanov gon komponentini "daryo, suv" deb taxmin qilib, Namanganni "sho'rsuv", "mineral suv", "moyli suv" kabi ma'nolarga ham egaligi haqida fikr bildirgan.

Norinkapa - qishloq, Uchqo'rg'on tumani. Norin daryosi nomi bilan bog'liq bo'lsa kerak deyiladi.

Norin toponomist E.M.Murzaev fikricha, "serquyosh, oftobro'y" degan ma'noni bildiradi. Shu bilan birga norin degan etnonim ham ma'lum: o'zbeklarning laqay, yuz qabilalari, shuningdek, Farg'ona qipchoqlari tarkibida norin urug'i qayd qilingan.

Pop – shahar, Pop tumani markazi. Dastlab qadimgi manbalarda bob shaklida tilga olgan. Keyinroq esa pop deb aytila boshlangan. **Bob** – arabcha "darvoza" degani.

Chortoq – shahar. Chortoq tumani markazi; tog' orasida bo'lgani uchun "chir atrofi (chor atrofi) tog'" deb nom olgan, degan fikr bor. Aslida chortoq – chor(to'rt) va toq (ark, gumbaz) so'zlaridan tarkib topgan bo'lib, "to'rt go'shali" degan ma'noni ham anglatadi.

SAMARQAND VILOYATI

Samarqand viloyati respublikaning markaziy qismida joylashgan. Maydoni 16,77 ming km. kv. Aholisi 2,7 mln. kishini tashkil etadi. Tarkibida 14 tuman (Bulung'ur, Jomboy, Ishtixon, Kattaqo'rg'on, Narpay, Nurobod, Oqdaryo, Payariq, Pstdarg'om, Paxtachi, Samarqand, Toyloq, Urgut, Qo'shrobot), 11 shahar (Samarqand Bulung'ur Jomboy, Juma, Ishtixon, Kattaqo'rg'on, Mirobod, Oqtosh, Payyariq, Chelak, Urgut), 12 shaharcha (Dahbet, Ziyovuddin, Ingichka, Kimyogarlar, Loyish, Mitan, Mirbozor, Payshanba, Suv hovuzi, Farhod, Xishrov, Charxin) bor. Ma'muriy markazi - Samarqand shahri. Samarqanddan Toshkentgacha masofa – 350 km.

Samarqand – O'rta Osiyodagi eng qadimiy shaharlardan biri. Shahar nomining etimologiyasi to'la aniqlangan emas. Shahar Iskandar Zurqamaynning harbiy yurishlari munosabati bilan Yunon solnomalarida

miloddan avvalgi 329 yilda Marokanda nomi bilan tilga olingan. Turli davrlardagi tarixiy manbalarda shahar nomining *Samariana, Saramanka, Sakanna, Sanmangen, Samakiyan, Sunron, Shamirkent, Samaran, Simroyat*, VIII asr boshlariga oid sugʻd hujjatlarida Smarakansa, VIII asrda venesiyalik sayyoh Marko Poloning “Kitobi”da *Sanmarkan* shakllarida tilga olingan. sanskritcha Samarya – “yigʻin”, “anjuman” soʻzidan olingan, deb aytganlar. **Samariya** – qadimgi sanskritcha “chorraha”, “savdo yoʻllari kesishadigan joy”, “savdogarlar uchrashadigan joy” degan maʼnolarni ham bildiradi.

.Biroq **Samarqand** atamasi turkiyda “boy”, “obod shahar”, degan mazmunni ifoda etishini Abu Rayhon Beruniy, Mahmud Qoshgʻariy, Bobur asarlaridagina emas, balki tarixchi Mirxondning “Ravzat us safo”sida, XV asrda Amir Temur saroyiga kelgan ispan elchisi Rui Gonsales de Klavixoning kundalik daftarida ham qayd qilingan.

Samarqand insoniyat qadimgi madaniyatining jahonga mashhur oʻchoqlari – Bobil, Afina va Rim kabi Samarqand ham koʻp asrlik boy tarixga ega, Sharqning eng koʻhna shaharlaridan biri boʻlib, jahon tamadduni, Gʻarbu Sharqni birlashtirib turuvchi Buyuk ipak yoʻlining rivojiga salmoqli hissa qoʻshgan, oʻzbek davlatchiligining shakllanishida oʻziga xos poydevor vazifasini oʻtagan shahardir. Oʻrta asrlarda u “Zamin sayqali”, “Musulmon dunyosining gavhari”, “Firdavsmonand shahar” deb ulugʻlangan.

2007 yili shaharning 2750 yilligini xalqaro miqyosda nishonlandi. Oʻtgan 27,5 asr davomida shahar aholisi koʻp hodisa-voqealarni boshidan kechirdi. Samarqand Iskandar Zulqarnayning sonsiz suvoriylarini koʻrdi, arablar bosqinini boshidan kechirdi, shaharni Chingizxonning vahshiy qoʻshinlari vayron qildi. Samarqandni dunyoni poytaxti qilmoqchi boʻlgan Amir Temur oʻzining koʻp sonli lashkarlarini shu shaharda toʻplagan.

Hozirgi kunda shahar oʻzining qulay tabiati, tarixiy yodgorliklari, mehmondoʻst aholisi hamda noz-neʼmatlari bilan yurtimizning koʻrki boʻlib, dunyo ardogʻidadir.

VILOYATNING QISQACHA TOPONIMIK LUGʻATI.

Arlot - qishloq, Ishtixon tumani. Arlot – Chingizxon oʻgʻli Ugedeyga taqdim etgan 4 ta moʻgʻul qabilasidan biridir. Bu qabila Afgʻonistonning shimoliy qismiga oʻtmashib qolgan. Movarounnahrda Arlotlar kam boʻlsa ham nufuzli qabilalardan hisoblangan. Arlot qabilasi 92 boʻvli oʻzbek “qavmlari” orasida koʻplab tarixiy manbalarda tilga olingan. Qabila oʻllot, oʻlot shakllarida ham talaffuz qilingan.

Afrosiyob – Qadimgi Samarqand shahrining vayronasi. Ilgarilari Histori koʻhna, Qoʻrgʻoni qadim deb atalar edi. XVII-XVIII asrlardan Tali Afrosiyob (Afrosiyob tepaligi) deb atala boshlandi. Xalq uni Firdavsiyning “Shohnoma”sida tasvirlangan va Rustanga qarshi chiqqan Turon shohi Afrosiyob (Frasyan, Frasiab), yani Alp Ertunga nomi inʼikosidir deydi.

Biroq ko'pgina olimlar tepalikning sug'dcha nomi Parshavap bo'lgan, tojikchada esa Afroz-siyoh-ob, Qorasuv yani "Siyob ustidagi joy" deb atalgan va qisqarib Afrosiyob, ya'ni "siyob bo'ylari" bo'lib ketgan deyishadi.

Zarafshon – Tojikiston va O'zbekiston Respublikalari hududidagi daryo. Tarixiy manbalarda turli nomlar bilan atalgan. Dastlab "Avesto" yodgorliklarida Daytiya shaklida tilga olingan. Mutaxassislar bu nomni "xosiyatli suv", "muqaddas suv" deb izohlaydilar. Yunonlar Daytiya so'zini tarjima qilib Politimet – "ko'p xosiyatli suv", "o'ta muqaddas suv", deb ataganlar. Sug'd tilida daryoning Sug'd, Jirt, Jom, Somjan nomlari ham ma'lum (jan-jon sug'dcha "ko'l", "suv manbai"); pahlaviy Nomiq ("mashhur", "xosiyatli", "muqaddas"), fors tilidagi manbalarda Rudi, Mosaf, Rudi Sharg' deyilgan; arabcha manbalarda Haramkom (arabcha haram – "muqaddas").

"Bobumoma" da Obi Ko'hak, keyinroq Daryoi Ko'hak (Ko'hak – Samarqand shahri yaqinidagi Cho'ponota tepaligi), XVIII asrdan – Zarafshon deb atalgan.

Daryoning hozirgi nomining ma'nosi to'grisida turli fikrlar bor. Ba'zilar daryo tilla baravar obi hayot keltirgani uchun daryo Zarafshon deb atalgan deydilar. Tadqiqotchi olim S.Qoraevning fikricha **Zarafshon** – "zar sochuvchi" daryo demakdir.

Ishtixon – shahar, Ishtixon tumani markazi. X asrdayoq kattagina shahar bo'lgan, arab geograflaridan Istahriy, Ibn Havqal, Muqaddasiy asarlarida, "Hudud ul – olam"da tilga olingan. Ishtixondan Samarqandgacha quvurda keltirilgan qimizni xon tatib ko'rgan, "Ichdi xon" deganidan ishtixon bo'lib ketgan emish. Tarixchi O.I.Smimovanning fikricha, ishtixon nomi sug'dcha "Sakkiz ariqli", "sakkiz kanalli" ma'nosini bildiradi (Isht-xasht- "sakkiz", xon-kan-"kanal").

Kamongaron – qishloq, Urgut tumani. "Kamon ustalari" demakdir.

Miyonkol – Zarafshonning ikki tarmog'i, ya'ni Oqdaryo bilan Qoradaryo oraliqidagi obod hudud. Arab geograflaridan Istahriy, Muqaddasiy asarlarida tilga olingan. Ba'zan Miyonkolot deb ham atalgan: miyon-"o'rtalik", "oraliq", kol qadimiy fors tilida "kanal, daryo", ot-arabcha ko'plik affiksi, toponomiyada esa shu joyning tevarak-atrofini ham bildiradi.

Dahbed – Oqdaryo tumanidagi qishloq. Tojikcha – dah – o'n, bed-tol, ya'ni o'n tol degani.

So'g'd, So'g'diyona – Zarafshon va Qashqadaryo vohalarini o'z ichiga olgan tarixiy o'lka. Ko'pgina tadqiqotchilar fikricha "so'g'd" so'zi umumeron tillariga xos "sux" so'zidan olingan bo'lib "yaltiramoq", "yonmoq", "nur sochmoq" deganidir. O.I.Smimovanning ta'kidicha tojikcha "sug'ud"- "sersuv obod joy" degani.

Chelak – Payariq tumanidagi shaharcha. Chelakli urug'ining nomidan olingan.

SIRDARYO VILOYATI

Sirdaryo viloyati shimoldan Qozog'iston Respublikasi, sharqdan Toshkent viloyati, janubdan Tojikiston Respublikasi va g'arbdan Jizzax viloyati bilan chegaradosh. Maydoni 5,3 ming km. kv. Aholisi 670 ming kishi. Tarkibida 8 tuman (Boyovut, Guliston, Mirzaobod, Oqoltin, Sayxunobod, Sardoba, Sirdaryo, Xovos), 5 shahar (Guliston, Sirdaryo, Shirin, Baxt, Yangier), 6 shaharcha (Boyovut, Dehqonobod, Do'stlik, Paxtaobod, Sayxun, Xovos) bor. Ma'muriy markazi – Guliston shahri. Gulistondan Toshkentgacha masofa – 120 km.

Viloyatning qisqacha toponimik lug'ati

Boyovut – qishloq, Boyovut tumani. Boyovut – qadimgi mo'g'ul qabilalaridan biri. Shuningdek, boyovut 92 bo'li o'zbek urug'laridan biri sifatida, chunonchi, XVI asrdayoq Mulla Sayfiddin Axsikandiyning «Majmu at-tavorix» asarida qayd qilingan. Yuz qabilasining bir urug'i ham boyovut deb atalgan. Boyovut mo'g'ul tilida «boylar» demakdir.

Malik – qishloq, Sirdaryo tumani. Malik nomi cho'li malik – «bepoyon cho'l», «katta cho'l», «sulton cho'l» kabi ma'nolarni anglatgan.

Sayxunobod - qishloq, Sayxunobod tumani markazi. Qishloq nomi. Sirdaryoning arabcha nomi Sayxun so'zidan olingan.

To'qboy – qishloq, Xovos tumani. To'qboy – Yuz qabilasining bir urug'i nomi.

Usmonobod – qishloq, Boyovut tumani. Mashhur davlat arbobi Usmon Yusupov (1900-1966) nomiga qo'yilgan qishloq. U.Yusupov shu tumandagi «Boyovut» xo'jaligida bir necha yil direktor bo'lib ishlagan.

SURXONDARYO VILOYATI

Surxondaryo viloyatining maydoni 20,1 km. kv. Aholisi 1,8 mln. Kishidan iborat. Tarkibida 14 qishloq tumani (Angor, Bandixon, Boysun, Denov, Jarqo'rg'on, Muzrabot, Oltinsoy, Sariosiyo, Termiz, Uzun, Sherobod, Sho'rchi, Qiziriq, Qumqo'rg'on), 8 shahar (Boysun, Denov, Jarqo'rg'on, Termiz, Sharg'un, Sherobod, Sho'rchi, Qumqo'rg'on), 7 shaharcha (Angor, Do'stlik, Kakaydi, Sariosiyo, Sariq, Elbayon bekati, Hurriyat) bor.

Ma'muriy markazi - Termiz shahri. Toshkentdan Termizgacha bo'lgan masofa – 780 km.

Viloyatning qisqacha toponomik lug'ati

Baxshitepa - qishloq, Sho'rchi tumani. Baxshi so'zi sankritcha "Budda qalandari" demakdir. Bu so'z turli davrlarda turli joylarda "mirzo, kotib, katta amaldor, noib, jarroh, nozir, ovchi" ma'nolarini anglatgan. Hozirgi o'zbek tilida baxshi: 1) badihago'y oqin; 2) emchi, shaman, sehrgar kabi ma'nolariga anglatadi.

Bodava – qishloq, Denov tumani. Bodhavo – "sershamol havo, "badhavo – "havosi yomon", "havosi yoqimsiz" deganidir.

Boybo'ri – qishloq, Surxondaryo tumani. "Alpomish" dostoni qahramonlaridan biri Boybo'ri nomi bilan bog'liq.

Denov – shahri, Denov tumani markazi. Dastlab Sh.A.Yazdiyning “Zafamoma “ sida tilga olingan. Bobur zamonida Chag‘oniyon deb ham atalgan. Dehi nav – “yangi qishloq” degani.

Obishir – qishloq, Sho‘rchi tumani. Forscha “sutga o‘xshagan oq rangli suv “ma‘nosida. Sutlibuloq, Sutbuloq degan joylar bor. Obshor esa – sharshara.

Surxondaryo – asli Surxob – “qizil suv“ bo‘lib, keyinchalik o‘zgarib ketgan. Chunki daryoning bosh tomoni (Denov shahrigacha) Qizilsuv deb ataladi. Daryo surx urug‘i nomi bilan atalgan bo‘lishi ham mumkin. Surxandaryo o‘rta asrlarda Chag‘onrud (qishloq), arab geograflari asarlarida Sag‘onrud (vodiy esa Chag‘oniyon – Sag‘oniyon, O‘zbekiston janubi – Afg‘oniston) deb atalgan.

Chag‘oniyon – Surxandaryo vodiysining o‘rta asrlardagi nomi. Dastlab “ Hudud ul – olam”da qayd qilingan. Arab geograflari asarlarida (XI-XII asrlar) Sag‘oniyon shaklida uchraydi. Surxandaryo vodiysining bosh shahri ham Chag‘oniyon (forscha manbalarda) deb atalgan. Sag‘oniyon shahri hozirgi Denov shahri yaqinida bo‘lgan.

Sherobod – shahar, Sherobod tuman markazi (Sheroboddaryo Sherobod qishlog‘i nomi bilan atalgan). Shahar XVIII asrda Ubaydullaxonning noibi, qo‘ng‘irot urug‘idan bo‘lgan Sherali tomonidan qurilganligi uchun shunday atalgan (V.V. Bartold).

TOSHKENT VILOYATI

Toshkent viloyati Respublikaning shimoli-sharqida joylashgan. Shimol va shimoli- g‘arbdan Qozog‘iston Respublikasi, shimoli- sharqdan Qirg‘iziston Respublikasi, Sharqdan Namangan viloyati, janubdan Tojikiston Respublikasi, janubi-g‘arbdan Sirdaryo viloyati bilan chegaradosh. Maydoni 15,6 ming km. kv. aholisi 2,5 mln. kishi. Tarkibida 15 tuman (Bekobod, Bo‘ka, Bo‘stonliq, Zangiota, Oqqo‘rg‘on, Ohangaron, Parkent, Piskent, Toshkent, Chinoz, Yuqori Chirchiq, Yangiyo‘l, O‘rta Chirchiq, Qibray, Quyi Chirchiq), 17 shahar, 18 shaharcha bor.

Toshkent (Toshkand)deganda hozirgi O‘zbekiston Respublikasining poytaxti hisoblangan katta shahargina emas, balki shu nomdagi tarixiy-madaniy mintaqa, ulkan hudud, davlat ham tushunilgan. Shu bilan birga shahar hamda tevarak-atrof mintaqa tarixiy davrlar davomida turlicha nomlar bilan atalib kelgan. Toshkent vohasining eng qadimiy nomi Choch (Chochiston) ilk bor 262 yilda Eron podshosi Shopur Ining “Zardusht Ka‘basi” qoyasidagi yozuvida “Ko‘hi Choch”(“Choch tog‘i”) tarzida qayd qilingan. Choch arabcha yozma manbalarda Shosh shaklini olgan. Shahar va atrof-hududning Toshkand deb atala boshlaganiga o‘n asrdan oshdi. Choch milodning dastlabki asrlarida Qang‘ (Qanguy) davlati tarkibiga kirgan, bir necha asr davomida esa eftaliylar davlati tarkibida bo‘lgan, VI asr oxirlarida Turk xoqonligi eftallarni tor-mor qilib, Movarounnahr bilan birga Chochni ham o‘z tasarrufiga oladi.

Yozma manbalarda Toshkent shahri va viloyati haqidagi ma'lumotlar ikki ming yildan ortiqroq davrni o'z ichiga oladi. Miloddan avvalgi Sharq manbalarida Toshkent vohasi Yuni deb atalgan va Qang'uy davlati tarkibiga kiradi deb yozilgan. Vohaning markazi ham Yuni shahri deb nomlangan. Shu tariqa Toshkent vohasining eng qadimgi nomi Choch bo'lgan.

Toshkent o'lkasi Xitoy manbalarida Shi – "tosh" deb, arab manbalarida Shosh deb transkripsiya qilingan.

Viloyatning qisqacha toponomik lug'ati.

Angren - viloyat tasarrufidagi shahar. Angren bu Ohangaron- "temirchilar" so'zining buzilgan shakli. Ko'plar buni ruscha talaffuz oqibati deyishadi.

Arashon - Ohangaron daryosining irmog'i. Gidronim sanskritcha rasayana so'zidan kelib chiqqan bo'lib, "obi hayot", "xudolar ozig'i" demakdir. Arashon shifobaxsh issiq suvli buloqlardan iborat.

Arg'inchi- qishloq, Yuqori Chirchiq tumani, o'zbeklar, qozoqlar va boshqa turkiy xalqlar tarkibiga kirgan qabila - arg'in. Arg'inchi- "arg'in qabilasi vakili", "arg'inlik" demakdir.

Bo'ka - shahar, Bo'ka tumani. Qadimgi turkiy tilida bo'ka - "pahlavon", bo'ka degan urug' ham bo'lgan, masalan, o'zbek qanglilarning bo'ka - qangli urug'i qayd qilingan.

Bo'rijar - Toshkentdan o'tgan ariq, Anhor kanalining davomi. Ilgari Chiyabo'ri ko'p bo'lganidan Bo'rijar deb atalgan degan fikr bor.

Burchmulla - qishloq, Bo'stonliq tumani. Burj - istehkom devorining burchaklari yoki burchak oralig'idagi minora, akademik A. Muhammadjonov fikricha, mo'la ham "minora" ma'nosini bildiradi.

Keles - (Kalas)- daryo, Sirdaryoning o'ng irmog'i. Qozoq toponomisti E Qo'ychiboev fikricha, keles-"til suv", "uzun suv" degani.

Obirahmat - qishloq, Bo'stonliq tumani. Qishloq yonida shifobaxsh buloq bor. Obirahmat "Rahmat suvi" demakdir.

Ohangaron - daryo, Sirdaryoning o'ng irmog'i. Mo'g'ullar kelmasidan ilgari manbalarda Iloq daryosi deb atalgan. Bu vodiya qadimdan temirchilik rivojlangani uchun daryo Ohangaron - «Temirchilar» deya nomlangan.

Chatqol - daryo, Chorvoq suv ombori qurilgunga qadar Chirchiq daryosining bosh irmoqlaridan biri bo'lgan. Chatqol - "notekis er, dara," qirg'izcha chatqol - " ikki tog' orasidagi dara, soylik" deganidir.

Yangiyo'l - shahar. Oldingi nomi Qovunchi; *qovchin* etnonimi qovunchi bo'lib ketgan bo'lishi mumkin.

Qanqa - Oqqo'rg'on tumanidagi qishloq. Miloddan avvalgi II asrdan milodiy IV asrgacha Sirdaryo bo'yida mavjud bo'lgan Qang' (Qanguy) davlati bosh shahri olingan. Yana Qanqa tepa degan tepalik ham mavjud.

G'azalkent - shahar, Bo'stonliq tumani markazi. H. Hasanovning fikricha G'azalkent toponimi g'izol - "Ohu" so'zidan kelib chiqqan.

FARG'ONA VILOYATI

Farg'ona viloyati mamlakatimizning sharqida, Farg'ona vodiysining janubiy qismida joylashgan. Maydoni 6,76 ming km.kv. Aholisi 3 mln. kishini tashkil etadi. Tarkibida 15 qishloq tumani (Bag'dod, Beshariq, Buvayda, Dang'ara, Yozyovon, Oltiariq, Oxunboboev, Rishton, So'x, Toshloq, Uchko'prik, Farg'ona, Furqat, O'zbekiston, Quva), 9 shahar (Beshariq, Marg'ilon, Rishton, Farg'ona, Yaypan, Quva, Quvasoy, Qo'qon, Hamza), 10 shaharcha (Bag'dod, Dang'ara, Do'stlik, Yozyovon, Muqimiy, Oltiariq, Toshloq, Chimyon, Sho'rsuv, Yangi Mang'il bor. Ma'muriy markazi - Farg'ona shahri. Farg'on - Toshkent shaharlari oralig'i - 420 km.

Vviloyatning qisqacha toponomik lug'ati.

Akbarobod - qishloq, Quva tumani. Qo'qon xoni Xudoyorxonning nabirasi Akbarali nomi bilan atalgan.

Arziqtepa - qishloq, Dang'ara tumani. Ganchga o'xshash oq tuproq arziq deyiladi. Arziq termini rus adabiyotiga ham kirgan. Ko'chmanchilar tarkibida va mang'it qabilasi tarkibida arzuq degan urug' qayd qilingan.

Bachkir - qishloq, Uchko'prik tumani. Mahaliy aholi orasida bostirib kelgan dushmanni "bos, qir" so'zlaridan tarkib topgan degan rivoyat tarqalgan. Asli etnonim, o'zbek qipchoqlarining boshqir (boshqirt) degan urug'i bo'lgan.

Marg'ilon - shahar, dastlab arab geogriflaridan Muqaddasiy asarida, so'ngra "Bobumoma" da Marg'inon shaklida tilga olingan, Marg'inot shakli ham uchraydi. Samarqand yaqinida Marg'ilontepa degan qishloq va ariq bo'lgan. Etimologiyasi aniq ma'lum emas. Har holda Marg' («o'tloq», «ko'kalamzor») ma'nosini anglatadi.

Farg'ona - qadimiy nomalardan biri. Farg'ona nomi dastlab Mug'tog'idan topilgan (VIII asr boshlari) sug'd hujjatlarida, so'ngra Tabariy tarixida (IX - X asrlar), Istaxriy, Ibn Havqal, Muqaddasiy asarlarda viloyat nomi sifatida qayd qilingan.

Shahar 1887 yilda qurilgan. 1907 yilgacha **Yangi Marg'ilon** (mahalliy xalq orasida **Sim**) deb yuritilgan. 1907 yildan 1924 yilgacha Rossiya podsholigi bosqinchi generali Skobelev nomi bilan (mahalliy aholi talaffuzida **Iskobil**) atalgan, 1924 yildan-Farg'ona. Ba'zi rivoyatlarga ko'ra, Farg'onani Anushirvon (Nushirvon) obod qilgan ekan. U bu erga har bir joydan bittadan qabila vakili olib kelgan. Turli joylardan kelgan kishilar imoratlar qurib, ekinlar ekkan. Bu kishilar Azhar xona - "har xonadondan (kelganlar)" deb nom olgan. Shu so'zlardan Farg'ona nomi kelib chiqqan ekan. Bu kabi rivoyatlar ko'pgina yozma yodgorliklarda ham keltirib o'tilgan.

Sug'd hujjatlarini tadqiq qilgan mutaxassislar toponimning qadimiy shakli Far(a)g'ona yoki Farag'ona bo'lganini aniqladilar va yunon tarixchisi Gerodot asarlarida tilga olingan **parikaniya** xalqi nomi bilan atalgan degan

fikmi noo'rin deb hisoblaydilar. Farg'ona *parkana* ("atrofi berk vodi") so'zidan nom olgan deyish haqiqatga yaqindir.

Quva – shahar. Dastlab "Hudud ul-olam"da, so'ngra arab geograflaridan Istaxriy, Ibn Havqal, Muqaddasiy asarlarida *Quba* shaklida qayd qilingan. O'rta asrlarda *Quva* alohida viloyat poytaxti bo'lgan va Farg'onada Axsikatdan keyin ikkinchi shahar hisoblangan. "Bobumoma"da *Qubo* shaklida tilga olingan. Etimologiyasi aniq emas.

Lekin *quba* (quva) degan etnonim bo'lgan. Etnograf K.Sh.Shoniyozov o'rta asrlarda qipchoqlar tarkibida mustaqil quba (quva) qabilasi bo'lgan deydi. *Quba* (quva)- umumturkiy etnonimdir.

Qo'qon - qadimiy shahar. Dastlab "Hudud ul-olam"da ("Xo'qand-Xuvoqand- xalq zich yashaydigan shaharcha"), so'ngra arab geograflaridan Istaxriy, Ibn Havqal, Muqaddasiy asarlarida Xo'qand (Xuvoqand) va Xuqand (Xuvoqand) shakllarida qayd qilingan, "Bobumoma"da Xo'qon o'rchini (tumani) tilga olingan. Hozirgi Qo'qon shahri tarixiy Xo'qand o'rnida XVIII asr boshlarida o'zbeklarning *ning* urug'i boshlig'i Shohruh tomonidan barpo etilgan. V.V.Bartold shahar nomining adabiy jihatdan to'g'ri shakli *Xo'qand* bo'lib, *Qo'qon* jonli tilda talaffuz etilishidir, deb hisoblaydi.

XORAZM VILOYATI

Xorazm - mamlakatning shimoli-g'arbida joylashgan, qadimiy sug'orish madaniyatiga ega bo'lgan ko'hna viloyatlardan. Maydoni 1120 km.kv. Aholisi 1,4 mln. kishi. Tarkibida 10 qishloq tumani (Bog'ot, Gurlan, Urganch, Xiva, Xonqa Shovot, Yangianiq, Yangibozor, Qo'shko'pir, Xazorasp), 3 shahar (Pitnak, Urganch, Xiva), 7 shaharcha (Gurlan, Xonqa, Chalish, Shovot, Yangibozor, Qo'shko'pir, Hazorasp) bor. Ma'muriy markazi - Urganch shahri. Urganchdan Toshkentgacha masofa - 1120 km.

Viloyatning qisqacha toponomik lug'ati

Amudaryo – Xorazm viloyatining yagona daryosi. Yunon mualliflari asarlarida *Oks* (Oksos) deb yozilgan. Daryoning *Arang*, *Raxa*, *Ranxa*, *Aranxa* degan qadimiy nomlari ham bor. Mahalliy aholi *O'kuz*, arablar *Jayhun* deb atagan.

Ba'zi birovlar bu nom Tavrotda hikoya qilingan *Gixon* daryosiga nisbat berib qo'yilgan deydilar. V.V.Bartold esa arablar *Jahxun* va *Sayxun* nomlarini Shimoliy Suriyadagi *Jayxon* va *Sayxon* daryolari nomi bilan atashgan bo'lsa kerak, deydi. Tarixchi Gardiziy *Jayxun* har qanday katta daryo uchun turdosh ot degan edi. Haqiqatdan ham Zarafshon vodiysida bir aniq *Jayhun* deb atalgan.

Amudaryoning qadimgi eroniy nomi *Vaxsh* (Vaxshob) bo'lgan; daryoning yirik irmoqlaridan biri hozir ham *Vaxsh* deb ataladi. Abu Rayhon Beruniy Vaxsh xorazmliklarda suv xudosi parisi – malak nomi deb yozgan.

Amudaryoning hozirgi nomi o'rta asrlarda (VI asrdan) *Omul* (Omuy, Omuya) shahri nomidan olingan deyishadi; bu so'z oriylardan ham oldingi *amard* xalqi nomidan kelib chiqqan bo'lsa kerak, deydi V.V.Bartold.

Olimlar *Oks* (ba'zan *Akes*) Amudaryoning qadimiy turkiy nomi O'kuz so'zining o'zginasi ekanligini aniqladilar. Amudaryoning shohobchalaridan biri hozir ham *O'kuz* deb ataladi (*o'kuz* so'zining asl ma'nosi "daryo" demakdir).

Ichanqala – Xiva shahrining qadimiy markaziy qismi; *Ichanqala* – "ichki shahar" degani. *Dishanqala* esa XVII-X- VIII asrlarda Ichanqala atrofida bunyod etilgan «tashqi shahar»dir. Xorazmdan boshqa erlarda shahaming ichki qismi arabcha *madina* yoki *shahriston* yoinki *darun* ("ichki shahar"), tashqi qismi esa rabod, berun («tashqi qunoq») deb atalib kelgan.

Mo'lton - qishloq, Yangiariq tumani. O'rta Osiyo lo'lilari mo'ltoni ham deyiladi. Mo'lton - Pokistonning shimoliy - g'arbiy qismidagi shahar, qadimda bu shahar Eron bilan Turon orasidagi Karvon yo'li yoqasida bo'lgan va lo'lilar shu erdan O'rta Osiyoga o'tgan. Mo'lton- "lo'liqishloq".

Xonobod - Xorazm viloyatidagi kanal. Kanal Xorazm xoni Muhammad Amin (1846-1855 yillar) davrida qurilgan va xon sharafiga shunday deb atalgan.

Xonqa - shaharcha, Xonqa tumani markazi. *Xonqa xonaqoh*- "zixrona" so'zidan olingan; Xonqa X asrda *Darxos* deb atalgan. V.V.Bartold *xonaqoh* forscha *xona* so'zining sug'diylar tilida talaffuz qilinishidir degan.

Xorazm - O'rta Osiyodagi eng qadimiy nomlardan biri. Zardushtiy-larning muqaddas kitobi "Avesto"da *Xvairizam*, qadimgi fors tili yozuvlarida *Xuvarazmi*, miloddan qariyb VI asr muqaddam ijod qilgan miletlik Gekatey asarida *Xorasmiya* shaklida tilga olingan. Gerodot bu ma'lumotlami yanada to'ldirgan. Xorazm arabnavis geograflar asarlarida xorazmiy tilida *Xvarizm* shaklida qayd qilingan.

Xorazm so'zining ma'nosi haqida bir qancha fikrlar bor. O'rta asr arab geograflaridan Muqaddasiy va Yoqut Hamaviy asarlarida Xorazm so'zining kelib chiqishi haqida bir rivoyat keltirilgan: podsho jahl bilan o'z fuqarolaridan bir qanchasini kimsasiz uzoq o'lkaga badarg'a qilishni buyuradi, lekin u erda o'tin va go'sht (ya'ni, Amudaryoda baliq) ko'p edi. Musofirlar bu o'lkani obod qildilar va Xorazm deb atadilar (*xvar* – «go'sht», *razm* – «o'tin»).

Sug'dshunos olim M.N.Bogolyubov fikriga ko'ra, Xorazm uch tarkibiy qismdan iborat: *xu* – var (vara) - *zim*. *Var* (vara) qadimgi xorazmiy tilda "devor", "marza", "g'ov", "qal'a", "qo'ra, xu – «yaxshi», binobarin Xorazm «yaxshi qo'rali o'lka», "ajoyib qal'alari bor diyor", degan ma'noni anglatadi.

«Xor» degani qadimga sug'd tilida "quyosh", "azm" – "o'lka", ya'ni Xorazm- quyoshli o'lka degan ma'noni anglatadi. Xorazm Amudaryo bilan Qoraqum o'rtasidagi go'zal bir voha bo'lib, boy tarixga va madaniy me'rosga ega.

Xiva– viloyatdagi ikkinchi markaziy shahar. Xiva xonligining poytaxti bo'lgan. Afsonalarning birida aytilishicha Xivaga Nuh payg'ambarning o'g'li

Som asos solgan. Xiva so'zi quduq degan ma'noni anglatadi. Xorazmda bu so'zni Xivak deb atash hollari hozirda ham uchraydi.

1997 yil shaharning 2500 yilligi nishonlandi. Tarixiy obidalarga boy bo'lgan bu makon «Ochiq osmon ostidagi muzey – shahar» sifatida (xalqaro miqyosda) e'tirof etilgan.

Qatag'on – Qo'sh ko'pir tumanidagi qishloqning nomi. Forscha yo'qolgan, qurigan, topib bo'lmaydi, - degan ma'noni bildiradi.

Hazorasp – shaharcha, Xazorasp tumani markazi. **Hazor** – fors-tojik tilida “ming”, asp degani “ot”, ya'ni ming ot deganidir.

Hazorasp Xorazmning janubiy chegara qal'asi bo'lib, o'tmishda unda mingta otliq jangchi saqlangan. Dushman hujum qilgudek bo'lsa, qal'a birinchi bo'lib zarbani o'zi qarshilagan.

Hazorasp haqidagi ilk ma'lumotlar Istaxriy, Ibn Havqal, Yoqut Xamaviy kabi tadqiqotchilarning asarlarida uchraydi.

QASHQADARYO VILOYATI

Qashqadaryo viloyati maydoni jihatidan Respublikada yirik viloyatlardan biri bo'lib, maydoni 28,57 ming km.kv.ni tashkil etgan. Aholisi esa 2,2 mln. kishi. Viloyat Respublikaning janubi–sharqida, Qashqadaryo havzasida joylashgan, sharqidan Hisor va Zarafshon tizmalari o'rab turadi. Tarkibida 13 qishloq tumani (Dehqonobod, Kasbi, Kitob, Koson, Mirishkor, Muborak, Yangi Nishon, Chiroqchi, Shahrisabz, Yakkabog', Qamashi, Qarshi, G'uzor), 12 shahar (Beshkent, Kitob, Koson, Muborak, Tallimarjon, Yangi Nishon, Chiroqchi, Shahrisabz, Yakkabog', Qamashi, Qarshi, G'uzor), 5 shaharcha (Dehqonobod, Miroqi, Nuriston, Eski Yakkabog', Qashqadaryo) bor. Ma'muriy markazi – Qarshi shahri. Qarshidan Toshkentgacha masofa – 560 km.

Qashqadaryo vohasi qadimiy madaniyat markazlaridan biridir. Ilk o'rta asrlarda Qashqadaryo vohasining yuqori qismi *Kesh*, quyi qismi *Naxshab* deb atala boshlangan. Milodning VI-VII asrlarida eski shaharlar tanazzulga yuz tutib, yangi shaharlar vujudga keladi.

1220–1221 yillarda Qashqadaryo vohasidagi shahar va qishloqlar mo'g'ullar istilosi natijasida vayron qilindi. 1318-1326 yillarda mo'g'ul xonlaridan Kepakxon tomonidan *Qarshi* shahriga asos solindi. XIV-XV asrlarda Amir Temur va Mirzo Ulug'bek davrlarida Shahrisabzda bir qancha monumental binolar – saroy, masjidlar, maqbara va boshqa inshootlar qurilgan.

Viloyatning qisqacha toponimik lug'ati

Balxi – qishloq, Shahrisabz, Qarshi tumanlari. O'zbeklarning kenagas, qutchi, saroy qabilalari, turkmanlarning ersari qabilasi tarkibida *balxi* (balqi) urug'i qayd qilingan. Balxi – “Balxlik”, “Balx shahridan kelgan” degani.

Deshqon – qishloq, Shahrisabz tumani. De + shayx - on- “shayxlar qishlog'i”, shayx: 1) musulmon ruhoniylari vakili; 2) qabriston, ziyoratgoh mutasaddisi.

Jenov – qishloq, Kasbi tumani. Forscha jo‘y (ariq, anhor) va nav (yangi) so‘zlaridan tarkib topgan.

Kitob – Qashqadaryo viloyatidagi shahar. Kitob nomi tojik tilidan olingan “kift” – elka, “ob” – suv, ya‘ni “elkadagi suv degan ma‘noni bildiruvchi atamadir.

Kesh – Shahrisabz shahrining oldingi nomi. Dastlab “Hudud ul – olam”da Kesh, arab geograflari asarlarida *Kash*, *Kass* shakllarida tilga olingan. V.V.Bartold shahar nomining *Kishsh* tarzida talafuz qilinishi to‘g‘ri deb hisoblaydi.

Kesh, Kass, Kat kabi sinonimik terminlardan iborat toponimlar bo‘lib, “uy”, “qishloq”, “turar joy” ma‘nolarini anglatadi.

Nayiston – qishloq, Mirishkor tumani. Nay “qamish” ma‘nosida. Nayiston – “qamishzor”, “to‘qay” deganidir.

Nasaf – Qarshi shahrining o‘rta asrlardagi nomi. Dastlab Istaxriy, Ibn Havqal, Muqaddasiy asarlarida tilga olingan. Dastlabki mahalliy nomi Naxshab. Keyinchalik, XIII asrdan Nasaf deb atalgan. XIV asrdan Qarshi deb atala boshlangan.

Chalqa – qishloq, Dehqonobod tumani. Shevalarda adirlardagi supaday tekis maydon chalqa deb ataladi.

Chiroqchi – shahar, Chiroqchi tumani markazi. Chiroqchi qal‘asi XV asrdan oldin, Ubaydullaxon davrida ham bor edi. Aziz – avliyolarning mazorlarda yashab, chiroq qo‘yib, mozomi supurib – sidirib turadigan qorovul (shayx) chiroqchi deyilgan. Boshqa bir ma‘lumotlarga ko‘ra, gildan chiroq yasash hunari bilan shug‘ullanuvchilar homiysi bo‘lgan Chiroqchi ota nomi bilan atalgan.

Shahrisabz – shahar, Qashqadaryo viloyati. Bu nom tangalarda XIV asrdan uchray boshlaydi. Shaharning qadimiy nomi Kesh. XV-XVI asrlardagi tarixiy manbalarda, chunonchi Xo‘ja Ahroming vaqf hujjatlarida va “Bobumoma”da Kesh va Shahrisabz nomlari yonma- yon tilga olingan. Shahrisabz – “ko‘kalamzor shahar” degani.

Qarshi – shahar nomi bo‘lib, O‘zbekistonning eng qadimiy shaharlaridan bir. Shahar XIV asrgacha Naxshab deb atalgan. Arablar bu mahalliy nomni Nasaf deb ataganlar. Chig‘atoy naslidan bo‘lgan Kepakxon (1309-1326) Qashqadaryo vodiysiga o‘mashgan eski Naxshabdan ikki farsax narida o‘ziga saroy qurdirgan. Saroy mo‘g‘ul tilida *qarshi* deb ataladi. Qarshi – “shoh qal‘asi” degan ma‘noni ham bildiradi.

QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASI

Qoraqalpog‘iston Respublikasi O‘zbekiston Respublikasi tarkibi-dagi suveren davlat. O‘zbekiston hududining shimoliy-g‘arbida, Amudaryoning quyi qismida, Orol dengizining janubiy sohilida joylashgan. Respublika tarkibida 15 tuman (Amudaryo, Beruniy, Bo‘zatov, Kegeyli, Mo‘ynoq,

Nukus, Taxtako'pir, To'rtko'l, Xo'jayli, Chimboy, Shumanay, Ellikqal'a, Qanliko'l, Qorao'zak, Qo'ng'iro't), 12 shahar, 17 shaharcha bor. Poytaxti - Nukus shahri. Nukusdan Toshkentgacha - 1225 km.

Yagona daryosi - Amudaryo (quyi oqimi). Daryoning keng deltasida to'qayzor ko'p. Sulton Uvays tog'lari etagida Badayto'qay davlat qo'riqxonasi joylashgan.

Qoraqalpog'istonning qisqacha toponimik lug'ati.

Ayozqala - Beruniy tumani hududidagi arxeologik yodgorlik. Miloddan avvalgi IV-II asrlarga oid uchta qal'a xarobasidan iborat. Bir necha turkiy xalqlar folklorining qahramoni *Ayoz* nomi bilan atalgan.

Arshan - ovul, Kegeyli, Chimboy tumanlari. Qoraqolpoqlarning mang'it qabilasi tarkibida arshan urug'i bo'lgan.

Atavavul - ovul, Amudaryo tumani. Atav (atau)-"orol".

Jetkinshek - ovul, To'rtko'l tumani. Jetkinshek qoraqolpoq tilida "o'smir yosh avlod", degan ma'noni bildiradi.

Mo'ynoq - shahar, Mo'ynoq tumani markazi. Mo'ynoq ikki tarkibiy qismdan iborat: mo'yin-bo'yin, -oq kichraytirish qo'shimchasi. Mo'ynoq- "kichik bo'yin", "bo'yincha" yoki "yarim orol" degan ma'nolarga ega.

Nukus - shahar, Qoraqalpog'iston Respublikasining poytaxti (qoraqolpoqchasi - *No'kis*). *Nukus, no'kis, nekuz* degan urug' bo'lgan. Rivoyatga ko'ra, Nukus (no'kis) - surgin qilingan to'qqizta qizning o'g'illaridan tarqalgan kishilarning avlodi bo'lib, "to'qqiz kishi" demakdir (tojikcha *no'h* - to'qqiz, *kas*-kishi). Bu rivoyat, xolos. Toponimning etimologiyasi hamon noma'lum.

Nukus urug'i Nukas ("yangi qishloq") degan ma'noni anglatadi deyuvchilar ham uchraydi.

Orol dengizi - bu gidronimning kelib chiqishi haqida bir qancha fikrlar bayon etilgan. Xiva xoni, yirik tarixchi olim Abulg'oziy Bahodirxon Amudaryo dengiziga quyiladigan joy - deltani *Orol* deb atagan. Ana shu erda orollilar degan elat yashagan. L.Berg o'zining "Orol dengizi" asarida (1908 yil) *Orol* o'sha erda yashagan xalq- *orollilar* nomidan kelib chiqqan, deb yozadi va Richkovning (1755 yil) "Orol-ko'lda orol ko'p bo'lganidan shunday atalgan", degan fikrini o'rtaga tashlaydi. Chindan ham orol dengizida 300 dan ortiq orollar bo'lgan.

Sulton Uvays - Amudaryoning o'ng sohilidagi tog'lar. O'rta Osiyoda tasavvuf targ'ibotiga asos soluvchilardan biri arab Uvays Qamiy nomi bilan atalgan (VII-asr). Sulton unvoni unga keyinchalik O'rta Osiyo xalqlari tomonidan berilgan. Tizmaning janubi-g'arbiy yon bag'rida Sulton Uvaysning ziyoratgoh afsonaviy qabri bor.

Taylaqovul - ovul, Chimboy tumani. Endigina tug'ilgan tuya bolasi, bir yoshgacha *bo'ta* (bo'taloq), bir yoshdan oshsa toyloq deyiladi. *Tayloqovul*-qoraqolpoqlarning *taylaq* (toyloq) urug'i nomi bilan atalgan.

Tarli - Kegeyli tumanidagi quruq o'zan. Q. Abdumuratov bu toponimni "Tariqli, tariqpoya", deb izohlagan.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Toponimika tushunchasi xaqida nima bilasiz?
2. Mikro va makro toponimlarning farqi?
3. Toponimik ma'lumotlar qanday to'planadi?
4. Toponimikaning o'lkashunoslikdagi ahamiyati qanday?
5. O'zbekiston viloyatlari, Toshkent shahri va Qoraqalpog'iston toponimlari to'g'risida nima bilasiz?

Tayanch so'zlar izohi:

Toponimika – lotincha "topos - joy, "onima" - nom, umuman joy nomini o'rganuvchi fan.

Antrotoponimika – lotincha "antropo"- odam, "onima"- nom, kishi ismi, familiyasi, laqabini o'rganuvchi fan tarmog'i.

Vixara – sanskritcha "ibodatxona".

Hadra – chegara, chekka.

Qo'yliq – pastlik, quyilik.

Toshkent – tosh shahri yoki tosh bilan o'ralgan joy, degan ma'nolarni bildiradi.

Oykonimlar - shahar, qishloqlarning nomlari.

Chokardiza – qo'shni qal'a o'rdasi.

Kalit so'zlar: Joy nomlari, mikro va makro toponimlar, toponimika tarmoqlari, gidronim, dimunitiv, metafara, metonimiya, mustaqil (bir o'zakli) toponimlar, toponimistlar, etnotoponim, viloyatlar toponimlari.

9-Mavzu: O'zbekiston viloyatlarining tarixiy-madaniy yodgorliklari

Reja:

1. Toshkent shahrining tarixiy yodgorliklari.
2. O'zbekiston viloyatlarining tarixiy yodgorliklari.

Adabiyotlar:

1. Ahmedov E. O'zbek shaharlari mustaqillik yillarida. T.: "Ibn Sino". 2002.
2. Amir Temur Jvhon tarixida. T.: "Sharq". 2001.
3. Alimova D.A., Buryakov Yu., Rahmatullaev J.M. Samarqand tarixi. T.: "ART FELX". 2009.

4. Aktualnoe problemy turizma – 2010. Sbornik nauchnykh trudov. Vypusk – 2. T.: ChP «Fedorenko T.R.»
5. Abdulahatov N., Eshonboboev O. Ko'hna Marg'ilon ziyoratgohlari. T.: "Farg'ona" nashriyoti. 2007.
6. Zohidov P.Sh. Me'mor olami. T.: "Qomus" 1996.
7. Jaloliddin Manguberdi. T.: "Sharq". 1999. Albom – rasmlı kitob.
8. Mustabid tuzumning O'zbekiston milliy boyliklarini talash siyosati: Tarix shohidligi va saboqlari (1865-1990 yillar). T.: "Sharq". 2000.
9. Qoraev S. O'zbekiston viloyatlari toponimlari. T.: O'zME. 2005.
10. Pugachenkova G.A. Temurning me'moriy merosi. T.: "Ensiklopediya". 1996.
11. Shahrisabz ming yillar merosi. T.: "Sharq". 2002. Albom-rasmlı kitob.
12. Surxondaryo. Albom. T.: "Qomus". 1996.
13. Berdimurodov A. Go'ri Amir maqbarasi. T.: "A.Qodiriy". 1996.
14. Muhammadjonov A. Toshkentnoma. I kitob. T.: "Movarounnahr". 2009.

“Memoriy yodgorliklar - davrning tosh kitobidir”.

Ibn Batutta

Tomchida quyosh aks etgani kabi har bir tarixiy manba – u asar yoxud tarixiy inshoot bo'ladimi, baribir, o'z davri to'grisida bizning bugungi va kelgusi avlodlarga so'zsiz hikoya qiluvchi betimsol yodgorlik namunalari. Shu tufayli ham ular xalqning bebaho madaniy merosi, o'tmishdan saqlanib qolgan qadriyatlarimiz hisoblanadi. Ularda asrlar tajribasi, ota-bobolarimiz – donishu olimlar, san'at va ijod ahlini, yuksak mahorat sohiblari bo'lgan ustalarning ijodiy mehnati o'ziing mujassam qiyofasini topgan.

O'tmishning “ziyo”ga qiyos etgulik ko'plab tarixiy va madaniy yodgorliklari yurtimiz taraqqiyotida muhim o'rin egallaydi..

Shu tufayli ham xalqimiz ardog'idagi vadunyo e'tirofiga sazovor bo'lgan betakror tarixiy-madaniy yodgorliklar, osori-atiqalarimizni avaylab asrashimiz lozim. Zero O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XI bob, 49-moddasida “Fuqarolar O'zbekiston xalqining tarixiy, ma'naviy va madaniy merosini avaylab asrashga majburdirlar” deyilgan. Ular bizning moddiy-ma'naviy mulkimizdir.

Me'morlik san'ati va u bilan chambarchas bog'liq xalq amaliy san'ati, xususan, naqqoshlik, o'ymakorlik, ganchkorlik, kandakorlik kabi sohalardagi ijod namunalari o'rganish yo'lida anchagina samarali tadqiqotlar mavjud. O'lka tarixi va turizmini o'rganishda tarixiy-madaniy yodgorliklarning ahamiyati juda katta. Ular bilan yaqindan tanishuv kishilarda, ayniqsa, talaba-yoshlarda Ona-vatanga bo'lgan muhabbat, o'z ajdodlarining mehnat jasorati bilan g'ururlanish hissini shakllantiradi.

Quyida ayrim viloyatlar, shuningdek, shaharlardagi tarixiy–madaniy yodgorliklardan namunalarni keltirib o‘tamiz.

TOSHKENT SHAHRI TARIXIY YODGORLIKLARI

Abulqosim madrasasi - 1850 yili Abulqosim shayx qurdirgan. Hovli atrofida miyonsaroy, masjid va madrasa, hujralar, to‘rda “Mo‘yi Muborak” xonaqohi joylashgan. Hozir u O‘zbekiston Milliy bog‘i hududida.

Baroqxon madrasasi - Zarqaynar ko‘chasida joylashgan yodgorlik. Baroqxon madrasasi kompleksini 3-bosqichini XVI asr o‘rtalarida Baroqxon qurdirgan.

Jome’ masjidi -Hozirgi uyg‘ur ko‘chasi bo‘yida joylashgan bu yodgorlik XV-XIX asrlarda bunyod etilgan. Masjidni dastlab 1451 yilda Xo‘ja Ahror Vale qurdirgan.

Kaffoli Shoshiy maqbarasi – bu me‘moriy obida Zarqaynar ko‘chasida joylashgan bo‘lib, Hazrati Imom (Xastimom) nomi bilan mashhur bo‘lgan imom Abu Bakir Muhammad ibn Ali ibn Ismoil al-Kaffol ash- Shoshiyga atab qurilgan. Dastlabki maqbara saqlanmagan. Kaffol Shoshiy maqbarasi me‘mor G‘ulom Husayn tomonidan 1541-1542 yillarda qurilgan.

Ko‘kaldosh madrasasi – Shahaming hozirgi Chorsu maydonida joylashgan bo‘lib, 1551-1575 yillarda Toshkent hokimi Ko‘kaldosh tomonidan qurdirilgan.

Shayx Zayniddin bobo maqbarasi- 1214 yili Shayx Zayniddinga atab solingan yodgorlik, uning yonida joylashgan chillaxona XII-XIII asrlarga, maqbara o‘mida bo‘lgan xonaqoh XIV asrga oid.

Shayx Xovand Tahur maqbarasi – Navoiy shoh ko‘chasida joylashgan bo‘lib, Shayx Umar Bog‘istoniyning o‘g‘li - Shayx Xovand Tahurga atab solingan. Mavjud yodgorlik XV asrga oid Ko‘hna maqbara poydevori ustiga XVIII-XIX asrlarda qurilgan.

Qaldirg‘ochbiy maqbarasi - bu maqbara XV-asrning I yarmida qurilgan me‘morchilik yodgorligi bo‘lib, Shayx Xovandi Taxur maqbarasidan shimolroqda. Maqbarani kim qurganligi va unga kim dafn qilinganligi noma‘lum. Rivoyatga ko‘ra, bu erga Qaldirg‘ochbiy ismli nufuzli a‘yon, boshqa bir rivoyatda Qaldirg‘ochbibi ismli qipchoq malikasi dafn etilgan. Maqbaraning 12 qirrali tashqi gumbazi 1970 yili ta‘mir qilingan.

TOSHKENT VILOYATI TARIXIY YODGORLIKLARI

Anbarbibi maqbarasi - Toshkent viloyati, Zangiota qabristonida joylashgan bo‘lib, XIV asr oxiri - XV asr boshlarida qurilgan noyob me‘morchilik yodgorligidir. Rivoyatlarga qaraganda Zangiotaning xotini Anbarbibi (Qanbar ona) qabri ustiga qurilgan.

Zangiota majmuasi - Toshkentdan 16 km. Janubda bo'lib XIV asr oxiri - XX asr boshlarigacha qurilgan noyob memorial yodgorlikdir. So'fiylik targ'ibot-chisi shayx Oyxo'ja ibn Toshxo'ja sharafiga shunday atalgan. Bu maqbarani Amir Temur qurdirganligi haqida rivoyatlar bor.

ANDIJON VILOYATI TARIXIY YODGORLIKLARI

Gumbaz madrasa – mahalliy boylardan Abdulhamidhoji buyurtmasiga binoan 1872 yili Andijonda qurilgan. Ikki qavatli hujralar, masjid va darsxonalardan tashkil topgan. Hozir bosh tarzidagi peshtoq gumbazli bino va ikki qavatli hujralar saqlangan.

Otaqo'zi madrasasi - XX asrning boshlariga oid bu yodgorlik Andijonda qurilgan. U peshtoq gumbazli darvozaxona, masjid-ayvon, ikki qavatli hujralar va minoradan iborat. 1971-1975 yillarda ta'mirlanib, unga o'lkashunoslik muzeyi joylashtirilgan.

Jahonobod masjidi - 1912 yili mahalliy boy Madalibobo buyurtmasiga ko'ra Isaboy hoji rahbarligida qurilgan. Masjid 1989 yilda qayta ta'mirlangan.

Jome' masjidi - Andijonda XIX asrning oxirlarida qurilgan. U madrasa, masjid, minoradan iborat bo'lib, minoraning balandligi - 32 metr. Binoga beshta darvoza orqali kirilgan.

NAMANGAN VILOYATI TARIXIY YODGORLIKLARI

G'oyibnazar madrasasi – XIX asrning oxirlarida Namanganda barpo etilgan yodgorlik. Madrasaning bosh tarzi peshtoqli, burchaklariga minora ishlangan. Keyinchalik unga qo'shimcha ishlar bajarilgan. Hozir esa unda madaniyat uyi joylashgan.

Lutfullo Mavloni majmuasi – XX asrning boshlarida Namanganda barpo etilgan. Bu erda masjid, madrasa, minora, maqbara kabi binolar joylashgan. 13 metr balandlikka ega minora ham bor. U feruza rangli koshin bilan bezatilgan. Masjidning bir qismi (ayvon) saqlanib qolgan.

Sirli masjid - XIX asrga oid Namanganda joylashgan yodgorlik. Xonaqoh va ikki tomonlama ayvondan iborat. Hovlisida hovuz bor.

Chadoq masjidi – XVIII asrga oid viloyatda joylashgan yodgorlik. Xonaqoh va uch tomoni ayvonli. Serhasham bezaklangan.

Ota Valixonto'ra masjidi – XX asr boshlarida me'mor Mulla Qirg'iz loyihasi va rahbarligida Namanganda qurilgan. Darvozasi peshtoqli. Asosiy katta xona qobirg'ali o'lkan gumbaz bilan yopilgan.

Mavlonbuva maqbarasi - 1809 yili Namaganda qurilgan. Shoir Mavlonbuva qabridan janubroqda peshtoq-gumbazli ziyoratxona bunyod qilingan. Peshtoqning ikki yonida minora - burj barpo etilgan.

Xoja Amin Maqbarasi - XVIII asrga oid Namangandagi me'moriy yodgorlik. Peshtoq va gumbazli, bir xonali maqbaradan iborat. Unda o'yma sopolchalarning mahort bilan ishlatilishi o'zbek me'morchilik maktabida o'ziga xos yorqin sahifa ochgan.

FARG'ONA VILOYATI TARIXIY YODGORLIKLARI

Hudoyorxon saroyi – Qo'qonda XIX asrning ikkinchi yarmida qurilgan. Dastlab xon qarorgohi, keyinroq saroy ahli yashaydigan 100 ga yaqin xona, zallar hamda bir qancha hovli bunyod etilgan. Hozirgacha saroyning sharqidagi darvozaxona, uning ikki yonidagi xonalar saqlangan.

Norbo'tabiy madrasasi – XVIII asrda Qo'qonda Norbo'tabiy hukmronligi davrida qurilgan. Bir qavatli chortoq tarxli, to'rt burchagiga minoralar ishlangan. Peshtoqning o'ng tomonida gumbazli masjid qurilib, serhasham bezatilgan.

Miyon Hazrat madrasasi – XVIII asrga oid Qo'qon yodgorligi bo'lib, ko'p hovlili. Madrasaga peshtoq gumbazli darvoza orqali kiriladi. Ko'p ustunli masjid ham qurilgan.

Kamol Qozi madrasasi – XIX asrda Qo'qonda qurilgan. Peshtoqli darvozaga ega. Hovli atrofida hujralar, masjid va ayvoni bor.

Said Ahmadxo'ja madrasasi – XIX asr oxirlarida Marg'ilonda qurilgan bo'lib, hovlisida hujralar, ayvonli masjid joylashgan.

Kaptarli majmuasi – XIX asrga oid Marg'ilon tarixiy yodgorligi hisoblanib unda masjid, minora, maqbara va uning hovlisi, gumbazli darvozaxona hamda to'rt bo'lakli kaptarxona mavjud. Majmuada Pir Siddiq maqbarasi ham joylashgan.

Podsho Pirim majmuasi – XV- XX asrlarga oid Farg'ona yodgorligi. Afsonaviy sarkarda Shoh Jalil qabri ustida qurilgan maqbara deb taxmin qilinadi. Uning atrofidagi boshqa binolar keyinchalik qurilgan. Bu erda dastlab peshtoq va gumbazli darvozaxona, maqbara va sag'analar, chortoq minora, hujralar (XV-XVI asrlarda) hamda keyinroq masjid qurilgan (XX asr).

Xalfa Tillo majmuasi - XX asr boshlariga oid bo'lib, Qo'qonda joylashgan. Bu erda ikki hovli, hovuzli bog', masjid va Xalfa Tillo dahmasi mavjud. Dahma peshtoqli, masjid serhasham bezakli qurilgan.

G'ishtli masjid - XX asr boshlarida Qo'qonda pishiq g'ishtdan qurilgan. Xonaqoh va ayvondan tashkil topgan. Ayvoni naqshinkor. Hozir bu erda kutubxona joylashgan.

Modarixon maqbarasi - 1825 yil Qo'qonda qurilgan. Modarixon (xon onasi) hazirasiga xon avlodlariga mansub ayollar qo'yilgan. Hozir maqbaraning peshtoq gumbazli xonasi, burchagidagi ikki minora saqlangan.

Dahmai Shohon (Shohlar dahmasi) - XIX asrga oid Qo'qon yodgorligidir. Bu erda Norbo'tabiy va uning avlodlari dafn etilgan dahma – sag'analar bor. Masjid ayvoni naqshli.

BUXORO VILOYATI TARIXIY YODGORLIKLARI.

Abdulazizxon madrasasi – 1652 yil qurilgan bu madrasa badiiy bezaklarga boy bo'lib, O'rta Osiyo me'morchiligida alohida o'rin egallaydi.

Bolahovuz masjidi – 1712 yil qurilgan bo'lib, Buxoro arki qarshisida joylashgan.

Ismoil Somoniy maqbarasi – IX-X asrlarga oid O'rta Osiyo me'morchiligining ajoyib namunasi. U 892-907 yillarda qurilgan deb taxmin qilinadi. Aniq geometrik o'lchamlar va devoming qalinligi 1,8 metrgacha bo'lganligi tufayli bu yodgorlik ming yildan buyon yaxshi saqlanib turibdi. Rivoyatlarga ko'ra maqbara Ismoil Somoniy tomonidan otasi Ahmad ibn Asad uchun qurilgan. Bu tarixiy yodgorlik xalqaro YUNESKO ro'yxatiga kiritilgan.

Ko'kaldosh madrasasi - 1578 yil qurilgan bo'lib, Labihovuz maydonida joylashgan. O'rta Osiyodagi eng katta madrasalardan biri bo'lib, 160 hujrasi bor. Bu yodgorlik Abdullaxon hukmronlik qilgan davrda qurilgan.

Labihovuz - XVII asrda qurilgan bo'lib, uzunligi 42 metr, eni 36 metr, chuqurligi 5 metr chamasi bo'lgan hovuzdan iborat maydoncha. U 1620 yil qazilgan. Savdo maydonlaridan biri bo'lgan.

Masjidi kalon (katta masjid) – juma namozi o'qiladigan bu masjid 1514 yilda qurilgan bo'lib kattaligiga ko'ra Samarqanddagi Bibixonim masjididan keyin ikkinchi o'rinda turadi.

Masjidning umumiy maydoni bir gektar keladi (127x78). Hovli galeriyasi 288 qubba bilan qoplangan, ularni 200 ta ustun ko'tarib turadi. Bu ham noyob me'morchilik yodgorliklaridan biridir.

Mag'oki Attor masjidi – XII-XVI asrlar davomida qurilib ta'mirlangan bu inshoot shahar markazida joylangan bo'lib, ilgari attorlar rastasi o'miga qurilganligi tufayli Mag'oki Attori deb atalgan.

Mir Arab madrasasi – 1530 yil qurilgan bo'lib, shaharning markaziy qismida joylashgan. Bu erda yamanlik Shayx Abdulla (Mir Arab) va uning qarindoshlari dafn qilingan. Yodgorlik shuning uchun ham Mir Arab deb nomlanadi.

Sitorai Mohi Xosa majmuasi – XIX asr oxiri - XX asr boshlarida qurilgan bo'lib, Amir Olimxonning saroyidir. Shahardan 4 km. narida joylashgan.

Tim va toqlar – XVI asrda qurilgan bu inshoot Buxorodagi eng yirik savdo markzlaridan biridir. Shahardagi eng yirik inshootlaridan 4 tasi: Toqi

zargaron, Toqi telpak furushon, Toqi sarrofon va Abdullaxon timi saqlanib qolgan.

Ulug'bek madrasasi – 1417 yil Mirzo Ulug'bek tomonidan qurdirilgan. Ulug'bek madrasasi darvozasi peshtoqiga “ Bilim olish har bir muslim va musulmaning burchidir ”, degan so'zlar yozilgan.

Chashmai Ayyub mozori – XII asrga oid bu yodgorlik shahardagi madaniyat va istirohat bog'i o'mida joylashgan. Qadimgi g'arbiy bino yoniga XVI asrda yana ikkita bino qurilgan. Bu binoni eshigi tepasiga Amir Temurning o'zi qurdirganligi haqidagi ma'lumot qayd etilgan.

Chor Minor – uni xalifa Niyozqul madrasasi deb ham atashadi. U XIX asr boshlarida (1807 yil)gi murakkab me'morchilik namunasi bo'lib, peshayvon turidagi masjid, bir qavatli madrasa, hovuz va peshtoqdan iborat. 4 ta baland mezanasi bor. Ular minoraga o'xshaydi, shuning uchun ham Chor Minor madrasasi deb ataladi.

NAVOIY VILOYATI TARIXIY YODGORLIKLARI.

Abdullaxon bandi – viloyat hududidagi qadimgi suv ombori va to'g'oni. XVI asrning 80 yillarida Buxoro hukmdori Abdullaxon II (1557–1598 yil) qurdirgan. Eski Oqchob qishlog'i yaqinidagi *Beklarsoy* darasida joylashgan. To'g'onning uzunligi: asosida – 73 metr, yuqorisida - 85 metr, balandligi esa 14,5 metr. Taxminan 1,2 mln. kubometr suv to'plangan.

Qosim shayx xonaqohi – XVI–XX asrlarga oid yodgorlik. Dastlab din arbobi Qosim shayx (1571 yil vafot etgan) uchun xonaqoh qurilgan. Shayx vafot etgach yon xonaga ko'milgan. Dahma marmarli. Abdullaxon II XVI asrning 80-yillarida xonaqoh qurdirgan. 1910 yili atrofi devor bilan o'ralib, qo'shimcha binolar barpo etilgan.

Raboti Malik – Buyuk Ipak yo'lidagi eng qadimgi va ulkan karvonsaroy bo'lib, taxminan 1069–1079 yillarda qurilgan. Buxoro – Samarqand yo'lida, Navoiy shahri yaqinida joylashgan.

XORAZM VILOYATI TARIXIY YODGORLIKLARI

Ko'hna Ark - Xivada joylashgan bu yodgorlik devorlarining qurilishi Anushaxonning o'g'li Arangxon tomonidan 1686-1688 yillarda boshlangan. Bino qurilishi XIX asrda davom etgan. Unda to'rtta hovli bo'lib, muhtasham qabullar saroyi, haram, zarbxona, yozgi va qishki masjidlar qurilgan.

Ichan qal'a (ichki qal'a) – asosi - miloddan avvalgi V asrdan, yuqori qismi milodiy XVIII-XIX asrlami o'z ichiga olgan. Maydoni 26 gektarga yaqin. Atrofi devor bilan o'ralgan bo'lib, uning uzunligi 2,1 km. 4ta mahobatli darvozaga ega. Qal'a devorining balandligi 7-8 m., qalinligi 3-4 m. Taxminan har o'ttiz metr masofada katta aylana burj-minoralar turtib

chiqqan. Qal'ada asrlar davomida qurilgan ansambllar bo'lib, saroylar, ma'muriy va turar joy binolari, madrasalar va shu kabi inshootlar mavjud. 1842 yili Dishanqal'a qurilishi yakunlangach, ichkari qismidagi qal'a "Ichan qal'a", deb atala boshlangan.

Dishan qal'a (Tashqi qal'a) – Xivaning tashqi qismi bo'lib, 1842 yil Muhammad Yoqub Mehtar rahbarligida shaharning 6 km. uzunlikdagi atrof-qal'a devori qurildi. Shu paytdan bu hudud "Dishan qal'a" deb atala boshlandi. Devorlari orasiga burjlar o'rnatilgan hamda 10 ta mustahkam darvozasi bor. Shaharning asosiy aholisi yashagan bu erda Nurillaboy saroyi va ko'pgina me'moriy yodgorliklar joylashgan.

Muhammad Aminxon madrasasi va minora – Madrasa Ichan qal'ada joylashgan bo'lib, 1852-1855 yillarda Muhammad Aminxon qurdirgan. Madrasa yonida Kalta Minor joylashgan. Xon o'z rejasiga ko'ra Madrasa - minorani Xivadagi eng katta va go'zal ansambl qilishni mo'ljallagan edi. Biroq xonning o'limi tufayli minora qurilishi yakunlanmay qolgan. Minoraning asos diametri - 14,2 metr, balandligi - 26 metr. Muhammad Aminxon madrasasi ikki qavatli, bosh tarzi besh gumbazli miyonsaroy, masjid, darsxona va boshqa qo'shimcha xonalardan tashkil topgan. Madrasa Xivadagi eng muhtasham va yirik bilim dargohi hisoblanadi.

Alloqulixon madrasasi – Xivadagi me'moriy yodgorlik bo'lib, 1834-1835 yillarda 3 m. balandlikdagi sun'iy tepalikda qurilgan. Madrasa qarshisidagi Xo'jamberdiboy madrasasiga o'xshash holda barpo etilgan. Inshootda 99 ta ikki qavatli qator hujralar, qishki masjid va darsxona joylashgan. Yana ikkita minora ham bor.

Amir To'ra madrasasi – 1870 yili Muhammad Rahimxon II ning akasi Amir To'ra qurdirgan bo'lib, Ichan qal'ada joylashgan. Old tomoni ikki, qolgan tomonlari bir qavatli. Hujralardan tashqari ikkita gumbazli xona va yozgi masjid joylashgan.

Abdullaxon madrasasi – Ichan qal'aning sharqiy darvozasi oldida joylashgan bu yodgorlik 1855 yil Qutlug'murod Inoqxonning o'g'li Abdullaxonga atab onasi qurdirgan. Kvadrat tarhli, peshtoq orqali uch gumbazli miyonsaroydan hovliga o'tiladi. Bu erda hujralar, masjid joylashgan.

Islomxo'ja madrasasi va minorasi – Xivada joylashgan bu yodgorlik Isfandiyorxonning vaziri va qaynotasi Islomxo'ja tomonidan XX asr boshlarida qurdirilgan. Madrasa bir qavatli, unda 42 ta hujralar joylashgan. Bu erdagi masjidning gumbazi mahobatlidir. Madrasa bilan yonma-yon qurilgan minoraning balandligi – 44 metr, asosining diametri – 10 metrga yaqin. Minora hashamatli va ko'rkam ishlangan bo'lib, aslida Xivaning ramziga aylanib qolgan.

Najmiddin Kubro maqbarasi – XIV asming 30 yillarida qurilgan bo'lib, Turkmaniston hududida joylashgan. Tasavvufdagi Kubroviylik oqimining asoschisi shoir, olim va shayx Najmiddin Kubro nomi bilan bog'liq. Maqbara

Najmiddin Kubro sag'anasi joylashgan katta xona, bir necha qabrlari bo'lgan kichik xona va ziyoratgohlardan iborat.

- Mashhur shayx, yirik tasavvuf olimi, xalq qahramoni va otashparast shoir Najmiddin Kubro 1145 yilda Xeva yaqinidagi hozirgi Sayot qishlog'ida tug'ilgan. Uning asl nomi Ahmad ibn Umar ibn Muhammad al – Xevaqiy al – Xorazmiy bo'lib, Abuljnaob – uning kunyasi, Najmiddin – unvoni, Kubro laqabi hisoblangan. Najmiddin – dir yulduzi demakdir, Kubro – buyuk degani.

- Atoqli Ozarboyjon adibi M. Oxundov: "Vatanparvar – o'z vatanini kamoloti yo'lida o'z vataniga muhabbati tufayli ezguliklari tugul, jonini ham ayamaydigan, xalqi va vatani ozodligi, farovonligi uchun o'zini qurbon qiluvchi insondir" – deb yozgan edi. Shayx Najmiddin Kubro jasorati bu fikring yorqin isbotidir.

Gap shundaki, mo'g'ullar Xorazm tuprog'iga bostirib kirganda, Najmiddin Kubro muridlarini tug'ilgan yurtlriga jo'natib, o'zi shaharni mudofaa qilishga otladi. Shogirdlarining birga ketish haqidagi taklifiga javoban: "Men shu yerda shahid bo'laman, menga Xorazmni tark etishga ro'xsat yo'q", - deydi va qo'lga shamshir tutib, qo'yniga tosh to'ldirib, yov qarshisiga chiqadi. Ularga tosh otadi, bir nechasini nayza bilan urib yiqitadi. Dushmanlar unga kamondan o'q uzadi. O'qlardan biri shayxning ko'kragiga sanchiladi. Shahid bo'layotgan paytda u dushman qo'lidan bayroqni tortib olib, shu darajada mahkam siqib ushlaganki, o'n kishi bo'lib ham uning qo'lidan bayroqni olisholmagach, barmoqlarini kesishga majbur bo'lishgan. Shayxning bu jasorati yovni ham hayratga solgan. Mazkur voqea, mana, necha asrlarki, tildan-tilga o'tib, xalq uchun ibrat manbaiga aylandi.

SAMARQAND VILOYATI TARIXIY YODGORLIKLARI

Bibixonim masjidi - O'rta Osiyo me'morchilik san'atining mumtoz namunasi, mahobatli inshoot bo'lib, Amir Temuming Hindistonni zabt etish sharafiga uning farmoni bilan 1399 -1404 yillarda qurilgan. Xalq orasida Amir Temuming xotini Bibixonim (asli Saroymulxonim) nomi bilan mashhur. U O'rta Osiyodagi eng yirik jome' masjid bo'lib, hovlisi sahni 63,8 x 76,0 m. Masjidning umumiy sahni esa 167x 109 m. Burchaklarida baland minora bo'lgan. Zilzilalar inshootni emirgan. Obidada nafis bezak san'ati keng qo'llanilgan.

Amir Temur maqbarasi - Go'ri Amir nomi bilan ataluvchi bu noyob me'morchilik yodgorligi Samarqandda XV asr boshlarida (1404 yil) Amir Temur farmoni bilan uning 1403 yil fojiali halok bo'lgan nabirasi Muhammad Sulton xotirasiga qurilgan.

Maqbaraga Amir Temur qabri, uning ikki nabirasi (Muhammad Sulton va Ulug'bek), ikki o'g'li (Shohruh va Mironshoh) va boshqalarning qabri

qo'yilgan. Maqbara o'zining qurilish va ichki dekoratsiyasi (bezaklari) bilan dunyodagi eng mashhur me'morchilik durdonalaridan biri hisoblanadi.

Registon ansambli - 1417 – 1660 yillarda Samarqandning Registon ("Reg" - fors-tojikcha – *Qum*, *Registon* - qumli joy, maydon) maydonida qurilgan me'moriy yodgorliklar majmuasidan iborat. Unda Ulug'bek, Tillakori va Sherdor madrasalari joylashgan.

Ulug'bek madrasasi - Mirzo Ulug'bek tomonidan 1417 – 1420 yillarda qurdirilgan. Bino ikki qavatli, to'rt burchak bo'lib, sahni - 81 x 56 m. 50 ta hujrasi bor. O'rta Osiyodagi eng mukammal va go'zal madrasa hisoblanadi.

Sherdor madrasasi - Samarqand hokimi Yalangto'sh Bahodir tomonidan 1619-1636 yillarda qurdirilgan. Yalangto'sh Bahodir 1578 yil 15 avgustda Nurota hokimi oilasida tug'ilgan bo'lib, Ashtarxoniylar davridagi harbiy – mulkdor zodagonlarning yirik vakili bo'lgan.

Sherdor madrasasi Ulug'bek madrasasi ro'parasida bir o'q chizig'ida joylashgan bo'lib, u ham ikki qavatli. Peshtoq uzunligi 12,5 m. ikki yonida esa 31m.li minoralar bor. Madrasa peshtoqida Yalangto'sh Bahodirni ulug'lovchi sher tasviri bitilgan bo'lib, inshoot shu tufayli Sherdor deb nomlangan.

Tillakori madrasasi - Yalangto'sh Bahodir tomonidan 1646-1647 yillari qurdirilgan. Madrasa va Jome' masjidga mo'ljallangan bu obida registon ansamblining mutanosib ko'rinishiga ega bo'lishini ta'minladi. Hovlining g'arbidagi masjid o'z vaqtida zarhal naqshlar bilan bezatilgan (aslida kichik madrasa bo'lgan bu bino keyinroq Tillakori madrasasi nomini olgan).

Ruhobod maqbarasi - XIV asrning 80-yillari Samarqandda Shayx Burxoniddin Sog'arjiyga atab qurilgan inshoot. XIX asrda uning oldiga masjid, minora, darvozaxona barpo etilgan. Yodgorlik Go'ri Amir maqbarasining shimoliy qismida joylashgan.

Ishratxona - Samarqaddagi me'moriy yodgorlik bo'lib, u haqda asharat xona (ya'ni, arabcha o'nta xona) degan fikr ham bor. Bu maqbara 1464 yili Sulton Abu Saidning xotini Habiba Sultonbeka tomonidan bevaqt vafot etgan qizi Sohib Davlatbeka sharafiga qurilgan. Bino zilziladan qattiq shikastlangan. U Sharq me'morchiligining yangi uslub namunalariidan biri hisoblanadi.

Shohizinda ansambli - XI-XV (XX) asrlar davomida Samarqandda barpo bo'lgan tarixiy yodgorliklar majmuasidan iborat. Afrosiyob tepaligi janubida joylashgan qabristondagi maqbaralar, masjid, madrasa, xonaqoh va minora kabi inshootlarni o'z ichiga olgan. Ularning eng qadimiysi Qusam Ibn Abbos (Muhammad s.a.v. payg'ambarning amakivachchalari Abbosning o'g'li, Samarqandga 676 yil Islom dinini targ'iboti uchun arab istilochilari bilan birga kelib, shu erda o'ldirilgan va dafn etilgan) bo'lib xalq orasida Shohizinda (fors-tojikcha «Tirik shoh») nomi bilan mashhur. XI asrda Tang'och Bug'raxon madrasasi qurilgan. Ko'pchilik qurilish ishlari XIV-XV asrlarda bajarilgan bo'lib, bu erda Tug'li Tekin maqbarasi, Amir

Temuming singlisi Shirinbeka oqa va opasi Turkan oqa maqbaralari, shuningdek, lashkarboshilardan Amir Burunduq maqbarasi bor. Ansamblda joylashgan 20 dan ortiq inshoot xalq san'atining noyob durdonasi sifatida davlat nazoratiga olingan. 2006 yili bu yerda qayta ta'mirlash ishlari yakunlandi.

Ulug'bek rasadxonasi - Mirzo Ulug'bek farmoni bilan 1428-1429 yili Samarqand shahrining Ko'hak (Cho'ponota) tepaligida bunyod etilgan. U doira shaklda bo'lib, uch qavatli, balandligi 30,4 m.dan iborat. 1908 yili arxeolog V.Vyatkin xaroba holidagi rasadxona qoldig'ini tarixiy hujjatlar asosida izlab topgan.

Rasadxona o'rta asrlarda asbob-uskunasi jihatidan ham beqiyos bo'lgan. Ulug'bekning mashhur asari "Ziji Ko'rogoniy" shu erda yozilgan. Rasadxona Ulug'bek o'ldirilgandan keyin (1449 yil) vayron etilgan. Hozirgacha oz qismi saqlangan.

Hazrati Xizr masjidi - XIX asr o'rtalarida Afrosiyobning janubida qurilgan bu inshoot afsonaviy o'lmas shaxs Hazrati Xizr nomi bilan bog'liq. Bino qadimiy masjid poydevori ustuniga barpo bo'lgan. Keyinchalik binoga qo'shimcha ayvon (1899 yil), darvozaxona (1919 yil) qurilgan. Masjid 1913 yilda (usta Abduqodir Boqiev rahbarligida) hamda 2006 yilda davlatimiz tomonidan qayta ta'mirlandi.

Mahdumi A'zam majmuasi - Samarqand shahriga yaqin Oqdaryo tumanida joylashgan bo'lib, 1542 yil vafot etgan Mahdumi A'zam qabri atrofida XVI-XIX asrlarda barpo qilingan. Bu erda masjid, darvozaxona, chillaxona va hujralar, g'ishtin minora, hovuz, shuningdek, Mahdumi A'zam hazirasi (qabri) joylashgan. Samarqand hokimi bo'lgan Yalangto'sh Bahodir xonadoni dahmasi ham shu erda joylashgan.

Samarqand haqida bizgacha juda ko'p rivoyat va afsonalar yetib kelgan bo'lib, ularda aytilishicha: qadim zamonlarda Movarounnahrning paytaxti Samarqand bo'lgan ekan. Aytishlariga qaraganda, uning birinchi hukmdori Kaykovus bo'lgan ekan. Undan so'ng Iskandar (Aleksandr Makedonskiy) ham uni qurdi. Samarqand shahrini Shamar (ismli) mo'tabar amir qurganmish va u Tubba' amirlaridan bo'lib, Turkistonga kelib qolgan. Shundan so'ng ul (shahar) ni "Shamar - kand" deyishgan, ya'ni "Samar qishlog'i". Borib-borib "Samarqand" atalib qolgan. Ba'zi tarixchilarni aytishicha, Shamar - bu Ba'rish Abu Karb ibn Ifriqish ibn Abraha bo'lib, uzoq Turkiston o'lkasini bosib olgan tubbaliklardan edi. Aytishlaricha, Samarqandga yetib kelganda, qanchalik tirmashmasin, uni zabt eta olmagan. Samarqand hokimining bir qizi bo'lib, o'sha yurtning hammasiga hukmi o'tardi. Shamar uning turli va'dalar qilib aldadi va ko'plab sovg'a-salomlar bilan uning huzuriga elchi yuborib, shunday dedi: "Sen deb bu o'lkaga keldim. Maqsadim: yuklarim, qimmatbaho narsalarim va xazinamni shu yerda qoldirib Chin (o'lkasi) ga borishdir".

Qiz uning makridan g'aflatda qolib, ularning yuklari va qimmatbaho narsalarini shaharga kiritishga ruxsat berdi.

Shamar to'rt mingta sandiqqa qurollangan askarlarni joylab shaharga jo'natdi. Sandiqlar shaharga olib kirilgach, ularga yarim kechada, qo'g'niroq ovozlari eshitgan zahoti sandiqlardan chiqishi kelishilgan edi. Belgilangan paytda shahar tashqarisidan Shamarning lashkarlari darvozalarga hujum qildi. Sandiqlardagilar qilich yalong'ochlab chiqdilar. (Shamar) ushbu hiyla bilan u shaharni bosib oldi va xarob qilib, (tag-tugi bilan) qazib tashladi. Shundan so'ng (xalq) "Shamar kand" ("Shamar qazidi"), - degan ekan.

Ikkinchi rivoyat. "Masolik al-mamolik" asarining muallifi (Al- Istaxriy) o'z kitobida shunday yozgan: "Kunlarning birida Samarqand Sug'diga yetib borganimda bir hovlini ko'rdim. Uning eshigi devorlariga mixlab qo'yilgan edi. Buning sababi nimada, deb so'raganimda, ular: "Yuz yildirki bu eshik ochiq turibdi, na kechasi, na kunduzi bu eshikni yopmaganlar". Shunday ham bo'lib qolardiki, yuzta yoki undan ko'proq otliq to'satdan kelib qolishlari mumkin edi. Shunday paytda ham uy egasining tashvishlanishiga hojat yo'q edi. (Chunki keladigan) odamlar va ularning ulovlari uchun hamma narsa muhayyo qilingan va barcha zarur ishlari uchun mutasaddiy tayinlangan bo'lgan. Mehmon kelishidan xonadon sohibi xursand bo'lib, chehrasi ochilib ketarkan".

SURXONDARYO VILOYATI TARIXIY YODGORLIKLARI

Said Otaliq madrasasi – Surxondaryo viloyatida joylashgan bu yodgorlik XVII asrda Said Otaliq tomonidan qurdirilgan. Bosh tarzi (qismi) peshtoqli, ikki qavatli, hujralari bor.

Sulton Saodat majmuasi – X-XVII asrlar davomida qurilgan bo'lib, Termizlik sayyidlar avlodlari dafn etilgan maqbaralar majmuasidan iborat. Termiz yaqinida joylashgan bu yodgorlikka 20 ga yaqin maqbara kirgan.

Jarqo'rg'on minorasi – XII asr boshida qurilgan bu me'moriy yodgorlik viloyatning Jarqo'rg'on tumani, Minor qishlog'ida joylashgan. 8 qirrali poydevor ustiga yarim aylana shaklida 16 qirrala qilib qurilgan. Hozirgi balandligi 21,6 m., diametri esa 5,4 m. Uni Saraxslik me'mor Ali ibn Muhammad 1108-1109 yillarda qurgani yozib qo'yilgan.

Termiziy majmuasi – IX-XV asrlarga oid bu tarixiy yodgorlik Termizda joylashgan bo'lib, maqbaralar, masjid (XI asr), xonaqoh (XV asr) va boshqa inshootlardan iborat. Bu erda buyuk alloma, muhaddis Abu Abdulloh Muhammad Hakim at-Termiziy maqbarasi mavjud.

Qirqqiz qal'asi – IX- X asrlarga oid Termizda joylashgan bu yodgorlik ilk o'rta asrlardagi boylaming shahar tashqarisidagi qo'rg'onsaroyi bo'lganligi taxmin qilinadi. Xom g'ishtdan tiklangan bu inshootning

to'rtburchangda to'rt minora – burjlari bo'lgan. Bizga qadar talay vayrona holida etib kelgan.

Zul Kifl maqbarasi – Termiz yaqinida joylashgan bu yodgorlik IX -X asrlarga oid. Unda masjid, go'rxona va ularga tutash ikki xonali bino joylashgan.

Inkandar ko'priki – viloyatda joylashgan bu ko'priki 1557-1598 yillarda qurilgan taxmin qilinadi. Qadimgi savdo yo'li (Termiz – Chag'oniyon va Hisor) Bandixonsoy ustiga qurilgan. Umumiy uzunligi 70 m. dan ortiq. Balandligi soy tubidan tepasigacha 12,1 m. Usti uch qismdan iborat: yo'lovchi va transport o'tadigan yo'l, suv o'tishi uchun nov qurilgan.

QASHQADARYO VILOYATI TARIXIY YODGORLIKLARI

Oqsaroy (Shahrisabz, XIV asming oxiri) da Amir Temur qurdirgan katta saroy, qarorgoh. Oqsaroydan bizgacha faqat ulkan peshtoqning ikki chekkasi va saroyning hovli sahni bezaklaridan bir qismigina yetib kelgan. Oqsaroy 20 yil davomida qurilgan. Tarixchilarning yozishicha Oqsaroy turarjoy va jamoat binosi –devonxona sifatida qurilib, xonalar tashqi hovli atrofida joylashgan. Saroyning favvorali hovuzlari bo'lgan. Oqsaroy devorlariga qoplangan sidirg'a koshinlar va sirkor sopollar tiniq bo'yoqlar (binafsha – ko'kimtir, zumrad – yashil ranglar, tilla suvi va boshqalar) dan nafis naqshlar ishlanib jozibador bezatilgan. Saroyning peshtoqiga “Kimki bizning kuch – qudratimizga shubha qilsa, qurdirgan binolarimizga boqsin” misralari Sohibquron Amir Temur tomonidan Oqsaroy peshtoqiga bitilgan. Inshoatning mahobatiga Z.M.Bobur ham o'z vaqtida yuqori baho bergan. Hqiqatdan Oqsaroy O'rta Osiyo me'morlik sa'natining eng yuksak va ulug'vor namunasi biridir.

Dor us - siyodat va dor ut - tilovat majmuasi – (Shahrisabz, XIV – XIV asrlar) - Amir Temur o'zi va avlodlari uchun qurdirgan masjid, madrasa va maqbaralar majmuasi.

Dor us- siyodat katta o'g'li Jahongir (1376 yil) ikkinchi o'g'li Umar Shayx (1394 yil) dafn etilgan, deb taxmin etiladi. Amir Temur o'zi uchun ham maqbara qurdirgan rivoyat bor. Peshtoq gumbazli keng xona, uning yon tomonidan masjid, go'rxonalar, ziyoratxona bo'lgan.

Dor ut – tilovat (tilovat uyi) ansamblning ikkinchi qismi hisoblanib, Ulug'bek otasi Shohruh nomidan masjid (Ko'k gumbaz, 1435 – 1436 yillar) da qurdirilgan. Dor ut – tilovatda dastlab Amir Temur otasi Tarag'ayning piri bo'lgan yirik din arbobi Shamsiddin Kulolga atab maqbara qurdirgan. 1374 yilda otasiga atab qurdirgan maqbaralarga xoki ko'chirilgan. Quyosh uslubida masjid bunyod etilgan. Ulug'bek Gumbazi Sayidon majmuasini shakllantirgan.

Jahongir maqbarasi – (Shahrisabz, 1379 – 1380 yillar) da urganchlik me'morlar Xorazm an'analari uslubida bunyod etgan deb taxmin qilinadi.

Maqbara Dor us – siyodat ansambllarining bir qismi bo‘lib, bu yerda Amir Temurning to‘satdan vafot etgan 22 yoshli to‘ng‘ich o‘g‘li Jahongir va ikkinchi o‘g‘li Umar Shayx dafn etilgan. Maqbaraning gumbazi sakkiz qirrali kulohiy qubba shaklida, poygumbazi ham 16 qirrali, bezaklarda sirlangan g‘isht va koshinlar ishlatilgan.

Gumbazi Sayidon – Sayidlar gumbazi (Shahrisabz, 1437 -1438 yillar) da maqbara chortoq tarhli, sakkiz qirrali asos ustida, baland poygumbaz va gumbaz qurilib koshin bilan qoplangan. Maqbara ichida Amir Abdul Muoniy, Muhammad Sayid va Mag‘rufjon Abul Muoniy o‘g‘illari dafn etilgan.

Bekamir Madrasasi – (Qarshi, 1903 yil) – madrasaning bosh tarzi janubga qaragan, peshtog‘ining ikki yoniga guldasta ishlangan. Ikki qavatli, o‘uyi qavatda darsxona va masjid, yuqorisida hujralar joylashgan. Hovli atrofidagi hujralar oldida sakkiz qirrali, bezakdor ravoqli.

Ko‘kgumbaz masjidi – (Qarshi, 1590 – 1991 yillar) da nomozgoh uslubida qurilgan chortoq tarhli, gumbazli bino. Old tomonidagi peshtoqdan xonaqohga kiriladi. Yon xonalar balxi gumbaz bilan, xonaqoh qo‘shgumbaz bilan yopilgan. Tashqi gumbazi ko‘k koshin bilan qoplangan, ichki gumbaz ravoqli bag‘al ustiga o‘rnatilgan. Bezagida yashil, feruza, oq rangli koshin va sirlangan g‘isht qo‘llanilgan.

Langar ota majmuasi (Qashqadaryo, XIV -XIV asrlar) da masjid va maqbaralardan iborat. Masjid chorsi tarhli, peshayvonli ikki xonaqohdan iborat. Xonaqohlar koshin va garih naqshlar bilan serhasham bezatilgan. Maqbarapeshtoq – gumbazli, silliqlangan g‘ishtlar bilan qoplangan, “bandak” va “mavj” uslubida terilgan. Gumbazi o‘zaro chorasi kesishgan to‘rt ravoqqa tayangan.

Xo‘ja Qurbon madrasasi (Qarshi, XVIII - asr) da madrasa murabba tarhli. Bosh tarzi peshtoqli, undan gumbazli miyonsaroy orqali hovliga o‘tiladi. Kichik hovli atrofi hujralar bilan o‘ralgan. Darsxona miyonsaroy tutash.

Shamsiddin kulol maqbarasi (Shahrisabz, XIV - XV asrlar) da Amir Temurning piri Shayx Shamsiddin kulol dafn etilgan (1270 yil). Maqbara bir xonali, gumbazi saqlanmagan. Ichidagi sag‘ana marmar toshdan, o‘yma naqsh bilan jozibador bezatilgan.

Shermuhammad madrasasi (Qarshi, taxminan XVII -XVIII asrlar) da madrasa chorsi tarhli, bosh tarzi besh xonadan iborat. Markazida miyonsaroy, ikki yonida darsxona joylashgan, burchaklariga guldastalar ishlangan. Guldastalar tepasi fonusli. Miyonsaroy orqali hovliga chiqiladi. Havli atrofi oldi ravoqli hujralar bilan o‘ralgan. Bezagidagi ganj o‘ymakorligi va chaspak uslubida garih naqshlar qo‘llanilgan.

Qamashi sardobasi – suv saqlanadigan hovuz. U Qashqadaryo viloyatida, 1892 yilda qurilgan. Bosh tarzi peshtoqli, gumbazi yassi

pog'onali. Gumbazidagi darachalar orqali ichiga yorug'lik tushadi. Hovuzga peshtoqdagi aylanma zina orqali tushiladi. 1913 yilda ta'mirlangan.

Mustahkamlash uchun savollar

2. Yurtimizdagi tarixiy-madaniy yodgorliklarning xalqaro miqyosda tutgan nufuzi qanday?

1. O'zbekiston me'morchiligi qanday o'ziga xos xususiyatlarga ega.

3. Shahrisabzdagi Oqsaroy me'morchiligi to'g'risida nima bilasiz?

4. Bibixonim masjidi yodgorligi haqida nima bilasiz?

5. Shohizinda me'morchilik majmuasi haqida ma'lumot keltiring.

6. Ichanqal'a me'morchilik majmuasi to'g'risida qanday ma'lumotlarni bilasiz?

7. Dishanqal'a me'morchilik majmuasi to'g'risida qanday ma'lumotlar bilasiz?

8. Xudoyorxon O'rdasi me'morchilik yodgorligi haqida so'zlang.

Tayanch so'zlar izohi:

Koshona – hashamatli ko'rkam bino; saroy, qasr, ko'shk.

Koshin – bino bezagi uchun maxsus pishirilgan sirkor, mo'rt sopol bo'lagi.

Peshtoq – Madrasa, masjid kabi hashamatli binolarning kirish qismidagi usti baland ko'tarilgan rovloqli serhasham qismi. Peshtoq devorli binolar ko'rinishida katta o'rin egallaydi, ularga mahobat, go'zallik bag'ishlaydi.

Ravoq – Binoning ichi yoki oldidagi yarim doira qilib ishlangan qismlari. Tepasi suyri, davra shaklida yasalgan tokcha, yo'lak, taxmon.

Kalit so'zlar: Amaliy san'at, majmua, an'anaviy, naqshinkor, madrasa, minora, qal'a, ark, xonaqoh, yozuvlar, ganchkorlik, bezak, maqbara, ayvon.

10 - mavzu: O'lka tarixi va turizmini o'rganishda arxivlarning o'rni

Reja:

1. Arxivlar haqida tushuncha.

2. Markaziy davlat arxivi fondlari.

3. O'zbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxivi.

Arxiv so'zi lotin tilidan olingan bo'lib, «*Arxivium*» - "hukumat binosi" yoxud mustaxkam uy, - degan ma'nolarni anglatadi. Arxivlarda tashkilot, muassada, korxonalar, jamoa va davlat xo'jaliklarining, ayrim shaxslarining ko'p yillik faoliyati haqidagi ma'lumotlar, hujjatlar saqlanadi. O'lka tarixini haqqoniy o'rganishda bu hujjatlarning ahamiyati juda katta. Arxiv hujjatlarini qidirib topish, ular ustida ishlash va olingan ma'lumotlarni hayotga tatbiq

etish murakkab ish.

Hozirgi kunda tadqiqotchilar, oliy o'quv yurtlarining professor-o'qituvchilar zimmasidagi muxim vazifalardan biri ana shu hujjatlarni har tomonlama o'rganib, ta'lim-tarbiya jarayonlarida keng foydalanish va yoshlarni shu yo'l bilan har tomonlama bilimli, barkamol shaxs qilib kamol topishlarini ta'min etishdir.

Arxiv materiallari maktab va oliy o'quv yurtlarida o'lka tarixidan o'qilayotgan ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarda yoshlarni o'tmishda kechgan ijtimoiy - siyosiy va madaniy jarayonlarning haqqoniy holati haqida aniqroq tasavvurga ega bo'lishida asosiy omil bo'lib xizmat qiladi hamda maktab o'lkashunoslik muzeyini tashkil qilishga yordam beradi.

Arxiv hujjatlari yozma va og'zaki shaklda bo'lishi mumkin. Og'zaki tarixiy hujjatlar har xil texnika vositalari bilan yozib yoki tasvirlab olinadi. Hujjatlar maxsus joylarda, ya'ni arxivlarda sohalarga ajratilib xronologik sanalariga, qimmatiga va ahamiyatiga qarab, tartibga solingan holda saqlanadi.

Bizgacha Qo'qon va Xiva xonliklaridagi va Buxoro amirligining Qushbegi arxivlari yetib kelgan. 1876 yil A.L.Troiskaya Qo'qon xonligi arxivi ustida tadqiqot olib bordi va «Katalog arxiva Kokandskix xanov XIX vekov» nomli risolasini yozdi.

O'zbekistonda arxivshunoslik ishlari faqat 1917 yildan keyin o'z ravnaqini topdi. XX asrning 20-yillardan boshlab arxiv ishlariga katta e'tibor berildi. Hujjatlarni saqlash va ulardan har tomonlama foydalanish maqsadida Xalq Komissarlari Sovetining 1918 yil 1 iyunda "Arxiv ishini qayta qurish va markazlashtirish haqida" deb nomlangan dekretiga asosan Moskvada Davlat arxiv fondi tashkil etildi.

Shu dekretga asosan tarqoq arxivlar markazlashdi. 1918 yil arxiv ishi bo'yicha «Yagona Davlat Arxivi Jamg'armasi»(YaDAJ) to'g'risida qaror qabul qilindi. Shu qarorga asosan tarqoq arxivlar markazlashdi.

1919 yil 15 - noyabrda «Arxiv ishlari Markaziy boshqarmasi» (AIMB) boshlig'i V.I.Kucherbaev Moskvadan Toshkentga keldi.U arxivshunos D.I.Nichkin bilan hamkorlikda Toshkentda arxiv ishlarini tartibga solish uchun tadqiqot ishlarini olib bordi.

Hozirgi vaqtda Davlat Arxiv Fondi (DAF) tarkibiga 1917 yilgacha va undan keyingi davrlar bo'yicha barcha tashkilotlarning faoliyati, muassasalar va ayrim shaxslar, shuningdek tarixiy yozma yodgorliklar, huquq, san'at, adabiyot va Hamdo'stlik davlatlari xalqlarining maishiy, ma'naviy madaniyati, kinofoto hujjat fondlari, kinofilm negativlari, fotosuratlar, grammafoniya, patifon plastinkalari va yozib olingan ovoz materiallari, ilmiy-tarixiy va amaliy ahamiyatga ega bo'lgan boshqa narsalar: illyustratsiyalar, qo'lyozma negativlar, shuningdek, targ'ibot va tashviqot maqsadida nashr qilingan plakatlar, varaqalar, e'lonlar va boshqalar, mikrofoto hujjatlari kiritilgan.

Markaziy Davlat Arxiv Fondlari qat'iy ilmiy asosda tashkil qilingan

bo'lib, ular bu yerda joylashgan xalq xo'jaligi, ilmiy tadqiqot va ilmiy ma'rifiy ishlarga doir hujjatlardan aniq va tez foydalanish imkonini beradi. Davlat Arxiv Fondini boshqarish Davlat Arxivi Bosh boshqarmasi (DABB) ga topshirilgan. DABB va uning joylardagi organlariga bir qator yirik Davlat tarixiy arxivlari qaraydi. Bular quyidagi Hamdo'stlik mamlakatlari miqyosidagi arxivlardir: Moskvadagi qadimgi hujjatlarni saqlaydigan Markaziy Davlat arxivi, Sankt-Peterburgdagi Markaziy tarix arxivi, Moskvadagi Markaziy harbiy-tarixiy arxiv, Sankt - Peterburgdagi Markaziy harbiy-dengiz floti Davlat arxivi, Oliy davlat organlari Bosh boshqarmasining arxivi, Moskvadagi Markaziy xalq xo'jaligi Davlat arxivi, Markaziy Armiya arxivi, Markaziy adabiyot va san'at arxivi, Markaziy davlat kinofoto hujjatlari arxivi va 50 ta Respublika Markaziy davlat arxivlari, 130 ta viloyat va o'lka Davlat arxivlari va 2000 ga yaqin shahar va tuman Davlat arxivlari ham Davlat arxivlari Bosh boshqarmasiga qaraydi. Bundan tashqari, har bir viloyat markazida o'sha viloyatning faoliyatiga oid tarixiy hujjatlarni saqlaydigan viloyat Davlat arxivlari bor.

Toshkentdagi O'zbekiston Respublikasi Markaziy Davlat arxivi (O'zRMDA) saqlanayotgan qimmatbaho hujjatlarning soni va mohiyati jihatidan O'rta Osiyo davlatlari Markaziy Davlat arxivlari ichida eng yirigidir. Unda asosan XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab, to hozirgi vaqtgacha bo'lgan juda ko'p sonli hujjatlar saqlanmoqda. Turkiston General gubernatorligiga qarashli, hozirgi O'zbekiston, Turkmaniston, Tojikiston, Qirg'iziston va qisman Qozog'iston Davlatlari hududlaridagi viloyat, uezd, volost, muassasa va korxonalar hamda tashkilotlarning tarixiy faoliyatiga doir bo'lgan muhim hujjatlar mana shu Markaziy arxivda saqlanmoqda.

Bu yerdagi Turkistonda podsho hukumatining olib borgan mustamlakachilik siyosati, rus xalqi bilan O'rta Osiyo xalqlari, shu jumladan o'zbek xalqining madaniy aloqalari, chor burjua apparati va ba'zi tashkilotlarning bekor qilinishi haqidagi xilma-xil va boy materiallar o'lka tarixini har tomonlama chuqur o'rganishda muhim hujjat bo'lib xizmat qiladi. Turkiston o'lkasidagi Chor hukumatining ma'muriy tashkilotlari faoliyatiga doir hujjatlar to'laligicha saqlangan. Bu hujjatlarning ko'pchiligi Chorizmning Turkistondagi mustamlakachilik siyosatiga oid bo'lib, unda mahalliy aholining ijtimoiy-siyosiy ahvoli, chorizmning yurgizgan siyosati, chorizm amaldorlarining hatti-harakatlari, chorizmga qarshi xalq harakatlari, qurg'oqchilik, qashshoqlik va huquqsizlikka qarshi kurashlarga oiddir. Arxiv hujjatlari tartibli ravishda saqlanmoqda.

O'rta Osiyo xonliklari, diniy boshqarmalari faoliyatiga doir hujjatlar deyarli yo'q bo'lib ketgan ayrim mavjud materiallar esa o'lkaning podsho Rossiyasi tomonidan bosib olinishi jarayonidagi harbiy to'qnashuvlar davrida yo'q qilib yuborilgan.

Akademik V.V. Bartoldning so'zlariga qaraganda, bosib olingan joylarda xonliklarning kutubxona va arxiv hujjatlarini saqlab qolish uchun

hech qanday chora tadbir ko'rimagan. Umuman, ular O'rta Osiyo xalqlarining madaniyati va tarixiy yodgorliklarini saqlab qolishga yetarli ahamiyat berishmagan. Umuman, 1917 yilgacha arxiv ishlari yaxshi ishga qo'yilmagan. Undan keyingi saqlanib qolgan hujjatlar esa O'zbekiston Markaziy Davlat Arxivining maxsus bo'limlarida saqlab keldi.

O'zbekiston Markaziy Davlat Arxivida saqlanayotgan bu bebaho hujjatlar XIX asrning ikkinchi yarmida to XX asrning boshlarigacha bo'lgan O'rta Osiyo, shu jumladan, o'lka xalqlari tarixini o'rganishda katta manba bo'lib xizmat qiladi.

Arxiv ishlari, uni tartibga solish va rivojlantirish faqat XIX asrning 20 – yillaridan keyingina to'liq amalga oshirila boshlandi. Dastlabki kunlardan boshlab arxiv ishlarini tartibga solish va qayta qurish tadbirlari amalga oshirildi. 1928 yil 1 iyunda sobiq Sovet hukumatining **“RSFSRda arxiv ishlarini qayta qurish va markazlashtirish to'g'risida”** deb chiqargan Dekreti asosida Turkiston ASSRda, so'ng O'zbekiston SSRda ham arxiv ishlari qayta ko'rib chiqildi va markazlashtirildi.

Davlat arxivi bo'limi 8 ta sho'ba, 4 ta bo'limdan iborat:

1. Ma'muriy–diplomatik, yuridik sho'ba.
2. Harbiy sho'ba.
3. Maorif va iqtisodiyot sho'bas.
5. Tarixiy–inqilobiy sho'ba va b.

Arxivlarda hujjatlarning saqlanish muddatlari 1, 10, 25, 75 yil va bir umrlik qilib belgilangan. 1920 yil martda Farg'onada, iyunda Samarqandda, 1921 yil Buxoroda arxiv jamg'armalari (AJ) tashkil etildi.

1924 yil 28–dekabrda maxsus qaror bilan sobiq O'zSSR MIK huzurida Arxiv Ishlari Markaziy Boshqarmasi (AIMB) tashkil qilindi. Unda asosan O'zbekistonda tashkil qilingan arxivlar: Farg'ona, Toshkent, Samarqand, Buxoro, Xorazm va boshqa viloyatlarda vujudga kelgan arxiv jamg'armalari Arxiv ishlari Markaziy Boshqarmasiga topshirildi.

1925 yil 25– iyul qarori bilan MIK va XKS (Xalq komissarlari soveti) da «Markaziy boshqaruv» to'g'risida qaror qabul qilindi. 1931 yil 20 mayda O'zbekiston Markaziy Ijroiya Qo'mitasining qaroriga asosan O'zbekiston Markaziy Davlat arxivi tashkil etildi. O'sha paytgacha XIX asrning 20–30 yillariga doir hujjatlar O'zbekiston Markaziy arxivi ishlari boshqarmasining har xil sho'balarida saqlanib kelinar edi.

Tarix va madaniyat, yuridik va iqtisodiy bo'limlardagi 122 ta fondagi 188 710 ta ish birligi (ed.xr.) yoki hujjatlar 1926 yilga qadar arxiv ishlari boshqarmasining 3 ta sho'basida saqlanib keldi.

1924 yili O'rta Osiyoda milliy davlat chegaralanishi o'tkazilishi munosabati bilan Turkiston ASSR, Buxoro va Xorazm Sovet Xalq Respublikalari tugatilib, ularning o'rnida O'zbekiston SSR tashkil topgach, soha arxivlaridagi barcha hujjatlar O'zbekiston Markaziy Davlat arxiviga topshirildi va arxiv fondlari shu hujjatlar hisobiga boyidi. Shundan so'ng

Respublikaning barcha tashkilotlaridagi hujjatlar muntazam ravishda Markaziy arxivga kela boshladi.

Markaziy arxiv fondlaridan joy olgan bu hujjatlar faqat o'zbek xalqining tarixinigina emas, balki turkman, tojik, qirg'iz, qozoq va boshqa qardosh xalqlar tarixini ham chuqur va har tomonlama o'rganishda katta ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy Davlat arxiv fondlarida hali tadqiqotchilarning qo'li tegmagan, Turkiston xalqlarining 1918 – 1920 yillarda olib borgan milliy-ozodlik va erk uchun kurashlari to'g'risida, Turkiston Sho'rolar hukumatining Turkiston muxtoriyatini tan olmaganligi, uni ag'darib tashlab, yo'q qilganligi, milliy istiqlol uchun kurash olib borgan Qo'qon, Andijon, Marg'ilon, Namangan kabi shaharlar ko'pchilik aholisining Sho'rolar tomonidan shafqatsizlik bilan qirilganligi, milliy siyosatni amalga oshirishda Sho'rolar hukumatining yo'l qo'ygan xatolari natijasida birgina Farg'ona vodiysida 180 dan ortiq shahar-qishloqlarning shafqatsizlik bilan yo'q qilib yuborilganligi haqidagi muhim hujjatlar mavjud.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy Davlat arxivi Toshkent shahri, Chilonzor ko'chasidagi 4 qavatli hashamatli binoda joylashgan. Bu bino arxiv hujjatlarini saqlashga moslab qurilgan. Hujjatlar saqlanayotgan xonalardan tortib, to o'quv zaligacha zamon talabiga javob beradigan qilib jihozlangan. Hozirgi vaqtda O'zbekistonda Respublika ahamiyatiga molik 3 ta Markaziy arxiv, 11 ta viloyat arxivi va joylarda ularning 40 dan ortiq filiallari bor.

Arxiv hujjatlari asosida juda ko'plab ilmiy ishlar himoya qilingan.

O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Tarix va arxeologiya instituti ilmiy xodimlari 4 jildlik "O'zbekiston xalqlari tarixi"ni arxiv hujjatlari asosida tayyorlaganlar. Nashrdan chiqqan ko'pgina yirik ilmiy ishlar shu arxiv hujjatlaridan foydalangan holda maydonga keladi. O'tgan davrda o'zbek xalqi erishgan yutuq va kamchiliklar haqidagi ma'lumotlarni olishda arxiv materiallaridan juda ko'p foydalanildi va shu asosda yirik ilmiy tadqiqot ishlari yuzaga keldi.

Arxiv hujjatlaridan foydalanish va o'rganishga bo'lgan qiziqish kundan kunga ortib bormoqda. Hozirgi vaqtda pedagogika oliy o'quv yurtlari, universitetlarning Tarix fakultetlarida "Tarixiy o'lkashunoslik", "Tarixiy o'lkashunoslik va turizm" fanining o'qitilishi talabalarning arxiv hujjatlarini o'rganishga bo'lgan qiziqishlarini yanada kuchaytirdi. Ko'pgina talabalar o'zlarining kurs ishi, bitiruv malakaviy ish va magistrlik ishlarini arxiv materiallari asosida yozmoqdalar.

Arxiv hujjatlaridan foydalanishni osonlashtirish maqsadida "yo'riqnomalar" nashr qilingan, bular arxivda saqlanayotgan hujjatli manbalarning ma'no-mazmunini ochib beradi, hujjatlarni o'rganuvchilarga qulaylik tug'diradi.

O'lkashunoslikning asosiy manbalaridan biri hisoblangan arxivshunoslik o'lka tarixini, shu jumladan O'zbekiston tarixini har tomonlama va chuqur o'rganishda talabalarga katta yordam beradi.

Shuni takidlab o'tish kerakki, Respublikamizning hamma tumanlarida va viloyatlarida tuman va viloyat arxivlari mavjud. Tuman arxivlari o'z qo'l ostidagi barcha muassasa va tashkilotlardagi Davlat ahamiyatiga ega bo'lgan hujjatlarni yig'ib oladi va ma'lum muddatdan so'ng ularni viloyat davlat arxivlariga, ular esa o'z soha va tarmoqlari bo'yicha Respublika arxivlari yoki boshqarma, yoki vazirliklarga, ular ham o'z navbatida bir qancha muddat saqlaganlaridan so'ng Markaziy Davlat arxivining qonun-qoidalariga rioya qilgan holda hujjatlarni tayyorlab, so'ng Markaziy Davlat arxiviga topshiradi.

Bundan tashqari, Toshkentda Respublika partiya tashkilotlari, ya'ni tuman, viloyat, Respublika partiya tashkilotlarining ham maxsus arxivlari mavjud. Bu arxivlarda boshlang'ich partiya tashkiloti hujjatlari saqlanadi. Ushbu arxivlardan tashqari fan sohasining bir necha tarmoqlarini o'z ichiga olgan arxivlar ham bor.

Mustaqillik yillaridan boshlab, O'zbekistonda arxiv ishlarini rivojlantirish borasida yirik ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, 1999 yil 15 aprelda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining "Arxiv ishi to'g'risida"gi qonuni qabul qilindi. 2004 yil 30 aprelda esa ushbu qonunga o'zgartirishlar kiritildi.

2009 yil 3 noyabrda O'zbekiston Respublikasining "Arxiv ishi to'g'risida" navbatdagi qonuni qabul qilindi. Bu qonun 6 bob, 36 moddadan iborat. Unda O'zbekistonda arxiv ishi sohasidagi munosabatlarni tartibga solishga doir masalalar aks etgan bo'lib, arxiv ishlarini zamonaviy tarzda tashkil etishni yo'lga qo'yish, hujjatlarni saqlanishi va ulardan foydalanishni yanada samarali bo'lishini ta'minlashga muhim e'tibor qaratilgan. Ayniqsa, hozirgi vaqtda arxiv hujjatlarining kompyuterlashtirilishi, axborot olish imkoniyatini yanada osonlashuviga olib kelmoqda.

Arxiv hujjatlari har bir darsning g'oyaviy, siyosiy tomonlarini daliliy materiallar bilan asoslaydi, uning ta'limiy va tarbiyaviy ahamiyatini oshiradi, yosh avlodning, ajdodlarimiz merosini o'rganishga bo'lgan qiziqishini ta'minlaydi va ularda vatanparvarlik tuyg'usini shakllanishiga xizmat qiladi.

1. Arxivlar haqida qanday tushunchaga egasiz va ularning o'lkashunoslikdagi ahamiyati qanday?
2. O'zbekiston Markaziy Davlat arxivi qanday fondlarga ega?
3. Mustaqil O'zbekistonda arxiv ishlari qanday yo'lga qo'yilgan?
4. Arxiv ishlarini tashkil etishga doir O'zbekistonda qanday qonunlar qabul qilingan?

Tayanch so'zlar izohi:

Fond – arxivlarda ma'lum yo'nalishdagi hujjatlar saqlanadigan joy, jamg'arma.

DAF – Davlat Arxiv Fondi.

Arxiv – (hujjat asrov) davlat ahamiyatiga molik hujjatlar saqlanadigan muassasa.

Kalit so'zlar: Arxiv hujjatlari, arxiv jamg'armasi (arxiv fondlari), xujjatlarning yagona saqlanmasi, arxiv ishlarining yo'lga qo'yilishi, arxiv ishlarining yo'lga qo'yilishi, arxiv ishlarini qayta qurish, kinofil negativlari, fotosurat, xaritalar, plakat, hujjatlarni kompyuterlashtirish, arxiv ishiga doir qonunlar.

11-mavzu: O'lka tarixi va turizmini o'rganishda muzey eksponatlari va o'lkashunoslik to'garaklari

Reja:

1. Tarixiy o'lkashunoslik va turizm fanini o'rganishda muzeylarning ahamiyati. Muzey turlari.
2. O'zbekiston tarixi Davlat muzeyi.
3. Maktab muzeylari.
4. O'lkashunoslik to'garaklari.

1960–1990 yillar muzeyshunoslikni mustaqil ilmiy fan sifatida tan olish masalasi bo'yicha xalqaro munozaralar davri bo'lib, ushbu yillarda muzeyshunoslikka mustaqil fan maqomi berildi. Muzeyshunoslik bo'yicha ilmiy ishlar yuzaga keldi. Muzeyshunoslik bo'yicha lug'atlardan o'rin olgan, turli mamlakatlarda iste'molda bo'lgan, xalqaro miqyosda ko'p ishlatiladigan “ob'ekt”, “predmet”, “muzeyshunoslik metodi” kabi muhim tushunchalarga aniqlik kiritadigan maxsus til ishlab chiqildi. Muzeyshunoslik fanlararo ahamiyatga ega bo'lgan, rivojlanayotgan, fanning mustaqil sohasi, o'quv fani sifatida rasmiy e'tirof etildi¹. Muzeyshunoslikni nazariy fan sifatida talqin

¹ Эгамов А., Бақылова К., Нишоновна Н. Музейлар замонавий Ўзбекистон маданияти тизимида. Т. 2007. 596.

etilishida faol ishtirok etgan xorijiy muzeyshunoslar jumlasiga I. Benet, I. Neustupniy, A. Grigoriy, V. Xerbst, I. Ave, K. Shrayner, V. Gluzinskiy va boshqalarni aytish mumkin.

Respublikamiz hududida uch turdagi muzeylar mavjud bo'lib, birinchi turdagi muzeylarga ilmiy-tadqiqot va madaniy – ma'rifiy ishlarni olib boradigan muzeylar kiradi. Ikkinchi turdagi muzeylarga faqat bir soha bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlar olib boradigan, muzey laboratoriyalarga ega bo'lgan maxsus muzeylar (masalan, O'zbekiston Fanlar akademiyasi qoshidagi bakteriologiya va mineralogiya muzeylari) kiradi va nihoyat, uchinchi turdagi muzeylarga faqat o'quv turidagi muzeylar kiradi. Bu muzeylarning asosiy maqsadi o'quv jarayonini zamon talablari darajasida yaxshilashdan iborat.

Muzey turlari ko'p jihatdan unda saqlanayotgan kolleksiya jamg'armalarining tavsifiga, ular faoliyatining yo'nalishiga bog'liq. Shuningdek, turli fan sohalariga tegishli bo'lgan muzeylar ham bor. Bu muzeylar orasida ko'proq ma'lum bo'lganlari asosan tegishli soha mutaxassisliklariga oid tarmoq muzeylardir. Masalan, O'zbekiston tarixi Davlat muzeyi, Tasviriy san'at muzeyi, Alisher Navoiy nomli adabiyot muzeyi, Turkiston harbiy okrugi muzeyi, Termiz davlat arxeologiya muzeyi, Tabiatshunoslik muzeylarini aytish mumkin. Arxeologiya va etnografiya materiallari deyarli hamma muzeylarda keng ko'lamda o'z o'rnini topgan. Ammo harbiy-tarixiy, memorial, regional, san'atshunoslik, texnika muzeylarini ko'proq o'sha soha mutaxassislariga mosligi bilan cheklanib qolgan. O'quvchilarni ularni o'rganishga qiziqtirish davr talabidir.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, muzey materiallari asosida o'lkamiz eng qadimgi davriga oid noyob, yodgorliklarni, qadimgi va o'rta asrlarga oid ashyoviy materiallarni keyingi vaqtlarda, ayniqsa, mustaqillik yillarida yurtimizda erishilgan yutuqlar va ulkan bunyodkorlik ishlarini o'zida aks ettiruvchi eksponatlarni muzeylarda, shuningdek, maxsus ko'rgazmalarda namoyish qilib borish keng jamoatchilikni, shu jumladan, o'quvchi va talabalarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishiga xizmat qiladi. Muзейlarimizning ko'pchiligi tarixiy va madaniy yodgorliklarni tadqiq va targ'ib qiladigan qutlug' maskanlarga, buyuk allomalarimiz - oqil va fozil kishilar asarlari, nodir qo'lyozmalarining hamda xalq ustalari yasagan buyumlar saqlanayotgan xazinalarga aylangan.

Bugungi kunda O'zbekistonda madaniyat va sport ishlari Vazirligi tasarrufidagi 82 ta muzey mavjud bo'lib, shulardan 39 tasi tarix, o'lkashunoslik, turizm ixtisosligidagi muzeylardir. O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi tasarrufida esa uchta muzey bo'lib, O'zbekiston tarixi Davlat muzeyi, Temuriylar tarixi Davlat muzeyi, Alisher Navoiy nomidagi Adabiyot muzeylari shular jumlasidandir.

So'nggi yillarda mamlakatimizdagi bir qator qadimiy shaharlarning yubiley - tantanalari o'tkazildi. YuNESKO qarori bilan Xiva, Buxoro va

Termizning 2500 yilligi, Shahrisabz, Qarshining 2700 yilligi, Samarqandning 2750 yilligi va Vatanimiz poytaxti Toshkentning 2200 yilligini o'tkazilishi ushbu shaharlardagi tarixiy obidalarni tiklash, ta'mir qilinishiga, shuningdek, ulardagi muzeylar ishini tubdan yaxshilanishiga, kolleksiyalarni yangi arxeologik topilmalar bilan to'ldirilishiga imkon berdi. Ulardan biri **Termiz arxeologiya muzeyi** bo'lib, 2001 yilning 24 oktyabrida tashkil etildi. Muzey o'z faoliyatini 2002 yil 2 aprelidan boshlagan. Uning fondlarida viloyatning moddiy va ma'naviy madaniyatiga oid 27000 dan ortiq ashyolar saqlanadi.

Bu yerda yig'ilgan va saqlanayotgan barcha materiallar muzeyning ilmiy bazasini tashkil etadi va uning faoliyatida asos bo'lib xizmat qiladi. Mana shu manbalar asosida muzeylar ilmiy tadqiqot hamda madaniy-ma'rifiy, ta'lim-tarbiyaviy ishlarni olib boradi.

Mustaqillik yillarida muzey-qo'riqxonalariga ham davlat tomonidan e'tibor kuchaytirildi. Masalan, **Samarqand Davlat muzey - qo'riqxonasi** o'zining 100 yildan ziyod davom etgan faoliyati natijasida Respublikamizning yirik muzey-qo'riqxonasiga aylandi. 1977 yilda u Xalqaro Muzeylar Kengashi (IKOM) ga a'zo bo'lgan. Muzey - qo'riqxonada xodimlari Xalqaro Muzey Kengashi dasturi bo'yicha Fransiya, Germaniya, Irlandiya, Rossiya, Ukraina, Latviya, Qozog'iston kabi mamlakatlarda bo'lib o'tgan anjumanlarda qatnashdilar. O'z navbatida 1981 yil Xalqaro muzeylar Kengashining mintaqaviy anjumani qatnashchilarini qabul qildi.

So'nggi yillarda tashkil etilgan **muzeylardan biri - islom dini tasavvuf oqimi tarixi muzeyi bo'lib**, u buyuk hamyurtlarimiz, O'rta Osiyodagi tasavvuf ilmining asoschilaridan biri **Abduxoliq G'ijduvoni**ning 900 yilligi va **Bahovuddin Naqshbandi**ning 685 yilligi yubileylari munosabati bilan ochilgan. Undagi ekspozitsiya materiallari VII asrdan XXI asr boshlariga qadar bo'lgan davrga oiddir. Ekspozitsiya markazida "Qur'oni Karim"ning qo'lyozma nusxalaridan biri va uning atrofida "Hadis"lar joylashtirilgan. Buning o'ziga xos ramziy ma'nosi bor. Chunki, tasavvuf ta'limoti negizida maqaddas sanaladigan Qur'oni Karim va Hadisi Sharif yotadi.

Nufuzli muzeylardan yana biri - O'zbekiston Respublikasi geologiya va mineral resurslar Davlat qo'mitasining **Geologiya muzeyi** 1988 yili ochilgan. Muzeyda O'zbekiston geologiya muzeyi boshqarmasi tomonidan to'plangan kolleksiyalar hamda geologiya tashkilotlari, muassasalar, taniqli geolog olimlar tomonidan 75 yil davomida to'plangan kolleksiyalar jamlangan. Geologiya muzeyi qisqa vaqt ichida Davlat geologiya qo'mitasining tadqiqot ishlari hamda Respublikamizning turli hududlarida izlanishlar olib boradigan ilmiy-o'quv markaziga aylandi. Zero, u geologik ishlab chiqarish bilan shug'ullanadigan turli tashkilot va muassasalarning muzeylari ustidan uslubiy-boshqaruv markazi vazifasini ham amalga oshiradi. Aholi keng qatlamlari, oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimida o'quv - ma'rifiy ishlarning olib borilishini ham geologiya muzeyi o'zining muhim

vazifasi deb hisoblaydi. Muzey ekspozitsiyalari va saqlov xonalarda saqlanayotgan ashyolar soni 32 000 dan ortiqdir.

Muzeylar faqatgina dam olish, madaniy hordiq chiqarish maskani bo'libgina qolmay, balki ular dunyoqarashimizni kengaytirishda ham muhim ahamiyatga ega.

Taniqli olimlar va jamoat arboblari A.P. Fedchenko, V.F.Oshanin, N.A.Maev va boshqalarning tashabbusi bilan 1876 yilda ta'sis etilgan **O'zbekiston tarixi Davlat muzeyi** haqida alohida to'xtalish lozim. U O'rta Osiyoda eng to'ng'ich muzey hisoblanadi. O'zining 135 yilga yaqin o'tgan faoliyati davrida muzey respublikaning eng yirik ilmiy-tadqiqot, madaniy-oqartuv dargohiga aylandi. Endilikda u O'zbekiston xalqining beqiyos ma'naviy-madaniy boyligi saqlanayotgan muborak xazina timsolida ardoqlidir. Uning fondida 250 mingdan ortiq turli eksponatlar mavjud bo'lib, ayni vaqtda ular jahonning ko'plab mamlakatlarida o'tadigan ko'rgazmalarning ko'rki hisoblanadi. Muzeyimizga yuz minglab chet ellik sayyoh va mehmonlar hamda yurtdoshlarimiz tomosha qilish uchun tashrif buyurmoqdalar. Muzey ekspozitsiyalari Belgiya, AQSh va Yaponiya singari chet el mamlakatlarida bir necha marta namoyish qilingan. Eksponatlar rang-barang bo'lib, eng qadimgi davrlardan tortib, hozirgi vaqtgacha bo'lgan yodgorlik namunalari o'z ichiga olgan. Uning birinchi bo'limida tosh (eramizdan oldingi 600–3 minginchi yillar) asri materiallari namoyish qilinadi. Bu yerda shuningdek, ko'chmanchilik davri madaniyati, Zamonbobo manzilgohidagi odamlarning dehqonchilik merosi sayyohlarning e'tiborini o'ziga jalb etadi.

Hozirgi vaqtda yurtimizda turli soha muzeylari faoliyat ko'rsatmoqda. O'tgan yillar mobaynida muzeylar xalqimizning, ayniqsa yoshlarning haqiqiy madaniy-ma'rifiy maskaniga aylanib qoldi. Poytaxtimizning "Mustaqillik maydoni" yonida joylashgan "O'zbekiston tasviriy san'at galereyasi" ham shu fikmi tasdiqlaydi. 2004 yili O'zbekiston Respublikasining Mustaqillik kunida ochilgan Galereya zallarida XX asrning boshlaridan hozirga qadar yaratilgan O'zbekiston tasviriy san'ati asarlarining boy to'plami, O'rta Osiyoda zarb etilgan noyob tangalar kolleksiyalari namoyish etiladi.

Hozirgi kunda O'zbekistonda faoliyat ko'rsatayotgan rang-barang muzeylar qatoridan uy-muzeylar ham joy olgan bo'lib, ularning aksariyat qismi mamlakatimiz poytaxti – Toshkent shahrida joylashgan, ular quyidagilardir:

- Abdulla Qodiriy uy-muzeyi;
- Muso Toshmuhammad o'g'li Oybek uy-muzeyi;
- G'afur G'ulom uy-muzeyi;
- Muxtor Ashrafiy uy-muzeyi;
- O'rol Tansiqboev memorial uy-muzeyi;
- Yo'ldosh Oxunboboev memorial uy-muzeyi;
- Tamaraxonim memorial uy-muzeyi;

- Habib Abdullaev uy-muzeyi;
- Yunus Rajabiy uy-muzeyi va boshqalar.

Muzeylar vositasida Vatanimiz o'tmishining unutilgan boy sahifalarini - tariximizni qayta tiklash, yoshlar ongida milliy g'urur, milliy ongni yuksaltirish, yosh avlodni buyuk ajdodlarimizning nomi va merosi bilan faxrlanishga o'rgatish, hattoki, akademik litsey, kasb-hunar kollejarining tarix, shaxs va jamiyat, o'lkashunoslik, turizm darslarini joylarda tarix, o'lkashunoslik muzeylarini tashkil etish asosida o'quvchi va talabalar ongida vatanga muhabbat ruhiyatini shakllantirish, ularni yaxshi an'analarning davomchisi qilib tarbiyalash muhimdir. Bu ishlarni amalga oshirishda maktab, akademik litsey, kasb-hunar kollejarida tashkil etilgan muzeylar katta ahamiyatga ega. Shu tufayli ham ta'lim muassasasi, akademik litsey, kasb-hunar kollejarida tashkil etilgan muzeylarning yoshlar tarbiyasi va kamolotida tutgan o'rni beqiyoh hisoblanadi.

Muzey bo'ylab sayohat va undagi eksponatlarni ko'rib-kuzatish, yaqindan tanishish inson xotirasida uzoq saqlanadi. Chunki, o'quvchi u yerga borgach ilgari hech kuzatmagan, balki faqat kitoblardagina o'qigan yoki rasmini ko'rgan narsalarning o'zini yaqqol ko'rib, boshqa dunyoga tushib qolganday sezadi o'zini. Bu yerda ko'rgan narsalari, kim bilan ilk bor muzeyga borganligi esa hech qachon yodidan chiqmaydi. Zero, ko'z bilan ko'rib-kuzatish orqali olingan axborotlar inson xotirasida yaxshi saqlanishini mutaxassislar qayd etishgan. Shu tariqa yoshlarizni tarixiy yodgorliklarni avaylab saqlashga, tarixiy obidalarga mehr-muhabbat bilan qarashga o'rgatib, bu yodgorliklar faqat o'tmishni o'rganish uchungina emas, shu bilan birga ilm-fanni, xalq maorifi va madaniyatini yanada rivojlantirish uchun ham muhim ahamiyatga ega ekanligini anglatish zarur.

Maktab, akademik litsey, kasb-hunar kollejarining muzeylari o'quvchilar bilan olib boriladigan barcha o'lkashunoslik ishlarining markazi hisoblanadi. U, birinchidan, maktabda o'quv-tarbiya ishlarini yaxshilashga, o'quvchilarda ijtimoiy-siyosiy faollikni shakllantirishga, ularni vatanparvarlik, burchga sadoqat, o'lka tarixiga hurmat ruhida tarbiyalashga katta yordam beradi. Ikkinchidan, o'lka tarixiga oid yozma va moddiy-madaniy yodgorliklarning bir joyga to'planishi hamda saqlanishi davlat va xalq muzeylari jamlanmalarining boyib borishiga imkon yaratadi.

Ta'lim muassasasidagi o'lkashunoslik muzeyi - tarixiy-madaniy materiallar to'planib, namoyish qilishga mo'jallangan, eksponatlarning asl nusxalari yoki ko'chirmalari davrlar bo'yicha ilmiy tizimga solingan, muassasa jamoasi, o'quvchilar hamda o'sha hududda yashaydigan mahalliy aholiga mo'ljallangan ilmiy madaniy joydir.

Shuning uchun ham har bir ta'lim muassasasi o'zining o'lkashunoslik muzeyiga ega bo'lmog'i kerak. Muzey tashkil qilinishdan avval o'quv muassasaning pedagogik kengashi va jamoat tashkilotlari tomonidan puxta ishlangan, o'quv muassasaning pedagogik kengashi tarafidan tasdiqlangan

rejaga ega bo'lishi lozim. Rejada birinchi navbatda tuziladigan muzeyning yo'nalishi aniqlab olinishi kerak. Ma'lumki, muzeyning yo'nalishi muassasada o'qitilayotgan fanlarning o'ziga xos xususiyatlarini, muzeyning asosiy jamlanmasini, ya'ni yozma va moddiy-madaniy yodgorliklarning asl nusxalarini qidirib topish imkoniyatlarini, o'quv- tarbiya ishlarining maqsad va vazifalarini, o'qituvchi hamda o'quvchilarning istak va manfaatlarini, nihoyat muassasa joylashgan qishloq, tuman, viloyat va o'lkani xususiyat hamda imkoniyatlarini hisobga olgan holda belgilanadi. Shunga ko'ra o'quv muassasa muzeyi tarixiy-inqilobiy, harbiy-tarixiy (jangovar), shon-shuhrat, arxeologiya, etnografiya, memorial, qishloq yoki shahar, o'quv muassasa tarixi yo'nalishida tuzilishi mumkin. Majmua (kompleks) muzey, ya'ni tabiat, xo'jalik va tarix bo'limlaridan iborat bo'lgan muzey davlat va o'lkashunoslik muzeylari bo'lmagan qishloq hamda shaharcha muassasalarida tuziladi.

Davlat yoki mahalliy o'lkashunoslik muzeylari mavjud bo'lgan yerlarda esa boshqa yo'nalishdagi o'lkashunoslik muzeylari (tarixiy-inqilobiy, harbiy-tarixiy, arxeologik, memorial, etnografik va hokazo) tuzilishi mumkin. O'lkashunoslik muzeylarining bu yo'nalishdagilarini tashkil etganda shunga alohida etibor berish kerakki, ular butun imkoniyati bilan ta'lim-tarbiyaning maqsad va mafaatlariga to'la xizmat qilsin, tuman, shahar va o'lkadagi aholining o'tmishi, hayot tarzi, shuningdek bu yerda bo'lib o'tgan inqilobiy harakat tarixini ko'rsatib bera olsin.

Maktab, akademik litsey, kasb-hunar kollejlarida tashkil etilgan muzey eksponatlari bilan tanishish va uni o'rganishdan maqsad:

1. O'quvchilarning ijtimoiy fanlardan olgan bilimlarini muzeydagi asl nusxa eksponat materiallari asosida aniqlashtirish, chuqurlashtirish va kengaytirishdan iborat.

2. O'quvchilarni muzeydagi eng muhim eksponatlarning tarixi bilan tanishtirish tushuntirish, orqali o'lka tarixini o'rganishning ahamiyatini ochib berish.

3. Dars mavzusini bayon qilish vaqtida o'zbek xalqining vatanparvarligini, xalqlar do'stligi va qardoshligini asoslab beruvchi daliliy hujjatlar va madaniy yodgorliklarni ko'rsatib berish.

Maktab, akademik litsey, kasb-hunar kollejlarida o'lkashunoslik muzeylarini tashkil etish. Ta'lim tizimida muzeylarni tashkil etishda quyidagi muammolarning hal etilishi amaliy natijalar berishi mumkin:

1. O'quv-amaliyot darslarini olib borish uchun maktab, akademik litsey, kasb-hunar kollejining moddiy - texnika bazasini yaratish, uni bugungi kun talablari asosida jihozlash.

2. Maktab, akademik litsey, kasb-hunar kollejlari bilan turli yo'nalishlardagi muzeylar o'rtasida aloqalarni yo'lga qo'yish, dars jarayonini amaliyot bilan bog'lash.

3. Ta'lim tizimidagi faoliyatni poytaxtimiz va viloyatlar, ayniqsa,

qishloqlar bilan muvofiqlashtirish yoki kadrlarni viloyatlarda ishlashga bo'lgan ishtiyoqini oshirish.

Maktab muzeyi oldiga juda katta va ulkan vazifalar qo'yilgan bo'lsada, u xalq va davlat muzeylaridan o'ziga xos xususiyatlari bilan tubdan farq qiladi. Birinchidan, maktab muzeyi o'quvchilar uchun mo'ljallangan. Ikkinchidan, bu muzey maktab o'qituvchilari jamoasi hamda yoshlar o'lkashunoslik to'garagi a'zolari tomonidan yig'ilgan materiallar asosida tashkil etiladi. Uchinchidan, muzeydan faqat yuksak tarbiyaviy maqsaddagina emas, balki ta'lim jarayonida ham unumli foydalanish mumkin. Politexnika ta'limida kichik muzeylarni tashkil etish benihoya katta ahamiyatga ega.

O'lkashunoslik to'garaklari. Ta'lim muassasalarida muzey ishi o'lkashunoslik to'garagi ishlari bilan birga olib boriladi. To'garaklarda quyidagi bo'limlar faoliyat ko'rsatishi mumkin:

Arxeologiya bo'limi;

Numizmatika bo'limi;

Madaniy yodgorliklar;

Hunarmandchilik;

Shon-shuhrat;

Qishloq xo'jaligi;

O'rta Osiyoda tilshunoslikning rivojlanishi va hokazo.

To'garak qoshida yuqoridagi bo'limlarga asoslangan holda uchrashuvlar o'tkazib turiladi. Masalan: "Avlodlar uchrashuvi", "Ikkinchi jahon urushi qatnashchilari bilan uchrashuv", "Mehnat faxriylari bilan uchrashuv" va hokazo.

Ta'lim muassasasida o'lkashunoslik to'garagini tashkil etish o'quvchilarning o'z o'lkasini chuqur o'rganishlariga katta yordam beradi. O'lkashunoslik to'garagini tashkil etishdan oldin ana shu muhim va murakkab ishga rahbarlik qila oladigan, ishini chin ko'ngildan sevadigan va bu sohada yetarli bilim va malakaga ega bo'lgan mutaxassisdan rahbar tanlash va uni maktab o'qituvchilari Kengashida tasdiqlab olish zarur.

Tarixiy o'lkashunoslik va turizm esa uni quyidagi asosiy manbalarini o'rganishdan boshlanadi. Qo'llanmada bayon qilinganidek, dastavval o'lkashunoslik haqida qisqacha ma'lumot beriladi: o'lkashunoslikda arxeologiya, etnografiya, toponimikaning roli va ahamiyati ochib beriladi; o'lkashunoslikning asosiy manbalaridan arxivshunoslik, muzey eksponatlari haqida batafsil tushuncha hosil qilinadi. O'lkamiz tarixini chuqur bilish va o'quv-tarbiya ishlarining saviyasini bugungi kun yuksak talablari darajasiga ko'tarish uchun ta'lim muassasalarida o'lkashunoslik muzeylarini tashkil etish katta ahamiyatga ega. Ta'lim muassasalarda o'lkashunoslik to'garagi va muzeylarining tashkil etilishi tarixiy obidalarni saqlash va muhofaza qilishda, asori-atiqqa, muqaddas qadamjoy-ziyoratgohlar va boshqa qadimiy manzilgohlarni qidirib topishda katta ahamiyat kasb etadi. O'lka

tarixiga doir materiallardan o'quv jarayonida o'rinli va maqsadga muvofiq foydalanish o'quvchilarning o'z o'lkasi tarixini yanada chuqurroq bilib olishlariga va mustaqil ijod qilishlariga imkon yaratadi, ayni vaqtda o'tmishni yaxshi bilgan holda kelgusi hayot yo'llarini tanlab olishlariga ham yordam beradi.

To'garak rahbari:

a) ta'lim muassasasidagi to'garak ishini takomillashtiradi va unga rahbarlik qiladi;

b) o'quvchilarda ajdodlarimiz tarixiy merosiga chuqur hurmat, milliy g'urur va Vatanga sadoqat ruhini qaror toptirish maqsadida to'garak faoliyatini yurgazadi;

v) yo'nalish bo'yicha to'garak a'zolari (jamo) bilan mashg'ulotlar olib boradi;

g) to'garak a'zolarining kasbiy mahoratini mustahkamlashga va bilim darajasini yuksaltirishga harakat qiladi;

d) uslubiy ishalarida faol ishtirok etadi. O'quvchilarni to'garakka jalb qilish maqsadida saralash va jamlash ishlarini olib boradi. To'garak a'zolarini turli ilg'or musobaqa, ko'rgazma, konsertlar va boshqa ommaviy tadbirlarda qatnashuvini ta'minlaydi;

ye) to'garak a'zolarining o'quv intizomiga rioya etishini nazorat qiladi va davomatini olib boradi;

j) ota-onalar, axborot-resurs markazlari xodimlari, guruh tarbiyachilari va o'qituvchilar bilan hamkorlik qiladi;

z) to'garak ishi faoliyatini takomillashtirish bo'yicha taklif beradi. To'garak ishini aks ettiruvchi burchakni rasmiylashtiradi va uni reklama qiladi;

i) to'garak ishi bilan bog'liq bo'lgan hisobotni tayyorlaydi va hujjatlarni yuritadi.

To'garak rahbari bilishi lozim:

a) O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida", "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida" gi qonunlarini, ta'lim to'g'risidagi boshqa qonun hujjatlari, darsdan tashqari tarbiyaviy ishlar konsepsiyasi, O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi Markazining normativ-huquqiy hujjatlarini, ushbu yo'nalish bo'yicha to'garak ishlarini dasturini, uslubiy tavsiyanomalarni, to'garakda ish yuritishning shakli va uslublarini, pedagogik asoslari, pedagogik psixologiya, o'smirlar psixologiyasini;

b) o'quvchilar shaxsini rivojlantirishning huquqiy hujjatlarini, ularning qiziqishlari va ehtiyojlarini;

v) zamonaviy tarbiya va o'qitish usullari va uslublarini, turli madaniy-ommaviy tadbirlarni tashkillashtirish va o'tkazishni, madaniyat va san'at, fan va texnikaning zamonaviy yutuqlarini o'zlashtirgan bo'lishlari lozim.

Hozirgi vaqtda Respublikamizda 255 o'quvchilar saroylari va uylari, 133 yosh texniklar markazi va stansiyalari, 40 ta yosh sayohatchi va o'lkashunoslar stansiyalari bor. Buni quyidagi jadvalda ko'rsa bo'ladi:

maktabdan tashqari muassasalar nomi	muassasa nomi	ulardan to'garaklar soni	to'garaklardagi o'quvchilar soni (ming hisobida)
jami muassasalar	598	35610	376.8
shu jumladan o'quvchilar saroylari va uylari.	265	14817	216.7
Yosh texniklar stansiyalari	135	5395	70.9
yosh tabiatshunoslar stansiyalari.	122	3916	55.2
Yosh turistlar stansiyalari va bazalari	36	697	18.0
Boshqalar	42	785	18.7
Bolalar va o'smirlar maktabi	322		133.7

(J.G'.Yo'ldoshev. O'zbekiston Respublikasi ta'lim-tarbiya yo'lida. Toshkent -1994)

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Muzeylar xaqidagi tushunchangiz?
2. Muzeylar qanday turlari bor?
3. Maktab muzeylari qanday tashkil etiladi?
- 4.O'zbekistonda muzeylarining shakllanishi to'g'risida qanday ma'lumotga egasiz?
5. O'lkashunoslik to'garaklari qanday tuziladi va ulaming vazifasi nimalardan iborat?

Tayanch so'zlar izohi:

1. Ekspонат – muzeylarda ko'rgazmaga qo'yilgan narsa, buyum.
2. Peyzaj – tabiat manzaralari tasviri.

Kalit so'zlar: Muzey, muzey turlari, madaniyat va ma'rifat o'chog'i, ilmiy-madaniy muassasa, ekspozitsiya, muzeylar tarixi, uy muzeylari, galereyalar, o'lkashunoslik muzeyi, tabiat muzeyi, san'at muzeyi, Amir Temur va temuriylar tarixi muzeyi, O'zbekiston tarixi Davlat muzeyi, ochiq osmon ostidagi muzey shahar, muzey-qo'riqxonalar, mustaqillik va O'zbekiston muzeylari.

Fan yuzasidan talabalarning mustaqil ish mavzularini quyidagicha tavsiya etish mumkin:

№	Mustaqil ish mavzulari	Izoh
1	O'lkani o'rganishda Tarixiy o'lkashunoslik va turizm fanining o'rni.	
2	O'lkashunoslikda qadimgi yozma manbalarning ahamiyati.	
3	O'lkani o'rganishda mahalliy tadqiqotchilik.	
4	Rus tadqiqotchiligining o'lkani o'rganishdagi roli.	
5	O'zbek xalqining etnik shakllanish jarayoni.	
6	O'zbek xalqining urf-odalari, an'ana va marosimlari.	
7	Mustaqillik davrida xalq qadriyatlariga e'tiborning ortishi.	
8	O'lka tarixini o'rganishda toponimika va uning ahamiyati.	
9	O'zbekistonda turizm va uning rivojlanishi.	
10	Turizmning turlari.	
11	O'lkashunoslik va turizmda arxiv materiallari.	
12	Muzey - tarix ko'zgusi. Muzeyning o'lka tarixini o'rganishdagi ahamiyati.	
13	Maktabim muzeyi.	
14	Tumanimiz muzeyi.	
15	Qishlog'im (tumanim)dagi muqaddas qadamjoylar.	
16	Toponimlar va ularning turlari	
17	O'zbekiston viloyatlari toponimlari	
18	O'lkashunoslik to'garaklari	
19	Toshkent - 2200 yoshda	
20	O'zbekiston va xalqaro turizm	

TEST SAVOLLARIDAN NAMUNALAR

- 1. Qarshi shahrining kadimgi nomi kanday edi?**
- A). Navkat
 - B). Isfijob
 - V). Robinjon
 - D). Nasaf
- 2. Quyidagi qaysi alloma fan tarixida qomusiy olim sifatida nom olgan?**
- A). Ahmad Farg'oniy
 - B). Al - Xorazmiy
 - V). Al - Farobiy
 - D). Abu Rayhon Beruniy
- 3. O'lkashunoslikning turlari qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?**
- A). Jamoat o'lkashunosligi, tabiat o'lkashunosligi va ilmiy o'lkashunoslik
 - B). Tabiat o'lkashunosligi, davlat o'lkashunosligi va jamoat o'lkashunosligi.
 - V). Ilmiy yoki davlat o'lkashunosligi, jamoat o'lkashunosligi, maktab o'lkashunosligi, akademii litsey va kasb-xunar kollejlari o'lkashunosligi.
 - D). Barcha javoblar to'g'ri.
- 4. Turkistondagi zilzilalarni dastlab qaysi olimlar o'rgangan?**
- A). G. Monov, S. Romanovski
 - B). Leonov, V. Korolenko
 - V). A. Semyonov, A. Kun
 - D). To'g'ri javob yo'q
- 5. V. Vyatkin 1908-1909 yillarda Samarqandda qanday yodgorlik qoldiqlarini topib o'rgandi?**
- A). Fergantrop odamini
 - B). "Kaltaminor" madaniyatini
 - V). "Ulug'bek" rasadxonasini
 - D). Barcha javoblar to'g'ri
- 6. Antroponimika nimani o'rganadi?**
- A). Kishi ismi, laqabi, familiyasini
 - B). Suv bilan bog'liq toponimlarni
 - V). Kichraytirilgan shaklda toponim yasashni
 - D). Kichik ob'ektlarni toponimlarni
- 7. O'zbekistonda "O'zbekturizm" Milliy kompaniyasi qachon tashkil topdi?**
- A). 1991 yil
 - B). 1992 yil
 - V). 1993 yil
 - D). 1995 yil

8. Etnografiya faniga oid terminlarni aniqlang?

- A). Etnos, morfologiya, era, xalq
- B). Urbanizatsiya, levirat, sarorat, etnos
- V). Makrotoponimika, mikrotoponimika
- D). Ramazon, sunbula, mavsum

9. O'zbekistonda Turizm to'g'risidagi qonun qachon qabul qilingan?

- A). 1992 yil 10 noyabr
- B). 1999 yil 20 avgust
- V). 1998 yil 15 aprel
- D). 2004 yil 16 yanvar

10. O'zbekistonda Turizm to'g'risidagi qonun qachon qabul qilingan?

- A). 1992 yil 10 noyabr
- B). 1999 yil 20 avgust
- V). 1998 yil 15 aprel
- D). 2004 yil 16 yanvar

11. Numizmatika fani nimani o'rganadi?

- A). Shahar xarobalarini
- B). Tangalarning tarixini
- V). Insonning kelib chiqishini
- D). Sulola tarixini

12. Rus arxeologi V. Vyatkin tomonidan Ulug'bek rasadxonasi xarobalari nechanchi yilda topilgan?

- A). 1908 yilda
- B). 1920 yilda
- V). 1930 yilda
- D). 1875 yilda

13. Ekoturizmning faoliyati nimadan iborat?

- A). Atrof - muhit va tabiat bilan tanishuv
- B). Aholining turmushi bilan tanishuv
- V). Manbashunoslik bilan tanishuv
- D). To'g'ri javob yo'q

14. Teshiktosh g'oridan topilgan bolaning qiyofasini asl holiga qaysi olim tiklagan?

- A). Okladkinov
- B). Oshanin
- V). Gerasimov
- D). Ivanov

15. XIX asr boshlarida Toshkent shahri necha dahaga bo'lingan edi?

- A). 6 ta
- B). 5 ta

V). 4 ta

D). 2 ta

15. XIX asrning oxirida Turkistonda qancha ilmiy jamiyatlar bor edi?

A). 10 ga yaqin

B). 15 ga yaqin

V). 14 ga yaqin

G). 20 ga yaqin

16. Turkiston halq kutubxonasi qachon ochildi?

A). 1860 yil

B). 1870 yil

V). 1865 yil

D). 1850 yil

17. Turkistonda ilk gazeta qachondan boshlab chiqa boshladi?

A). 1850 yil

B). 1870 yil

V). 1830 yil

D). 1845 yil

18. 1895 yilda qaysi olim Samarqanddagi Go'ri Amir maqbarasini dekoratsiya va memorchilik nuqtai nazaridan o'rganib chiqdi?

A). Veselovskiy

B). Vyatkin

V). Bartold

D). A. Semyonov

19. V. Fedcheko 1915 yilda e'lon qilgan "Turkiston o'simliklari" degan asarida necha xil o'simliklarni ta'riflab berdi?

A). 5040 xil

B). 5030 xil

V). 5650 xil

D). 5640 xil

20. Yog'och, metall, spol kabi buyumlarning sirtidagi yozuvlarni o'rganuvchilar qanday ataladi?

A) Numizmatlar

B) Sfgagistlar

V) Geroldistlar

D) Epigrafistlar

21. "Hindiston" asari kimning qalamiga mansub?

A). Beruniy

B). Ulug'bek

V). Narshaxiy

D). Xondamir

22. "Bibixonim" masjidi qaysi shaharda joylashgan?

A). Buxoroda

- B). Namanganda
- V). Samarqandda
- D). Qo'qonda

23. Quyidagilardan qaysi biri ma'naviy madaniyatga kirmaydi?

- A). Qoyatosh suratlari
- B). Qoyatosh yozuvlari
- V). Mehnat qurollari
- D). Og'zaki dostonlar

24. Samarqanddagi Poyirasad tepaligida rasadxona qurdirgan buyuk bobokolonni nomini toping?

- A). Mirzo Ulug'bek
- B). Amir Temur
- V). Mirzo Bobur
- D). Xusayn Boyqaro

25. 1881 yilda tuzilgan Turkistonning birinchi geologik xaritasi kimlar tomonidan tuzilgan?

- A). Mushketov va Romanovskiy
- B). Grekov va Bartold
- V). Vyatkin va Mushketov
- D). Yakubovskiy va Tolstov

26. 1915 yil e'lon qilingan "Turkiston o'simliklari" nomli asar kimning qalamiga mansub?

- A). B. Fedchenko
- B). V. Bartod
- V). V. Grikov
- D). A. Yakubovskiy

27. Ulug'bekning farmoniga ko'ra 1417-1420 yillarda qaysi shaharda madrasa bunyod etildi?

- A). Buxoroda
- B). Samarqandda
- V). Shahrisabzda
- D). Kattaqo'rg'onda

28. «Taxtapul» so'zining forscha toponomik ma'nosi?

- A). Yog'ochli uy
- B). Yog'och ko'prik
- V). Taxta band
- D). Taxta yul

29. 15 mingdan ortiq tanga-pullardan kolleksiya to'plagan havaskor o'lkashunos kim?

- A). Yaxyo G'ulomov
- B). Akrompolvon Asqarov
- V). Mirzo Buxoriy
- D). M.B. Qosimov

- 30. «Apelsin» soʻzining toponomik maʼnosi nima?**
 A). Uzun xamir
 B). Yogʻli non
 V). Xitoy olmasi
 D). Shirin choy
- 31. «Tarixiy yilnomalar» asarining muallifi?**
 A). Strabon
 B). Sima - Szyan
 V). Polien
 D). Gerodot
- 32. Turkistondagi zilzilalarni qaysi olimlar oʻrgandi?**
 A). G.Monov, Romanovskiy
 B). V.Dokuchaev, V.Korolenko
 V). A.Semyonov, A.Kun
 D). V.Korolenko, G.Leonov
- 33. "Oʻzbekturizm" milliy kompaniyasi muassisligida nashr etiladigan jurnalning nomini aniqlang.**
 A). "Turist"
 B). "Buyuk ipak yoʻli"
 V). "Sayohatchi"
 D). "Turizm Uzbekistana"
- 34.2006 yil maʼlumoti boʻyicha Oʻzbekistonda qancha mehmonxona faoliyat koʻrsatmoqda?**
 A).96 ta
 B).20 ta
 V).168 ta
 D).252 ta
- 35.1992 yil Oʻzbekistonda boʻlgan xorijlik sayyohlarning soni qancha edi?**
 A).60 ming
 B).70 ming
 V).80 ming
 D).85 ming
- 36.Oʻlkashunoslikning asosiy manbalari qaysi javobda toʻgʻri koʻrsatilgan?**
 A).Arxeologiya, etnografiya
 B).Arxeologiya, etnografiya, sosiologiya
 V).Toponimika, arxeologiya, tarix, arxivshunoslik
 D).Arxeologiya, etnografiya, toponimika, arxivshunoslik, muzey eksponatlari
- 37."Buxoro tarixi" asarining muallifi kim ?**
 A). Chjan Szyan
 B).M.Qoshgʻariy

- V). A. Beruniy
- D). M. Narshaxiy.

38. "Turkiston mo'g'ullar bosqini davrida" asarining muallifi kim?

- A). V. Bartold
- B). A. Yakubovskiy
- V). S. Tolstov
- D). A. Beruniy

39. Farg'ona viloyatida etnografik tadqiqotlar olib borgan qaysi olim "Jahongir to'ra" laqabiga ega bo'lgan?

- A). A. Tolstov
- B). A. Yakubovskiy
- V). V. Bartold
- D). V. Nalivkin

40. XIX asrda 32 ta o'zbek qabilalari haqida ma'lumot qoldirgan olim kim ?

- A). Vamberi
- B). Grigorev
- V). S. Tolstov
- D). V. Vyatkin

41. "Toshkent" nomi ilk marotaba qaysi olimlarning asarlarida tilga olingan?

- A). Yusuf Xos Hojib, A. Navoiy
- B). A. Beruniy, M. Xorazmiy
- V). Narshaxiy, Sayfi Saroyi
- D). A. Beruniy, M. Qoshg'ariy

42. "Hadra" so'zining ma'nosini toping.

- A). Ko'cha
- B). Oila
- V). Qavm
- D). Chegara

XULOSA

Bugun biz tarixiy bir davrda – xalqimiz o‘z oldiga ezgu va ulug‘ maqsadlarni qo‘yib, tinch–osoyishta hayot kechirayotgan, avvalom o‘ziing bor kuch va imkoniyatlariga tayanib, demokratik davlat va fuqarolik jamiyati qurish yo‘lida ulkan natijalarni qo‘lga kiritayotgan bir zamonda yashamoqdamiz.

Bugungi voqeligimiz, hayotning taraqqiyot oqimi o‘lkamizni, xalqimiz tarixiy va madaniy merosini har tomonlama chuqur o‘rganishni taqozo etmoqda.

O‘zbek xalqining tarixiy taraqqiyoti masalalarining mazmun-mohiyatini ochishda, ma‘naviy, moddiy, tarixiy manbalarini o‘rganishda O‘lkashunoslikdagi arxeologiyaning roli, etnografiyaning ahamiyati, toponimika – o‘lka tarixini o‘rganishning asosiy manbai, o‘lka tarixini o‘rganishda arxiv ishi va muzey eksponatlarining o‘mi muhim ahamiyat kasb etadi.

Tarixiy o‘lkashunoslik va turizmning asosiy manbalari orqali o‘lka bilan har tomonlama yaqindan tanishib olishga erishiladi.

Yaqin davr mobaynida o‘zbek arxeologlari tomonidan qator ilmiy kashfiyotlar amalga oshirildi. Shulardan biri - O‘zbekiston hududida eng qadimgi yozuv nusxalarining topilishidir. Bularning barchasi O‘zbekiston hududini dunyo tamaddunining ilk o‘choqlaridan biri ekanligini ko‘rsatuvchi o‘ta muhim ashyoviy dalildir. Zero, jahon tarixidan bizga ma‘lumki, yuksak ma‘naviyat va boy madaniyatga ega bo‘lgan har bir xalqning o‘z yozuvi mavjud bo‘lgan.

So‘nggi vaqtda turizm iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlaridan biri sifatida dunyoning bir qator mamlakatlarida rivojlanishi keng yo‘lga qo‘yilgan. O‘zbekistonda esa bu sohani taraqqiy ettirish uchun katta ishlar amalga oshirilmoqda. Chunki, mamlakatimizda turizmni har tomonlama ravnaq topishi uchun yetarli omillar mavjud. Bular esa quyidagilardir: birinchidan, yurtimizda ko‘pgina mashhur tarixiy yodgorliklar va osori – atiqalarning mavjudligi va ular aksariyatining YuNESKO ro‘yxatiga kiritilganligi;

ikkinchidan, yurtimizda qulay tabiiy sharoitning borligi, iqlim mintaqamizning o‘ziga xosligi;

uchinchidan, azaliy boy tarixga ega hamda umumbashariy qadriyatlarning vorisi bo‘lgan mehmondo‘st xalqimizning borligi va boshqalardir.

Tarixdan ma‘lumki, dunyo kezib, yurtimizda bo‘lgan sayyoh va elchilar– Yoqut Hamaviy, Ibn Battuta, Gonsales de – Klavixo hamda o‘lka bo‘ylab kezgan xalqimiz mashhur siymolari – Mahmud Qoshg‘ariy, Zahiriddin Muhammad Bobur va boshqalar ko‘rgan-kechirganlarini, ya‘ni,

maftunkor yurt haqidagi taassurotlarini ishtiyoq va hayajon bilan yozib qoldirganlar.

Haqiqatdan, ko'hna va navqiron, hamisha jozibali bo'lgan ona-yurtimiz – O'zbekistonni har jihatdan yaqindan o'rganish, ya'ni, sayr-sayohatlar orqali kuzatish kishilarda nafaqat vatanparvarlik tuygularini shakllantiradi, ayni vaqtda ularning jismoniy jihatdan salomatliklarini mustahkamlashlarida ham muhimdir.

O'zbekistonda xalqaro turizmni rivojlantirish mamlakat iqtisodiyoti, ijtimoiy-siyosiy hayotida muhim rol o'ynasa, ichki turizm orqali esa fuqarolarni, shuningdek, yoshlarimizni o'lka bilan yaqindan tanishuvi asosida ularda Vatan va xalqqa muhabbat, g'urur va iftixor, yurt qadriga yetish tuygularini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xalqimiz kelajagi va uning taraqqiyot yo'li o'tmish bilan uzviy bog'liqdir. Endilikda inson huquqlari, milliy g'urur va davlat mustaqilligi g'oyalariga sadoqat, hozirgi va kelajak avlod oldidagi yuksak ma'suliyatni anglash, o'zbek davlatchiligi va turmush tarzining tarixiy tajribasiga tayanish, xalqchil qonuniylikni e'zozlash asosiy vazifamizdir. Shuning uchun o'zbek xalqining o'tmishi va tarixiy tajribasini, uning etnik qiyofasi, xo'jalik–madaniy xususiyatlari, moddiy va ma'naviy, ijtimoiy-siyosiy va oilaviy hayotini, bir so'z bilan aytganda, jonajon o'lkamiz tarixini ilmiy jihatdan aniq bilmagunimizcha hozirgi taraqqiyot yo'llarimizni, uning keyingi yo'nalishlarini to'g'ri belgilab olishimizni tasavvur etib bo'lmaydi.

Demak, milliy istiqbolga erishgan, o'z yo'lini topib, buyuk istiqbol sari dadil odimlayotgan O'zbekistonda barchamizga, shuningdek, yoshlarimiz uchun o'lkamizni, xalq o'tmishi va bugungi hayotini yaqindan o'rganib borishni davrning o'zi taqozo etmoqda.

ILOVALAR

Esda saqlang!

Muhim tarixiy sanalar xronologiyasi

Ilk paleolit davri miloddan avvalgi 1 mln. - 100 ming yilliklar (dunyo tarixida 2,5 – 3 mln. yil lar oldin boshlangan).

O'rt paleolit mil. av.100 – 40 ming yillik lar.

So'nggi paleolit mil. av.40 -12 ming yilliklar

Mezolit (o'rta tosh davri) mil. av.12 -7 ming yilliklar

Neolit (yangi tosh davri) mil. av.6 – 4 ming yilliklar

Eneolit davri (mis - tosh davri) mil. av. 4 – 3 ming yilliklar

Bronza davri mil. av.3 -2 ming yilliklar

Temir davriga o'tish mil. av. XIII – X bosqichi asrlar.

Temir qurollarining mil. av. VII – IV keng yoyilishi asrlar

Neandertal qiyofali mil. av. 100 – 40 odamning tarqalishi ming yilliklar

Zamonaviy qiyofali mil. av. 40 – 30 odamning paydo bo'lishi ming yilliklar

Yirik yerga egalik qilish milodiy V asrdan to XIX asrgacha

Ona urug'i(matriarxat)ning taxminan 35 ming yil boshlanishi oldin

Tasviriy san'atning mil.av. 35 – 12 ming yillik rivojlana boshlashi

Ibtidoiy din shakllari- mil. av.40 – 12 ming yillik ning qaror topishi

Paxsa binokorligining paydo bo'lishi mil.av. 6 -5 ming yillik

Metallning kashf etilishi mil.av. 4 – 3 ming yillik

Ko'p xonali uylarning qurilishi mil.av. 4 -3 ming yillik

Joytun madaniyati mil.av. 6 – 5 ming.y.

Kaltaminor madaniyati mil.av. 5 – 4 ming.y.

Hisor madaniyati mil.av. 5 – 4 ming.y.

Namozgoh – Anov madaniyati mil.av. 4 – 2 ming.y.

Zamonbobo madaniyati mil.av. 3 – 2 ming.y.

Sarazm madaniyati mil.av. 3 – 2 ming.y.

Tozabog'yob madaniyati mil.av. 2 ming yillik.

Sopolli – Jarqo'ton mil.av. 2 ming yillik. yodgorlik manzilgohlari.

Etnografik ma'lumotlarni to'plash usullari

Etnografik dala tadqiqotlarini olib borish kishidan axborotlarni savol – javob yo'li bilan yozma ravishda yoki magnitafon orqali to'plash, ma'lum marosim, maishiy turmush hodisalarini, oila-nikoh munosabatlari, madaniy hayotga oid voqealarni kuzatish, ularda bevosita ishtirok etish va jiddiy o'rganish (yozish, chizish, rasmga olish, video tasviriga tushirish) kabi vazifalarni bajarish va dala daftarini to'g'ri yuritish talab etiladi.

Ma'naviy madaniyatni tadqiq qilishda (ayniqsa, ayrim urf–odatlarni, marosimlar, ibodat, xalq ijodi, o'yin, ashula va hokazolarni) kino apparati, fotoapparatlar, magnitafon lentasiga yozib olish kabi texnika vosita va usullaridan keng foydalaniladi.

Etnografik dala ishlari paytida etnoslarning maishiy turmushi va ma'naviy hayotiga oid barcha buyum-anjomlar jiddiy o'rganilibgina qolmay, ularning eng noyoblari muzey eksponatlari sifatida yig'ib olinadi. To'plangan dala ma'lumotlarining haqqoniyligini bilish uchun ular kamida ikki – uch marta boshqa manbalar orqali qiyosiy usul asosida chuqur tahlil qilinishi lozim.

Dala tadqiqotlarida quyidagi usullar qo'llaniladi: so'rash - maxsus tanlab olingan yoki shu etnik guruhga mansub axborotchilar bilan ishlash; tajriba – etnografning ekspeditsiya paytida ma'lum ijtimoiy oilaviy marosimda ishtirok etishi; kuzatish - madaniyat va turmushning o'ziga xos hamma etnik majmuini diqqat bilan o'rganib, qayd etib borish.

Dala tadqiqotlari natijasida moddiy va ma'naviy manbalar o'rganiladi. Moddiy manbalarga – yodgorlik namunalari, mehnat qurollari, manzil va makonlar, turar joylar, taomlar, asbob-anjomlar, kiyim-kechaklar va shu kabilar kiradi. Foto va kino apparatlari orqali xalqning ma'naviy madaniyati, an'ana, urf–odatlari, marosimlari, e'tiqodi xalq og'zaki ijodi namunalari qayd etiladi. Xalq amaliy san'ati buyumlari to'planib, ilmiy jihatdan qayta ishlanadi va muzeylarga etnografik kolleksiya sifatida topshiriladi.

Etnografik ma'lumotlarni yig'ishni tartibsiz holatda olib bormaslik kerak. Eng avvalo mahalliy aholidan sohaga doir dolzarb masalalarni so'rab bilaoladigan axborotchilarni tanlab olish lozim. Buning uchun mahalliy hokimiyatga, jamoat tashkilotlari, o'qituvchilar va boshqa ziyolilarga murojaat qilishga to'g'ri keladi.

Axborotchi bilan suhbat boshlashdan oldin ekspeditsiya a'zosi unga o'z maqsadi va vazifasini aniq tushuntirishi shart. Suhbat zo'rma-zo'rakilik, sun'iylik, yoki ketma–ket so'roqqa aylanmasligi lozim. Suhbat paytida ekspeditsiya a'zosi tushgan savollardan foydalanishi, savollarda ketma-ketlikka qat'iy rioya etib, belgilangan mavzudan boshqasiga o'tmasligi kerak.

Berilgan savollarga aniq javob olishda bir axborotchidan olingan materiallarni boshqalariniki bilan tekshirib ko'rish juda muhimdir.

Ekspeditsiya a'zosi dala ishlarida buyum–anjomlarni ro'yxatga oladi, rasmga tushiradi va tasvirini chizadi, lozim bo'lsa, magnitafon lentasiga, video tasvirga yozib ham oladi.

Sayohat vaqtida ekspeditsiya qatnashchisining dala daftari yoki kundalik daftar yuritishi juda muhimdir. Daftarning birinchi sahifasida o'rganilayotgan mavzu, qatnashchining familiyasi va ismi, ekspeditsiya o'tkazilayotgan vaqt aniq ko'rsatiladi.

Etnograf daftar sahifalarini tartib raqami bilan belgilab chiqadi va oxirida umumiy sahifalar sonini jamlab yozadi. Sahifaning bir tomoniga yozish, bir tomonining esa ochiq qolishi tavsiya etiladi. Chunki bo'sh sahifaga yangi qo'shimcha ma'lumotlar qayd etiladi. Agar boshqa axborotchi bilan suhbat boshlansa yangi sahifa ochilib, ma'lumotlar yoziladi. Ma'lumotlarni daftarga chiroyli va o'qimishli qilib yozish kerak. Agar buning iloji bo'lmasa, suhbat davrida maxsus yon daftarchaga belgilar bilan qisqartirib yozib, so'ngra esa alohida tutilgan daftarga kengaytirib, ko'chirib yozish mumkin.

Daftardagi har qanday ma'lumotni aniqlash va to'ldirish shu daftarning egasi bo'lgan ekspeditsiya qatnashchisi tomonidan amalga oshiriladi. Bu ma'lumotlarni boshqa kishi to'g'rilasa yoki qo'shsa dala hujjatlarini olib borish buziladi. Daftar sahifalaridan yirtib olish ham qat'iy ta'qiqlanadi.

Suhbat boshlanishi oldidan ekspeditsiya a'zosi dastlab quyidagi ma'lumotlarni qayd etishi kerak:

1. Yozuv joyini (viloyat, tuman, jamoa va davlat xo'jaliklari, qishloq, korxonalar yoki muassasa);

2. Axborot bergan kishi to'g'risida to'liq ma'lumotni (famiyasi, ismi, sharifi, millati, yoshi, urug'i, kasbi);

3. Ashyoviy osori–atiqa kabi narsalarni ro'yxatga olganda egasi haqida, marosimlarni qayd etganda esa, ularni o'tkazish qoidalari to'g'risidagi ma'lumotlar to'liq yoziladi;

4. Yozuv olib borgan kishining to'liq familiyasi, ismi, sharifi, vaqti (kun, oy, yil) qayd etiladi.

Ekspeditsiya tugagach, sayohatchi yoki etnograf tomonidan dala ma'lumotlari qayta ishlanib, tekshirilib, arxivga topshiriladi.

Sharqona o'lchov birliklari

Ko'pchilik kishilar gramm, kilogramm, pud, sentner, tonna singari og'irlik, millimetr, santimetr, metr, kilometr kabi masofa, tiyn, so'mga o'xshash baho o'lchovlarini juda yaxshi bilmasligi mumkin. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, **sharqona o'lchov birliklari** haqidagi ma'lumotlar asosan turistik sayohat – tadqiqotlar natijasida yig'ilgan.

Bu o'lchov birliklarining aksariyati Turkiston chorizm mustamlakasiga aylantirilgach, kundalik turmushda keng qo'llanila boshlangan edi, so'ng asta-sekin ming yillar ishlatilib kelingan o'lchovlar, zamona talabi bilan iste'moldan tushib qoldi.

O'zbek xalqida qadimdan «Etti o'lchab bir kes», «Birniki mingga, mingniki tumanga», «Bog'ni boqsang bog' bo'lur, botmon-botmon yog' bo'lur», «Bir miri - hamyon, o'n miri - ziyon» kabi juda ko'plab hikmatli iboralar keng tarqalgan. Shuningdek, ko'pgina tarixiy, badiiy va boshqa manbalarda o'qisangiz ham o'tmishda qo'llanilgan turli sharqona o'lchovlarga ko'zingiz tushadi. Bu o'lchovlardan ajdodlarimizning turmush-tarzi, mehnat va xo'jalik faoliyatida keng foydalanilgan.

Turli tarixiy manbalarda uchrab turadigan bunday sharqona o'lchovlar hayot va turmush chig'irig'idan o'tib, asrlar osha yashab kelmoqda yoki ko'plari unutilgan yoki iste'moldan chiqqan, ba'zilarigina faqat keksalar xotirasida qolgan, xolos.

Hozirgi voyaga yetayotgan yosh avlod eng avvalo o'zining o'tmish tarixini chuqur bilishi shart. Sharqona o'lchovlar ham shu o'lka tarixning ajralmas va mushtarak bir qismi hisoblanadi.

O'zbekistonning istiqloli tufayli milliy o'zlikni anglashga yo'l ochildi, unutilayotgan qadriyatlarimiz tiklana boshladi, fuqarolarimizning o'lka tarixiga qiziqishlari esa yanada kuchaymoqda.

Endi esa o'tmishda keng qo'llanilgan, hozirda esa kamdan-kam uchraydigan sharqona o'lchov birliklariga qisqacha to'xtalib o'tamiz.

Sharqona o'lchovlarni quyidagi uch turga bo'lish mumkin: **Og'irlik, masofa va baho o'lchovlari.**

1. **Og'irlik o'lchovlari**

Botmon (mann) – og'irlik o'lchov birligidir. U ikki turga bo'lingan. 1. Katta botmon 171, 99 kg. ga teng bo'lgan.

2. Kichik botmon 20,6 kg.ga teng bo'lgan.

Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlarida shariatga ko'ra 0,832 kg. ga teng, lekin turli joylarda botmon miqdori turlicha o'zgarib borgan. Xorazmda (XIX asr) 16 – 20 kg.dan 40, 95 kg.gacha, Buxoro va Samarqandda 8 pud (131, 163, 800 kg.), Farg'ona vodiysida 8 – 10 pud, Toshkentda 10,5 pud (171, 99 kg.) bo'lgan.

Daxsar – Botmonning to'rtadan bir qismi, ba'zan 32 kg.

Dirxam – 2, 975 gramm yoki 0, 531 gramm

Donak – 0,495 gramm yoki 0, 531 gramm

Jarib – ikki turga bo'lingan. Og'irlik va yuza o'lchov birligi sifatida ishlatilgan. O'rta asrlarda Yaqin va O'rta Sharq, jumladan Movarounnahrda qo'llanilgan **og'irlik o'lchovi** sifatida dastlab (VII – IX asrlarda) 22, 825 kg. ni, **yuza o'lchovi** sifatida **kichik jarib** 1592 kv.m. ni, **katta jarib** 5837 kv. m. ni anglatgan. Turkiston huquqiy hujjatlarida jarib bilan tanob bir xil yuza

o'lchovini anglatgan. «Temur tuzuklari» da bir jarib 598 kv. ga teng deyilgan. Hozir Eronda bir jarib bir gektarga teng birlikda qo'llaniladi.

Zakot - qishloq xo'jaligi, savdo va hunarmandchilikdan tushadigan yillik daromaddan qirqdan bir miqdorda olinadigan soliq turi.

Mann - 680 grammlik og'irlik o'lchovi.

Minn - uch kilogramlik yuk.

Misqol - 4,1 - 4,4 gramm. Markaziy Osiyoda XIV - XIX asrlarda 4,5 grammlik kumush tanga. Buxoroda 4,8 - 5,2 gramm, Samarqandda 4,6 gramm, Farg'ona vodiysida 4,53 - 4,55 gramm bo'lgan. Chorak misqol (bir gramm), nim misqol (2 gramm) attorlik va zargarlik o'lchovi bo'lgan. Bir misqol qadoqning $\frac{1}{84}$ qismiga ham teng bo'lgan.

Osor - 17 gramm.

Paysa - Farg'ona vodiysida 26,6 gramm, Toshkentda 32,2 gramm, ba'zi tumanlarda 50 grammdan ziyod bo'lgan og'irlik o'lchovi. Buxoro amirligida ish hayvonlari boshidan olinadigan qo'sh pulidan tashqari har bir ot va eshak boshidan 8 - 12 pud bug'doy qiymatidan olinadigan soliq.

Uqya - 33,4 gramm.

Qadoq - 400 grammdan ziyod.

Qiyrat - misqolning $\frac{1}{24}$ qismi yoki, 0,195 yoki 0,236 gramm.

Xobba - 0,059 yoki 0,6071 gramm.

2. Masofa o'lchovlari:

Andoza - o'lchov, qolip, nusxa.

Arsa - maydon, sahna.

Arshin - 65,2 sm. dan 112 sm. gacha bo'lgan uzunlik o'lchovi. Bir o'q otim yer - 110 - 125 m. Bir o'q choptirim yer - 215m.

Botmon - yer o'lchovi. Bir botmon og'irlikdagi bug'doy yoki arpa sepilishi mumkin bo'lgan yer bir botmon hisoblangan. Taxminan bir gektar yerga teng bo'lgan sath o'lchov birligi.

Gaz - Movarounnahrda o'rta asrlarda o'rtacha yetti musht eniga (tayoqni ushlagandagi tutamga) teng bo'lgan. Aksariyat hollarda o'rta bo'yli kishining barmog'i uchidan burnigacha (yarim quloch) yoki bir qo'lining uchidan ikkinchi qo'lining qo'ltig'igacha bir gaz hisoblangan. Bir gaz Amir Temur zamonida 70 sm. ga teng bo'lgan. XIX asrga kelib bir gaz Farg'ona vodiysida 83 - 85 sm, Toshkentda 89 sm. Buxoroda esa 106,68 sm. ga teng bo'lgan. Ko'p joylarda gaz 1 metrdan uzun, aniqrog'i 106 sm ga teng bo'lgan.

Gazi hoshimi - 16,5 sm.

Ikki manzil - otliq kishi bir kunda bosib o'tishi mumkin bo'lgan masofa, taxminan 50 km.

Yiroch - bir tosh yo'l - 7-12 km.

Mil – ilmiy adabiyotda mil (milya) ikki xilda uchraydi. **Jug‘rofiy mil** – 7240 m., Arab mili bundan bir oz farq qilgan. Markaziy Osiyoda mil qadimdan ma‘lum bo‘lgan. Bir mil Sharqda taxminan 2 km. ga teng bo‘lgan.

Tanob – uzunligi taxminan 60 gaz (39,9 m.) bo‘lgan va sathga 60x60, ya‘ni, 3600 kv. gazga teng bo‘lgan yer maydoni, 17 – 18 sotix, ba‘zi joylarda 0,5 gektar.

Temir gaz - 58, 187 sm.

Tosh – Movarounnahrda o‘rta asrlarda 8,5 - 9,5 chaqirimga teng yoki 7 - 8 km.

Tutam musht – 8 sm.

Farsax yoki Farsang – Turkistonda 9 – 12 qadam yoki taxminan 7 – 8 chaqirimga teng masofa o‘lchovi, bazan 8,5 – 9,5 km.

Chaqirim – ovoz yetadigan masofa 853 m.

Qari – 55 sm.

Qarich – 20 sm.

3. Baho o‘lchovlari:

Bir tanga – Buxoro amirligida 15 tiyinga, Qo‘qon xonligida 20 tiyinga teng bo‘lgan kumush pul.

Daxyak – soliq puli, barcha daromadning o‘ndan bir qismi.

Dinor - Oltin, kumush tanga, chaqa pul; 4,235 gramm og‘irlikdagi oltin tanga. XIV asrda Movarounnahrda bir dinor ikki misqol kumush tangaga teng bo‘lgan.

Dirham - o‘rta asrlardagi arab kumush tangasi: 3,435 gramm og‘irlikdagi oltin tanga. XIV asrda Movarounnahrda uchdan bir misqol og‘irlikdagi kumush tanga.

Kafsan yoki Panj sira – Buxoro amirligida xirojdan tashqari amaldorlar foydasiga har botmon bug‘doydan bir pud miqdorda olinadigan soliq.

Lak – yuz ming (ko‘pincha kishilarga nisbatan aytilgan).

Miri - besh tiyinlik chaqa.

Ob puli yoki Suv puli – har bir dehqon suvdan foydalanganligi uchun yiliga bir tangadan to uch tangagacha soliq to‘lagan.

Osiyo puli yoki Tegrimon puli – Buxoro amirligida har bir qo‘l tegirmoniga yiliga 20 tangadan 100 tangagacha (3 so‘mdan 15 so‘mgacha) solinadigan soliq.

Paqir – ikki tiyin.

Tanob puli – o‘zbek xonliklarida har bir tanob beda uchun yiliga 40 tanga (6 so‘m) miqdorda olinadiga soliq, bog‘ solig‘i.

Tuman – o‘n ming (ko‘pincha kishilarga nisbatan aytiladi).

Ushr – Turkistonda qishloq xo‘jaligining muhim soliq turlaridan biri, har qanday daromaddan o‘ndan bir qismi hajmida olingan. Buxoro amirligida ushr daxyak deb yuritilgan.

Xas puli – XX asr boshlarida Buxoro amirligida yaylovlardan foydalanish uchun chorvadorlardan olinadigan soliq turi.

Xiroj – daromad solig‘i, hosilning uchdan bir qismidan olingan.

Qo‘sh puli – XX asr boshlarida Buxoro amirligida har juft ish hayvoni hisobidan olinadigan soliq.

Xazor – ming. Xorazm viloyatidagi Xazorasp tuman nomining (toponimi) ham “ming ot” degan ma‘noni beradi. Asp – “ot” degani.

Shuningdek xalqimiz quloq, qadam, siqim, ko‘z bilan chamalash kabi o‘lchovlarni ham kundalik turmushda azaldan qo‘llab kelmoqda.

Turkiston chorizm mustamlakasiga aylantirilgandan so‘ng puq, arshin bilan birga vershok, desyatina, sarjin kabi o‘lchov birliklari ham amalda keng qo‘llanila boshlangan.

Pul muomalasiga oid o‘lchovlar ham turli joyda turlicha xil bo‘lgan. Masalan, 1878 yilda Sharqiy Turkistonda kumush pullar quyidagi besh xil nomda chiqarilgan:

1. Yarim misqol - 1,80 gramm;
2. Bir misqol - 3,60 gramm;
3. Ikki misqol - 7,20 gramm;
4. Uch misqol - 10,80 gramm;
5. Besh misqol - 18 gramm.

Bu pullarning nomlari va qiymati ham har xil bo‘lgan. Oltindan zarb etilgan pul - tilla, kumushdan yasalgan pul - tanga, misdan yasalgan pul esa yamoq - yoki chaqa pul deb yuritilgan. Bu pullarning vazni og‘irligi quyidagicha bo‘lgan:

- Tilla pulning og‘irligi - 3,6 gramm;
- Kumush tanganing og‘irligi - 1,8 gramm;
- Mis pulning og‘irligi - 3,6 gramm.

Xullas, sharqona o‘lchov turlari shu qadar ko‘p va rang-barang bo‘lib, manbalar asosida chuqur etnografik izlanish - ilmiy tadqiqotlarni olib borish taqozo qilinadi. Biz yuqorida qayd etgan o‘lchov birliklari yoki ularning har biriga taaluqli bo‘lgan o‘lcham-miqdoro darajalar ancha bahs va munozaralarni tug‘dirishi tabiiy. Chunki, ba‘zi o‘lchovlar (masalan, botmon, misqol) O‘rta Osiyo, jumladan O‘zbekistonning turli hududlarida turlicha miqdorda qo‘llanilgan, tarixiy va badiiy adabiyotlarda ham har xil talqin etilgan.

Shuni alohida e‘tirof etish kerakki, sharqona o‘lchovlar va ularning qo‘llanilishi haqidagi ma‘lumotlarni o‘rganish o‘lka tarixi va turizmni o‘rganishda muhim ahamiyatga ega.

«TARIXIY O'LKASHUNOSLIK VA TURIZM» FANINI O'QITISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

«Tarixiy o'lkashunoslik va turizm» fanini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning o'mi va ahamiyati juda katta. Xo'sh, pedagogik texnologiyaning o'zi nima?

«**Texnologiya**» tushunchasi texnikaviy taraqqiyot bilan bog'liq bo'lgan holda fanga 1872 yili kirib keldi. U yunoncha ikki so'zdan «**texnos**» (**techne**) – **san'at va** «**logos**» (**logos**) – **fan** so'zlaridan tashkil topigan bo'lib, mahorat, hunar fani degan ma'noni anglatadi.

Pedagogik texnologiya sohasida AQShning mashhur olimlari: B.Blum, D.Kratval, M.Trondund, D.Kerrol, Dj. Blok, L.Endersson, R.Gens, L. Brig kabi olimlar tadqiqot ishlarini olib borganlar. Ular tomonidan ishlab chiqilgan pedagogik texnologiyalar 1966 yilda YuNESKO Xalqaro Konferensiyasida soha uchun asos sifatida qabul qilindi.

Shuningdek, bu sohada MDH olimlari: V.P. Bespalko, M.V.Klarin, G.K. Selevko, V.P.Monaxov, M.A. Choshanov, J.G'.Yo'ldoshev, B.L. Farberman, R. Musina, N.S. Sayidahmedov va boshqalar ham tadqiqot ishlarini olib bormoqdalar.

Biz quyida taklif etayotgan pedagogik texnologiyalar ushbu olimlar tomonidan ishlab chiqilgan va o'qitish tizimiga joriy etilmoqda.

Texnologik jarayon har doim zaruriy vositalar va sharoitlardan foydalangan holda maqsadli harakatlarning muayyan ketma-ketlikda bajarilishini ko'zda tutadi. Pedagog olim V.P.Bespalko pedagogik tizim – pedagogik texnologiyaning asosi ekanligini e'tirof etgan holda uning quyidagi unsurlardan iborat ekanini ta'kidlaydi:

- 1) o'quvchi;
- 2) ta'lim - tarbiyaning maqsadi;
- 3) ta'lim - tarbiyaning mazmuni;
- 4) o'quv jarayoni;
- 5) o'qituvchi, texnik vositalar;
- 6) ta'lim - tarbiyaning tashkiliy shakllari¹.

Bizga yaxshi ma'lumki, tarbiya jarayoni uzoq muddatli, murakkab, uzluksiz ravishda bo'lib, u o'ziga xos xususiyatlarga ega. Garchi zamonaviy ta'lim texnologiyasi o'qituvchining ta'lim jarayonidagi yetakchilik rolini ko'zda tutgan bo'lsa-da, tarbiya jarayonida tarbiyalanuvchi asosiy mavqeni egallay olmaydi. Chunki unda xarakter yetarlicha shakllanmagan bo'lib, u bu borada tarbiyachining yordamiga ehtiyoj sezadi. Shu bois tarbiya texnologiyasi ham mantiqiy, ham tarkibiy jihatdan ta'lim texnologiyasidan farq qiladi. Shunga qaramasdan hech qachon «Ta'limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta'limdan ajratib bo'lmaydi – bu sharqona qarash, sharqona hayot falsafasidir»¹.

¹ Беспалько В.П. Слагаемые педагогической технологии. М.: Педагогика, 1989. с. 6-7.

¹ Каримов И.А. Юксак маънавият - енгилмас куч. Т.: «Манавият». 2008, - 62 б.

Tarbiya jarayonining mohiyati, qonuniyatlari hamda o'ziga xos jihatlari xususidagi mavjud nazariy va amaliy g'oyalarga, pedagogik bilimlarga tayanilgan holda tarbiya texnologiyasining tarkibiy qismlari quyidagicha belgilangan:

- 1) tarbiya jarayonining umumiy loyihasi;
- 2) tarbiyani tashkil etishga bo'lgan ijtimoiy ehtiyoj (rag'bat);
- 3) tarbiya maqsadi;
- 4) tarbiya mazmuni (shakl, metod, usul va texnik vositalar);
- 5) o'qituvchi, (tarbiyachi) faoliyati;
- 6) o'quvchi (tarbiyalanuvchi) faoliyati;
- 7) tarbiya samarasi (natija)².

Biz, talabalarga «Tarixiy o'lkashunoslik va turizm» fanini o'qitishda va mustaqil ishlashni tashkil etishda quyidagi zamonaviy pedagogik texnologiyalarni tavsiya etishni lozim topdik:

Sinkveyn (axborotni yig'ish) uslubi

O'qituvchilarni mashg'ulotning indentifikatsiyalanuvchi o'quv maqsadlarini tuzishga o'rgatish tajribasi shuni ko'rsatdiki, ko'p yillar davomida o'quv maqsadlarini faqat o'qituvchi faoliyati orqali ifodalanib kelishi miyaga qattiq o'mashib qolgan. Buning natijasida, yaxshi natijalarni o'quvchilar mustaqil ishlari orqali ifodalashda ma'lum kamchiliklar sodir bo'lmoqda. Bunday holda indentifikatsiyalanuvchi o'quv maqsadlari tushunchasini anglash doirasida sinkveyn¹ (sinkveyn – fransuz tilidan olingan bo'lib, “besh” degan ma'noni anglatadi) uslubini qo'llash foydalidir.

Sinkveyn besh qatordan iborat o'ziga xos, qofiyasiz she'r bo'lib, unda mustaqil yoki o'qituvchining yordami bilan o'rganilayotgan tushuncha (hodisa, voqea, mavzu) to'g'risidagi axborot yig'ilgan holda o'quvchi so'zi bilan turli variantlarda va turli nuqtai nazar orqali ifodalanadi.

Sinkveyn tuzish – murakkab g'oya, sezgi va hissiyotlarni bir necha so'zlar bilan ifodalash uchun muhim bo'lgan malakadir. Sinkveyn tuzish jarayoni mavzuni yaxshi anglashga yordam beradi.

Sinkveyn tuzish qoidasi:

1. Birinchi qatorda mavzu (topshiriq) bir so'z bilan ifodalanadi (odatda ot turkumiga oid so'z bilan).
2. Ikkinchi qatorda mavzu ikkita sifat bilan ifodalanadi.
3. Uchinchi qatorda mavzu doirasidagi hatti - harakatlar uchta so'z bilan ifodalanadi.
4. To'rtinchi qatorda mavzuga nisbatan munosabatni anglatuvchi va to'rtta so'zdan iborat bo'lgan fikr yoziladi.
5. Oxirgi qatorda mavzu mohiyatini takrorlaydigan, ma'nosi unga yaqin bo'lgan bitta so'z yoziladi.

² Толипов Ў., Усмоновва М. Педагогик технологиялар назария ва амалиёт. Т.: 2005. - 22 б.

¹ Фарберман Б.Л., Мусина Р.Г., Жумабаева Ф.А. Олий ўқув юрларида ўқитишнинг замонавий усуллари.- Т.: 2002, - 146 бет.

Misol uchun:

- 1 _____ toshshiriq.
- 2 _____ bir ma'voli o'lchanuvchi
- 3 _____ yakuniy natijani ifodalaydi.
- 4 _____ o'quvchi maqsadini tushunishni osonlashtiradi.
- 5 _____ natija.

Demak, quyidagicha **sinkveyn** tuzish mumkin:

1. Tarix.
2. Moziy, o'tmish.
3. Tarixiy - xotirasiz kelajak yo'q
4. O'tmishini bilmagan xalqning kelajagi bo'lmaydi.
5. Tarix – o'zlikni anglashdir.

Yoki,

1. Muzey
2. Muzey eksponatlar maskani
3. Muzeylar tarix ko'zgusi
4. O'zligini anglamagan xalq o'zga xalqlar qadriini bilmas.
5. Muzey - o'zlikni anglash vositalaridan biri.

Tuzilgan sinkveynni baholar ekanmiz, tuzuvchi bu jarayonda ikkinchi qatorga o'quvchi vazifasining eng muhim xossalarini anglatuvchi bir juft sifati o'ylab topishi zarur, degan mulohaza qilish mumkin. Buni -javobning bir necha xil variantlarini o'ylab topib, so'ngra ulardan eng muvofiq'ini ajratib olish bilangina uddalash mumkin. Xuddi shuningdek, boshqa qatorlarga yoziladigan so'zlar ham jadallik bilan fikrlash natijasida izlab topiladi - bu esa "mustaqil ish" tushunchasini puxta anglashga olib keladi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, **sinkveyn** mavzuga oid tayanch tushunchalar asosida tuziladi. **Sinkveyn (axborotni yig'ish) uslubi** ni mavzuning boshida – uyga vazifani takrorlashda yoki o'tilgan mavzuni mustahkamlashda qo'llanilsa kutilgan natijani beradi.

Klaster ("axborotni yoyish") uslubi

Klasterga ajratish pedagogik strategiya bo'lib, u ko'p variantli fikrlashni, o'rganilayotgan tushuncha (hodisa, voqea)lar o'rtasida aloqa o'rnatish malakalarini rivojlantiradi, biror mavzu bo'yicha o'quvchilarning erkin, ochiq fikrlashiga yordam beradi¹. "Klaster" so'zi "g'uncha", "bog'lam" ma'nosini anglatadi. Klasterdagi ajratishni da'vat, anglash va mulohaza qilish bosqichlaridagi fikrlashni rag'batlantirish uchun qo'llash mumkin. U asosan yangi fikrlarni uyg'otish, mavjud bilimlarga yetib borish strategiyasi bo'lib, muayyan mavzu bo'yicha yangicha fikr yuritishga chorlaydi.

Biror mavzu bo'yicha klasterlar tuzishda bu mavzuni mukammal o'rganmasdan oldin foydalanish maqsadga muvofiq emas.

¹ Стил ва стил гоясига мувофиқ ишлаб чиқилган.

Klaster tuzish ketma-ketligi

1. Sinf yozuv taxtasi o'rtasiga yoki katta qog'oz varag'iga "kalit" suz yoki gap yozing.
2. Sizning fikringizcha, bu mavzuga tegishli bo'lgan so'zlar yoki gaplarni yozing.
3. Tushuncha va g'oyalar o'rtasida o'zaro bog'lanish o'rnatib.
4. Eslagan variantlaringizning hammasini yozing.

Klaster tuzishda guruhdagi barcha o'quvchilarning ishtirok etishi, shu guruh uchun g'oyalar o'zagi bo'lib xizmat qiladi.

"Mustaqil ish bo'yicha" klaster tarkibi

- * o'qishdan kutilgan natija
- * Sezish mumkin bo'lgan o'qish harakat
- * bilim orqali ifodalanadi
- * yakuniy xulq
- * tahlil
- * indentifikatsiyalanuvchi o'quv
- * nazoratda baholanadigan bilim maqsadi
- * o'qish samarasining oshib borishi
- * o'lchash mumkin bo'lgan natija
- * tushunish
- * sintez
- * kuzatiladigan xulq
- * baholash
- * aniq fe'l bilan ifodalanadigan
- * faqat bir natijadan iborat harakat
- * maqsadga erishish mezonlari
- * noaniq fe'l bilan ifodalanadigan
- * o'quvchi rivojlanishidagi muayyan harakat siljish
- * qo'llash
- * o'quvchi dars avvalida uddalay olmagan narsa
- * bir xil natija

Klaster tuzishni muayyan tushuncha yoki g'oyani "anglash" asosida qo'llash maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunda o'quvchi o'quv materialini nafaqat mustaqil va faol o'zlashtirishi, balki o'z tushunchalarini ham kuzatib borishi zarur bo'ladi. Asosiy tushuncha va holat (munosabat)larning klaster tartibi o'rtasida mumkin bo'lgan bog'lanishlarni aniqlash variativ fikr yuritishni rivojlantiradi. O'qituvchi qo'yilgan masala "atrofiga" turlicha nazar bilan qarashga, mulohaza yuritishga tashlashga majbur etadi.

Misol tariqasida oladigan bo'lsak, nima uchun biz O'zbekiston tarixi fanidan Turkistonda milliy - ozodlik harakatlari tarixini o'qitishda va bu borada mustaqil ishlarni tashkil etishda mavzuga oid tayanch tushunchalar ustida ishlashga katta e'tibor qaratmoqdamiz? Chunki har bir mavzuni tushunishda tayanch tushunchalarni bilish katta ahamiyat kasb etadi. Biz milliy - ozodlik harakatlari, xalq qo'zg'olonlari haqida gapirar ekanmiz, bevosita harakat nima?, nima uchun milliy – ozodlik harakati deyiladi?, nega qo'zg'olon deymiz? kabi mavzu mohiyatini ochilishga xizmat qiladigan tayanch tushunchalarning mazmunini tushuntirmasak, o'quvchilarga tayanch tushunchalar haqida gapirmasak, mavzuning mazmun-mohiyatini ochib bera olmaymiz.

Klaster tuzish "aqliy hujum" pedagogik texnologiyasi uchun yaxshigina misol bo'lishini aytib o'tish lozim.

Aqliy hujum

Aqliy hujum uslubi universal tarzda qo'llanish jihatlari ega¹. "Aqliy hujum" ning vazifasi kichik guruhlar yordamida yangi – yangi g'oyalarni yaratishdir (kichik guruhning yaxlitlikdagi kuchi, uning alohida a'zolarining kuchlari yig'indisidan ko'p bo'ladi). "Aqliy hujum" ning o'ziga xos xususiyati qo'yilgan muammoni hal qilayotgan kishilarni ko'proq aql bovar qilmaydigan va hatto fantastik g'oyalarni yaratishga undaydi. G'oyalar qancha ko'p bo'lsa, ularning hech bo'lmaganda bittasi ayni muddao bo'lishi mumkin. Bu esa "aqliy hujum" negizidagi muhim tamoyildir.

"Aqliy hujum" qoidalar:

- fikr hech qanday cheklanmagan holda aytilishi lozim;
- har qanday g'oyani aytish mumkin;
- g'oyalarga tushuntirish berilmaydi, u vazifaga bevosita bog'liq holda aytiladi;
- takliflar berish to'xtatilmaguncha, aytilgan g'oyalarni tanqid yoki muhokama qilishga yo'l qo'yilmaydi;
- barcha aytilgan takliflar yozib boriladi.

"Aqliy hujum" to'xtatilgandan so'ng barcha aytilgan g'oyalar muhokama qilinib, eng maqbuli tanlanadi.

Aqliy hujumni o'quv jarayonida: ma'ruzalarda - yakka yoki juftlik darsida, amaliy mashg'ulotlarda esa 4-7 kishidan iborat kichik guruhlarda, shuningdek, guruh bo'yicha ham o'tkazish mumkin. "Aqliy hujum" mashg'ulotlarda o'quvchilar faolligini oshirishga, charchoq holatni yo'qotishga, muhim g'oyalarni izlashga sharoit yaratadi.

Birgalikda o'qish texnologiyasi

Bir o'qituvchi bitta o'quvchini o'qitsa, uning o'zlashtirish darajasi eng yuqori bo'ladi, degan fikr uzoq vaqt hukm surib keldi. Hozirgi davrda esa, yuqorida ta'kidlanganidek, kichik guruhlarda (4 – 7 kishi) o'qitish yaxshi samara berishi isbotlandi: bunda o'quvchilarning "bir-birini o'qitish" vaziyati vujudga keladi.

¹ Бу услуб А.Ф.Осборн томонидан тавсия этилган.

Birgalikda o'qishga o'quvchilar juft bo'lib yoki kichik guruhlarga bo'linib: bir xil muammoni hal qilishda, bitta mavzuni o'rganishda yoki guruh kuchi bilan bir xil g'oyani olg'a surishda, hatti-harakatning uyg'unlashgan birkmasini yoki uning maqsadini belgilashda namoyon bo'ladi.

J.Richardson (1966 y.) ta'kidlaganidek, birgalikda o'qishdagi o'quv muhitining asosiy belgilari quyidagilardan iborat:

- * o'zaro ijobiy aloqadorlik
- * ijtimoiy malakalarni bevosita egallash
- * yakka tartibdagi hisobot
- * guruhning turli jinsli kishilardan iboratligi
- * o'qituvchining kuzatuvchi va aralashuvchi bo'lishi
- * boshqarishdagi erkinlik
- * hamjihatlikda samarali ishlash

Jonson va Jonsonlar (1989 y.) ta'kidlaganidek, o'quvchilarni birgalikda o'qish vaziyatiga qo'yib, biz quyidagilarga erishamiz:

- o'qitishning yuqoriroq ko'rsatkichiga;
- aksariyat hollarda yuqori darajada fikrlashga, mavzuning mustaqil ravishda puxta o'zlashtirilishiga;
- o'qishdan yuqori natijani olish va o'qishda jo'shqin ruhini shakllantirish uchun o'zini tayyorlashga;
- vaziyatni ko'proq boshqalar nuqtai nazaridan tahlil qila olishga;
- guruhdagi o'rtog'larining o'zaro yordamidan foydalangan holda kelib chiqishi, millati, jinsi, qobiliyati, ijtimoiy mansubligi va jismoniy kamchiliklariga qaramay, ularga ijobiy munosabatda bo'lishga;
- ijtimoiy faollik va bilimdonlikka.

Ijodiy o'zaro bog'liqlik, hamkorlikni bevosita qo'llab-quvvatlanishi, mustaqil ravishda hisobot berish, o'zaro va kichik guruhlarda muloqot qilish malaka – ko'nikmalarini hosil qilish bu tarzda o'qitishning asosiy qismlarini tashkil etadi.

Birgalikda o'qitish uslubi pedagogik texnologiyada, xususan o'quvchilarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega.

Munozara o'tkazish texnikasi

Ko'p hollarda seminar mashg'ulotlari orada o'qituvchi monologlari bilan bo'linadigan navbatdagi o'quvchilar monologlari shaklida o'tadi, qolgan o'quvchilar esa shu paytda zenikib o'tiradilar. Munozarani qanday tashkil etish va monologlardan qanday qochish mumkin? O'quvchilar o'zlaridan, ularning bilimiga bo'lgan ishtiyoqidan kelib chiqilgan mavzuda yoki shunday yo'nalishdagi munozaralar eng yaxshi tarzda o'tadi.

J.T. Dillon (1988 y.) munozarali mashg'ulotlarda o'quvchilar o'rtasidagi tortishuvning 4 ta usulini aniqlab izohlagan:

1. **Tasdiqlash.** Bu - aytilgan fikrlardan ta'sirlanib, uni tushunganlik yoki tushuna olmaganlikni tasdiqlash usuli. Tasdiqlovchi fikrlar savollarga nisbatan jarangsizroq

ifodalanadi, shuning uchun ko'p hollarda javobni erkin aytishga undaydi. Masalan: "Mening tushunishimcha siz aytmoqchisizki, _____", yoki «Bu menga oldin aytilgan _____ ni eslatdi», yoki "To'xtang - chi, siz _____ ni tasdiqlamoqchimisiz, lekin Doniyor hozirgina _____ degan edi "- kabi fikrlarni aytishingiz mumkin.

2. **Savollar.** O'quvchilar o'qituvchi savolidan ko'ra ko'proq o'zlarining savollarini ishtiyoq bilan muhokama qiladilar. Shuning uchun ularni ko'proq savol berishga undash kerak.

3. **Signallar.** O'qituvchining izohi ko'pincha haddan tashqari ahamiyatli bo'ladi, yaxshisi munozarani ovoz chiqarmasdan, imo-ishora, signallar orqali boshqarish kerak. Pedagogning yuzida tushunmaslik alomatlarini paydo bo'lishi, o'quvchilar uchun: "tushuntirish talab qilinadi", degan signaldir. Qo'llarning go'yo ikki narsani tortayotgandek holatda bo'lishi o'quvchilar uchun: "aytilgan ikki g'oyani taqqoslab, ularning qaysi biri to'g'ri ekanligini tasdiqlang" ishorasini beradi.

Xushmuomalalik va qiziquvchanlik ifodasi esa o'z fikrini ifodalovchi so'z topishga qiynalib turgan o'quvchini yanada ilhomlantiradi.

4. **Sukut saqlash.** Savol berilgandan so'ng, uni o'ylashga vaqt berish kerak. Uch, to'rt, besh soniya sukut saqlash, vujudga kelgan to'xtamni to'ldiruvchi eng muhim kuchdir. Agar, o'qituvchi sifatida uni siz to'ldirmasangiz, ixtiyoriy to'ldiruvchilarning topilishi turgan gap.

O'quvchilar xatolariga ta'sir ko'rsatish munozara dibi boruvchi uchun juda ahamiyatlidir. Qanday bo'lishidan (ma'qullash yoki ma'qullamaslik) qat'i nazar, unga munosabat bildirishga shoshilmaslik munozara yuritishning qat'iy qoidasi hisoblanadi. Shu bilan birga, pedagog fikrining mantiqsizligiga yaqqol qarama-qarshi, asossiz fikrlarning aytilishiga ham yo'l qo'ymasligi zarur. Odobli luqma (savollar berish) bilan fikrlarning asosini, aytilganlarning to'g'riligini, qo'llab-quvvatlangan fikrning to'g'riligini oydinlashtirib, ularda aytilgan g'oyaning mantiqiy oqibati to'g'risida fikrlashga qiziqish uyg'otish zarur.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, yuqorida taklif etilgan pedagogik texnologiyalar, o'quvchilarni mustaqil ishlashiga, hamda o'z ustida ijodiy izlanishlariga zamin yaratadi va dars samaradorligini oshuviga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Asqarov A. O'zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi. T.: "Universitet", 2007 yil
2. Asqarov A. "O'zbekiston tarixi". T., "O'qituvchi" 1994 yil
3. Askarov A.A. Drevnezemledelcheskaya kultura epoxi bronzi yuga Uzbekistana. T.: 1983
4. Askarov A. A.Sapallitepa. T.: "Fan", 1973
5. Alimova D., Filanovich M. Toshkent tarixi. T.: 2007 yil
6. Ashirov A., Atadjanov Sh. Etnologiya. T.: 2008 yil
7. Ahmedov B. Tarixdan saboqlar. T.: 1994 yil
8. Ahmedov E. "O'zbekiston shaharlari mustaqillik yillarida". T., "Abu Ali ibn Sino", 2002 yil
9. Balabanov I.T. , Balabanov A.I. Ekonomika turizma. M. Finansy i statistika, 2000
10. Begmatov E. "Joy nomlari – ma'naviyat ko'zgusi". T., "Ma'naviyat", 1998 yil
- 11.Bo'riyev O. "Temuriylar davri yozma manbaalarida Markaziy Osiyo". T., "O'zbekiston", 1997 yil
- 12.
13. Hoji Ismatulloh Abdulloh. "Markaziy Osiyoda islom madaniyati". T., "Sharq", 2005 yil
14. Qoraev S. "O'zbekiston viloyatlari toponimlari". T., "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi", 2005 yil
15. Nafasov T. "O'zbekiston toponimlarining izohli lug'ati (O'zbekistonning janubiy tumanlari)". T., "O'qituvchi", 1988 yil
16. Nabiyev A., Bo'riev O., Shoymardonov I. "O'zbekiston tarixini o'qitishda etnografik materiallardan foydalanish". T., "O'qituvchi", 1996 yil
17. Zohidov P.Sh. "Me'mor san'ati". T., "G'afur G'ulom", 1978 yil
18. Zohidov P.Sh. "Me'mor olami". T., "Qomuslar bosh tahririyati", 1996 yil
- 19.Inomov I. "O'zbekistonning yangi shaharlari". T., "Mehnat", 1991 yil
- 20.Ismoilova J. "XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Toshkentning "Yangi shahar" qismi tarixi". T., "Fan va texnologiya", 2004 yil
- 21.Oxunov N. "Joy nomlari ta'biri". T., "O'zbekiston", 1994 yil
- 22.Bo'riyev O. "Temuriylar davri yozma manbaalarida Markaziy Osiyo". T., "O'zbekiston", 1997 yil
- 23.Saidqulov T.S. "O'rta Osiyo xalqlari tarixining tarixshunosligidan lavhalar" (1-qism). T., "O'qituvchi", 1993 yil
- 24.Sagdullayev A. "Qadimgi O'rta Osiyo tarixi". T., "Universitet", 2004 yil
- 25.Sagdullayev A. Qadimgi O'zbekiston ilk yozma manbalarda. T.: 1996 yil.
26. Nabiyev A.Tarixiy o'lkashunoslik. T.: "O'qituvchi". 1996.
27. O'zbekistonning yangi tarixi. 1-2 – 3 qismlar. T.: "Sharq". 2000 yil.
28. Tuxliyev N., Taksanov A., Ekonomika bolshogo turizma. T.: "Ensiklopediya". 2001
29. Ro'ziyev S.S.O'zbekistonda madaniy turizm. "Iqtisod va ta'lim" jurnali, 2004 yil, 2-son.


30. Buxoriy Sadridin Salim. "Tabarruk ziyoratgohlar". T., "Yozuvchi", 1993 yil
31. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T: "O'zbekiston". 1997 y.
32. Kamalova D.M. "O'zbekskaya xudojestvennaya kultura". T., "Ibn Sino", 1995 yil.
33. To'xliyev N., Taksanov A. "Ekonomika bolshogo turizma". T., "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi", 2001
34. "Temur va Ulug'bek davri tarixi". T., "Qomuslar bosh tahririyati", 1996 yil
35. Nabizoda Muhammadhoshim. "Ismlarimiz xosiyati". T., "G'afur G'ulom", 2003 yil
36. Pugachenkova G.A., Rempel L.I. "Ocherki iskusstva Sredney Azii". M., "Iskusstvo", 1982 yil
37. Puzakova Ye.P. Mejdunarodniy turisticheskiy biznes. M. Izdatelstvo «PRIOR», 2001
38. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi". 1-, 10-, 12- sonlar, T., "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi", 2006 yil.
39. "Amir Temur jahon tarixida". T., "Sharq", 2001 yil
40. Jabborov Iso. "O'zbeklar: turmush tarzi va madaniyati". T., "O'qituvchi", 2003 yil
41. Jabborov Iso, "O'zbek xalqi etnografiyasi". T., "O'qituvchi", 1994 yil
42. O'ljayeva Sh. "Muzeysunoslik". T., "Universitet", 2002 yil
43. Rahimov J. "O'zbekiston tarixini o'rganishda arxiv manbalaridan foydalanish". T., 1995 yil
44. "Xiva ming gumbaz shahri". T., "Sharq", 1997 yil
45. "Shahrisabz ming yillar merosi" T., 2002 yil
46. Choriyev Z., Shaydullaev Sh., Annaev T. O'zbekiston hududida yozuvning paydo bo'lishi. T.: 2007 yil.
47. O'zbekiston – gullagan diyor. T., "Sharq", 2010 yil.
48. Aktualnie problemi turizma – 2010. Yejegodniy sbornik nauchnix trudov, Vip.2. T., «O'zbekturizm» milliy kompaniyasi, 2010.
49. Dyakonov I.M. Lyudi goroda Ura. M.: 1990.
50. Rtveladze E.V. Razvedochnoyi izuchenie pamyatnikov na yuge Uzbekistana. Drevnyaya Baktriya. L.: 1974

Internet saytlari


51. www.peugeotufa.ru. <[http:// www.peugeotufa.ru](http://www.peugeotufa.ru)> - seni uslug
52. www.bashepo.ru – vystavki, konferensii
53. www.interunion.ru <[http:// www.interunion.ru](http://www.interunion.ru)> - turistkie assotsiatsii.



Qadimgi tosh davri quollari.



Qo'qon arava (XIX asr).



O'zbekiston mehmonxonasi. Toshkent shahri.

MUNDARIJA

Kirish	3
I BOB.	Tarixiy o‘lkashunoslik va turizmning rivojlanishi, asosiy manbalari va yozuvlar tarixi	
1-mavzu:	“Tarixiy o‘lkashunoslik va turizm” fanining predmeti, rivojlanish bosqichlari.....	7
2-mavzu:	O‘lkashunoslik va turizmning asosiy manbalari. Arxeolog va o‘lkashunoslar faoliyati.....	17
3-mavzu:	Mamlakatimizda o‘lka tarixining o‘rganilishi.....	34
4-mavzu:	Yozuvlar tarixi.....	48
II BOB.	O‘zbekistonda turizmning rivojlanishi	
5-mavzu:	Turizmning shakllanish omillari va manbalari	63
6-mavzu:	O‘zbekiston va xalqaro turizm.....	76
III BOB	Tarixiy o‘lkashunoslik va turizm taraqqiyotida etnografiya, toponimika, arxivlar va muzeyshunoslikning roli	
7-mavzu:	O‘lkashunoslik va turizmga etnografiyaning ahamiyati	89
8-mavzu:	O‘lkashunoslik va turizmning asosiy manbalaridan biri – toponomika.....	109
9-mavzu:	O‘zbekiston viloyatlarining tarixiy-madaniy yodgorliklari.....	134
10-mavzu:	O‘lka tarixi va turizmini o‘rganishda arxivlarning o‘rni.....	148
11-mavzu:	O‘lka tarixi va turizmini o‘rganishda muzey eksponatlari va o‘lkashunoslik to‘garaklari.....	156
	Mustaqil ish mavzulari.....	165
	Test savollaridar namunalar.....	166
	Xulosa.....	172
	Ilova.....	174
	Adabiyotlar ro‘yxati.....	188

**MAMARAJAB XO‘JAMOV, MOYLI LAFASOV,
RA‘NO MULLADJANOVA**

TARIXIY O‘LKASHUNOSLIK VA TURIZM

O‘quv qo‘llanma

QAYTA NASHR

Toshkent - "Innovatsiya-Ziyo" - 2021

Muharrir: Xolsaidov F. B.

*Nashriyot litsenziyasi AI №023, 27.10.2018.
Bosishga 15.12.2021. da ruxsat etildi. Bichimi 60x84.
"Times New Roman" garniturasini.
Ofset bosma usulida bosildi.*

*Shartli bosma tabog‘i 14. Nashr bosma tabog‘i 13,5.
Adadi 100 nusxa.*

*"Innovatsiya-Ziyo" MCHJ matbaa bo‘limida chop etildi.
Manzil: Toshkent shahri, Farhod ko‘chasi, 6-a uy.*



+99893 552-11-21

Muallif va nashriyot roziligisiz chop etish ta‘qiqlanadi.